



ISSN: 2181-9416

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

“YURIST AXBOROTNOMASI”

huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy jurnali

№6 (2025)

DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-6>

Bosh muharrir:

**KANYAZOV YESEMURAT
SULTAMURATOVICH**

O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi huzuridagi
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti direktori,
yuridik fanlar nomzodi

Bosh muharrir o'rinbosari:

**MAXMUDOV FIRUZ
BAXTIYOR O'G'LI**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti direktorining
ilmiy ishlar va xalqaro hamkorlik bo'yicha
o'rinbosari, yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

XURSANOV RUSTAM XOLMURATOVICH

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti direktorining
o'quv ishlari bo'yicha birinchi o'rinbosari,
yuridik fanlari doktori (DSc), dotsent

BAYMOLDINA ZAURESH XAMITOVNA

Qozog'iston Respublikasi
Oliy Sudi Akademiyasi rektori,
yuridik fanlari nomzodi

ZDROK OKSANA NIKOLAYEVNA

Belorus davlat universiteti sudyalalar hamda sud,
prokuratura va adliya muassasalari xodimlarini
qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish
instituti direktori

OQYULOV OMONBAY

Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlar doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist

MAMASIDDIQOV MUZAFFARJON MUSAJONOVICH

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi
Akademiyasi boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor

TASHKULOV DJURABAY

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi
Davlat va huquq instituti tarixiy-nazariy, davlat-huquqiy
va konstitutsiyaviy huquqiy fanlar bo'limi boshlig'i,
yuridik fanlar doktori, professor

SALAYEV NODIRBEK SAPARBAYEVICH

Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlar doktori

FAZILOV FARXOD MARATOVICH

Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b.,
yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent

RAXIMOV DANIYAR BAXTIYAROVICH

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti professori v.b.,
yuridik fanlar doktori (DSc)

G'AFUROVA NOZIMAXON ELDAROVNA

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti professori v.b., yuridik fanlar
doktori (DSc), dotsent

SHAKUROV RAFIK RAVILYEVICH

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti dotsenti, yuridik fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

RAXMONOV ZAFARJON ZAYNIDDINOVICH

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti Pedagoglar markazi mudiri,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

YUSUPOVA FARINGIZ O'KTAM QIZI

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti dotsenti v.b., yuridik fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mas'ul kotib:

YUNUSOVA NIGORA KAMILOVNA

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti nashrlari katta mutaxassisi

Tahririyat bilan bog'lanish:

100072, Toshkent shahri, Mirobod tumani,
Hamal ko'chasi, 29-v uy
Web: yuristjournal.uz
E-mail: yuristjournal@adliya.uz
Telefon: (+99871) 234-55-92

Общественно-правовой и научно-практический журнал “ВЕСТНИК ЮРИСТА”

№6 (2025)

DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-6>

Главный редактор:

**КАНЬЯЗОВ ЕСЕМУРАТ
СУЛТАМУРАТОВИЧ**

Директор института переподготовки и
повышения квалификации юридических
кадров при Министерстве юстиции Республики
Узбекистан, кандидат юридических наук

Заместитель главного редактора:

МАХМУДОВ ФИРУЗ

Заместитель директора по научной работе и
международному сотрудничеству Института
переподготовки и повышения квалификации
юридических кадров при Министерстве юстиции
Республики Узбекистан, доктор юридических
наук (DSc), доцент

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

ХУРСАНОВ РУСТАМ ХОЛМУРАТОВИЧ

Первый заместитель директора по учебной работе Института
переподготовки и повышения квалификации юридических
кадров, доктор юридических наук (DSc), доцент

БАЙМОЛДИНА ЗАУРЕШ ХАМИТОВНА

Ректор Академии правосудия при Верховном Суде
Республики Казахстан, кандидат юридических наук

ЗДРОК ОКСАНА НИКОЛАЕВНА

Директор Института переподготовки и повышения
квалификации судей, работников прокуратуры, судов
и учреждений юстиции Белорусского государственного
университета

ОКЮЛОВ ОМОНБАЙ

Профессор Ташкентского государственного юридического
университета, доктор юридических наук, профессор,
заслуженный юрист Республики Узбекистан

МАМАСИДДИКОВ МУЗАФФАРЖОН МУСАЖОНОВИЧ

Начальник Академии Министерства по чрезвычайным
ситуациям Республики Узбекистан, доктор юридических наук,
профессор

ТАШКУЛОВ ДЖУРАБАЙ

Заведующий отдела историко теоретических,
государственно-правовых и конституционно правовых наук
Института государства и права Академии Наук Республики
Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

НОДИРБЕК САЛАЕВ САПАРБАЕВИЧ

Профессор Ташкентского государственного
юридического университета, доктор юридических наук

ФАЗИЛОВ ФАРХОД МАРАТОВИЧ

И.о. профессора Ташкентского государственного
юридического университета,
доктор юридических наук (DSc), доцент

РАХИМОВ ДАНИЯР БАХТИЯРОВИЧ

И. о. профессора Института переподготовки
и повышения квалификации юридических кадров,
доктор юридических наук (DSc)

ГАФУРОВА НОЗИМАХОН ЭЛЬДАРОВНА

И.О. профессора Института переподготовки
и повышения квалификации юридических кадров,
доктор юридических наук (DSc), доцент

ШАКУРОВ РАФИК РАВИЛЕВИЧ

Доцент Института переподготовки и
повышения квалификации юридических кадров,
кандидат юридических наук, доцент

РАХМОНОВ ЗАФАРЖОН ЗАЙНИДДИНОВИЧ

Заведующий Центром педагогов Института переподготовки
и повышения квалификации юридических кадров, доктор
философии по юридическим наукам (PhD)

ЮСУПОВА ФАРИНГИЗ УКТАМОВНА

И.О. доцента Института переподготовки и
повышения квалификации юридических кадров,
доктор философии по юридическим наукам (PhD)

Ответственный секретарь:

ЮНУСОВА НИГОРА КАМИЛОВНА

Старший специалист по издательской деятельности
Института переподготовки и повышения квалификации
юридических кадров

Контакт редакции журнала:

100072, город Ташкент, Мирабадский район,
улица Хамал, 29-в.
Web: yuristjournal.uz
E-mail: yuristjournal@adliya.uz
Телефон: (+99871) 234-55-92

Public, legal and scientific-practical journal of
“LAWYER HERALD”

№6 (2025)

DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-6>

Chief Editor:

YESEMURAT KANYAZOV

Director of the Training Institute for
Lawyers under the ministry
of Justice of the Republic of Uzbekistan,
Candidate of Legal Sciences

Deputy Chief Editor:

FIRUZ MAKHMUDOV

Deputy Director for Research and
International Cooperation of the Training Institute
for Lawyers under the Ministry of Justice
of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Law (DSc), Associate Professor

EDITORIAL BOARD:

RUSTAM KHURSANOV

First Deputy Director for Academic
Affairs at the Institute for Training
Institute for Lawyers

BAYMOLDINA ZAURESH

Rector of the Academy of Justice
at the Supreme Court of the Republic
of Kazakhstan, Candidate of Legal Sciences

OKSANA ZDROK

Director of the Institute for Retraining and
Qualification Upgrading of Judges,
Prosecutors and Legal professionals
at the Belarusian State University

OMONBAY OKYULOV

Professor of the Tashkent State University
of Law, professor, Honored Lawyer
of the Republic of Uzbekistan

MUZAFFARJON MAMASIDDIKOV

Head of the Academy of the Ministry of Emergency
Situations of the Republic of Uzbekistan, Doctor of
Juridical Sciences Law, Professor

DJURABAY TASHKULOV

Head of the department of Historical-Theoretical,
State-Legal and Constitutional-Legal Sciences
of the Institute of State and Law of the Academy
of Sciences of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Law, Professor

NODIRBEK SALAEV

Professor of the Tashkent State University of Law,
Doctor of Law

FAZILOV FARXOD

Professor of the Tashkent State University of Law,
Doctor of Law (DSc), Associate professor

DANIYAR RAKHIMOV

Professor of the Training Institute for Lawyers,
Doctor of Law (DSc)

GAFUROVA NOZIMAXON

Professor of the Training Institute for Lawyers under the
Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan, Doctor
of Law (DSc), Associate professor

RAFIK SHAKUROV

Associate Professor at the Training Institute
for Lawyers, Candidate of Legal Sciences,
Associate professor

ZAFARJON RAKHMANOV

Head of the Pedagogical Center of the Training Institute
for Lawyers, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

FARINGIZ YUSUPOVA

Associate Professor at the Training Institute for Lawyers,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Executive Editor:

NIGORA YUNUSOVA

Senior Publications Specialist
Training Institute for Lawyers

Contact the Editorial Office:

100072, Tashkent city, Mirabad district,
Hamal street, 29-v
Web: yuristjournal.uz
E-mail: yuristjournal@adliya.uz
Telefon: (+99871) 234-55-92

YURIST AXBOROTNOMASI

6-SON, 8-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 6, ВЫПУСК 8

LAWYER HERALD

VOLUME 8, ISSUE 6



MUNDARIJA

KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

XURSANOV Rustam Xolmurotovich

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYANI AMALGA OSHIRISH DOIRASIDA ADLIYA VAZIRLIGI TOMONIDAN
2023–2025 YILLARDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR: HUQUQIY VA AMALIY TAHLIL 8

FAYZIYEV Xayriddin Sirojiddinovich

YURIDIK XIZMAT FAOLIYATIDA HUQUQIY VOSITALARNING AHAMIYATI 19

RAXMONOV Zafarjon Zayniddinovich

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MA'MURIY SUDLAR FAOLIYATINING RIVOJLANISH TENDENSIYASI 25

MAMAZIYAYEV Xusniddin Dilshod o'g'li

HUDUDIIY ADLIYA ORGANLARI FAOLIYATINING NAZARIY VA TASHKILIIY-HUQUQIY ASOSLARI 32

FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

BABAKULOV Zafar Kurbonnazarovich

METAVERSDA TOVAR BELGISINING FUQAROLIK-HUQUQIY REJIMI (MAVJUD MASALA
VA UNING YECHIMIGA OID TAKLIFLAR) 41

YOQUBJONOV Ma'rufjon Odiljon o'g'li

KRIPTO-AKTIVLARNING HUQUQIY MAQOMI 50

ХИКМАТОВ Нема́т Джураевич

ПРОБЛЕМЫ ПРАВОВОГО РЕЖИМА ЦИФРОВЫХ ФИНАНСОВЫХ АКТИВОВ
КАК ОБЪЕКТА ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА 57

BEKNIYAZOVA Dinora Bayniyazovna

VASIYATNOMANI RASMIYLASHTIRISHNING YURIDIK MEZONLARI 67

КАМАЛОВА Гулноза Абдубаситовна

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ
КРУПНЫХ СДЕЛОК В ХОЗЯЙСТВЕННЫХ ОБЩЕСТВАХ УЗБЕКИСТАНА:
СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ ПО РЕФОРМИРОВАНИЮ 75

FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

ABDIHAKIMOV Samandar Salohiddin o'g'li

FUQAROLIK SUD ISHLARINI YURITISHDA SUD XATOSI TUSHUNCHASI VA UNING NAZARIY TAHLILI 85

TOLLIBAYEVA Malika Ulmasjon qizi

IQTISODIY PROTSESSDA ADVOKAT VAKILLIGINI TASDIQLASHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI 95

MEHNAT HUQUQI. IJTIMOIIY TA'MINOT HUQUQI

ABDUG'AFFOROV Jasur To'liqin o'g'li

JAMOA SHARTNOMASI – IJTIMOIIY SHERIKLIKNING ASOSIIY HUIJATI SIFATIDA 103

SUD HOKIMIYATI. PROKUROR NAZORATI. HUQUQNI MUHOFAZA QILISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

NASULLAYEV Mubin Nutfullayevich

SUDLAR FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH MASALALARI 112

JINOYAT HUQUQI, HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

OTAJONOV Abrorjon Anvarovich

TILANCHILIKKA QARSHI KURASHISHDA JINOIY JAVOBGARLIKNI DEKRIMINALIZATSIYA QILISH
VA TASHKIL QILISH UCHUN JAZO CHORALARINI KUCHAYTIRISH MUAMMOLARI 120

SHAKUROV Rafik Ravilevich

NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTI RAHBARLARINING JINOIY VA MA'MURIY JAVOBGARLIGI MASALALARI 128

BEKMURODOVA Umida Abdusamad qizi

JINOYAT HUQUQIDA EKSTRADITSIYA INSTITUTI 134

XALQARO HUQUQ VA INSON HUQUQLARI

XOLMIRZAYEVA Shoxista Arziqul qizi

GLOBAL MIGRATSIYA XAVFSIZLIGI: NOQONUNIY MIGRATSIYAGA QARSHI DAVLATLAR
HAMKORLIGINING HUQUQIY ASOSLARI 142

KORRUPSIYA MUAMMOLARI

ESHONQULOV Azimjon Azamatovich

AVTOTRANSPORT LOGISTIKA SOHASIDA MANFAATLAR TO'QNASHUVINI BOSHQARISH MASALALARI 152

XURSANOV Rustam Xolmurotovich

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish
instituti direktorining birinchi o'rinbosari,
yuridik fanlar doktori (DSc)
E-mail: hursanov.rustam75@gmail.com

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYANI AMALGA OSHIRISH DOIRASIDA ADLIYA VAZIRLIGI TOMONIDAN 2023–2025 YILLARDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR: HUQUQIY VA AMALIY TAHLIL

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): XURSANOV R.X. Yangi tahrirdagi konstitutsiyani amalga oshirish doirasida adliya vazirligi tomonidan 2023–2025 yillarda amalga oshirilgan ishlar: huquqiy va amaliy tahlil // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 6 (2025) B. 8–18.



6 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada 2023-yil 30-aprel kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririni amalga oshirish doirasida Adliya vazirligi tomonidan 2023–2025 yillar mobaynida bajarilgan ishlar huquqiy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, "Targ'ibot poyezdlari" tashabbusi, aholi o'rtasida konstitutsiyaviy islohotlarning mazmun-mohiyatini keng tushuntirish, yangi konstitutsiyaviy normalarni hayotga tatbiq etish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish, davlat organlari faoliyatini huquqiy monitoring qilish, "Huquqiy maslahat" markazlari faoliyatini takomillashtirish hamda aholining huquqiy ongini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlar yoritiladi. Maqolada yangi konstitutsiyaviy islohotlar ta'sirida yaratilgan huquqiy institutlar, fuqarolar huquqlarining kafolatlanishi, davlat organlari faoliyatida oshkorlik va javobgarlikning kuchaytirilishi bo'yicha amaliy natijalar keltiriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Adliya vazirligi mazkur davrda Konstitutsiyani real hayotga joriy etishning markaziy institutlaridan biriga aylangan. Maqolada ekspert xulosalari, statistik ma'lumotlar va amaliy tahlillar asosida tegishli takliflar ilgari suriladi.

Shuningdek, maqolada yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning bevosita amal qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslarning konstitutsiyaviy normalarga so'zsiz rioya etishi bo'yicha ishlab chiqilgan mexanizmlar batafsil tahlil qilinadi. Adliya vazirligi tomonidan 2023–2025 yillar davomida olib borilgan monitoring ishlari qonunchilik ijrosida aniqlangan tizimli kamchiliklarni bartaraf etish, aholi murojaatlarini o'rganish va ularni hal etish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgani ham alohida ko'rsatib o'tiladi.

Bundan tashqari, Konstitutsiyada belgilangan ijtimoiy davlat tamoyillarini amalda ro'yobga chiqarish – ijtimoiy himoya, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari, yoshlar va ayollar bilan ishlashga doir huquqiy kafolatlarning kengaytirilishi – bo'yicha Adliya vazirligining uslubiy, normativ va tashkiliy faoliyati ham maqolada o'z aksini topgan. Sud-huquq tizimidagi islohotlar, fuqarolarga bepul yuridik yordam ko'rsatish mexanizmlarining kengaytirilishi, mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining huquqiy asoslari mustahkamlanishi kabi yo'nalishlarda erishilgan natijalar ham ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, Adliya vazirligi, targ'ibot poyezdlari, huquqiy islohotlar, konstitutsiyaviy normalar, huquqiy ong, normativ-huquqiy hujjatlar, monitoring, konstitutsiyaviy institutlar, davlat boshqaruvi, huquqiy madaniyat, huquqiy maslahat markazlari, huquqiy ekspertiza, ochiqlik va hisobdorlik, inson huquqlari kafolatlari, ijtimoiy davlat tamoyillari, huquqni muhofaza qilish, huquqiy tizim modernizatsiyasi.

ХУРСАНОВ Рустам Холмуратович

Первый заместитель директора Института
переподготовки и повышения квалификации
юридических кадров при Министерстве юстиции
Республики Узбекистан, доктор юридических наук
E-mail: hursanov.rustam75@gmail.com

РАБОТА МИНИСТЕРСТВА ЮСТИЦИИ В 2023-2025 ГОДАХ В РАМКАХ РЕАЛИЗАЦИИ НОВОЙ РЕДАКЦИИ КОНСТИТУЦИИ: ПРАВОВОЙ И ПРАКТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

АННОТАЦИЯ

В статье представлен правовой и практический анализ деятельности Министерства юстиции Республики Узбекистан в 2023–2025 гг. в рамках реализации новой редакции Конституции, принятой 30 апреля 2023 года. Особое внимание уделено инициативе «Поезда правового просвещения», направленной на повышение правовой культуры населения, широкое информирование граждан о конституционных реформах, правовой экспертизе нормативно-правовых актов, мониторингу деятельности государственных органов и развитию системы бесплатных юридических консультаций. Приведены результаты внедрения новых конституционных институтов, усиления гарантий прав человека, обеспечения открытости и подотчетности органов государственной власти. На основе статистических данных и экспертных оценок сформулированы предложения по дальнейшему совершенствованию реализации Конституции.

Также в статье подробно анализируется непосредственное действие Конституции в новой редакции, разработанные механизмы неукоснительного соблюдения конституционных норм государственными органами и должностными лицами. Отдельно отмечается, что мониторинг, проведенный Министерством юстиции в течение 2023-2025 годов, направлен на устранение выявленных системных недостатков в исполнении законодательства, изучение обращений населения и совершенствование механизмов их решения.

Кроме того, в статье отражена методическая, нормативная и организационная деятельность Министерства юстиции по практической реализации принципов социального государства, закрепленных в Конституции расширению правовых гарантий социальной защиты, прав лиц с инвалидностью, работы с молодежью и женщинами. На основе научного подхода анализируются результаты, достигнутые в таких направлениях, как реформы в судебно-правовой системе, расширение механизмов оказания бесплатной юридической помощи гражданам, укрепление правовых основ деятельности органов местного самоуправления.

Ключевые слова: Конституция, Министерство юстиции, поездка правового просвещения, правовые реформы, конституционные нормы, правосознание, нормативные акты, мониторинг, конституционные институты, государственное управление, правовая культура, центры правовой консультации, правовая экспертиза, открытость и подотчетность, гарантии прав человека, принципы социального государства, правоохранительная деятельность, модернизация правовой системы.

RUSTAM Kholmurotovich

First Deputy Director of the Training Institute for
Lawyers under the Ministry of Justice of the
Republic of Uzbekistan, Doctor of Law
E-mail: hursanov.rustam75@gmail.com

WORK CARRIED OUT BY THE MINISTRY OF JUSTICE IN 2023-2025 WITHIN THE FRAMEWORK OF IMPLEMENTING THE NEW VERSION OF THE CONSTITUTION: LEGAL AND PRACTICAL ANALYSIS

ANNOTATION

This article provides a legal and practical analysis of the activities carried out by the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan during 2023–2025 within the implementation of the new edition of the Constitution adopted on April 30, 2023. Special attention is given to the “Legal enlightenment trains” initiative aimed at increasing public legal awareness, explaining constitutional reforms to the population, conducting legal expertise of normative acts, monitoring the activities of state bodies, and improving access to free legal assistance. The article highlights the practical results of introducing new constitutional institutions, strengthening human rights guarantees, and improving transparency and accountability in public administration. Based on data and expert analysis, recommendations for enhancing the constitutional implementation mechanisms are provided.

The article also analyzes in detail the mechanisms developed for the direct implementation of the Constitution in the new edition and the unconditional observance of constitutional norms by state bodies and officials. It is also specifically noted that the monitoring work carried out by the Ministry of Justice during 2023–2025 was aimed at eliminating systemic shortcomings identified in the implementation of legislation, studying public appeals, and improving mechanisms for their resolution.

In addition, the article reflects the methodological, normative, and organizational activities of the Ministry of Justice on the practical implementation of the principles of a social state enshrined in the Constitution – social protection, the rights of persons with disabilities, and the expansion of legal guarantees for working with youth and women. Based on a scientific approach, the results achieved in such areas as reforms in the judicial and legal system, the expansion of mechanisms for providing free legal assistance to citizens, and the strengthening of the legal framework for the activities of local government bodies are also analyzed.

Keywords: Constitution, Ministry of Justice, legal enlightenment trains, legal reforms, constitutional norms, legal culture, normative acts, monitoring, constitutional institutions, public administration, legal culture, legal advisory centers, legal expertise, openness and accountability, guarantees of human rights, principles of a social state, law enforcement, modernization of the legal system.

O‘zbekiston Respublikasida 2023-yilda Konstitutsiyaning yangi tahrirda qabul qilinishi mamlakat huquqiy tizimida tub o‘zgarishlarga zamin yaratgan tarixiy voqea sifatida e’tirof etiladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya davlat hokimiyati tarmoqlari o‘rtasidagi vakolatlar muvozanatini aniq belgilab berdi, qonun ustuvorligini mustahkamlashni ustuvor vazifa sifatida qayd etdi hamda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish masalalarini yanada ustuvor darajada ilgari surdi. Ushbu o‘zgarishlar mamlakatning demokratik rivojlanish strategiyasiga mos ravishda davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, davlat organlari faoliyatining oshkoraligi va javobgarligini ta’minlash, shuningdek fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratish bilan uyg‘unlashgan holda amalga oshirilmoqda.

Konstitutsiya normalarining amaliyotga tatbiq etilishi davlat organlari, xususan, Adliya vazirligi zimmasiga muhim vazifalarni yukladi. Chunki huquqiy siyosatni shakllantirish, normativ-

huquqiy hujjatlarni ekspertiza qilish, ularning ijrosini monitoring qilish, davlat xizmatlarini takomillashtirish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish kabi faoliyat yo'nalishlari bevosita Adliya vazirligining vakolatiga kiradi. 2023–2025-yillar Konstitutsiyani amaliyotga joriy etishning birinchi bosqichi sifatida Adliya vazirligi tizimi uchun ham murakkab, ham mas'uliyatli davr bo'ldi. Bu davrda vazirlikning normativ-huquqiy bazani modernizatsiya qilish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, sud qarorlarining ijrosini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish, yuridik yordam tizimini rivojlantirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha keng ko'lamli tashabbuslari amalga oshirildi.

Shu nuqtai nazardan, yangi tahrirdagi Konstitutsiya talablarining ijrosini ta'minlash doirasida Adliya vazirligi tomonidan amalga oshirilgan ishlarni ilmiy asosda o'rganish, ularning natijalarini baholash va mavjud muammolarni aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy vazifadir. Bu ayniqsa Konstitutsiyada mustahkamlangan normalarning amaliy samaradorligini, ularning jamiyat hayotiga ta'sirini hamda huquqni qo'llash amaliyotidagi yangicha mexanizmlarning qanchalik izchil joriy etilayotganini aniqlash uchun muhim hisoblanadi.

Mazkur maqolada 2023–2025-yillar davomida Adliya vazirligi tomonidan amalga oshirilgan normativ-huquqiy, institutsional va tashkiliy islohotlar kompleks tahlil qilingan. Konstitutsiya talablarini bajarish bo'yicha amalga oshirilgan asosiy yo'nalishlar, raqamlashtirish jarayonlari, yuridik yordam tizimidagi o'zgarishlar, inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining takomillashuvi, xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha olib borilgan ishlar o'rganilgan. Shuningdek, islohotlarning mavjud yutuqlari bilan bir qatorda, ularning samaradorligini cheklayotgan muammolar tahlil qilingan hamda istiqboldagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar bildirilgan.

Ushbu maqola yangi tahrirdagi Konstitutsiyani amaliyotga tatbiq etish jarayonida Adliya vazirligi tomonidan 2023–2025-yillarda amalga oshirilgan ishlarni har tomonlama o'rganish maqsadida kompleks metodologiya asosida olib borildi. Normativ-huquqiy tahlil orqali Konstitutsiyaning yangi normalari, Prezident farmonlari, Hukumat qarorlari hamda Adliya vazirligining me'yoriy hujjatlari batafsil o'rganildi. Ushbu yondashuv konstitutsiyaviy islohotlarning huquqiy asoslari, ularni amalga oshirish mexanizmlari va organlar o'rtasidagi funksional taqsimotni aniqlash imkonini berdi. Institutsional tahlil Adliya vazirligi tizimida sodir bo'lgan tashkiliy o'zgarishlar, davlat xizmatlari ko'rsatish jarayonidagi modernizatsiya, huquqiy ekspertiza amaliyoti, ijro mexanizmlarining takomillashuvi va notariat tizimidagi yangiliklarni amaliy asosda baholashga xizmat qildi.

Shu bilan birga, statistika ma'lumotlari asosida davlat xizmatlarining raqamlashtirilish darajasi, murojaatlar bilan ishlash tizimi samaradorligi, notarial harakatlar dinamikasi va ijro jarayonlari bo'yicha sezilarli o'sishlar kontent jihatdan tahlil qilindi. Maqolaning muhim jihatlaridan biri qiyosiy-huquqiy yondashuv bo'lib, unda Estoniya, Gruziya, Janubiy Koreya va Yevropa Ittifoqi davlatlarining konstitutsiyaviy islohotlar tajribasi hamda adliya tizimlarini takomillashtirishda qo'llaniladigan ilg'or mexanizmlar o'rganildi va O'zbekiston amaliyotidagi o'ziga xos yondashuvlar bilan solishtirildi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar, masalan, BMT, Yevropa Ittifoqi va Jahon bankining huquqiy modernizatsiya bo'yicha tavsiyalari va ekspert xulosalari kontent tahlili orqali tadqiqot natijalarini boyitishga xizmat qildi. Ushbu metodlarning uyg'un qo'llanilishi konstitutsiyaviy islohotlarning huquqiy asoslari bilan bir qatorda, ularning amaliy natijalarini ham to'liq yoritishga imkon yaratdi.

O'tkazilgan tahlillar 2023–2025-yillarda Adliya vazirligi tomonidan yangi Konstitutsiya talablarini hayotga tatbiq etish yo'lida katta hajmdagi ishlar amalga oshirilganini ko'rsatdi. Avvalo, normativ-huquqiy baza keng miqyosda yangilandi: turli sohalarga taalluqli minglab normativ-

huquqiy hujjatlar tizimli ravishda qayta ko'rib chiqildi, eskirgan normalar bekor qilindi va yangi konstitutsiyaviy qadriyatlarga moslashtirildi. Bu jarayon qonun ijodkorligi sifatining oshishiga, huquqiy bazaning izchilligi va aniqligiga erishish imkonini berdi. Davlat xizmatlari sohasida olib borilgan islohotlar ham sezilarli natija berdi. Xizmatlarning katta qismi raqamlashtirildi, "bir darcha" tamoyili asosida aholiga qulayliklar yaratildi, tartib-taomillar soddalashtirildi va ortiqcha talablar qisqartirildi. Natijada davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari ancha kengaydi va aholining ularga bo'lgan ishonchi oshdi.

Inson huquqlarini ta'minlash borasida ham tizimli ishlarga e'tibor qaratildi. Xususan, fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash tartibi takomillashtirildi, sud qarorlarining ijrosini ta'minlash agentligi faoliyati yangicha yondashuv asosida qayta tashkil qilindi, notariat tizimida shaffoflikni kuchaytiruvchi mexanizmlar joriy etildi. Yuridik yordam tizimida ham modernizatsiya jarayonlari amalga oshirilib, aholi, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar uchun bepul yuridik yordam olish imkoniyatlari kengaytirildi. Advokatura faoliyati soddalashtirilgan tartiblar asosida takomillashtirildi, yuridik yordam platformalari keng joriy qilindi. Huquqiy ma'rifat sohasida aholi o'rtasida huquqiy ong va madaniyatni oshirishga qaratilgan ko'plab loyihalar amalga oshirildi. Raqamli platformalar orqali huquqiy ma'lumotlarni yetkazib berish tizimi kengayib, yoshlarga mo'ljallangan o'quv-modellar ishlab chiqildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya ham mazmun, ham tuzilish jihatidan sezilarli darajada yangilandi: moddalarning soni 128 tadan 155 taga, normalarning umumiy miqdori esa 275 tadan 434 taga yetib, qariyb 65 foizga ko'paydi. Unda O'zbekiston suveren, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat sifatida belgilab qo'yildi. Ayniqsa, davlatning ijtimoiy majburiyatlariga oid normalar yanada kengaytirilib, kambag'allikni qisqartirish, bandlikni ta'minlash va ishsizlikdan himoya qilishga doir qoidalar uch barobar ko'paytirildi.

Shuningdek, Konstitutsiyada har bir fuqaroning uy-joyga ega bo'lish huquqi mustahkamlab qo'yildi. Bu norma, ayniqsa, yosh oilalar va ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u aholining turmush darajasini va hayotdan rozilik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shu maqsadda yangi tahrirdagi 47-modda "Aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta'minlash tartibi qonunda belgilanadi", deya qayd etib, ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlagan.

Bundan tashqari, Konstitutsiya hech kim sud qarorisiz yoki qonunga zid ravishda uy-joyidan mahrum etilmasligini ham qat'iy belgiladi. Agar shunday holat yuz bersa, mulkdorga uy-joyning bozor qiymati va ko'rilgan zararlar qonunda ko'rsatilgan tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi shartligi kafolatlandi. Bu norma mulkdorlarning huquqlarini yanada kuchli himoya qilishga qaratilgan muhim insonparvar tamoyildir.

Mazkur o'zgarishlarni hayotga tatbiq etishda Adliya vazirligi asosiy institutlardan biri sifatida huquqiy targ'ibot, qonunchilikni takomillashtirish, normativ hujjatlarning konstitutsiyaga muvofiq bo'lishini ta'minlash, aholining huquqiy ongini oshirish, bepul yuridik yordam tizimini rivojlantirish kabi bir qator vazifalarni amalga oshirdi.

Konstitutsiyaviy islohotlarning asosiy mazmun-mohiyatini fuqarolarga yetkazish, yangi normalarning to'g'ri talqin qilinishi va amaliyotda joriy qilinishi, davlat organlarining huquqiy faoliyati yangi talablar asosida qayta ko'rib chiqilishi vazirlik zimmasidagi ustuvor yo'nalishlardan bo'ldi. 2023–2025-yillar davomida Adliya vazirligi Konstitutsiyani hayotga tatbiq etishning markaziy organlaridan biri sifatida tahliliy, metodik, tashkiliy va targ'ibot ishlari majmuini amalga oshirdi.

Adliya vazirligi tomonidan 2023–2025-yillar davomida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga mos ravishda normativ-huquqiy hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish ishlari ham faol amalga oshirildi. Yangi konstitutsiyaviy talablar barcha sohada amaldagi qonunchilikni qayta ko'rib chiqishni

taqozo etganligi sababli, vazirlik tomonidan yuzlab qonunlar, prezident farmonlari, hukumat qarorlari, idoraviy hujjatlar chuqur o'rganilib, konstitutsiyaviy normalarga zid holatlar aniqlanganda tegishli takliflar ishlab chiqildi. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining konstitutsiyaga mosligini baholashda **“konstitutsiyaviy monitoring”** mexanizmi takomillashtirildi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni Konstitutsiyaga muvofiqlashtirish ham asosiy yo'nalishlardan biri bo'ldi. 2023-yil 8-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan **“Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”**gi farmon[8]ga muvofiq, davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida yangi tahrirdagi Konstitutsiya to'g'ridan-to'g'ri va so'zsiz qo'llaniladi. Farmon asosida o'nlab qonun va qonunosti hujjatlari yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtirildi va “Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan kelib chiqadigan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi” tasdiqlandi. Shu bilan birga, 2023-yil 7-noyabrda Prezident tomonidan imzolangan farmon orqali davlat rahbarining 10 ta farmoni va 4 ta qaroriga o'zgartirishlar kiritilib, Konstitutsiya talablarini amalga oshirish mexanizmlari yanada mustahkamlandi.

Shuningdek, mazkur Farmonda yangi Konstitutsiya Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini belgilashi, milliy davlatchilik taraqqiyotining muhim bosqichida davlat va jamiyat rivojining ustuvor yo'nalishlarini aniqlashi ko'rsatib o'tilgan. Farmonda shuningdek, vatan taraqqiyoti yo'lida qaysi ishlar amalga oshirilishi lozimligi, jumladan, O'zbekiston va jahon hamjamiyati hamda qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarni “davlatlarning hududiy yaxlitligi” va “tinchliksevar tashqi siyosat” prinsiplari asosida rivojlantirish, suveren davlat maqomini mustahkamlash, yangi sinovlar va tahdidlar sharoitida milliy manfaatlar ustuvorligini ta'minlash, o'zaro ishonch va hamkorlikka asoslangan tashqi siyosatni davom ettirish masalalari aniq belgilangan. Shu bilan birga, mamlakat mudofaa salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham farmonga kiritilgan bo'lib, Mudofaa vazirligi qo'shinlarining jangovar tayyorgarligi, o'quv-moddiy bazasi va kadrlar zaxirasini rivojlantirish, rahbar lavozimlarga tayinlashda davlat xizmatining zamonaviy standartlari asosida tizim yaratish belgilangan. Farmon shuningdek, Bosh vazir nomzodining Oliy Majlis palatalarida ko'rib chiqilishi, Vazirlar Mahkamasi tarkibi va faoliyati bo'yicha Prezident va parlament vakolatlarini tartibga solish, parlament so'rovlari va hisobotlarining tartibini belgilash kabi hukumat faoliyatiga oid muhim mexanizmlarni belgilaydi. Shuningdek, yangi Konstitutsiya jinoyat protsessida himoyachining maqomini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, tergov va dastlabki surishtiruv davomida himoyachiga ishni nazorat qilish, sudga to'g'ridan-to'g'ri iltimosnoma yuborish, tergovga qadar tekshiruvda malakali yuridik yordam olish huquqini kafolatlash, sud ekspertizalarini shartnoma asosida o'tkazish va zarur mutaxassislarni jalb qilish kabi qo'shimcha vakolatlar berilgan.

Mahalliy davlat hokimiyati tizimida ham yangi Konstitutsiya belgilagan tamoyillar asosida sezilarli o'zgarishlar qilindi. Xususan, 2024-yil 2-fevraldagi Prezident farmoni bilan mahalliy Kengashlar va hokimlar vakolatlari yangicha model asosida qayta taqsimlandi. Bu orqali Kengashlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rni mustahkamlandi, mahalliy boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilab berildi.

Shuningdek, 2024-yil 19-fevralda imzolangan yana bir farmon Oliy Majlis faoliyatini takomillashtirish, qonunchilikka zarur o'zgartirishlarni kiritish hamda Konstitutsiyada belgilangan talablarni amaliyotga joriy etish jarayonini boshlab berdi.

Bu amaliy harakatlar natijasida Adliya vazirligi tomonidan tashkil etilgan turli tashkiliy ishlar, targ'ibot tadbirlari, normativ-huquqiy tashabbuslar va huquqiy yordam loyihalari yangi Konstitutsiya talablarining hayotga tatbiq etilishida muhim omil bo'lib xizmat qildi. Natijada

fuqarolar huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining javobgarligini kuchaytirish va ijtimoiy davlat tamoyillarini mustahkamlash bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishildi.

Eng muhimi, yangi Konstitutsiyaning amaliyotga joriy etilishi fuqarolarning huquqiy ongining oshishiga, davlat organlari faoliyatida esa oshkoralik va mas'uliyatning kuchayishiga xizmat qildi.

Shuningdek, davlat organlari faoliyatida shaffoflik, javobgarlik va fuqarolarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish yangi Konstitutsiyaning asosiy talablaridan biri sifatida belgilangan. Shu munosabat bilan Adliya vazirligi davlat organlari faoliyatini huquqiy monitoring qilish, ularda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash mexanizmlarini samarali tashkil etish bo'yicha bir qator loyiha va tashabbuslarni amalga oshirdi. "Huquqiy maslahat" markazlari faoliyati kengaytirilib, aholiga bepul yuridik yordam olish imkoniyatlari soddalashtirildi. Elektron yuridik xizmatlar soni ortdi, "Adliya mobil markazlari" orqali olis hududlardagi aholiga huquqiy xizmatlar yetkazildi.

Konstitutsiyaning yangi tahriri jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirishni strategik vazifa sifatida belgiladi. Adliya vazirligi bu borada ommaviy axborot vositalari, ta'lim muassasalari, davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda keng ko'lamli huquqiy targ'ibot ishlarini tashkil etdi. Yangi Konstitutsiyaning o'zbek, rus, ingliz va boshqa tillardagi nashrlari tayyorlandi, infografikalar, videoroliklar, qo'llanmalar, mobil ilovalar orqali fuqarolarga qulay va tushunarli tarzda yetkazildi.

Ushbu amaliy faoliyat Konstitutsiyaning har bir normasi hayotga izchil joriy qilinishini ta'minlashga, fuqarolarda huquqiy ong va huquqiy mas'uliyatni mustahkamlashga xizmat qildi. Aholining barcha qatlamlariga, xususan yoshlar, ayollar, keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, tadbirkorlar va chekka hudud aholisi bilan o'tkazilgan uchrashuvlar konstitutsiyaviy islohotlarning ijtimoiy qamrovini kengaytirdi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Adliya vazirligi tomonidan amalga oshirilgan targ'ibot, huquqiy monitoring, normativ-huquqiy hujjatlarni ekspertiza qilish va huquqiy yordam ko'rsatish mexanizmlarining barchasi yangi Konstitutsiya talablarini real hayotga tatbiq etishda muhim omil bo'ldi. Fuqarolar huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining javobgarligini kuchaytirish, ijtimoiy davlat tamoyillarini mustahkamlash bo'yicha izchil amaliy natijalarga erishildi.

Aholining huquqiy ongini oshirish va yangi tahrirdagi Konstitutsiya mazmunini keng jamoatchilikka yetkazish borasida eng yirik loyihalardan biri sifatida **"Targ'ibot poyezdlari"** tashabbusi yo'lga qo'yildi. Ushbu poyezdlar respublikaning barcha hududlarini qamrab olib, eng chekka tuman va qishloqlargacha yetib bordi. Targ'ibot poyezdlari tarkibida malakali huquqshunoslar, olimlar, professor-o'qituvchilar, notariuslar, adliya organlari vakillari hamda fuqarolarga bepul huquqiy yordam ko'rsatishga ixtisoslashgan mutaxassislar faoliyat olib bordi. Ular tomonidan o'tkazilgan uchrashuvlar, seminarlar, ochiq muloqotlar, huquqiy maslahatlar yangi konstitutsiyaviy islohotlarning mohiyatini aholiga lo'nda, tushunarli va amaliy misollar asosida tushuntirishga xizmat qildi.

"Targ'ibot poyezdlari" faqat ma'rifiy tadbir bo'lib qolmay, balki amaliy yordam ko'rsatish mexanizmiga aylandi. Hududlardagi minglab fuqarolar turli yuridik masalalarda bepul maslahatlar oldilar. Aholidan kelib tushgan murojaatlar tizimli tahlil qilinib, ularni hal etish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ko'rildi. Yangi Konstitutsiyada mustahkamlangan inson huquqlarining kafolatlari, aholi ijtimoiy himoyasi, tadbirkorlik faoliyati erkinligi, mahalla institutining mustaqilligi, ekologik xavfsizlik, davlat xizmatining ochiqligi kabi asosiy normalar aynan shu uchrashuvlarda keng yoritildi.

Jumladan, Adliya vazirligi huzuridagi Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan aholi, ayniqsa, yoshlarning huquqiy savodxonligi hamda referendum borasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida "Men befarq emasman" shiori ostida amalga oshirilgan "Targ'ibot poyezdi"

loyihasi muvaffaqiyatli yakunlandi; unda Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari, universitet professor-o'qituvchilari va tajribali targ'ibotchilar ishtirokida o'tkazilgan seminarlar hamda amaliy darslarda qatnashgan 100 nafar talaba hamda 14 nafar professor-o'qituvchilardan iborat targ'ibot guruhlarini mamlakatimizning 14 ta hududi — Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va 12 viloyatda turli targ'ibot tadbirlarini tashkil etdi. Shu bilan birga, TDYU talabalari va professor-o'qituvchilari bilan bir qatorda hududlardagi huquqshunoslik yo'nalishi mavjud oliy ta'lim muassasalari talabalari va Adliya vazirligi yuridik texnikumlarining o'quvchilari ham jalb etildi. Targ'ibot guruhlarini mamlakat bo'ylab 70 dan ortiq oliy va professional ta'lim muassasalari, 50 dan ortiq korxona va tashkilotlar, 30 dan ortiq aholi yashash manzillari, harbiy qismlar va istirohat bog'lariga tashrif buyurib, aholi, ayniqsa, yoshlarning huquqiy savodxonligi va referendum borasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga o'z hissasini qo'shdi, o'tkazilgan tadbirlarda o'quvchilar, talabalar va tashkilot xodimlari bilan bir qatorda nuroniy otaxon-u onaxonlar ham ishtirok etdi.

Turli tadbirlar va uchrashuvlar davomida ishtirokchilarga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlarning mazmun-mohiyati, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ta'lim va ilm-fan sohasidagi o'zgarishlar, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ayollar va bolalar huquqlarini ta'minlash bo'yicha kiritilayotgan yangiliklar hamda turli sohalarni rivojlantirishga qaratilgan yangi normalar batafsil tushuntirildi; "Tengdosh tengdoshga" tamoyili asosida o'tkazilgan uchrashuvlar doirasida ishtirokchilarni qiziqtirgan barcha savollarga atroflicha javob berildi, shuningdek, ularning huquqiy savodxonligini sinovdan o'tkazish maqsadida turli tanlov va viktorinalar tashkil etilib, g'olib va sovrindorlar esdalik sovg'alari, badiiy va yuridik adabiyotlar bilan taqdirlandi. Bundan tashqari, targ'ibot guruhlarini tomonidan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatiga bag'ishlangan materiallar tarqatilib, loyiha ishtirokchilarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, yurt kelajagi va Vatan ravnaqi uchun daxldorlik tuyg'ularini yanada mustahkamlashga xizmat qildi [9].

2024-yil 4-dekabr kuni AOKAda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning amaliyotga joriy etilishi yuzasidan matbuot anjumani bo'lib o'tdi. Unda Oliy sud, Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi vakillari ishtirok etib, jamoatchilikka shu borada amalga oshirilgan ishlar haqida batafsil ma'lumot taqdim qilishdi.

Yangi Konstitutsiya milliy davlatchiligimiz rivojining muhim bosqichida davlat va jamiyatning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Shu maqsadda barcha vazirlik va idoralar ushbu prinsiplarni hayotga tatbiq etish uchun izchil va tizimli ishlarni olib bormoqda.

Xususan, Adliya vazirligi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasini chuqur tahlil qilib, mavjud qonun va normativ hujjatlarni yangi Konstitutsiyaga moslashtirish bo'yicha loyihalar ishlab chiqdi. Ushbu ishlar natijasida tegishli Prezident farmoni va Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi.

Shuningdek, intellektual mulk huquqlarini yanada mustahkamlashga qaratilgan yangi qonunlar ham qabul qilinib, ular jismoniy va yuridik shaxslarning yaratuvchan mehnati mahsulini himoya qilish, huquqbuzarlik sodir bo'lganda esa tovon undirish tartibini aniq belgilab berdi. Shuningdek, Konstitutsiyaning targ'ib qilish maqsadida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi: adliya vazirligi tasdiqlagan targ'ibot dasturiga muvofiq minglab seminar va uchrashuvlar o'tkazildi, onlayn kurslar va platformalarda Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini tushuntiruvchi materiallar joylashtirildi. Toshkent shahridagi "Konstitutsiya ko'chasi" loyihasi doirasida bolalar va yoshlar uchun ko'rgazmalar, interaktiv burchaklar, multfilm va komiks kitoblar tayyorlandi, shuningdek, nogironligi bo'lgan bolalar uchun audio variantlar ishlab chiqildi. Shu orqali aholining huquqiy savodxonligi oshirildi, yoshlar va fuqarolarda yangi Konstitutsiyaga daxldorlik hissi mustahkamlandi hamda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlarning mohiyati keng targ'ib qilindi [10].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririni qabul qilish jarayoni va uning 2023–2025-yillardagi ijrosi shuni ko'rsatdiki, mamlakatda demokratik yangilanishlar, huquqiy tizimni modernizatsiya qilish va inson huquqlarining kafolatlarini mustahkamlash bo'yicha sezilarli qadamlar tashlandi. Xalqaro ekspertlar tomonidan berilgan baholarda ham ushbu o'zgarishlar davlatning ochiqlikka, ijtimoiy adolatga va zamonaviy boshqaruv tizimiga intilayotganini ko'rsatib turibdi. Eng muhimi, konstitutsiyaviy islohotlarning mazmuni nafaqat normativ yangilik sifatida, balki amaliy natija berishga qaratilgan jarayonlarning mantiqiy davomi sifatida talqin qilinmoqda.

Xalqaro tahlil markazlari tomonidan bildirilgan fikrlar shuni tasdiqlaydiki, yangi tahrirdagi Konstitutsiya fuqarolarning huquq va erkinliklarini kengaytirishi, davlat organlari faoliyatining ochiqligini oshirishi hamda ijtimoiy davlat tamoyillarini mustahkamlashi bilan ajralib turadi. Biroq, ushbu islohotlarning samaradorligi ularning hayotga izchil tatbiq etilishiga, qonun ijrosining sifatiga va davlat institutlarining real javobgarligiga bevosita bog'liqdir. Xalqaro kuzatuvchilar tomonidan bildirilgan ayrim tanqidiy jihatlar — siyosiy plyuralizmning to'liq shakllanmagani, raqobatbardosh siyosiy muhitning yetarli darajada rivojlanmagani hamda hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi muvozanatning mustahkamlanishi zarurligi — konstitutsiyaviy islohotlarning keyingi bosqichlarini yanada takomillashtirish uchun muhim yo'nalishlar bo'lib qolmoqda.

Yangi konstitutsiyaviy islohotlarga oid xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, konstitutsiyani o'zgartirishning o'zikifoyaemas — uning amalda ishlashini ta'minlaydigan aniq va puxta mexanizmlarni yaratish davlat boshqaruvida barqarorlikning asosiy omili hisoblanadi. Masalan, Gruziyada 2010–2017-yillarda davomida o'tkazilgan islohotlar jarayonida maxsus "Constitutional Implementation Commission" tuzilgan bo'lib, u yangi konstitutsion normalarni amaliyotga tatbiq etish jarayonini barcha vazirliklar kesimida muvofiqlashtirib borgan. Yevropa Ittifoqi, Venice Commission va USAID ekspertlari ushbu modelni "normativ o'zgarishlarni amaliy mexanizmga aylantira olgan muvaffaqiyatli tajriba" sifatida e'tirof etgan [11].

Polshada esa 1997-yilgi Konstitutsiya qabul qilingach, uning tatbiqi ijro hokimiyati tomonidan joriy etilgan "constitutional compliance review" orqali ta'minlangan. Ushbu tizimga ko'ra, har bir yangi qonun loyihasi avvalo Adliya vazirligi, so'ngra parlament komissiyalari tomonidan Konstitutsiyaga mosligi nuqtayi nazaridan baholangan. Venice Commission Polsha amaliyotini "konstitutsiyaviy monitoringning yevropacha modeli" sifatida baholagan [12].

Litva va Latviya tajribasida esa islohotlar jarayoni "public consultation model" orqali jamiyat bilan muntazam hamkorlikda olib boriladi. Yevropa Kengashi bu yondashuvni ochiqlikni oshiruvchi va fuqarolarning ishtirokini kengaytiruvchi eng samarali mexanizmlardan biri sifatida qayd etgan [13].

Yangi konstitutsiyaviy islohotlarning eng keng ko'lamlaridan biri Qozog'istonda 2022–2023-yillarda amalga oshirilgan jarayon bo'ldi. Bu vaqt davomida mamlakat Konstitutsiyasiga 30 dan ortiq o'zgartishlar kiritildi va ular Yevropa Ittifoqi, OSCE/ODIHR hamda Venice Commission tomonidan kompleks baholandi. ODIHR hisobotida ushbu islohotlarning ijobiy jihatlari sifatida inson huquqlarini kengaytirish, parlamentning rolini oshirish va fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash qayd etilgan. Shu bilan birga, ularning natijadorligi bevosita ijro mexanizmlarining kuchli va tizimli yo'lga qo'yilishiga bog'liq ekani alohida ta'kidlangan [14].

Xalqaro tashkilotlar, xususan, BMTning "Constitutional Assistance Handbook" (2020) nashrida yangi konstitutsiyaviy islohotlarni tatbiq etishning uch asosiy tamoyili belgilangan:

- 1) normativ-huquqiy mexanizmlarni to'liq inventarizatsiya qilish;
- 2) davlat organlarining yangi normalar bo'yicha funksional moslashuvi;
- 3) huquqiy ong va ijtimoiy ishonchni oshirishga qaratilgan kommunikatsiya strategiyasi.

Mazkur tamoyillar O'zbekistonning hozirgi konstitutsiyaviy islohotlari bilan uyg'unlikda qo'llanilishi mumkin [15].

Shu bois, yangi tahrirdagi Konstitutsiya normativ asos yaratib bergan mazkur davrda islohotlarning amaliy mexanizmlarini yanada kuchaytirish quyidagi takliflarni ilgari surishga imkon beradi:

Birinchidan, yangi konstitutsion normalarning ijrosini monitoring qilish tizimini yanada kuchaytirish, xususan, inson huquqlari, sud-huquq tizimi, davlat xizmatining shaffofligi va ijtimoiy kafolatlar bo'yicha muntazam tahliliy hisobotlarni joriy etish lozim. Bu jarayon xalqaro standartlarga mos monitoring tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, konstitutsion islohotlarning mazmuni va amaliy imkoniyatlarini keng jamoatchilikka yetkazish bo'yicha maqsadli dasturlar ishlab chiqish zarur. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, konstitutsiyaviy yangiliklarning real natija berishi fuqarolarning ularni qanchalik anglab, faol qo'llashiga bog'liq.

Uchinchidan, siyosiy institutlar o'rtasidagi muvozanat va tormozlar tizimini mustahkamlashga qaratilgan ikkinchi bosqich islohotlarini amalga oshirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Bu yo'nalishda parlament nazoratini kuchaytirish, sud hokimiyati mustaqilligini yanada ta'minlash va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchidan, xalqaro tashkilotlar va transmilliy ekspertlar bilan hamkorlikni davom ettirish orqali konstitutsiyaviy islohotlar amaliyotini xalqaro ilg'or tajribalar bilan solishtirib borish kerak. Bu esa O'zbekistonning demokratik modernizatsiyasi jarayonini izchil, tizimli va ochiq yuritishga imkon beradi.

Beshinchidan, Adliya vazirligi tomonidan 2023–2025-yillarda amalga oshirilgan normativ-huquqiy islohotlarni raqamlashtirish, huquqiy xizmatlar sifatini oshirish va fuqarolar murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni davom ettirish Konstitutsiya talablarining amalda bajarilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiya O'zbekistonning huquqiy rivojlanishida strategik yo'nalishlarni belgilab berdi. Endilikdagi asosiy vazifa — ushbu konstitutsion qadriyatlar va tamoyillarning amaliy hayotga to'laonli tatbiq etilishini ta'minlashdan iborat. Demokratik yangilanishlarni davom ettirish, xalqaro standartlarga mos boshqaruv tizimini shakllantirish va fuqarolar farovonligini oshirish — yangi Konstitutsiyaning kelgusi bosqichlardagi eng muhim vazifalari bo'lib qoladi.

Iqtiboslar/Snoski/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son, <https://lex.uz/docs/-6445145>.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining qarori, 01.05.2023 yildagi 1245-son, <https://lex.uz/uz/docs/-6449095>.
3. Silk Road Studies Program / Central Asia-Caucasus Institute (transatlantik tahlil markazi) — "Constitutional Reform in Uzbekistan: A Symposium" (2022) https://www.silkroadstudies.org/resources/pdf/SilkRoadPapers/2212Uzbek.pdf?utm_source
4. DIIHB Referendumni kuzatish bo'yicha cheklangan missiyasi O'zbekiston Respublikasi, Referendum, 2023-yil 30-aprel Dastlabki natijalar va xulosalar to'g'risidagi bayonot. <https://odihr.osce.org/sites/default/files/f/documents/6/d/542565.pdf>
5. Roman Martyniuk & Oleksii Datsiuk — "Constitutional Referendum in Uzbekistan on April 30, 2023: Declared Goals and Results" (2025)
6. Rule of Law Centre (Helsinki) — "Tracking rule of law in Uzbekistan – constitutional reform and coming challenges" (2025) https://www.helsinki.fi/en/networks/rule-law-centre/news/tracking-rule-law-uzbekistan-constitutional-reform-and-coming-challenges?utm_source

7. O. Muhamedjanov — "The Constitution of Uzbekistan in the New Edition" (2025) <https://www.studiapolitologiczne.pl/pdf-211123-128829?filename=The%20Constitution%20of.pdf>
8. "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.05.2023 yildagi PF-67-son, <https://lex.uz/docs/-6461609>
9. Targ'ibot poyezdi: 150 dan ortiq oliy va professional ta'lim muassasalari, korxona va tashkilotlar, harbiy qismlar, aholi yashash manzillarida huquqiy targ'ibot o'tkazildi // <https://www.tsul.uz/uz/news/507/Tadbirlar/Targibot-poyezdi:-150-dan-ortiq-oliy-va-professional-talim-muassasalari,-korxona-va-tashkilotlar,-harbiy-qismlar,-aholi-yashash-manzillarida-huquqiy-targibot-otkazildi>
10. Targ'ibot poyezdi: 150 dan ortiq oliy va professional ta'lim muassasalari, korxona va tashkilotlar, harbiy qismlar, aholi yashash manzillarida huquqiy targ'ibot o'tkazildi // <https://adliya.uz/posts/yangi-tahrirdagi-konstitutsiyani-amalga-oshirish-d>
11. Venice Commission / EU — "Assessment of Georgia Constitutional Reform Process" (2017) // <https://www.venice.coe.int>
12. Venice Commission — "Constitutional Review in Poland: Developments and Challenges" (2019) // <https://www.venice.coe.int/webforms/documents>
13. Council of Europe — "Standards for Public Consultation in Democratic States" (2020) // <https://www.coe.int>
14. OSCE/ODIHR — "Kazakhstan 2022 Constitutional Referendum: Legal Assessment Report" (2022) <https://www.osce.org/odihr>
15. United Nations — "Constitutional Assistance Handbook" (2020) // <https://www.un.org/dgacm/en/content/constitutional-assistance>

FAYZIYEV Xayriddin Sirojiddinovich

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti dotsenti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

YURIDIK XIZMAT FAOLIYATIDA HUQUQIY VOSITALARNING AHAMIYATI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): FAYZIYEV X. S. Yuridik xizmat faoliyatida huquqiy vositalarning ahamiyati // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 6 (2025) B. 19–24.



6 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tashkilotlar yuridik xizmatining faoliyatida huquqiy vositalarning mohiyati, ularning huquqiy munosabatlarni tartibga solishdagi o'rni va samaradorlikni ta'minlashdagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Huquqiy vositalar davlat va jamiyat hayotida huquqiy tartibotni qaror toptirishning muhim elementlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ular orqali tashkilot faoliyati qonuniylik tamoyillari asosida yo'lga qo'yiladi, huquqbuzarliklarning oldi olinadi va boshqaruv jarayonlarida mas'uliyat hamda tartib mustahkamlanadi.

Sohaviy faoliyatdagi huquqiy vositalarning turlari — huquq normalari, huquqiy hujjatlar, shartnomaviy munosabatlar, huquqiy javobgarlik, huquqiy ma'lumot va huquqiy xulosalar tizimi orqali ochib berilgan. Shu bilan birga, huquqiy vositalarning tuzilishi, ulardan foydalanish bosqichlari hamda yuridik xizmatning ichki va tashqi faoliyat yo'nalishlarida ularning amaliy qo'llanilishi ilmiy asosda yoritilgan.

Shuningdek, maqolada yuridik xizmat faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari tahlil qilinib, ulardagi huquqiy vositalarning amaliy ahamiyati va qo'llanish imkoniyatlari aniqlangani holda, muallif tomonidan huquqiy vositalardan samarali foydalanishni ta'minlaydigan tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Yuridik xizmat faoliyatidagi huquqiy vositalar masalasi aynan shunday kontekstda ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilmaganligi sababli, maqolada "huquqiy vositalar" atamasini anglab olish barobarida, sohada ularni qo'llashning xususiyatlari va ahamiyati to'g'risidagi fikr-mulohazalar asosida ayrim xulosalarga kelingan.

Kalit so'zlar: yuridik xizmat, vositalar, huquqiy vositalar, mexanizmlar, huquq normalari, shartnomaviy masalalar, huquqni himoya qilish vositalari, hujjatlar loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish, huquqiy monitoring, qonuniylik.

ФАЙЗИЕВ Хайриддин Сирожиддинович

Доцент Института переподготовки и
повышения квалификации юридических кадров
при Министерстве юстиции Республики Узбекистан,
доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент

ЗНАЧЕНИЕ ПРАВОВЫХ СРЕДСТВ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЮРИДИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ

АННОТАЦИЯ

В данной статье с научной точки зрения анализируется сущность правовых средств в деятельности юридической службы организаций, их роль в регулировании правоотношений

и значение в обеспечении эффективности. Правовые средства выступают как один из важных элементов установления правопорядка в жизни государства и общества. Благодаря им деятельность организации будет налажена на основе принципов законности, будут предотвращены правонарушения, а ответственность и порядок в процессах управления будут укреплены.

Виды правовых средств в отраслевой деятельности раскрываются через систему правовых норм, правовых документов, договорных отношений, правовой ответственности, правовой информации и правовых выводов. Вместе с тем, на научной основе освещены структура правовых средств, этапы их использования, а также их практическое применение во внутренней и внешней деятельности юридической службы.

Также в статье проанализированы законодательные акты, регулирующие деятельность юридической службы, определена практическая значимость и возможности применения правовых средств в них, автором разработаны научные рекомендации по организационным и правовым мерам, обеспечивающим эффективное использование правовых средств.

Поскольку вопрос о правовых средствах в деятельности юридической службы не был научно и теоретически изучен в таком контексте, в статье, наряду с пониманием термина «правовые средства» были сделаны некоторые выводы на основе мнений об особенностях и значении их применения в данной области.

Ключевые слова: юридическая служба, средства, правовые средства, механизмы, правовые нормы, договорные вопросы, средства правовой защиты, правовая экспертиза проектов документов, правовой мониторинг, законность.

KHAYRIDDIN Fayziev Sirozhiddinovich

Associate Professor at the Training Institute for Lawyers,
Doctor of Philosophy (PhD) in Legal Sciences,
Associate professor

THE IMPORTANCE OF LEGAL TOOLS IN LEGAL SERVICE ACTIVITIES

ANNOTATION

This article scientifically analyses the essence of legal instruments in the activities of legal services within organisations, their role in regulating legal relations, and their significance in ensuring effectiveness. Legal means manifest themselves as one of the important elements of establishing legal order in the life of the state and society. Through them, the organization's activities are organized on the basis of the principles of legality, offences are prevented, and responsibility and order in management processes are strengthened.

The types of legal means in sectoral activity are revealed through a system of legal norms, legal documents, contractual relations, legal responsibility, legal information, and legal conclusions. At the same time, the structure of legal instruments, the stages of their use, and their practical application in the internal and external activities of the legal service are covered on a scientific basis.

Also, the article analyses legislative acts regulating the activities of the legal service, determines the practical significance and the possibilities of applying legal instruments in these acts, and develops scientific recommendations on organisational and legal measures to ensure the effective use of these instruments.

Since the issue of legal means in the activities of the legal service has not been studied from a scientific and theoretical point of view in such a context, the article, along with understanding the term "legal means", draws certain conclusions based on opinions about the features and significance of their application in the field.

Keywords: legal service, tools, legal means, mechanisms, legal norms, contractual issues, law enforcement tools, legal expertise of draft documents, legal monitoring, legality.

Yuridik xizmat faoliyati har bir tashkilotning qonuniylikka asoslangan, barqaror va samarali ishlashida muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, globallashtiruv, raqobat va huquqiy munosabatlar murakkablashgan zamonaviy davrda yuridik xizmatlarning roli tobora ortib bormoqda. Bu jarayonda *huquqiy vositalar* yuridik xizmatning asosiy ish quroli sifatida xizmat qilib, huquqni himoya qilish, huquqiy xatarlarni oldini olish va tashkiliy faoliyatni qonun doirasida yuritishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda MDHning boshqa mamlakatlariga nisbatan yuridik xizmat faoliyatini tashkil etish bo'yicha qonunchilik jarayoni birmuncha aniq rivojlanish tendensiyasiga ega bo'lib [1], davlat organlari va tashkilotlariga (tashkilotlar) adliya organlari orqali sifatli hamda professional yuridik xizmat ko'rsatishga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda [2].

Yuridik xizmatni tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad – huquqni qo'llash amaliyotida qonuniylikni ta'minlash orqali, tashkilotlar va xodimlarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish, *huquqiy vositalar* orqali mulkiy va boshqa manfaatlari himoyasini ta'minlash bo'lib hisoblanadi.

Qonunchilik hujjatlari bilan o'ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda soha vakillari (yuriskonsultlar) turli *huquqiy vositalardan* foydalanadilar. Eng qizig'i, amaliy ish faoliyatida qo'llash uchun huquqiy vositalarning andozasi mavjud emasligi bois, ko'p hollarda huquqiy ish jarayonlari tartibsiz tarzda kechaveradi. Hattoki, bir maqsadga yo'naltirilgan ishni bajarishga xizmat qiluvchi ushbu faoliyat, turli davlat organlarida (vazirlik, agentlik v.h.k.) boshqa-boshqa yondashuv asosida olib borilayotganligini kuzatish mumkin.

Bunday holatda, fikrimizcha, yuridik xizmat faoliyatidagi huquqiy ishning mazmuni - ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun, *huquqiy vositalarni* yaratish va amalda qo'llash bo'lganligi sababli, ushbu vositalarning mohiyatini anglab olish va yuridik xizmat faoliyatida uni qo'llashning xususiyatlarini aniqlash zarurati mavjudligidan dalolat beradi.

Yuridik adabiyotlarda "*huquqiy vositalar*" terminiga turlicha tushunchalar berilgan bo'lib, aniq vaziyatga yoki tarmoq yo'nalishiga qarab, ko'proq huquqiy emas, balki "vosita" nuqtayi nazaridan fikrlashlarni (texnik, transport, boshqaruv, to'lov, aylanma v.h.k.) [3] ham ko'rish mumkin. Huquqshunoslikda ushbu terminga huquqqa nisbatan va huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan mexanizm elementlari sifatida birmuncha qarashlar mavjud [4].

Ayrim olimlarning fikriga qaraganda [5], *huquqiy vositalar* turli subyektlarning o'z oldiga qo'ygan huquqiy maqsadlariga qarab farqlanadi. Masalan, davlat vakolatli organlari orqali: a) faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash; b) davlat ro'yxatidan o'tkazish; v) buxgalteriya hisobi va hisobotini reglamentlash; g) texnik reglamentlarni ishlab chiqish va joriy qilish; d) monopoliyaga qarshi tartibga solish; e) ma'muriy ish yuritish; i) sudlovga oid ish yuritishda v.h.k., maxsus *ommaviy-huquqiy vositalardan* foydalanadi.

V.Chervonyukning fikriga ko'ra, huquqning regulativ (tartibga soluvchi) ta'siri bilan bog'liq bo'lgan barcha huquqiy voqeliklar ila bog'liq institutsional tartiblarni *huquqiy vositalar* qatoriga qo'shish mumkin. Jumladan, olim, huquq normalari, huquqni qo'llash hujjatlari, shartnomalarni v.h.k., huquqiy vositalar sifatida ko'rsatish pozitsiyasini bildirgan [6].

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "huquqiy vosita" termini bir butun holda keltirilmagan bo'lib, "*vosita*" terminiga - chora, tadbir, usul; biror maqsadga erishish yoki biror ishni amalga oshirish uchun dastak bo'lib xizmat qiladigan narsa, qurol [7], deya izoh berilgan.

Sohaviy faoliyatlarda ham huquqiy vositalarning ahamiyati to'g'risida ilmiy qarashlar bo'lib, xususan, prokurorning *huquqiy vositalari* deganda, prokuror tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida qo'llaniladigan maxsus huquqiy mexanizmlar tushunilishi, ushbu doiraga prokuror nazorati hujjatlarini kiritish mumkinligiga urg'u berilib, mazkur jarayon qonuniylikni ta'minlash, fuqarolar huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat

manfaatlarini himoya qilish imkonini beradi [8], degan fikrlar bildirilgan. Shuning bilan birga, ayrim tadqiqotchilar, qonunlar ijrosi ustidan nazorat faoliyatida qo'llaniladigan prokuror *huquqiy vositalariga* prokuratura organlari uchun umummajburiy barcha normalarni kiritish mumkinligi to'g'risidagi xulosalarini ilgari surgan [9].

Milliy qonunchilikda mavzuga doir yanada aniq ta'riflar keltirilgan bo'lib, ularda huquqiy vositalarning belgilari va tasniflari ochib berilgan. Jumladan, *huquqiy vositalar* – bu muayyan ko'rsatmalarda va xatti-harakatlarda namoyon bo'ladigan huquqiy hodisa sifatida ko'rsatilib, uning yordamida huquq subyektlarining manfaatlari amalga oshiriladi va ijtimoiy foydali maqsadlarga erishish ta'minlanadi, deyilgan. Huquq normalari va prinsiplari, huquqni qo'llash aktlari, shartnomalar, yuridik faktlar, subyektiv huquq va yuridik majburiyatlar, taqiqlar, imtiyozlar, rag'batlantirish va jazo choralari, huquq va majburiyatlarni amalga oshirish hujjatlari va boshqalar aynan shu toifa qatoridan o'rin olishi alohida bayon qilingan [10, B.218].

Yuridik fanda umumnazariy muammo sifatida tadqiq qilinishi zarur bo'lgan "huquqiy vositalar" terminining ilmiy-nazariy jihatlaridan biroz chekingan holda, ushbu vositalarning huquqni qo'llash faoliyatidagi, ayniqsa, yuridik xizmat ishi bilan bog'liq jarayonlardagi ahamiyati masalasida fikrlarimizni davom ettirsak.

Yuqorida bayon qilingan nazariy qarashlardan kelib chiqib, *yuridik xizmat faoliyatidagi huquqiy vositalarni* - yuridik instrumentlar (normalar, aktlar, shartnomalar, protseduralar v.h.k.) majmui sifatida talqin etib, aynan ular yordamida tashkilotning huquqiy maqsadlariga erishilishi, huquq va majburiyatlarining amalga oshirilishi ta'minlanadi, degan, xulosaga kelish mumkin. Yuridik xizmat ishida ular qonunchilikni amalda qo'llash, hujjatlar loyihalarini tuzish va ekspertizadan o'tkazish, shartnoma intizomini ta'minlash, sud va davlat organlarida tashkilot manfaatlarini ifodalashda yaqqol namoyon bo'ladi.

Yuridik xizmat faoliyatida qo'llanilishi mumkin bo'lgan *huquqiy vositalar tizimini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tasniflash mumkin*:

- me'yoriy-tartibga soluvchi vositalar – amaldagi qonunchilikka mos keluvchi tashkilotning ichki hujjatlari, nizomlari, buyruqlari, yo'riqnomalari v.h.k ;
- shartnomaviy vositalar – fuqarolik-huquqiy shartnomalarni tuzish, o'zgartirish va bekor qilish (mahsulot yetkazib berish, ijara, pudrat, xizmat ko'rsatish va boshqalar);
- huquqni himoya qilish vositalari – intizomiy, moddiy va boshqa javobgarlik choralari qo'llash, sud jarayonlarida ishtirok etish;
- nazorat-tahlil vositalari – hujjatlar loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish, hujjatlarning qonunchilikka muvofiqligini tekshirish;
- axborot-huquqiy vositalari – qonunchilik hujjatlarining monitoringi uchun foydalaniladigan ma'lumotlar bazalari, huquqiy tizimlar va ma'lumotnomalar.

Shuningdek, yuridik xizmatlar ishidagi *huquqiy vositalarning quyidagi funksiyalarini* ajratib ko'rsatish mumkin:

- regulativ – xulq-atvor qoidalarini belgilash va ularning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan;
- himoyaviy – tashkilotning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- preventiv (profilaktik) – qonunbuzilishlarining oldini olish;
- kommunikativ – tashkilot bo'linmalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni ta'minlash;
- axborot-ma'rifiy – xodimlarning huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirishga ko'maklashish.

Yuqorida bildirilgan fikrlarning mantiqiy hosilasi sifatida davlat organi va tashkiloti faoliyatini *huquqiy normalar* orqali tartibga solish hamda ular manfaatlarini himoya qilish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi *mexanizmlarni* bemalol *huquqiy vositalar* sifatida taqdim qilishimiz mumkin. Ular orqali yuridik xizmat quyidagi asosiy yo'nalishlarda [11] o'ziga yuklatilgan muhim funksiyalarni amalga oshiradi:

- davlat organlari va tashkilotlarining huquqni qo'llash faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta'minlashni tashkil etish;

- davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilayotgan (qabul qilinayotgan) normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar loyihalarining qonunchilikka muvofiqligi ustidan nazoratni olib borish;

- davlat organlari va tashkilotlarining norma ijodkorligi faoliyatida ishtirok etish, qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflarni tayyorlash masalalarida ularning tarkibiy tuzilmalari ishini muvofiqlashtirish;

- davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirish, ularga qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini, shu jumladan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali yetkazishda ishtirok etish;

- shartnomaviy-huquqiy va talabnoma-da'vo ishlarini yuritish, davlat organlari va tashkilotlarining mulkiy va boshqa manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini ta'minlash.

Bundan tashqari, yuridik xizmat faoliyatida *huquqiy vositalarning samaradorligi* ko'p jihatdan quyidagi chora-tadbirlarning natijadorligi bilan ham bog'liq hisoblanadi:

- *huquqiy monitoring* – qonuniylikni ta'minlash bo'yicha ishlarning dastlabki bosqichi bo'lib, ommaviy boshqaruv subyekti faoliyatini huquqiy tartibga solish manbalarini doimiy kuzatish, o'rganish va tahlil qilishni ko'zlaydi. Uning yakuniy natijasi yuridik xizmat tomonidan tashkilot rahbari va boshqa mas'ullar uchun ijro etishga qulay bo'lgan shaklda tayyorlanadigan huquqiy axborotdan iborat ichki hujjatlar (ma'lumotnoma, bildirishnoma va h.k.) hisoblanadi. Agar yuridik xizmat o'z kuchi bilan bunday tahliliy ishga tayyor bo'lmasa, huquqiy monitoring uchun zaruriy resurs va tajribaga ega tashqi maslahatchilarni jalb qilish kerak;

- *qonuniylikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan axborotni rahbariyat va mas'ul ijrochilarga yetkazish* – yuridik xizmat tomonidan huquqiy monitoring jarayonida tayyorlangan axborot hujjatlarini rahbar va huquqiy ishning muayyan qismlariga mas'ul bo'lgan boshqa mansabdor shaxslarga ularning vakolati doirasida tezkor yetkazib berishni ko'zda tutadi;

- keyingisi, mazmuniga ko'ra, qonuniylikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha *takliflarni tayyorlash* choralari majmuidan iborat (masalan, qaysi ichki huquqiy hujjatlar yoki bitimlarga qanday o'zgartirishlar kiritish kerak, qanday boshqa harakatlar sodir qilish yoki aksincha, to'xtatish kerak v.h.k.). Ishlab chiqilayotgan takliflar qonuniylik talablarini ta'minlash uchun ijro etilishini talab qiladigan huquqiy chora-tadbirlar rejasi loyahasini ko'zda tutadi va tarkibiy bo'linmalar va tegishli huquqiy ish guruhlarini rahbarlari bilan kelishilgan bo'lishi lozim;

- yuridik xizmat ishlab chiqqan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanganidan so'ng *tegishli tadbirlar ijrosini tashkil etishi* kerak. Buning uchun rejada ko'zda tutilgan chora-tadbirlarning mas'ul ijrochilarini (tarkibiy bo'linmalar yoki huquqiy ishlar guruhlarini rahbarlarini) aniqlash va ularga tegishli ma'lumotlarni tezkorlik bilan yetkazish lozim. Keyinchalik, mas'ul ijrochilar konkret tadbirlarni amalga oshirish uchun o'z vakolatlari doirasida yanada batafsil chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi va ushbu rejalarini yuridik xizmat va boshqa tarkibiy bo'linmalar (guruhlar) bilan kelishadi. Shundan so'ng, ular tegishli tadbirlarni amaliy jihatdan bajarishga kirishadi;

- *ichki nazorat* – amaliyotda huquqiy ishlarni boshqarish uchun tashkiliy tuzilmalar xilma-xilligiga qaramasdan, shunga intilish lozimki, *aynan yuridik xizmat* tashkilot faoliyatining qonuniyligi ustidan umumiy ichki nazoratni amalga oshirishi zarur. Bu vosita nazoratning mustaqilligi va xolisligini ta'minlashga imkon yaratib, huquqiy ishlar sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uni o'tkazish davomida tashkilot rahbari aniqlangan yoki taxminiy huquqbuzarlik to'g'risida xabardor qilinadi yoki xodimning bevosita rahbariga murojaat qilish orqali, uning nojo'ya xatti-harakatlari cheklanadi;

– qonuniylikni ta'minlash bo'yicha *ish natijalarini baholash* ham muhim bosqich hisoblanadi. Ishlar natijadorligini baholash miqdoriy ko'rsatkichlarga, eng avvalo, huquqiy ko'rsatkichlarga qurilishi kerak. Xususan, *natijadorlikning huquqiy ko'rsatkichlari* ichki nazorat jarayonida aniqlangan:

- tashkilot, uning rahbarlari va xodimlarining faoliyatidagi qonun buzilishlari dinamikasi;
- qonuniylikni buzganlik uchun yurisdiksiya organlari tomonidan sanksiyalarni qo'llash davriyligining huquqbuzarliklar soniga nisbati, shuningdek, ma'lum bir davr mobaynida to'xtatilgan (oldi olingan) huquqbuzarliklar dinamikasini qamrab oladi.

Huquqni qo'llash amaliyotining tahlili, yuridik xizmat sohasida huquqiy ish yagona standartlarining shakllantirilmaganligi, malakali huquqshunos kadrlarning yetishmasligi va zamonaviy IT-vositalardan foydalanish imkoniyatlari barcha tashkilotlarda ham birdek keng qamrovli emasligi kabi muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Bu esa o'z navbatida huquqiy ish jarayonlarini raqamlashtirish, sohaga jadallik bilan LegalTech tizimlarini joriy etish, shuningdek, yuridik xizmatning profilaktik funksiyalarini kengaytirishni taqozo qiladi.

Yuridik xizmatlar faoliyatida qo'llaniladigan *huquqiy vositalarning* ahamiyati to'g'risidagi fikrlarimizga xulosa nuqtayi nazaridan ta'kidlash joizki, qayd etilgan jihatlar huquqiy tartibga solish mexanizmining asosiy elementi bo'lib, ularsiz tashkilotning samarali faoliyat yuritishi mumkin emas. Yuridik xizmat tomonidan ushbu vositalardan oqilona foydalanish esa, qonuniylikni mustahkamlash, tashkilot manfaatlarini ishonchli himoya qilinishiga xizmat qiladi.

Iqtiboslar/Snoski/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 2-martdagi 118-son "O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruv organlari va korxonalaridagi yuridik xizmat to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi qaror, O'zbekiston Respublikasi Hukumat qarorlari to'plami, 1993 y., №3, 8-mod., (hujjat kuchini yo'qotgan, 24.08.2007 y.), <https://lex.uz/uz/docs/-619648>; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 24-avgustdagi "Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari faoliyatini huquqiy ta'minlash darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 182-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 35-36-son, 355-modda; 2012 y., № 37, 429-mod.; 2013 y., № 50, 650-mod.; 2015 y., №23, 302-mod., (hujjat kuchini yo'qotgan, 10.05.2017 y.), [/lex.uz/ru/docs/1240679](https://lex.uz/ru/docs/1240679); O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 22-noyabrda "Yuridik xizmat xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish va malakasini oshirish haqidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 244-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 46-47-son, 472-mod.; <http://lex.uz/ru/docs/1274006>; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi PQ-2733-son "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-3098964>; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 1-maydagi 250-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi PQ-2733-son "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 18-son, 323-mod.; Qonun hujjatlari milliy bazasi, 14.02.2018 y., №09/18/107/0697, <http://lex.uz/ru/docs/3189363>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2021-yildagi PQ-5168-son qarori, <https://lex.uz/uz/docs/5482934>.

3. Алексеев С. С. Правовые средства: постановка проблемы, понятие, классификация // Советское государство и право. 1987. № 6. С. 14.

4. Лапшинов Э.В. Понятие правовых средств в правовой традиции // <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-pravovyh-sredstv-v-pravovoy-traditsii>.

5. Цветков Э.В., Филиппова С.Ю. Организация правовой работы. – Москва: Проспект. 2014. – С.53.

6. Червонюк В.И. Теория государства и права: Учебник. – М., 2007. – С. 322

7. O'zbek tilining izohli lug'ati: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. B.468.

8. Saidmuradov N.N. Prokuror talabi va uning o'ziga xos jihatlari // <https://doi.org/10.5281/zenodo.15421090>

9. Komilov.A.B. Prokuror huquqiy vositalarining milliy huquqiy asoslari tahlili // <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-1>.

10. Saydullayev Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik. –Toshkent: TDYUU, 2021. –B 218.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.01.2017-yildagi PQ-2733-son qarori, <https://lex.uz/uz/docs/-3098964>

RAXMONOV Zafarjon Zayniddinovich

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish
Instituti Pedagoglar markazi mudiri,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: z.raxmanov95@gmail.com

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MA'MURIY SUDLAR FAOLIYATINING RIVOJLANISH TENDENSIYASI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): RAXMONOV Z.Z.
O'zbekiston Respublikasida ma'muriy sudlar faoliyatining rivojlanish tendensiyasi // Yurist
axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 6 (2025) B. 25–31.



6 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasida ma'muriy sudlar faoliyatining shakllanishi, huquqiy asoslari hamda rivojlanish tendensiyalari kompleks va tizimli tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotda ma'muriy sudlov institutining evolyutsiyasi davlat mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab hozirgi kunga qadar amalga oshirilgan sud-huquq islohotlari, qonunchilikdagi o'zgarishlar va sud amaliyotida shakllangan tendensiyalar asosida yoritilgan. Muallif tomonidan ma'muriy sudlov rivoji uch bosqichga ajratilib, har bir bosqichning o'ziga xos institutsional, protsessual va funksional xususiyatlari ochib berilgan. Ayniqsa, ma'muriy sudlarning alohida sud turi sifatida tashkil etilishi fuqarolar va yuridik shaxslarni davlat boshqaruvi organlari hamda ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligidan himoya qilishda muhim huquqiy kafolat sifatida baholangan. Shuningdek, maqolada ma'muriy sud ishlarini yuritishning protsessual mexanizmlarini takomillashtirish, sud qarorlari ijrosini ta'minlash, sud jarayonida taraflarning tengligi va tortishuvchanlik prinsiplarini kuchaytirishga qaratilgan islohotlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ma'muriy sudlov institutining inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda, shuningdek, davlat va fuqaro o'rtasidagi ommaviy-huquqiy munosabatlarda qonuniylikni ta'minlashdagi ahamiyati tobora ortib borayotganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ma'muriy sud, ma'muriy sudlov, ommaviy-huquqiy nizo, sud islohotlari, protsessual kafolatlar.

РАХМОНОВ Зафаржон Зайниддинович

Заведующий Центром педагогов Института переподготовки
и повышения квалификации юридических кадров
при Министерстве юстиции Республики Узбекистан,
доктор философии по юридическим наукам (PhD)
E-mail: z.raxmanov95@gmail.com

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АДМИНИСТРАТИВНЫХ СУДОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье проведён комплексный и системный анализ становления, правовых основ и тенденций развития административных судов в Республике Узбекистан. Исследование охватывает эволюцию института административного судопроизводства с первых лет

государственной независимости до современного этапа с учётом масштабных судебно-правовых реформ, изменений в законодательстве и тенденций, сформировавшихся в судебной практике. Автором предложено условное деление развития административного судопроизводства на три этапа, каждый из которых характеризуется своими институциональными, процессуальными и функциональными особенностями. Особое внимание уделено созданию административных судов как самостоятельного вида судебных органов, что существенно укрепило судебную защиту прав и законных интересов физических и юридических лиц от незаконных решений, действий либо бездействия органов государственной власти и их должностных лиц. Кроме того, в статье проанализированы реформы, направленные на совершенствование процессуальных механизмов административного судопроизводства, обеспечение исполнения судебных актов, усиление принципов равенства сторон и состязательности, а также расширение доступа к правосудию по публично-правовым спорам. Сделанные выводы свидетельствуют о возрастающей роли административного судопроизводства в обеспечении прав человека, законности и подотчётности публичной власти в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: административные суды, административное судопроизводство, публично-правовые споры, судебные реформы, процессуальные гарантии.

RAKHMONOV Zafarjon Zayniddinovich

Head of the Pedagogical Center of the Training
Institute for Lawyers under the Ministry of Justice
of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Law
E-mail: z.raxmanov95@gmail.com

DEVELOPMENT TRENDS OF ADMINISTRATIVE COURTS' ACTIVITIES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ANNOTATION

This scientific article provides a comprehensive and systematic analysis of the formation, legal foundations, and development trends of administrative courts in the Republic of Uzbekistan. The study examines the evolution of the administrative justice system from the early years of state independence to the present, taking into account large-scale judicial reforms, legislative changes, and trends emerging from judicial practice. The author proposes a three-stage model for analyzing the development of administrative justice, revealing the institutional, procedural, and functional characteristics of each stage. Particular emphasis is placed on the establishment of administrative courts as an independent branch of the judiciary, which has significantly strengthened judicial protection for individuals and legal entities against unlawful decisions, actions, or inaction of public authorities and officials. The article also analyzes reforms aimed at improving administrative procedural mechanisms, ensuring effective enforcement of court decisions, enhancing the principles of equality of parties and adversarial proceedings, and expanding access to justice in public-law disputes. The findings of the study demonstrate that administrative justice has evolved into a key institutional guarantee for the protection of human rights and freedoms, as well as for ensuring legality and accountability in relations between the state and citizens. The conclusions presented may serve as a theoretical and practical basis for further improvement of administrative justice and judicial reform policies in Uzbekistan.

Keywords: administrative courts, administrative justice, public-law disputes, judicial reforms, procedural guarantees.

Jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish davlatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasida davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat

qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas'ul ekanligi mustahkamlangan.

Ta'kidlash joizki, fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlarini himoya qilishda sudlarning roli beqiyos. Ayniqsa, ularni davlat boshqaruv organlari va ularning mansabdor shaxslarining noqonuniy xatti-harakatlari va qarorlaridan himoya qilish vazifasini bajaradigan ma'muriy sudlarning ahamiyati katta.

Shu sababli, so'nggi yillarda ma'muriy sudlar faoliyatini takomillashtirish, ular tomonidan fuqarolar huquqlarini ishonchli himoya qilinishini ta'minlash maqsadida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda ommaviy-huquqiy nizolarni sudlar tomonidan ko'rib chiqish va hal qilishning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilishdan oldin ularni muayyan bosqichlarga ajratish maqsadga muvofiq. Mamlakatimizda ma'muriy odil sudlovni rivojlanishi bir qator olimlar tomonidan bosqichlarga ajratilgan holda tadqiq etilgan. Xususan, M.Eshimbetov fikricha O'zbekistonda ma'muriy sudlar faoliyatini rivojlantirishni to'rt bosqichga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq [1]. Unga ko'ra birinchi bosqich 1991-1997-yillarni, ikkinchi bosqich 1997-2016-yillarni, uchinchi bosqich 2016-2021-yillarni va to'rtinchi bosqich 2021-yildan hozirgi vaqtga qadar bo'lgan davrni qamrab oladi. M.Eshimbetov bunday davrlarga bo'lgan holda o'rganishni sohaga oid qonunchilik hujjatlarining takomillashishi va nizoni ko'ruvchi sudlar faoliyati bilan asoslagan.

Fikrimizcha, M.Eshimbetovdan farqli ravishda O'zbekistonda ma'muriy sudlovni quyidagi 3 bosqichga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq:

Birinchi bosqich – 1991-2016 yillar:

Ikkinchi bosqich – 2017-2020 yillar

Uchinchi bosqich – 2021-yildan hozirga qadar.

Ma'muriy sudlov rivojlanishining birinchi bosqichiga xos xususiyat shundan iboratki, mazkur davrda ommaviy-huquqiy nizolarni ko'rib chiqishga ixtisoslashgan alohida ma'muriy sudlar mavjud bo'lmagan. Bunday nizolar xo'jalik sudlari hamda fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan umumiy vakolat doirasida ko'rib chiqilgan. Quyida ma'muriy sudlov tizimining rivojlanish bosqichlari va har bir bosqichning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi.

Shuni ham qayd etish joizki, ma'muriy sudlov tizimi rivojlanishining birinchi bosqichida sud-huquq sohasida mustahkam qonunchilik bazasi shakllantirildi. Jumladan, davlat mustaqilligining huquqiy poydevori hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinib, uning XXII bobi to'liq O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyatiga bag'ishlandi.

Ushbu bosqichning o'ziga xos xususiyati mustaqil O'zbekiston sharoitida ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan qabul qilingan, normativ-huquqiy xarakterga ega bo'lmagan majburiy tusdagi hujjatlar, shuningdek, ular mansabdor shaxslarining xatti-harakatlari (harakatsizligi) ustidan davlat hokimiyatining ijro etuvchi tarmog'idan institutsional jihatdan mustaqil bo'lgan sud hokimiyatiga shikoyat qilish huquqining konstitutsiyaviy darajada kafolatlanganligi bilan tavsiflanadi.

Shunday qilib, 1991–2016-yillar mobaynida ma'muriy organlar qarorlari, shuningdek, ular mansabdor shaxslarining xatti-harakatlari (harakatsizligi) ustidan sud tartibida shikoyat qilish mexanizmi hamda mazkur toifadagi ishlarni sudlarda ko'rib chiqishning o'ziga xos protsessual xususiyatlari bosqichma-bosqich shakllantirilib, izchil ravishda takomillashtirib borildi.

Biroq ushbu davrda ma'muriy-huquqiy nizolar xo'jalik sudlari va umumiy yurisdiksiya sudlari tomonidan ko'rib chiqilganligi sababli, ayrim hollarda bir xil toifadagi ishlar bo'yicha sud amaliyotida turlicha yondashuvlar shakllandi, shuningdek sudlovga taalluqlilik masalalari yuzaga keldi.

Mazkur muammolarga huquqiy yechim topish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining tegishli qarorlari qabul qilindi.

Shu bilan birga, ixtisoslashgan sudlarni tashkil etish zarurati va ishlar yurituvini ixtisoslashgan sudlar hamda umumiy yurisdiksiya sudlari o'rtasida taqsimlash masalasi maxsus bilim va alohida protsessual tartib-taomillarni talab etuvchi nizolar paydo bo'lishi bilan yanada dolzarb ahamiyat kasb etdi. Bunda ushbu nizolarning qaysi sud vakolati doirasiga taalluqli ekanligini aniq belgilash muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, 2016-yil 21-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4580-son Farmoni qabul qilinib, unga muvofiq fuqarolik, jinoyat ishlari bo'yicha sudlar va xo'jalik sudlari vakolatlarini qayta ko'rib chiqish orqali ma'muriy sudlarni tashkil etish vazifasi belgilandi [2].

Ma'muriy sudlar tizimini shakllantirishning **ikkinchi bosqichi** 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi [3] hamda 2017-yil 21-fevralda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmonlari [4] bilan boshlandi.

Mazkur Farmonga muvofiq, sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan institutsional islohotlar doirasida sudyalarning hamjamiyatining oliy organi sifatida O'zbekiston Respublikasi Sudyalarning oliy kengashi tashkil etildi. Shu bilan birga, sud tizimidagi dualizmga barham berish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi birlashtirilib, yagona oliy sud organi – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi qayta shakllantirildi.

Farmonning eng muhim jihatlaridan biri davlat organlari hamda ularning mansabdor shaxslari tomonidan yo'l qo'yiladigan g'ayriqonuniy qarorlar, harakatlar yoki harakatsizliklar ustidan fuqarolarning sudga murojaat qilish huquqini samarali ta'minlashga qaratilgan maxsus ma'muriy sudlar tizimining joriy etilganligi bilan izohlanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tarkibida ma'muriy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri ma'muriy sudlari, shuningdek tuman (shahar) ma'muriy sudlari tashkil etildi.

Keyinchalik, 2017-yil 6-aprelda qabul qilingan O'RQ-426-sonli Qonun bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, 107-moddaning birinchi qismi yangi tahrirda bayon etildi. Unga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi sud tizimi Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, harbiy sudlar, shuningdek fuqarolik, jinoyat, iqtisodiy va ma'muriy sudlarni o'z ichiga olgan yaxlit, ko'p bosqichli tizim sifatida belgilab qo'yildi. Mazkur konstitutsiyaviy norma ma'muriy sudlarning alohida sud turi sifatida institutsional jihatdan mustahkamlanganligini anglatdi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, 2017-yil 1-iyunga qadar davlat organlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyatlar turli protsessual tartiblarda ko'rib chiqilgan. Xususan, bunday nizolar Fuqarolik protsessual kodeksi va Xo'jalik (iqtisodiy) protsessual kodeksiga muvofiq fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar va xo'jalik sudlari tomonidan hal etilgan, ma'muriy huquqbuzarliklarga oid ishlar esa Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks asosida jinoyat ishlari bo'yicha sudlar vakolatiga kiritilgan edi.

Mazkur davr ommaviy-huquqiy nizolarni hal qilishga ixtisoslashtirilgan alohida ma'muriy sudlarning tashkil etilishi bilan ajralib turadi. M.Eshimbetov ushbu bosqichni "sud hokimiyati tizimida ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi nizolarni hal etishga ixtisoslashgan sudlar, ma'muriy sudlarning tashkil etilishi hamda nizoni sudda ko'rishning protsessual tartibini belgilovchi kodeks qabul qilinganligini ko'rsatadi" deya tariflaydi.

Qayd etish joizki, ma'muriy sudlarning tashkil etilishi fuqarolar hamda yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga

ko'tardi. Zero, ma'muriy-huquqiy nizolarning ixtisoslashgan sudyalar tomonidan ko'rib chiqilishi ishlarning o'z vaqtida, xolis va yuqori professional darajada hal etilishini ta'minlashga xizmat qildi.

Mamlakatimizda ma'muriy sudlar institutining joriy etilishi O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar bilan uzviy bog'liq bo'lib, mazkur hujjatda ma'muriy sudlarni tashkil etish inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan sud hokimiyatining haqiqiy mustaqilligini ta'minlash, sud ishlarini ko'rish va hal etish sifatini oshirish, shu orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlashga qaratilgan chora sifatida nazarda tutilgan.

2018-yildan boshlab ma'muriy sudlar rivojida sifat jihatdan yangi bosqich boshlanib, ma'muriy sud ishlarini yuritish instituti to'liq shakllandi va mustaqil protsessual huquqiy asosga ega bo'ldi. Bu davrda ma'muriy sudlovni tartibga soluvchi maxsus qonunchilik bazasi yaratildi.

Xususan, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonun hamda Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning qabul qilinishi mazkur sohadagi islohotlarning muhim bosqichi hisoblanadi. Zero, ma'muriy sudlovni amalga oshiruvchi sudlar faoliyatini tartibga soluvchi protsessual kodeks ma'muriy-huquqiy nizolarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularni hal etishga qaratilgan maxsus huquqiy normalarni o'z ichiga oldi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ma'muriy sudlar 2017-yil 1-iyundan faoliyat yurita boshlagan dastlabki davrda ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishda protsessual harakatlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi qoidalari asosida amalga oshirilgan.

Keyinchalik, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyulda qabul qilingan "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6034-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash doirasida 2021-yil 1-yanvardan e'tiboran sud tizimida navbatdagi institutsional islohot amalga oshirildi. Unga muvofiq, viloyat va ularga tenglashtirilgan fuqarolik ishlari bo'yicha, jinoyat ishlari bo'yicha hamda iqtisodiy sudlar negizida sudyalarning qat'iy ixtisoslashuvi saqlangan holda, ish yuritish turlari bo'yicha alohida sudlov hay'atlariga ega bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar umumyurisdiksiya sudlari tashkil etildi.

Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha ish yuritish vakolati ma'muriy sudlardan jinoyat ishlari bo'yicha sudlarga o'tkazildi. Shu bilan birga, ma'muriy hamda boshqa ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni ko'rib chiqishga ixtisoslashgan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida tumanlararo ma'muriy sudlarni tashkil etish munosabati bilan tuman (shahar) ma'muriy sudlari faoliyati tugatildi.

Mazkur islohotlar fuqarolarning odil sudlovga yetib borish imkoniyatlarini kengaytirish, sudda ishlarni ko'rib chiqish sifatini oshirish, xolis, adolatli va qonuniy sud qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan protsessual kafolatlarini mustahkamlashga qaratildi. Xususan, taraflarning tengligi va tortishuvchanlik prinsiplarini amalda ta'minlashga xizmat qiluvchi mexanizmlar sezilarli darajada kengaytirildi.

Mazkur bosqichda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi sifatida sud tizimida, jumladan ma'muriy sudlovda "bir sud – bir instansiya" tamoyili joriy etildi. Natijada Oliy sudning nazorat instansiyasi bekor qilinib, ishlar bo'yicha sud qarorlarini kassatsiya tartibida qayta ko'rib chiqish instituti joriy etildi.

Ma'muriy sudlov tizimi rivojlanishining **uchinchi bosqichi** 2021-yildan boshlanib, hozirgi kunga qadar davom etmoqda. Ushbu davr ma'muriy sudlovni yanada takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamlı institutsional va protsessual islohotlar bilan xarakterlanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6034-sonli Farmoniga muvofiq [5], 2021-yil 1-yanvardan e'tiboran ma'muriy huquqbuzarliklarga oid ishlarni ko'rib chiqish vakolati ma'muriy sudlardan jinoyat

ishlari bo'yicha sudlarga o'tkazildi. Bu esa ma'muriy sudlar faoliyatini faqat ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan sof ma'muriy nizolarni ko'rib chiqishga yo'naltirish imkonini yaratdi.

Mazkur masala yuzasidan fikr bildirgan M.Eshimbetovning ta'kidlashicha, ma'muriy sudlar faoliyatining dastlabki uch yildan ortiq davri asosan amaliy tajriba to'plash bosqichi bo'lgan [6]. Ushbu davrda ma'muriy sudlar tomonidan bir vaqtning o'zida ham ommaviy-huquqiy nizolar, hamda ma'muriy huquqbuzarliklarga oid ishlar ko'rib chiqilgani sud faoliyatini ixtisoslashtirish nuqtayi nazaridan maqsadga muvofiq emasligi haqida xulosaga kelingan.

Uchinchi bosqichdagi islohotlarning mantiqiy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvarda "Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya etilishini ta'minlash hamda aholining sudlarga bo'lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-107-son qaror qabul qilindi [7]. Mazkur qaror bilan ma'muriy sudlov sohasida qator yangi mexanizmlarni joriy etish nazarda tutildi.

Xususan, ma'muriy sud ishlarini yuritish "sudning faol ishtiroki" tamoyili asosida amalga oshirilishi belgilab qo'yildi. Bunda sudlarga ishning haqiqiy holatlarini aniqlash maqsadida o'z tashabbusi bilan dalillarni yig'ish majburiyati yuklatilib, huquqi buzilgan fuqaro yoki tadbirkorlik subyekti uchun dalillar to'plashda faqat o'z imkoniyatlari doirasida ishtirok etish sharoiti yaratildi.

Shuningdek, huquqi buzilgan shaxsga ommaviy-huquqiy munosabatdan kelib chiqadigan nizo bilan bir qatorda unga sababiy bog'liq bo'lgan zararni undirish talabini ham ma'muriy sudga kiritish huquqi berildi hamda bunday talablarni ko'rib chiqish ma'muriy sudlar vakolatiga o'tkazildi.

Qarorga muvofiq, ma'muriy sudlarning ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha qabul qilgan hal qiluv qarorlari davlat organlari yoki tashkilotlari tomonidan ijro etilmagan taqdirda, ularning mansabdor shaxslariga nisbatan sud jarimalarini qo'llash mexanizmi joriy etildi. Shu bilan birga, mazkur toifadagi ishlar bo'yicha taraflar o'rtasida yarashuvga erishish hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda kelishuv bitimini tuzish imkoniyati kengaytirildi.

Bundan tashqari, davlat organlari yoki tashkilotlari ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ish bo'yicha hal qiluv qarorini u qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran bir oy muddatda ijro etishi va bu haqda ma'muriy sudni xabardor qilishi majburiyati belgilandi. Sud hujjati ijro etilmagan taqdirda mansabdor shaxslarga nisbatan sud jarimasi qo'llanilishi, qaror takroran bajarilmagan hollarda esa mazkur jarimaning oshirilgan miqdorda tayinlanishi nazarda tutildi.

Mazkur qarorda belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida 2023-yil 26-aprelda qabul qilingan O'RQ-833-sonli Qonun [8] bilan Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksga qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Shuningdek, fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan sud orqali himoyalanih hamda sudga murojaat qilish huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish, buzilgan huquq va erkinliklarini, shu jumladan qonuniy manfaatlarini kengroq himoya qilish, odil sudlovga yetib borish imkoniyatlarini oshirish, ishlar sudlarda o'z vaqtida va sifatli ko'rib chiqilishini ta'minlash, sud qarorlarini qayta ko'rib chiqishda o'rta bo'g'in – viloyat sudlari va ularga tenglashtirilgan sudlar salohiyatidan samarali foydalanish, shu bilan birga fuqarolarning ortiqcha sud xarajatlarini kamaytirish maqsadida 2023-yil 25-dekabrda qabul qilingan O'RQ-889-sonli Qonun bilan mazkur kodeksga yana tegishli o'zgartirishlar kiritildi. Ushbu qonun bilan sud hujjatlarini qayta ko'rib chiqishning yangi bosqichi – taftish instansiyasi joriy etildi [9].

Ma'muriy sudlov tizimini takomillashtirishga qaratilgan navbatdagi muhim yangiliklar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PQ-33-sonli qarori bilan joriy etildi [10]. Mazkur qarorga muvofiq, ma'muriy sudlar faoliyatiga qator institutsional va protsessual

mexanizmlar kiritildi. Xususan, qaror, harakat yoki harakatsizligi ustidan shikoyat qilingan davlat organining mansabdor shaxsi yoki uning vakilining sud majlisida majburiy ishtirok etishini ta'minlash tartibi belgilab qo'yildi.

Shu bilan birga, ma'muriy sud ish yurituvida ishlarning tezkor va sifatli ko'rib chiqilishini ta'minlash, fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlariga o'z huquqlarini himoya qilish uchun qo'shimcha protsessual imkoniyatlar yaratishga qaratilgan dastlabki eshituv instituti joriy etildi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda ma'muriy-huquqiy nizolarni ko'rib chiqishga ixtisoslashgan sudlar tizimining shakllantirilishi fuqarolar va yuridik shaxslarni davlat boshqaruvi organlari hamda ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligidan sud orqali himoya qilish samaradorligini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi. Bu esa ma'muriy sudlov institutining inson huquq va erkinliklarini ta'minlashdagi ahamiyati tobora ortib borayotganini yaqqol namoyon etadi.

Iqtiboslar/Snoski/References:

1. Eshimbetov M. Ma'muriy organlar va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari, harakatsizligi yuzasidan kelib chiqdigan nizolarni sudda ko'rib chiqish tartibini takomillashtirish. Yu.f.f.d. doktorlik dissertatsiyasi. - T. TDYU. 13 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4580-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 43-son, 497-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2021 y., 06/21/6217/0409-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4966-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 23.08.2025 y., 06/25/140/0771-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6034-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 23.08.2025 y., 06/25/140/0771-son.
6. Eshimbetov M. Ma'muriy organlar va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari, harakatsizligi yuzasidan kelib chiqdigan nizolarni sudda ko'rib chiqish tartibini takomillashtirish. Yu.f.f.d. doktorlik dissertatsiyasi. - T. TDYU. 13 bet.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvarda "Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya etilishini ta'minlash hamda aholining sudlarga bo'lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-107-son qaror // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 07/22/107/0083-son.
8. O'zbekiston Respublikasining "Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya qilinishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-833-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.04.2023-y., 03/23/833/0236-son.
9. O'zbekiston Respublikasining "Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya qilinishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-833-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.04.2023-y., 03/23/833/0236-son.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-33-son qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 30.01.2025 y., 07/25/33/0091-son.

MAMAZIYAYEV Xusniddin Dilshod o'g'li

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini
 oshirish instituti Ilmiy-innovatsion tadqiqotlarni
 muvofiqlashtirish bo'limi Bosh mutaxassisi,
 Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini
 oshirish Instituti mustaqil izlanuvchisi
 E-mail: djhusniddin28@gmail.com

HUDUDIY ADLIYA ORGANLARI FAOLIYATINING NAZARIY VA TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): MAMAZIYAYEV X.D.
 Hududiy adliya organlari faoliyatining nazariy va tashkiliy-huquqiy asoslari // Yurist
 axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 6 (2025) B. 32–40.



6 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hududiy adliya organlarining huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi o'рни, ularning nazariy hamda tashkiliy-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. PQ–3666-son qarori asosida hududiy bo'linmalarning mustaqil davlat boshqaruvi organi sifatidagi maqomi, mahalliy hokimiyat qarorlarining adliya organlari ijobiy xulosasisiz kuchga kirmasligi talabi hamda huquq ijodkorligi ustidan markazlashgan nazorat mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, 2024–2025-yillardagi institutsional yangilanishlar doirasida kadrlar salohiyatini oshirish, odob-axloq va korrupsiyaga qarshi siyosat talablari, yuridik xizmatlar sifati, shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish yo'nalishlari ko'rib chiqiladi. Davlat xizmatlarini raqamlashtirish, "Yagona portal" orqali huquqiy xizmatlar ko'rsatish hamda intellektual mulkni himoya qilish bo'yicha hududiy organlarning amaliy vazifalari batafsil tahlil etilib, ularning fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikdagi roli ochib beriladi. Shu bilan birga, maqolada hududiy adliya organlari faoliyati xalqaro standartlar, ilg'or xorijiy tajriba va mahalliy amaliyot bilan solishtirma tahlil qilinib, mavjud muammolar, institutsional bo'shliqlar va modernizatsiya ehtiyojlari aniqlanadi. Tizimli ilmiy tahlil natijasida ularning vakolatlari, boshqaruv modeli, raqamli transformatsiya jarayonlari hamda jamiyat bilan o'zaro muloqot mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: hududiy adliya organlari, adliya boshqarmasi, tuman (shahar) adliya bo'limi, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, huquq ijodkorligi, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqiy ekspertiza, davlat xizmatlari, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, huquqiy targ'ibot, yuridik xizmatlar, notariat va advokatura, intellektual mulk, ijro intizomi, ma'muriy tartib-taomillar, odob-axloq qoidalari, Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti.

МАМАЗИЯЕВ Хусниддин Дилшодович

Институт переподготовки и повышения квалификации
 юридических кадров при Министерстве юстиции
 Ведущий специалист отдела координации
 научно-инновационных исследований,
 независимый соискатель Института переподготовки
 и повышения квалификации юридических кадров
 E-mail: djhusniddin28@gmail.com

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТЕРРИТОРИАЛЬНЫХ ОРГАНОВ ЮСТИЦИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются роль территориальных органов юстиции в построении правового государства и гражданского общества, а также их теоретические и организационно-правовые

основы. На базе постановления Президента ПП–3666 раскрывается статус территориальных подразделений как самостоятельных органов государственного управления, требование о недопущении вступления в силу решений местных органов власти без положительного заключения органов юстиции, а также механизмы централизованного контроля за правотворчеством. Кроме того, в контексте институциональных обновлений 2024–2025 годов рассматриваются вопросы повышения кадрового потенциала, требований служебной этики и антикоррупционной политики, улучшения качества юридических услуг, усиления прозрачности и подотчётности. Анализируются практические задачи территориальных органов по цифровизации государственных услуг, развитию предоставления правовых услуг через «Единый портал» и по защите объектов интеллектуальной собственности, раскрывается их роль во взаимодействии с институтами гражданского общества. Вместе с тем деятельность территориальных органов юстиции подвергается сравнительному анализу с учётом международных стандартов, передового зарубежного опыта и национальной практики, выявляются существующие проблемы, институциональные пробелы и потребности модернизации. В результате системного научного анализа вырабатываются научно обоснованные предложения и рекомендации, направленные на совершенствование их полномочий, модели управления, процессов цифровой трансформации, а также механизмов взаимодействия с обществом.

Ключевые слова: территориальные органы юстиции, управление юстиции, районный (городской) отдел юстиции, правовое государство, гражданское общество, правотворчество, нормативно-правовые акты, правовая экспертиза, государственные услуги, цифровизация государственных услуг, правовое просвещение; юридические услуги, нотариат и адвокатура, интеллектуальная собственность, исполнительская дисциплина; административные процедуры, правила служебной этики, Институт переподготовки и повышения квалификации юридических кадров.

KHUSNIDDIN Mamaziyayev Dilshodovich
Training Institute for Lawyers under Ministry of
Justice of the Republic of Uzbekistan
Department for Coordination of Scientific and
Innovative Research Leading Specialist,
Independent Researcher of the
Training Institute for Lawyers
E-mail: djhusniddin28@gmail.com

THE THEORETICAL AND ORGANIZATIONAL-LEGAL FOUNDATIONS OF THE ACTIVITIES OF TERRITORIAL JUSTICE BODIES

ANNOTATION

This article examines the role of territorial justice bodies in building a rule-of-law state and a civil society, as well as their theoretical and organizational-legal foundations. Based on Presidential Resolution PQ–3666, the study highlights the status of territorial units as independent public administration bodies, the requirement that decisions of local authorities do not enter into force without the positive legal opinion of justice bodies, and the mechanisms of centralized oversight over law-making.

Within the framework of institutional reforms for 2024–2025, the article analyzes issues related to strengthening human capacity, ensuring compliance with ethical standards and anti-corruption policies, improving the quality of legal services, and enhancing transparency and accountability. It further examines the practical functions of territorial justice bodies in the digitalization of public services, the provision of legal services through the “Single Portal,” and the protection of intellectual property, as well as their cooperation with civil society institutions.

In addition, the activities of territorial justice bodies are compared against international standards, advanced foreign practices, and national experience to identify existing challenges, institutional gaps,

and modernization needs. Based on this systematic scientific analysis, the article formulates evidence-based proposals and recommendations aimed at improving their mandates, governance model, digital transformation processes, and mechanisms of interaction with society.

Keywords: territorial justice bodies, regional department of justice, district (city) justice office, rule of law, civil society, law-making (legal drafting), normative legal acts, legal expertise (legal review), public services, digitalization of public services, legal awareness and education, legal services, notary and advocacy (notariat and bar), intellectual property, enforcement discipline, administrative procedures, code of ethics, Training Institute for Lawyers.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lini tanladi. Shuningdek, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, fuqarolarga sifatli va tezkor huquqiy xizmatlar ko'rsatish hamda adolatli boshqaruvni qaror toptirish yo'lida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmogda. Shu jarayonda Adliya organlari, xususan, hududiy adliya boshqarma va bo'limlari fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, huquqiy siyosatni amalga oshirish hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishda hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu bilan birga, hududiy adliya organlari faoliyatida normativ-huquqiy maqom bilan real amaliyot o'rtasida ma'lum ziddiyatlar, xususan, kadrlar tanqisligi, hududlar bo'yicha yuklamaning notekis taqsimlanishi, raqamli boshqaruv infratuzilmasining turlicha rivojlanganligi va mahalliy ijro hokimiyati organlarining ta'siri kabi muammolar saqlanib qolmogda..

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida qonunchilik jarayonining sifat jihatidan rivojlanishi, eng avvalo, adliya organlarining mas'uliyatli va puxta ishlashiga bog'liqligini alohida ta'kidlaydi. Davlat rahbarining "100 ta emas, 5 ta qonun qabul qilaylik, lekin xalqchil bo'lsin, xalqimizga xizmat qilsin" degan fikri aslida adliya organlari zimmasiga yuklangan ulkan vazifani ochib beradi [1]. Mazkur tamoyil qonun yaratish jarayonida shunchaki ko'p sonli hujjatlar ishlab chiqish emas, balki har bir normativ-huquqiy hujjatning amaliy qiymati, hayotiyliigi va inson manfaatlariga xizmat qilishi ustuvor bo'lishi kerakligini anglatadi. Bu yo'nalishda adliya organlarining, ayniqsa hududiy (viloyat, tuman va shahar) adliya organlarining roli beqiyosdir. Mahalliy hokimiyat organlari qarorlarining qonuniyligini ta'minlash, aholiga huquqiy yordam ko'rsatish, notarial va advokatura faoliyatini tashkil etish kabi masalalar hududiy adliya organlari zimmasiga yuklangan. Prezidentning mazkur chaqirig'i, aslida, adliya organlari — ayniqsa, hududiy bo'g'in zimmasiga yuklangan mas'uliyatning naqadar yuksak ekanini ko'rsatadi. Chunki xalqchil, sodda va amalda ishlaydigan qonunlarni yaratish jarayoni aynan adliya organlarining tahliliy, ekspertiza va huquqiy monitoring faoliyatiga bevosita bog'liqdir.

Shuningdek, jahon huquqshunoslari ham samarali adliya tizimisiz huquqiy davlatni tasavvur qilib bo'lmasligini ta'kidlaydilar. Masalan, mashhur olim Xans Kelzenning fikricha, "huquqning ustuvorligi — davlatning haqiqiy barqarorligi va adolatning kafolatidir" [2]. Amerikalik olim L.Raz esa huquqiy davlat asosini "qonun oldida barchaning tengligi va ijro etuvchi hokimiyatning qonun bilan chegaralanishi" deb baholaydi [3]. Bu nazariy yondashuvlar adliya organlarining huquqiy siyosatni amalga oshirishdagi o'rnini yanada mustahkam tasdiqlaydi.

Shuningdek, taniqli fransuz huquqshunosi Moris Dyuvudagi "qonunga asoslangan boshqaruv faqat professional, siyosiy bosimdan xoli huquqiy xizmatlar mavjud bo'lgandagina samarali bo'ladi", deya ta'kidlaydi [4]. Ushbu yondashuv O'zbekistonda adliya organlarini mustaqil, malakali va xalq manfaatiga xizmat qiladigan tizim sifatida shakllantirish jarayonlari bilan uyg'unlikda kechmogda.

Britaniyalik mashhur davlat boshqaruvi nazariyotchisi A.V.Daysi huquqiy davlatning uch asosiy tamoyilidan biri sifatida "qonunning ustuvorligini ta'minlaydigan mustaqil va professional adliya institutlari"ni alohida ko'rsatadi. Uning fikricha, adliya organlari davlat hokimiyatining

cheklanishi, inson huquqlarining kafolatlanishi va mahalliy boshqaruv ustidan qonuniy nazoratni ta'minlaydigan asosiy institutdir [5]. Bu yondashuv hududiy adliya organlarining ham nafaqat ijro intizomini ta'minlash, balki normativ-huquqiy hujjatlarni huquqiy ekspertizadan o'tkazish orqali fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilishga xizmat qilishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

2018-yil 13-aprelda qabul qilingan PQ–3666-son Prezident qarori adliya tizimining tub islohotlarini belgilab, hududiy organlar uchun aniq vakolatlar va vazifalar yukladi. Qarorga ko'ra, mahalliy davlat organlari chiqargan normativ-huquqiy hujjatlar hududiy adliya organlarining ijobiy xulosasisiz kuchga kirmaydi [6]. Bu esa adliya organlarini nafaqat ijrochi, balki huquq ijodkorligida bevosita ishtirok etuvchi va nazoratni amalga oshiruvchi muhim davlat institutiga aylantirdi.

Shuningdek, ushbu qaror adliya organlari tizimini institutsional jihatdan yangilashga, ularning tashkiliy tuzilmasini qayta ko'rib chiqishga hamda hududiy bo'linmalarining huquqiy maqomini aniq belgilashga qaratilgan asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi.

Mazkur qarorga muvofiq, viloyat adliya boshqarmalari va tuman (shahar) adliya bo'limlari Adliya vazirligining tarkibiy qismi sifatida, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil davlat boshqaruvi organlari etib belgilangan. Ular bevosita Adliya vazirligiga bo'ysunadi va ularning faoliyati vazirlik tomonidan nazorat qilinadi. Hududiy adliya organlarining maqomi va tashkil etilish tartibi ushbu qaror asosida tasdiqlangan nizomlarda hamda boshqa hujjatlarda belgilangan.

Ma'lumki, adliya boshqarmalari va bo'limlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining vakolati doirasiga kiruvchi vazifalarni o'zi faoliyat ko'rsatayotgan hududda amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 12-iyuldagi 147-um-sonli "Viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari hamda tuman (shahar) adliya bo'limlari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i bilan adliya boshqarmasi va tuman (shahar) adliya bo'limlari to'g'risidagi nizomlar tasdiqlangan. Ushbu buyruq bilan tasdiqlangan nizomlarda hududiy adliya organlarining vazifa va vakolatlari belgilab berilgan. Masalan, Jizzax viloyati Adliya boshqarmasi va uning tuman (shahar) bo'limlari to'g'risidagi nizomga ko'ra, hududiy adliya organlari mahalliy boshqaruv organlaridan mustaqil bo'lgan davlat boshqaruvi organlari hisoblanadi. Ular bevosita Adliya vazirligiga bo'ysunadi va uning nazoratida ishlaydi [7].

Shuningdek, hududiy adliya organlariga oid nizomda hududiy adliya organlarining vazifalari batafsil bayon qilingan. Quyidagilar hududiy boshqarmalarning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- huquq ijodkorligi sohasida yagona davlat siyosati yuritilishini ta'minlash;

- normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining tartibga solish ta'sirini baholash hamda korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish;

- huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash;

- huquqiy targ'ibotni amalga oshirish hamda davlat organlari va tashkilotlarining hududiy bo'linmalarida huquqiy targ'ibot sohasidagi ishlarini muvofiqlashtirish;

- davlat organlari hududiy bo'linmalari, xo'jalik birlashmalari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida huquqni qo'llash amaliyotini izchil va bir xilda ta'minlash bo'yicha choralarni amalga oshirish;

- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini huquqiy himoya qilish bo'yicha choralarni amalga oshirish;

- qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning o'z vaqtida, to'liq va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash yuzasidan sohalar, hududlar va idoralar kesimida manzilli va tematik tahliliy o'rganishlarni olib borish va joylardagi holat monitoringini yuritish;

- davlat organlari va tashkilotlarining hududiy bo'linmalari yuridik xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish, ularning faoliyatiga uslubiy ko'maklashish;

notariat, advokatura hamda jismoniy va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa tuzilmalarning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;

nodavlat notijorat tashkilotlarning faoliyatini rivojlantirish borasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, ularning davlat organlari va tashkilotlarining hududiy bo'linmalari bilan o'zaro hamkorligini tashkil qilishga ko'maklashish;

ma'muriy tartib-taomillar sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirishni ta'minlash;

jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlari ko'rsatish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirishni ta'minlash;

davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan monitoring olib borish va nazorat qilish;

davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida, shu jumladan tegishli axborot tizimlari, resurslar va ma'lumotlar bazalarini joriy etish bo'yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlar hududiy bo'linmalari faoliyatini nazorat qilish va samaradorligini baholash;

intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlash hamda ixtirolar, tovar belgilari, mualliflik huquqi va boshqa intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish;

yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish, yurisprudensiya sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishni ta'minlash [8].

Bundan tashqari, 2024-yil 24-maydagi PF-80-son Prezident farmoni hududiy adliya organlari faoliyatini yanada transformatsiya qilishga, ularning aholiga yaqin, samarali va zamonaviy boshqaruv mexanizmlari bilan ishlashiga qaratilgan yangi vazifalarni belgilab berdi. Mazkur farmon bilan tuman (shahar) adliya bo'limlari zimmasiga avval amalda bo'lmagan bir qator funksiyalar yuklatildi. Jumladan, hududiy adliya organlari endilikda "mahalla yettiligi"ga qonunchilik hujjatlarining mazmuni va amaliy ahamiyatini oddiy tilda tushuntirish, shuningdek, ular tomonidan "Online-mahalla" platformasiga kiritilgan fuqarolarning kundalik huquqiy muammolarini hal etishda bevosita ko'mak berish vazifalarini bajaradi.

Shu bilan birga, farmon bilan 2024-yil 1-iyuldan boshlab respublikaning barcha tuman va shaharlaridagi davlat xizmatlari markazlarida "Madad" NNT bilan hamkorlikda huquqiy maslahat byurolarini tashkil etish, ular orqali aholiga bepul birlamchi yuridik yordam ko'rsatish, sudgacha bo'lgan jarayonlarda hujjatlarni tayyorlashda amaliy yordam berish tizimi joriy etildi. Ushbu yangilik hududiy adliya organlarining aholiga huquqiy xizmat ko'rsatishdagi rolini sezilarli darajada kengaytirdi.

PF-80 farmoni, shuningdek, hududiy adliya bo'limlarining yoshlar, xotin-qizlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar bilan ishlashda faolligini oshirdi. Endilikda ular mazkur toifani imtiyozlar, subsidiya va grantlar haqida xabardor qilish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanish tartibini tushuntirish bo'yicha yangi vazifalarni bajaradi.

Hududiy adliya organlarining huquqni qo'llashdagi roli ham kengaytirildi. PF-80 asosida ular davlat organlari bo'linmalarida yagona huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirish, mahalliy organlarga metodik yordam ko'rsatish, o'rganishlar natijalariga ko'ra uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish vazifalarini bajara boshladi.

Shuningdek, boshqarmalar o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq bir qancha funksiyalarni amalga oshiradi:

– huquq ijodkorligi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishga ko'maklashadi: huquqiy siyosatning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi, hududiy bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtiradi va uslubiy rahbarlik qiladi, normativ-huquqiy hujjatlarni qonunchilik va xalqaro me'yorlarga muvofiqligini uqtai nazaridan ekspertizadan o'tkazadi, huquqiy nuqsonlar hamda ortiqcha

cheklovlarni bartaraf etish bo'yicha takliflar tayyorlaydi, qabul qilish va e'lon qilish tartibiga rioya etilishi ustidan nazoratni olib boradi hamda huquqni qo'llash amaliyotiga sharh va tushuntirishlar beradi. Regulyativ ta'sirni baholash hamda korrupsiyaga qarshi ekspertiza jarayonlarida qatnashadi, huquqiy axborotni tarqatish, rasmiy e'lonni tashkil etish va AKT yechimlarini joriy etish bo'yicha sa'y-harakatlarni muvofiqlashtiradi.

Aholi huquqiy ongi va madaniyatini oshirish maqsadida huquqiy targ'ibotni yo'lga qo'yadi, OAV va fuqarolik jamiyati bilan hamkorlik qiladi, jamoatchilik fikrini o'rganadi va choraklik hisobot kiritadi. Huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilib, buzilishlar sabablarini bartaraf etish choralari ko'radi; yer ajratishning onlayn-auksion tartibiga rioya etilishini tizimli nazorat qiladi. Inson huquqlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi, murojaatlarni xolis ko'rib chiqadi va buzilgan huquqlarni tiklashga ko'maklashadi. "ijro.gov.uz" orqali qonun va topshiriqlar ijrosini monitoring qiladi, ochiqlikni baholaydi va huquqiy-uslubiy ko'mak beradi.

Hududiy yuridik xizmatlarni muvofiqlashtiradi, kadrlar tayinlanishi va malakasini oshirishda ishtirok etadi, attestatsiya hamda stajirovkani tashkil etadi. Notariat va advokatura ustidan nazoratni, litsenziyalash va reyestr ishlarini yuritadi, apostil qo'yadi, mediatorlar hamda yuridik maslahat xizmatlari reyestrlari bilan ishlaydi. NNT va diniy tashkilotlarni ro'yxatdan o'tkazadi, ularning qonunchilikka rioya etilishini nazorat qiladi. Ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish, idoralararo elektron hamkorlikni kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi. Davlat xizmatlari va FHDY organlariga umumiy rahbarlik qiladi, sifat monitoringi va ochiqlikni ta'minlaydi, IT tizimlari joriy etilishini baholaydi hamda yiliga ikki marta batafsil axborot tayyorlaydi. Intellektual mulk huquqlarini himoya qilish bo'yicha choralarni qo'llab-quvvatlaydi. Yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etadi hamda qonunlarda belgilangan boshqa funksiyalarni bajaradi.

Hududiy adliya organlarining rahbarlari hamda xodimlarining tayinlanish va lavozimidan ozod qilinishi ham nizomlarda belgilab qo'yilgan. Boshqarmaga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining roziligi bilan Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan Boshqarma boshlig'i boshchilik qiladi. Bo'limga esa Boshqarma rahbarining tavsiyasiga binoan O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan boshliq rahbarlik qiladi [9].

Hududiy adliya organlari faoliyatining nazariy asoslari huquqiy davlat konsepsiyasiga, markazlashgan boshqaruv tamoyiliga va davlat xizmatlari sifatining oshirilishiga asoslanadi. Huquqiy davlat deganda qonun ustuvorligiga asoslangan boshqaruv, inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklari himoyasi tushuniladi. Hududiy adliya organlarining vazifalari aynan shu prinsipni amalga oshirishga xizmat qiladi. PQ-3666-son qaroriga muvofiq, mahalliy davlat organlari qabul qiladigan normativ hujjatlar hududiy adliya organlarining ijobiy xulosasisiz kuchga kirmaydi [10]. Mazkur tamoyil normativ-huquqiy ijodkorlik sohasida markazlashgan nazoratni ta'minlash hamda qonun hujjatlarining yagona va izchil qo'llanilishini kafolatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy qarashlar hududiy adliya organlarini davlat organlari bilan fuqarolik jamiyati o'rtasidagi vositachi sifatida ko'rib chiqadi. Ular aholiga yuridik maslahat va xizmatlar ko'rsatar ekan, huquqiy ong va jamiyatdagi huquqiy madaniyatni yuksaltirishga hissa qo'shadi. Hududiy organlar nazariyasi "ma'muriy-hududiy boshqaruv" va "subordinatsiya" tamoyillariga asoslanadi. Ma'muriy-hududiy boshqaruv organlarining markaziy vazirlikka bo'ysunishi davlat siyosatining bir xilda amalga oshirilishini ta'minlaydi. Subordinatsiya esa vazirlik rahbariyati orqali hududiy bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Hududiy organlarning muvaffaqiyati ularning xodimlari halolligi, professionalligi va odob-axloq qoidalariga amal qilishiga bog'liq. Adliya vazirining 2022-yil 28-oktabrdagi 252-um-son buyrug'i bilan tasdiqlangan odob-axloq qoidalarida xodimlarning qonuniylik, vatanparvarlik, halollik, xolislik, adolat, professionallik va tejamkorlik kabi tamoyillarga sodiq bo'lishi belgilangan [11]. Bundan tashqari, Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurash siyosati ishlab chiqilgan bo'lib, unda davlat organlarida yuqori axloqiy standartlarga rioya qilish va korrupsiyaning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan. Hududiy adliya organlari ham ushbu siyosat doirasida doimiy ravishda xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi treninglar o'tkazib keladi.

Hududiy adliya organlari samarali ishlashi uchun malakali xodimlar tayyorlash muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida" 2024-yil 24-maydagi PF-80-son Farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-martdagi 171-sonli Qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tashkil etildi [12]. Qarorga ko'ra, Institutga zamonaviy talablar va jarayonlarni hisobga olgan holda adliya organlari va muassasalari xodimlari, yuridik xizmat, advokatura, notariat, sud ekspertizasi, arxiv ishi va ish yuritish, ijro intizomi, murojaatlar bilan ishlash, mediatsiya va intellektual mulk sohalari mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish vazifasi yuklatildi. Natijada, hududiy adliya organlari xodimlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash va huquqiy xizmatlar samaradorligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa adliya organlari faoliyatining sifatini oshirish, boshqaruvda raqamli yondashuvlarni joriy etish hamda aholiga ko'rsatilayotgan huquqiy xizmatlar darajasini yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qilmoqda.

Innovatsion faoliyat yo'nalishida hududiy adliya organlari davlat xizmatlarini raqamlashtirish, "Yagona portal" orqali huquqiy xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirish ustida ishlamoqda. PQ-3666-son qarori hududiy organlarga mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish, huquqiy xizmatlarning sifati va shaffofligini oshirish hamda intellektual mulk sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha hamkorlik qilish vazifasini yuklagan [13]. Shu asosda bugungi kunda hududiy adliya organlari tomonidan davlat xizmatlarini to'liq raqamlashtirish, huquqiy xizmatlarni "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali" orqali ko'rsatish tizimini takomillashtirish, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va ochiqqligini oshirish, shuningdek, intellektual mulk sohasida huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Mazkur ishlar natijasida hududiy adliya organlari faoliyatida innovatsion yondashuvlar, raqamli boshqaruv va samaradorlik tamoyillari tobora keng joriy etilib, aholiga huquqiy xizmatlar ko'rsatishda shaffoflik, tezkorlik hamda qulaylik darajasi sezilarli oshmoqda.

Hududiy adliya organlari nodavlat notijorat tashkilotlarini ro'yxatdan o'tkazish, ularning ustav faoliyatini monitoring qilish, grant va subsidiyalarni ma'qullash bilan shug'ullanadi. Shu orqali ular fuqarolik jamiyatini mustahkamlashga va ijtimoiy masalalarni hal etishga ko'maklashadi. PQ-3666-son qarorida hududiy organlarning fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik qilishi, advokatura va mediatorlik xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borishi belgilangan. Bundan tashqari, hududiy organlar intellektual mulk obyektlarini himoya qilish yuzasidan ham mazmunli ishlar olib boradi va ular boshqa davlat organlari bilan birgalikda qalbakilashtirilgan mahsulotlarni aniqlash va ularga chek qo'yish bo'yicha profilaktik tadbirlar o'tkazadi.

Shu sababli hududiy adliya organlari davlat boshqaruvi tizimining eng muhim bo'g'ini bo'lib, joylarda qonun ustuvorligini ta'minlash va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda hal qiluvchi rol o'ynamoqda.

Hududiy adliya organlari O'zbekiston Respublikasida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda strategik ahamiyatga ega bo'lgan tuzilmalar sifatida maydonga chiqmoqda. Ular joylarda qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, normativ-huquqiy hujjatlarni huquqiy ekspertizadan o'tkazish, huquqiy targ'ibotni amalga oshirish, fuqarolarga davlat xizmatlarini sifatli va ochiq ko'rsatish kabi bir qator dolzarb vazifalarni bajarib kelmoqda. Ayniqsa, PQ-3666-son Prezident qarori bilan hududiy adliya organlarining maqomi mustaqil davlat boshqaruvi organi sifatida belgilangan bo'lib, ular mahalliy hokimiyat qarorlariga ijobiy xulosa bermasdan turib ularni kuchga kiritmaslik huquqiga ega bo'ldi.

Hududiy adliya organlari zamonaviy yondashuvlar asosida faoliyat yuritmoqda. Ular huquqiy siyosatning ustuvor yo'nalishlarini tatbiq etishda, huquqiy axborot va xizmatlarni aholiga yetkazishda vositachilik rolini o'ynamoqda. Davlat xizmatlarini raqamlashtirish, "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali" orqali huquqiy xizmatlar ko'rsatish, korrupsiyaga qarshi ichki siyosatni amalga oshirish va xodimlar odob-axloq qoidalariga qat'iy amal qilinishini ta'minlash borasida muhim ishlar olib borilmoqda.

Shuningdek, Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining tashkil etilishi xodimlarning kasbiy salohiyatini muntazam oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa hududiy adliya bo'limlarining amaliyotga yangicha, malakali yondashuv bilan yondashishini ta'minlamoqda. Intellectual mulkni himoya qilish, NNTlar faoliyatini huquqiy tartibga solish va jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish borasida ham ular faol ishtirok etmoqda.

Mazkur ilmiy tadqiqot natijalari hududiy adliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagi ilmiy asoslangan takliflarni ilgari surish imkonini beradi:

1. PQ-3666 va PF-80 hujjatlarida belgilangan tamoyillarni inobatga olgan holda viloyat adliya boshqarmalari va tuman (shahar) adliya bo'limlari uchun "minimal tashkiliy-huquqiy standartlar"ni ishlab chiqish zarur. Bu standartlarda kadrlar soni, huquqshunos shtatlari, AKT infratuzilmasi, yuklama me'yorlari va xizmat ko'rsatish indikatorlari bo'yicha yagona talablar belgilanishi, hududlararo tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

2. Hududiy adliya organlari kadrlar siyosatida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish tavsiya etiladi. Xususan, Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti bilan hamkorlikda "Hududiy adliya menejmenti" bo'yicha modul dasturlarini ishlab chiqish, rotatsiya va mentoring tizimini kuchaytirish, rahbar va xodimlar faoliyatini KPI (kalit samaradorlik ko'rsatkichlari) asosida baholash mexanizmlarini normativ jihatdan mustahkamlash maqsadga muvofiq.

3. Intellectual mulk sohasida hududiy adliya organlari faoliyatini kuchaytirish uchun ayrim hududlarda "intellectual mulk bo'yicha pilot zonalar"ni tashkil etish tavsiya etiladi. Ushbu zonalarda tadbirkorlar va startaplar uchun bepul maslahatlar, ekspres-ekspertiza, brend va tovar belgilari bo'yicha amaliy treninglar yo'lga qo'yilib, keyinchalik samarali model boshqa hududlarga ham tatbiq etilishi mumkin.

4. Ilmiy-amaliy integratsiyani ta'minlash maqsadida Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti hamda hududiy adliya organlari o'rtasida "hududiy adliya klasterlari"ni yaratish taklif etiladi. Bu klasterlar doirasida hududiy organlar amaliyoti bo'yicha muntazam ilmiy tadqiqotlar, tajriba almashish konferensiyalari, doktorantura va mustaqil izlanuvchilik mavzularini amaliy ehtiyojlar bilan uyg'unlashtirish mexanizmlari yo'lga qo'yilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, hududiy adliya organlari markazlashgan davlat boshqaruvi va mahalliy boshqaruv o'rtasida samarali ko'prikvazifasini bajarib, jamiyatda qonuniylikni mustahkamlash, adolat

tamoyillarini qaror toptirish va fuqarolarga ko'rsatilayotgan huquqiy xizmatlar sifatini oshirishda hal qiluvchi o'ringa ega. Ularning faoliyatini takomillashtirish O'zbekiston Respublikasining huquqiy va demokratik taraqqiyoti yo'lida muhim omil hisoblanadi.

Taklif etilayotgan chora-tadbirlarni normativ-huquqiy, tashkiliy va axborot-texnologik darajada kompleks tarzda amalga oshirish hududiy adliya organlarining institutsional salohiyatini yanada kuchaytirib, ularni zamonaviy huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati talablariga mos ravishda transformatsiya qilishga xizmat qiladi.

Iqtiboslar/Snoski/References:

1. "100 ta emas, 5 ta qonun qabul qilaylik, lekin xalqchil bo'lsin, xalqimizga xizmat qilsin." — Shavkat Mirziyoyev. "Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi davom etmoqda". Toshkent: O'zA, 20-noyabr 2024-yil. // <https://uza.uz/posts/659125>.
2. Kelsen, Hans. Pure Theory of Law. University of California Press, 1967. // https://scholarship.law.stjohns.edu/cgi/viewcontent.cgi?params=/context/tcl/article/2087/&path_info=03._Kelsen_s_Pure_Theory_of_Law.pdf
3. Raz, Joseph. "The Rule of Law and Its Virtue." The Law Quarterly Review, vol. 93, 1977, pp. 195–211. // https://www.tang-prize.org/upload_file/download/download_5e2057b1d4cb038df8d39d906371a226.pdf
4. Duverger, Maurice. The Idea of Politics: The Uses of Power in Society. Methuen & Co., 1972. // <https://archive.org/details/ideaofpolitics0000duve/page/n263/mode/2up>.
5. Dicey A.V. Introduction to the Study of the Law of the Constitution. London: Macmillan, 1959. // https://archive.org/details/introductiontost0000unse_r6a8/page/n13/mode/2up?
6. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. (2021, 18-noyabr). Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish va huquqiy ekspertizadan o'tkazish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida (ro'yxat raqami 3333). // <https://lex.uz/docs/-5735507>
7. Jizzax viloyat adliya boshqarmasi va tuman (shahar) adliya bo'limlari to'g'risida Nizom, O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 12-iyuldagi 147-um-son buyrug'i — "Viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari hamda tuman (shahar) adliya bo'limlari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida". (3-ilova, 1-bob 2-band.) // <https://jizzax.adliya.uz/uz/ob-upravlennii/zadachi-funktsii-i-prava/>
8. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 12-iyuldagi 147-um-son buyrug'i — "Viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari hamda tuman (shahar) adliya bo'limlari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida". (11-ilova, 2-bob 8-band). // <https://toshkent.adliya.uz/uz/ob-upravlennii/zadachi-funktsii-i-prava/>
9. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 12-iyuldagi 147-um-son buyrug'i — "Viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari hamda tuman (shahar) adliya bo'limlari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida". (11-ilova, 6-bob 16-band). // <https://toshkent.adliya.uz/uz/ob-upravlennii/zadachi-funktsii-i-prava/>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ–3666-sonli qarori — "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". // <https://lex.uz/docs/-3681790>
11. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022-yil 28-dekabrda 252-um-son "Adliya organlari xodimlarining o'qov-axloq qoidalari to'g'risida"gi nizomi. <https://andijon.adliya.uz/upload/252-um-son%20Odob%20axloq%20qoidalari.pdf>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF–80-son Farmoni — "Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida" // <https://lex.uz/docs/-7437170>
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ–3666-sonli qarori — "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" (5-bob 24-band). // <https://lex.uz/docs/-3681790>
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-martdagi 171-son qarori — "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida". // <https://lex.uz/docs/-7437170>
15. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil tahriri) // <https://lex.uz/docs/-6445145>
16. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining rasmiy veb-sayti // <https://adliya.uz/>.

BABAKULOV Zafar Kurbonnazarovich
Jamoat xavfsizligi universiteti professori,
yuridik fanlar doktori (DSc)
E-mail: zafarbabakulov11@gmail.com

METAVERSDA TOVAR BELGISINING FUQAROLIK-HUQUQIY REJIMI (MAVJUD MASALA VA UNING YECHIMIGA OID TAKLIFLAR)

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): BABAKULOV Z.K.
Metaversda tovar belgisining fuqarolik-huquqiy rejimi (mavjud masala va uning yechimiga oid takliflar) // Yurist axborotnomasi 6 (2025) B. 41–49.



6 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada metaversda tovar belgisining fuqarolik-huquqiy rejimi, virtual muhitda yuzaga kelayotgan intellektual mulkka oid munosabatlarning huquqiy tabiati va ularni tartibga solishdagi tizimli muammolar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Blokcheyn, NFT, sun'iy intellekt, VR/AR texnologiyalari va 3D raqamli muhit natijasida yuzaga kelayotgan virtual tovarlar, metavers-do'konlar, avatarlar, raqamli kolleksiyalar va virtual xizmatlar kabi yangi huquqiy kategoriyalarning fuqarolik-huquqiy maqomi ochib berilgan. Maqolada virtual tovar belgisi, NFT-kontrafakt, metaversdagi kiberskuatting, 3D logotip nusxalari, virtual reklamalarda tovar belgisini noqonuniy qo'llash kabi huquqbuzarliklarni baholashda mavjud huquqiy mexanizmlarning yetarli emasligi, yurisdiksiyani aniqlash muammolari va raqamli muhitda "adashtirish ehtimoli"ni baholashda maxsus mezonlar ishlab chiqish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, Hermes v. MetaBirkins, Nike v. StockX, Yuga Labs v. Ryder Ripps kabi sud ishlari tahlil qilinib, NFT va virtual obyektlarga nisbatan tovar belgisi huquqini qo'llash borasidagi ilmiy-doktrinal xulosalar bayon etilgan. Muallif metaversdagi tovar belgisi muhofazasini ta'minlash uchun milliy va xalqaro darajada qonunchilikka "virtual tovar", "NFT-tovar", "virtual xizmat", "raqamli kontrafakt", "metavers brendingi" kabi qoidalar kiritish, NFTning huquqiy tabiatini aniqlash, yurisdiksiya va qo'llaniladigan huquqni belgilash bo'yicha model qoidalarni ishlab chiqish hamda raqamli huquqbuzarliklar uchun javobgarlik standartlarini belgilash zarurligini ilgari suradi.

Kalit so'zlar: metavers, virtual tovar belgisi, NFT, raqamli aktiv, raqamli kontrafakt, metavers-domen, avatar, 3D model, VR/AR, intellektual mulk, adashtirish ehtimoli, yurisdiksiya, blokcheyn, NFT-xuquqbuzarlik, metavers brendingi, virtual mulk.

БАБАКУЛОВ Зафар Курбонназарович
Профессор Университета общественной безопасности,
доктор юридических наук (DSc)
E-mail: zafarbabakulov11@gmail.com

ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОЙ РЕЖИМ ТОВАРНОГО ЗНАКА В МЕТАВСЕЛЕННОЙ (СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ ПО ИХ РЕШЕНИЮ)

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится научно-теоретический анализ гражданско-правового режима товарного знака в условиях метавселенной, а также правовой природы интеллектуальных отношений, возникающих в виртуальной среде. Раскрывается гражданско-правовой статус

новых категорий объектов, появляющихся в результате развития блокчейна, NFT, искусственного интеллекта, технологий VR/AR и 3D-цифровой среды, таких как виртуальные товары, магазины метавселенной, аватары, цифровые коллекции и виртуальные услуги. В статье обоснована недостаточная эффективность существующих правовых механизмов при квалификации таких правонарушений, как виртуальный товарный знак, NFT-контрафакт, киберсквоттинг в метавселенной, 3D-копирование логотипов, незаконное использование товарного знака в виртуальной рекламе; показаны проблемы определения юрисдикции и необходимость разработки специальных критериев оценки «вероятности смешения» в цифровой среде. Также анализируются международные судебные прецеденты *Hermes v. MetaBirkins*, *Nike v. StockX*, *Yuga Labs v. Ryder Ripps*, раскрывающие доктринальные подходы к применению прав на товарный знак в отношении NFT и виртуальных объектов. Автор выдвигает предложение о необходимости разработки на национальном и международном уровнях правовых норм, определяющих категории «виртуальный товар», «NFT-товар», «виртуальная услуга», «цифровой контрафакт», «брендинг метавселенной»; а также о разработке правил определения правовой природы NFT, норм о выборе юрисдикции и применимого права, и установлении стандартов ответственности за цифровые правонарушения.

Ключевые слова: метавселенная, виртуальный товарный знак, NFT, цифровой актив, цифровой контрафакт, домен метавселенной, аватар, 3D-модель, VR/AR, интеллектуальная собственность, вероятность смешения, юрисдикция, блокчейн, NFT-правонарушение, брендинг метавселенной, виртуальная собственность.

ZAFAR Babakulov Kurbonnazarovich
Professor at the University of Public Security,
Doctor of Law (DSc)
E-mail: zafarbabakulov11@gmail.com

CIVIL-LAW REGIME OF TRADEMARKS IN THE METAVERSE (EXISTING ISSUES AND PROPOSALS FOR THEIR SOLUTION)

ANNOTATION

This article provides a scientific and theoretical analysis of the civil-law regime of trademarks in the metaverse, as well as the legal nature of intellectual property relations arising in the virtual environment. It explores the civil-law status of new categories of digital objects emerging as a result of the development of blockchain, NFTs, artificial intelligence, VR/AR technologies, and 3D digital environments, including virtual goods, metaverse stores, avatars, digital collections, and virtual services. The article substantiates the insufficiency of existing legal mechanisms for assessing such violations as virtual trademark misuse, NFT counterfeiting, metaverse cybersquatting, unauthorized 3D logo replication, and illegal use of trademarks in virtual advertising; and identifies the challenges associated with determining jurisdiction and the need to develop special criteria for evaluating the “likelihood of confusion” in the digital environment. The article also analyzes international judicial precedents *Hermes v. MetaBirkins*, *Nike v. StockX*, *Yuga Labs v. Ryder Ripps* which shed light on doctrinal approaches to applying trademark law to NFTs and virtual objects. The author proposes developing legal norms at both national and international levels defining categories such as “virtual goods”, “NFT goods”, “virtual services”, “digital counterfeiting”, and “metaverse branding”. The article further emphasizes the need to determine the legal nature of NFTs, establish rules for choosing jurisdiction and applicable law, and develop standards of liability for digital infringements.

Keywords: metaverse, virtual trademark, NFT, digital asset, digital counterfeiting, metaverse domain, avatar, 3D model, VR/AR, intellectual property, likelihood of confusion, jurisdiction, blockchain, NFT infringement, metaverse branding, virtual property.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar, xususan blokcheyn, sun‘iy intellekt, virtual va qo‘shimcha reallik (VR/AR), bulutli hisoblash va metarabototizimlar kabi ishlanmalarning tez sur‘atlarda

rivojlanishi natijasida global internet ekotizimida mutlaqo yangi huquqiy va iqtisodiy muhit – Metavers (metaverse) shakllanmoqda.

Metavers – bu virtual fazoda vujudga kelayotgan, kriptoalyuta, moliya, mehnat faoliyati, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli xizmatlar va sun'iy intellekt ekotizimlarini o'zida birlashtiruvchi onlayn-olam bo'lib, unda foydalanuvchilar o'z avatarlari orqali o'zaro muloqot, iqtisodiy munosabatlar, o'zaro tajriba almashish va interaktiv faoliyatni amalga oshiradilar.

Bunday muhit an'anaviy virtual platformalardan farq qilib, foydalanuvchiga "real hayotdagidek", ya'ni virtual muhitga to'liq kirib borish va uni real fazodek his qilish imkonini beradi. Shu bois metavers nafaqat ko'ngilochar sohani, balki savdo, ishlab chiqarish, ta'lim, moliya, intellektual mulk va fuqarolik huquqi kabi sohalarni ham tubdan o'zgartiruvchi yangi bosqich sifatida namoyon bo'lmoqda.

Metavers an'anaviy virtual fazodan farq qiladigan o'ziga xos raqamli olam bo'lib, unda foydalanuvchilar oddiy tomoshabin emas, balki avatarlari orqali mustaqil harakatlanadigan, virtual mulkka egalik qiladigan, xizmatlardan foydalanadigan va iqtisodiy faoliyat yuritadigan faol subyektlar sifatida namoyon bo'ladi.

Metaversda avatar faqat grafik tasvir emas, balki foydalanuvchining raqamli aynanligi, uning mulki, sotib olgan raqamli tovarlari, xizmatlari va hatto brendi bilan bog'liq huquqlarini ifodalovchi huquqiy va iqtisodiy kategoriyaga aylanadi.

Shuningdek, metaversda foydalanuvchilar virtual do'konlar ochishi, biznes loyihalarini amalga oshirishi, raqamli tovarlar va NFTlar sotib olishi yoki sotishi, brendini rivojlantirishi va 3D muhitda raqobatbardosh iqtisodiy munosabatlar yuritishi mumkin. Bu esa metaversda yuzaga kelayotgan munosabatlarni an'anaviy fuqarolik huquqi bilan bir vaqtda intellektual mulk, raqamli mulk oid yangi huquqiy yondashuvlar bilan tartibga solishni taqozo etadi.

Hozirgacha metavers tushunchasiga oid tan olingan yagona ta'rif mavjud emas. Ayrim tadqiqotchilar uni Internetning yangi avlodi, ya'ni virtual ijtimoiy makonning evolyutsion bosqichi sifatida talqin qiladilar va metaversning virtual muhit sifatidagi belgilarini asosiy omil deb biladilar. Boshqa mualliflar esa bu konsepsiyaning texnologik tabiatiga e'tibor qaratgan holda, sun'iy intellekt (AI), virtual va qo'shimcha reallik (VR/AR), blokcheyn, 3D muhiti va bulutli hisoblash kabi innovatsion texnologiyalar metaversning negizi ekanini ta'kidlaydilar [1, B. 155-169].

Shubilanbirga, qator olimlar metaversni keng qamrovli, umumiy tabiati nuqtayi nazaridan izohlab, uni real va virtual olamning kesishuv nuqtasi, raqamli va moddiy muhitning bir-biriga uyg'un, o'zaro ta'sirchan ekotizimi sifatida ko'radilar. Masalan, K. Bxugaonkar va boshqalarning ta'kidlashicha, "metavers raqamli va moddiy dunyoning integratsiyasi, raqamli va real iqtisodiyotning, ijtimoiy hayotning, aynanligi, moddiy va raqamli aktivlarning yagona platformada uyg'unlashuvidan iborat kompleks tizimdir [2, B. 71-76].

Boshqa mualliflar esa yanada mufassal va texnologiyaviy asoslangan ta'riflarni ilgari surib, metaversni juda katta darajada to'qnashuvchan virtual ekotizim sifatida ko'radilar. Masalan, I.V. Ponkinning ta'rifi ko'ra, "kiber-meta-olam" – bu o'zaro moslashuvchan dinamik modellar va sintetik jarayonlar asosida shakllantiriladigan, uzluksiz ishlaydigan, ko'p foydalanuvchili gibrid raqamli meta-makon bo'lib, unda turli 3D virtual ekotizimlar, kognitiv va vizual muhitlar birlashadi. Ushbu muhitda foydalanuvchi o'z avatari orqali "real hayotdagidek" ishtirok etadi, ya'ni u o'ziga xos reallik hissiyoti bilan meta-makonga kirib borishi ta'minlanadi [3, B. 119].

Aynan mana shunday dinamik muhit sharoitida tovar belgisiga oid huquqlar yangi raqamli va virtual qiymat bilan boyib boshlaydi. Brend endilikda faqat real moddiy tovar bozorida, balki metaversdagi virtual kiyimlar, NFT-krossovkalar, raqamli kolleksiyalar, metavers do'konlari, virtual reklama stendlari va avatarlar uchun mo'ljallangan 3D modellar orqali ham iste'molchi ongiga ta'sir

ko'rsatadi. Misol tariqasida Nike, Adidas, Gucci, Louis Vuitton, Meta (Facebook), Samsung kabi yirik global kompaniyalarning metaversda faol ishtirok etishi brendning virtual muhitdagi iqtisodiy va huquqiy ahamiyati keskin oshib borayotganini, tovar belgisining fuqarolik-huquqiy rejimini virtual makon talablari asosida qayta ko'rib chiqish zarurligini yaqqol ko'rsatmoqda.

Biroq, fuqarolik huquqidagi an'anaviy tushunchalar, ya'ni "tovar", "mulk huquqi", "xizmat", "kontrafakt" kabilar metaversdagi virtual muomala uchun to'liq mos emas. Masalan, NFT-krossovka yoki avatar uchun virtual kiyim ular mulkmi? Xizmatmi? Ularning huquqiy tabiati qanday? Ularga nisbatan tovar belgisining qo'llanilishi qanday tartibga solinadi? Bu savollar hali yurisprudensiyada javobini topgan emas.

Ключевые слова: судебная ошибка, правовая ошибка (ошибка в применении права), гражданский процесс, принцип, объективная истина, первая инстанция, апелляция, кассация, ревизия, решение, цифровой суд.

SAMANDAR Abdikhakimov

PhD student at Tashkent State University of Law

E-mail: samandarabdiyakimov86@gmail.com

THE CONCEPT OF JUDICIAL ERROR IN CIVIL PROCEEDINGS AND ITS THEORETICAL ANALYSIS

ANNOTATION

In this article, the concept, types, and content of legal error in civil proceedings are highlighted, and judicial error as one of its types is analyzed from a theoretical and scientific point of view. In the course of the research, the opinions and judgments of various legal scholars were studied, and based on their definitions, the essence and content of judicial error were widely elucidated. In this case, the concept of judicial error and the causes of its occurrence are analyzed from a theoretical and practical point of view. The causes leading to a judicial error, in turn, are divided into two groups, namely subjective and objective factors. If the subjective factors in the occurrence of a judicial error are errors arising from problems related to the judge's qualification level, his mental state, then the objective factors are the high volume of work in the courts and the presence of contradictory situations in the legislation. Also, the scope of influence of a judicial error on judicial acts, especially decisions, was studied, and the circumstances that can be eliminated by the courts of first instance themselves in the event of a judicial error, as well as the circumstances leading to the cancellation or amendment of judicial acts by higher courts, were analyzed. Based on the results of this analysis, the judicial error was divided into three groups: factual, related to the norms of substantive law, and arising from procedural errors. The grounds for violation of the norms of

procedural law cited in the civil procedural legislation were analyzed, and solutions and proposals were made regarding the shortcomings in these rules. As a theoretical and scientific proposal, the author's definition of a judicial error is given, which, deviating from the goals and objectives of civil proceedings, leads to the adoption of judicial acts in violation of the rights and interests of citizens and business entities established by law, hinders the achievement of justice, or leads to the discrediting of legal norms. As a proposal to the current legislation, amendments and additions are made to Article 3724 of the Civil Procedure Code of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: judicial error, legal error (law enforcement error), civil procedure, principle, objective truth, first instance, appeal, cassation, audit, decision, digital court.

O'zbekiston Respublikasi sud tizimini takomillashtirish hamda unda yuzaga keluvchi turli kamchiliklarni bartaraf qilish sud-huquq sohasidagi eng dolzarb masalalardan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa, fuqarolik sudlari jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning buzilgan va nizolashayotgan huquqlari yuzasidan odil sudlovga erishishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 55-moddasiga muvofiq, har bir shaxs o'zining qonuniy huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilishi mumkin ekanligi belgilab qo'yilgan [1]. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi farmoni 15-maqsadida ham fuqarolarning va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish maqsadi ilgari surilgan [2]. Chunki, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi (keyingi o'rinlarda FPK) asosiy maqsad va vazifalari ham bunga yaqqol misol bo'la oladi. FPKning 2-moddasiga ko'ra esa fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasining huquqlari va manfaatlarini, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining (bundan buyon matnda tashkilotlar deb yuritiladi) huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida fuqarolik ishlarini to'g'ri, o'z vaqtida ko'rib chiqish va hal etish fuqarolik sud ishlari yuritishning maqsadlaridan biri hisoblanadi [3]. M.M.Mamasiddiqov fuqarolik ishlarini to'g'ri va o'z vaqtida ko'rish hamda hal qilish fuqarolik sud ishlarini yuritishining vazifasi deb baholab, nizoli huquqiy munosabat sohasiga jalb qilingan barcha subyektlarning buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni esa maqsadi ekanligini keltiradi [4, B.19]. Ammo, yana shunga e'tibor qaratish lozimki, fuqarolik sud ishlarini yuritishdan asosiy maqsadi nafaqat nizoli huquqiy munosabatlarda, balki nizosiz ishlar doirasidagi subyektlarni ham qamrab oladi. Chunki, fuqarolik sudlarida buyruq tartibida va alohida tartibda ko'riladigan ishlar nizosiz talablar asosida ko'riladi.

Ushbu qoidalardan kelib chiqqan holda har bir shaxsning huquqlari qonunda belgilangan har qanday himoya vositalari bilan ta'minlanadi. Ammo, fuqarolik sud ishlarini yuritish jarayonlarida yuqorida keltirilgan vazifalardan chetga chiqish holatlari ham uchrab turadi. Aynan ushbu holatlar sudlarda sud xatosining vujudga kelishiga olib keladi. Shu sababli, sud xatosini tadqiq qilish, uning sabablarini o'rganish orqali sud xatolarini vujudga kelish holatlarini bartaraf qilishning yangi usullarini va yo'llarini topishga yordam beradi.

Sud xatosi bir qator protsessualist olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Bu jarayonda esa huquqshunos olimlar tomonidan ikki xil tushunchaga alohida to'xtalishadi. Birinchisi huquqiy xato yoki huquqni qo'llashdagi xato (правовая ошибка) bo'lsa, ikkinchisi sud xatosi (судебная ошибка) hisoblanadi. Huquqni qo'llash xatosi umumiy tushuncha hisoblanadi. Ya'ni, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan huquqni qo'llash bilan bog'liq xatoliklar natijasida yuzaga keladi. Bu yerda huquqni muhofaza qiluv organlar deganda, aynan ma'lum bir huquqni qo'llash

vakolatlariga ega bo'lgan, o'ziga yuklatilgan funksiyalarni bajaradigan har qanday davlat tashkiloti nazarda tutiladi. Protsessualist olim M.L.Golubeva sud xatosini tadqiq qilar ekan, avvalo huquqiy xato (правовая ошибка) tushunchasini tahlil qiladi. Unga quyidagicha ta'rif beradi: "Huquqiy xato (правовая ошибка) bu qonun darajasida qo'riqlanadigan maqsadlar, huquqlar va erkinliklarga erishishga to'sqinlik qiluvchi salbiy natija hisoblanib, uning oqibatida jamiyatda ijtimoiy zarar kelib chiqadi" [5, 10.B]. Muallif huquqiy xato yuz berganida oqibat kelib chiqishi, ya'ni uning natijasida ijtimoiy zarar yuzaga kelishini zaruriy belgi sifatida keltirgan. Ijtimoiy zarar tushunchasiga kengroq nazar tashlanadigan bo'lsa, unga huquq normalarining obro'sizlanishi, sud tizimiga nisbatan ishonchning kamayishi, odil sudlov tizimidagi samaradorligining pasayishi va boshqa shu kabi oqibatlarni kiritish mumkin bo'ladi. Shu bois, yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, huquqiy xatolarni mazmun-mohiyatiga ko'ra quyidagi uchta turga ajratish mumkin:

1. Huquq ijodkorligida kelib chiqadigan xatoliklar:

a) mantiqiy xatolar - qonun chiqaruvchilarning fikrlarini izchil tashkil qilish ta'minlanmaganligi, ya'ni ushbu xatoliklar normativ-huquqiy hujjatlarning boshqa qonun hujjatlari bilan uyg'unlashtirish jarayonida vujudga keladi;

b) filologik xatolar - qonun hujjatlarini qabul qilishda til bilan bog'liq grammatik qoidalarining buzilishi;

c) gnoseologik xatolar - qonunda keltirilgan normalarning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi obyektivlik qoidalariga mos emasligi;

2. Huquqni qo'llashdagi xatolar:

a) tergovdagi xatolar;

b) sud xatolari;

3. Huquqni talqin qilishdagi xatolar:

a) mantiqiy xatolar - qonun normalarini qo'llashda yo'l qo'yiladigan xatoliklar;

b) tizimli xatolar - qonun normalarini izohlashdagi tizimlilik talablariga rioya qilmaslik;

c) filologik xatolar - qonun normalaridagi ayrim so'z yoki tushunchalarning ma'nosi va mazmunini noto'g'ri izohlash.

Huquqiy xatolarni o'rganishda ushbu turlarga ajratishning asosiy maqsadi ularni tizimli tarzda tadqiq qilish va bu orqali esa ularni bartaraf qilish hisoblanadi. Shu sababli, M.L.Golubeva ushbu huquqni qo'llashdagi xatoni (правовая ошибка) atroflicha o'rganib chiqib, uning bir qismi ya'ni bir jihati sifatida sud xatosini o'rganadi. Muallif jinoyat protsessida sud xatosini tadqiq qilib, unga quyidagicha mualliflik ta'rifini ishlab chiqadi: "sud xatosi deganda sudlarda ishni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan shaxs tomonidan jinoyat jarayonining dastlabki tergov va sud bosqichlarida, shuningdek hukmni ijro etish bosqichida sodir etilgan qasddan bo'lmagan harakat (yoki harakatsizlik) bo'lib, u jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilik talablarining noto'g'ri qo'llanishi yoki ularga rioya qilinmasligida namoyon bo'ladi va natijada fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarining jiddiy buzilishiga olib keladi" [5, 10.B]. Ushbu huquqshunos olimning sud xatosiga bergan ta'rifida shunga e'tibor qaratish lozimki, sodir etilgan harakat qasddan bo'lmasligi lozim. Chunki, hal qiluv qarorini qabul qilish chog'ida sud tomonidan sodir etilgan xatoliklar qasddan qilingan bo'lsa, uni jinoyat sifatida baholash kerak bo'ladi. Shu sababli, sud xatosi vujudga kelgan hollarda uni sodir qilgan shaxslar jinoiy javobgarlik masalasi kelib chiqmaydi. Yuqorida keltirilganidek, sud xatosi ehtiyotsizlik oqibatida vujudga keladigan, oldindan uning oqibatini taxmin qilish imkoni bo'lmagan jarayon hisoblanadi.

T.A.Bekker esa sud xatosini yuqori instansiya sudlari tomonidan aniqlanadigan holat deb baholab, u moddiy va (yoki) protsessual huquq normalarining buzilishi natijasidagi salbiy oqibat ekanligini keltiradi. Shuningdek, sud xatosining natijasida sud ishlarini yuritishda obyektiv haqiqatga

erishilmasligi bilan bog'laydi va sud protsessi ishtirokchilarining konstitutsiyaviy huquqlarining poymol etilishi bilan birga kechishini bildiradi [6, 7.B].

Sud jarayonida xatolarga yo'l qo'yilishi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarining buzilishiga olib keladi. Buni yuqorida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida keltirilgan normalar orqali bilish mumkin. Ishni ko'rish jarayonlarida esa sud xatosiga yo'l qo'yish fuqarolarning sud orqali himoyalanih bilan bog'liq konstitutsiyaviy huquqning buzilishiga olib keladi. Shu o'rinda obyektiv haqiqatga erishishni ham hisobga olish lozim. Agar sud tomonidan ayrim xatoliklarga yo'l qo'yilsa, odil sudlovda obyektiv haqiqatga erishish qiyinlashadi yoki erishishning imkoni bo'lmaydi. Obyektiv haqiqat fuqarolik protsessual huquqining prinsiplaridan biri sifatida qaraladi. To'g'ri, protsessual qonunchiliklarda obyektiv haqiqat prinsipi to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilmagan. Ammo, ushbu prinsip boshqa protsessual huquq tamoyillaridan kelib chiqqan holda o'rganiladi. Professor A.A.Moxovning fikricha, obyektiv haqiqat deganda sud tomonidan ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan yuridik holatlarni protsessual qonunda belgilangan vosita va usullar yordamida aniqlash tushuniladi [7, 24.B]. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bugungi kunda zamonaviy fuqarolik protsessual qonunchilikda obyektiv haqiqat prinsipi va tushunchasi bevosita keltirilmagan bo'lsa-da, sudning dalillarni to'plash, tekshirish va baholashdagi barcha protsessual harakatlari orqali obyektiv haqiqatga erishiladi. Huquqshunos olimlar Z.N.Esanova, D.Y.Habibullayev va I.M.Salimovalar bu jarayonni asosan dalillar va isbotlash orqali amalga oshirishini keltirib, bunda ularning asosiy maqsadi ishning haqiqiy holatini ochish, ishni har tomonlama va to'liq ko'rib chiqib, qonuniy, adolatli va asosli sud hujjatini qabul qilish orqali amalga oshirishini ta'kidlab, agar isbotlash va dalillarda kamchiliklar yuzaga kelsa, qabul qilingan sud qarorlari yuqori instansiya tomonidan qayta ko'rilishiga olib kelishi mumkinligini keltirishadi [8, 8.B]. Boshqa bir qator protsessualist olimlarning obyektiv haqiqat tushunchasini o'rnini taraflarning tortishuvchanligi va tengligi tamoyillari egallagan degan fikrlarni bildirishadi. Ammo, P.V.Krashenninnikova obyektiv haqiqat fuqarolik protsessida yo'qolmayotganligini, aksincha uni aniqlash usullari o'zgarganligini, ya'ni sudning muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchi funksiyasi ostida tomonlarning tashabbusini qonunchilik asosida rivojlantirish orqali amalga oshirilayotganligini ta'kidlab o'tadi [9, 84.B]. Demak, sud jarayonidagi xatolar obyektiv haqiqatga erishishga to'sqinlik qilishi va shu orqali adolatli, asosli va qonuniy qarorlarning qabul qilish jarayoniga putur yetkazishi mumkin. Bundan tashqari, sud xatosi aynan protsessual va moddiy huquq normalarining buzilishi oqibatida vujudga kelishi ham keltirib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual qonunchiligida ham aynan moddiy va protsessual qonunchilik buzilganda sud hujjatlari yuqori instansiya sudlari tomonidan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishiga olib keladi.

Sud xatosini vujudga keltiruvchi omillar turlicha bo'lishi mumkin. E.G.Trishina [10] va B.V.Krasilnikovlar [11] sud xatosiga alohida to'xtalib, sud xatosi sudning subyektiv va obyektiv jihatdan noto'g'ri xatti-harakatlari natijasida vujudga kelishini ta'kidlashadi.

Sud xatosini vujudga kelishida subyektiv sabablar sifatida sudyaning ish bo'yicha yetarli malakaga ega emasligi, psixologik holatlarning buzilishi, noto'g'ri tahlillar amalga oshirilishini misol qilib ko'rsatish mumkin. Shuningdek, obyektiv sabablar sifatida sudlardagi ish hajmining yuqori ekanligi va qonunchilikdagi mavjud ziddiyatli vaziyatlarga duch kelish holatlari bo'lishi mumkin.

V.V.Efimova arbitraj sudida (iqtisodiy sud) sud xatosini vujudga kelishini o'rganib, sud xatosi deganda arbitraj sudi tomonidan arbitraj sud ish yuritishining maqsad va vazifalaridan chetlanib qaror qabul qilinishi natijasida yuzaga keladigan huquqiy oqibat deb hisoblab, u vakolatli sud instansiyasi tomonidan belgilangan protsessual tartibda aniqlanishini keltirib o'tadi [12, 8.B]. Muallifning sud xatosi borasidagi fikrlari boshqa ko'plab protsessualist olimlarniki kabi, birinchi navbatda, sud xatosi sud ishlarini yuritish vazifa va maqsadlariga erishishdagi to'siq deb baholashidir. Darhaqiqat, fuqarolik sud ishlarini yuritishda yuzaga keluvchi xatoliklar sudga murojaat qiluvchi

subyektlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga hamda ishni to'g'ri va o'z vaqtida hal qilishga salbiy ta'sir o'tkazadi. Ammo, muallifning sud xatosi faqat vakolatli instansiyalar orqali aniqlanishi mumkinligi to'g'risidagi fikriga qo'shilmaymiz. Chunki, bu yerda vakolatli instansiya deganda yuqori instansiyalar nazarda tutilgan. Sud xatosini aniqlash faqatgina ularning vakolatida emas. Buni quyidagi tahlillar natijasida bilib olish mumkin.

Sud xatosi aksariyat hollarda yuqori instansiya sudlari tomonidan aniqlanadigan jarayon sifatida qaraladi. Ammo, shuni e'tiborga olish joizki, sud xatolari birinchi instansiya sudlarining o'zida ham aniqlanishi mumkin. Misol uchun, qo'shimcha hal qiluv qarorlarini qabul qilish. FPK 262-moddasiga muvofiq qo'shimcha hal qiluv qarori quyidagi hollarda qabul qilinishi belgilangan:

- huquq to'g'risidagi masalani hal qilib, undiriladigan summaning miqdorini, olib berilishi kerak bo'lgan mol-mulkni yoki javobgar amalga oshirishi shart bo'lgan harakatlarni ko'rsatmagan bo'lsa;
- arz qilingan talablarning birortasi bo'yicha ishda ishtirok etuvchi shaxslar dalillar taqdim etgan va tushuntirishlar bergan bo'lsalar-da, biroq bu xususda hal qiluv qarori qabul qilinmagan bo'lsa;
- hal qiluv qarorida sud xarajatlarini taqsimlash ko'rsatilmagan bo'lsa [3].

Bu qoidalar birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini qabul qilishda yo'l qo'ygan xatolar ekanligini anglatadi. M.M.Mamasiddiqov, Z.N.Esanova va D.Y.Xabibullayevlar fuqarolik protsessual qonunchilikka muvofiq hal qiluv qarorini qabul qilgan sud tomonidan ushbu sud hujjatidagi kamchiliklarni tuzatishning bir nechta usullari mavjud ekanligini ta'kidlab, ulardan biri sifatida esa qo'shimcha hal qiluv qarori chiqarish ekanligini keltirishadi. Sud hal qiluv qarorida arz qilingan da'vo talablariga to'liq va asoslantirilgan javob berilishi kerak hamda sud xarajatlari masalalari hal etilishi lozim. Agar bunday talablar qondirilmagan bo'lsa, sud qo'shimcha hal qiluv qarori qabul qilish orqali ushbu kamchiliklarni bartaraf etadi [13, 142.B]. Demak, bundan kelib chiqib aytish mumkinki, sud xatosi nafaqat yuqori instansiyalar orqali, balki birinchi instansiya sudlarida ham aniqlanib, ularni tuzatish mumkin.

I.A.Petrova sud xatosini sud ishlarini ko'rib chiqish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolik sifatida belgilab, u moddiy yoki protsessual huquq normalarining buzilishiga olib kelishini ta'kidlaydi [14, 23.B]. Yuqorida keltirib o'tilgan ko'plab huquqshunos olimlar kabi I.A.Petrova ham moddiy va protsessual qonunchilik normalarining buzilishini alohida keltiradi.

Moddiy va protsessual qonunchilikning buzilishi sud xatosining asosini tashkil qiladi. Chunki, qachonki ushbu holatlar hal qiluv qarorini qayta ko'rish jarayonida aniqlansa, uning bekor qilinishi yoki o'zgartirilishiga sabab bo'ladi. Fuqarolik protsessual qonunchilikda moddiy huquq normalarining buzilishi bilan bog'liq aniq qoidalar keltirilgan. Ammo, protsessual huquq normalarining buzilishi holati bilan bog'liq qonunchilikda ayrim kamchiliklar mavjud. O'zbekiston Respublikasi FPKning 372⁴-moddasida protsessual huquq normalarining buzilishi oqibatlari bilan bog'liq qoidalar keltirilgan. Ushbu moddaning birinchi qismida protsessual huquq normalarining buzilishi noto'g'ri hal qiluv qarorini qabul qilishga olib kelgan bo'lsa yoki olib kelishi mumkin bo'lgan bo'lsagina hal qiluv qarorini bekor qilinishiga olib kelishi mumkin deya belgilangan. Bundan shuni anglash mumkinki, ushbu moddaning birinchi qismi bo'yicha har qanday protsessual buzilishni olish mumkin bo'ladi, qachonki ushbu xatoliklar hal qiluv qaroriga mazmunan ta'sir o'tkazadigan kamchilik deb baholansa. Ikkinchi qismida sanab o'tilgan yettita protsessual qoidaning buzilishi holatlarida ham hal qiluv qarori bekor qilinishi mumkin deb belgilangan. Bu esa ikkinchi qismining mazmuni birinchi qism bilan deyarli bir xil ahamiyatga ega bo'lib qolganligini bildiradi. Ikkinchi qismida sanab o'tilgan asoslar jiddiy protsessual xatoliklar sanaladi. Bu esa shuni anglatadiki, ushbu asoslarning mavjudligi har qanday holda hal qiluv qarorini bekor qilishga yoki o'zgartirishga asos bo'lishi lozim. Shu bois, FPKning 372⁴-moddasi ikkinchi qismining "Agar" deb nomlanuvchi qismi quyidagi holda qayta tahrirlanishi lozim:

“Agar quyidagi asoslar mavjud bo’lsa, sudning hal qiluv qarori, ajrimi va qarori har qanday holda bekor qilinishi yoki o’zgartirilishi lozim”.

Shuningdek, mazkur normada faqatgina sud hujjatlarini *“bekor qilish”* haqida so’z boradi. Ammo, yuqori instansiya sudlari hal qiluv qarorlarni bekor qilibgina qolmasdan uni o’zgartirish huquqiga ham ega hisoblanadi. Shu bois, ushbu moddaga *“bekor qilish”* bilan birgalikda *“yoki o’zgartirish”* qismini ham qo’shish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

A.S.Morozova apellyatsiya instansiyasini tadqiq qilar ekan, ushbu yuqori sud instansiyasining asosiy vazifasi sifatida birinchi instansiya sud hujjatlarida sud xatosini aniqlash va ularni bartaraf etish ekanligini ta’kidlaydi [15, 19.B]. Shuningdek, R.A.Xusaynova ham apellyatsiya institutini o’z ilmiy tadqiqot ishlarida tahlil qilib, apellyatsiya instansiyaning maqsadlaridan biri sifatida hal qiluv qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli qabul qilinganligini tekshirish yuzasidan quyi instansiya sudlari tomonidan yo’l qo’yilgan xatolarni bartaraf etish ekanligini keltirib o’tadi [16, 6.B]. Mualliflarning ushbu fikrlariga qo’shilish mumkin. Chunki, yuqoridagi huquqshunos olimlarning ham sud xatosiga bergan ta’riflaridan kelib chiqqan holda yuqori instansiyalarning asosiy vazifasi sud xatosi bilan bog’liq ekanligini anglatadi. Shuningdek, P.V.Krashennikova ham apellyatsiya va kassatsiya instansiyalarida sud xatosini tuzatish lozimligini ta’kidlaydi [9, 435.B]. E.A.Borisova yuqori instansiya sudlarining vakolatlarini keltirib, ulardan biri sifatida ikkinchi instansiya sudlari birinchi instansiya sudlarining ishni ko’rib chiqishda yo’l qo’ygan xatolariga e’tibor qaratib, ushbu xatolarni bartaraf etish yo’llarini ko’rsatgan holda, birinchi instansiya sudlari tomonidan qonunlarning to’g’ri tushunilishi va qo’llanilishiga ko’maklashishini bildiradi [17, 53.B]. Ushbu huquqshunos olimlarning fikriga qo’shilgan holda yuqori instansiya sudlarining asosiy maqsadi nafaqat birinchi instansiya tomonidan yo’l qo’yilgan xatolarni aniqlash, balki ushbu xatolarni bartaraf etish choralarini ham ko’rish hisoblanadi. Shuningdek, yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, sud xatosi faqatgina apellyatsiya, kassatsiya yoki taftish instansiyalarida emas, birinchi instansiyada ham qisman aniqlash imkoni borligini ham yodda tutish lozim.

Yuqorida keltirilib o’tilgan tahlillardan kelib chiqqan holda, sud xatolarini quyidagicha guruhlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Faktik xatolar - ishda mavjud bo’lgan holatlarning noto’g’ri talqin qilinishi bilan bog’liq xatolar. Bu holatlar dalillarni umuman ishlatmaslik yoki ularni noto’g’ri tahlil qilish natijasida yuzaga keladi. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda quyidagilarni faktik xatolar sifatida olish mumkin:

a) ish uchun ahamiyatga ega bo’lgan holatlarning to’liq aniqlanmaganligi;

b) sud aniqlangan deb hisoblagan, ish uchun ahamiyatga ega bo’lgan holatlarning isbotlanmaganligi;

c) sud hujjatida bayon etilgan sud xulosalarining ish holatlariga muvofiq emasligi;

d) bildirilgan talab bo’yicha sud tomonidan sud hujjatining qabul qilinmaganligi.

2. Moddiy huquq normalarini qo’llash bilan bog’liq xatolar - huquq normalarining buzilishi yoki noto’g’ri qo’llanishi bilan bog’liq bo’lib, ular qonunchilikni noto’g’ri talqin qilish natijasida yuzaga keladi. Bular esa quyidagilar hisoblanadi:

a) qo’llanilishi lozim bo’lgan qonunni yoki boshqa qonunchilik hujjatini qo’llamagan bo’lsa;

b) qo’llanilmasligi lozim bo’lgan qonunni yoki boshqa qonunchilik hujjatini qo’llagan bo’lsa;

c) qonunni yoki boshqa qonunchilik hujjatini noto’g’ri talqin qilgan bo’lsa.

Moddiy qonunchilik normalarining har qanday holda buzilishi yoki noto’g’ri qo’llanilishi sud hujjatining bekor qilinishi yoki o’zgartirilishiga olib keladi.

3. Protsessual xatoliklar - sud muhokamasi davomida yo’l qo’yilgan va ish bo’yicha yakuniy qarorga ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan xatolardir. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual xatolar FPKning 372⁴-moddasida belgilangan qoidalar hisoblanadi.

Sud xatosi ham sud hujjatlariga ta'sir doirasiga ko'ra ikki xil darajada bo'ladi. Birinchi tur sifatida sud hujjatining mazmuniga ta'sir qilmaydigan holatlar bo'lsa, ikkinchisi sud hujjatining mazmuniga ta'sir qilib, sud xatosining mavjudligi sud hujjatining bekor qilinishiga olib keladigan holatlar hisoblanadi. Ammo, ko'pgina huquqshunos olimlar sud xatosi bo'lishi uchun uning natijasida sud o'zining odil sudlovdagi maqsad va vazifalariga erisha olmasligi kerak deya ta'kidlashadi. Bu esa o'z navbatida sud hujjatlarini bekor qilinishiga olib keladigan qat'iy xatolik ekanligini bildiradi.

Turli huquqshunos olimlarning sud xatosini o'rganishi natijasida turli xil doktrinal yondashuvlar paydo bo'lgan. Ularning barchasi fuqarolik sud ishlarini yuritishdagi kamchiliklarni o'z vaqtida to'g'ri aniqlash va bartaraf qilish uchun muhim hisoblanadi. Ayniqsa, sud hujjatlarini qonuniyligi, asosliliigi va adolatliliigi yuzasidan tekshiruvchi qayta ko'rish institutlari faoliyatida ushbu nazariy bilimlar keng miqyosda foydalaniladi. Demak, bulardan kelib chiqqan holda sud xatosiga quyidagicha mualliflik ta'rifini ishlab chiqish mumkin:

“Sud xatosi – bu fuqarolik sud ishlarini yuritishning maqsad va vazifalaridan chetga chiqqan holda, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining qonunchilikda belgilangan huquq va manfaatlarini buzgan holda sud hujjatlarining qabul qilinishiga olib keladigan, odil sudlovga erishishga to'siq bo'ladigan yoki huquq normalarining obro'sizlanishiga olib keladigan salbiy holat hisoblanadi.”

Yuqorida sanab o'tilgan bir qator sud ishlarini yuritishda vujudga keluvchi kamchiliklar va muammolarni bartaraf qilish va odil sudlovga erishishni yanada oshirish maqsadida mamlakatimizda ayrim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni asosida bir qator o'zgarishlar kiritilishi belgilangan. Ushbu o'zgarishlar zaminida sudlarda kelib chiqadigan faktik xatolar hamda protsessual va moddiy qonunchiliklarni qo'llash bilan bog'liq xatolarni oldi olinishi istiqbollari yotadi. Chunki, ushbu farmonda “Raqamli sud” konsepsiyasini ishlab chiqilgan bo'lib, unda quyidagilarni amalga oshirish belgilangan:

- sudga ariza berishdan oldin sun'iy intellekt yordamida sud muhokamasining taxminiy natijasi hamda sarflanadigan xarajatlarni shakllantirish;
- murojaatlarni sudga elektron shaklda yuborish;
- ishda ishtirok etuvchi shaxslarga sud binosiga tashrif buyurmasdan sud muhokamalarida masofadan turib ishtirok etish imkoniyatini yaratish;
- taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga sud jarayonlarida ishga doir barcha materiallar bilan elektron shaklda tanishish imkoniyatini yaratish;
- sud xarajatlari elektron shaklda hisoblanishi va to'lanishi, shuningdek, ijro varaqalarini avtomatik ravishda ijroga yuborish;
- sud ishlarini zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda to'liq elektron tarzda yuritish;
- sun'iy intellekt yordamida sud majlisi bayonnomalarini real vaqt rejimida matn shaklida tayyorlash;
- sud hujjatlari loyihalarini avtomatik shakllantirish [18].

Ushbu o'zgarishlar sudlarda vujudga keluvchi xatoliklarni kamaytirishga va sud tizimining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Umumiy qilib aytganda, sud xatosi fuqarolik sud ishlarini yuritishdagi salbiy jarayon hisoblanib, uning natijasida qabul qilingan sud hujjatlari yuqori instansiya sudlari tomonidan bekor qilinishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, sud xatosi sud hujjatlarini bekor qilish yoki o'zgartirish asoslarini keltirib chiqaradigan asosiy omil hisoblanadi. Ayniqsa, protsessual huquq normalarining buzilishi

yoki noto'g'ri qo'llanilishi sud xatosi bilan bog'liq jarayon sanaladi. Sud xatosini tadqiq qilish esa, uni oldini olish yoki bartaraf qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bunda yuqorida hal qiluv qarorlarini qayta ko'rishda protsessual huquq normalarining buzilishi bilan bog'liq normaga keltirilib o'tilgan takliflarning amaliyotga joriy etilishi natijasida sud xatolarini oldini olish va ularni sodir etilishi darajasini kamaytirishga erishish mumkin.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // 01.05.2023 // URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi farmoni. 28.01.2022-yildagi PF-60-son // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi // 01.04.2018 // URL: <https://lex.uz/docs/-3517337#-6716209>
4. Mamasiddiqov M.M., Xabibullayev D.Y., Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. - Toshkent. "Lesson press" nashriyoti. 2020-y. 607 bet // URL: <https://drive.google.com/file/d/1GJyv6KODBFziHGELOV8xbsD0ZxpTWzp/view>
5. Голубева М.Л. Судебная ошибка: теоретико-прикладной анализ: автореф. дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.08 – уголовное право и криминология; уголовно-исполнительное право. – Н. Новгород, 2009. – 30 с. 10с // URL: <https://www.dissercat.com/content/sudebnaya-oshibka-teoretiko-prikladnoianaliz/read>
6. Беккер Т.А. Установление истины как основы предупреждения судебных ошибок в уголовном судопроизводстве: автореф. дисс. канд. юрид. наук: 12.00.09 - Уголовно-процессуальный. - Томск, 2017. - 24 с. // URL: <https://www.dissercat.com/content/ustanovlenie-istiny-kakosnovapredotvrashcheniya-sudebnykh-oshibok-v-ugolovnom-proizvodstve/read>
7. Мохов А.А. Гражданский процесс (гражданское процессуальное право) России: учебник — М.: ООО «ЮРИДИЧЕСКАЯ ФИРМА КОНТРАКТ», 2017. — 384 с. 24 с // URL: https://www.consultant.ru/edu/student/download_books/book/grazhdansky_process_rossii_pod_red_aa_mokhova/
8. Esanova Z.N., Xabibullayev D.Y., Salimova I.M. Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishda isbotlash va dalillar. Monografiya. - Toshkent: LESSON PRESS, 2015. - 181 bet. // URL: <https://drive.google.com/file/d/1zKJQCerS7-WpCd43ZSbzxtSGPgMmRWtbm/view>
9. Крашенинникова П. В. Гражданское процессуальное право : учебник : [в 2 т.] / под ред. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва : Статут, 2022. 550 с 435-437 с. // URL: https://www.consultant.ru/edu/student/download_books/book/grazhdanskoe_processualnoe_pраво_учебник_v_2_t_tom_1_obshchaya_chast_pod_red_pv_krashenninnikova/
10. Тришина Е.Г. Проблема судебного контроля в гражданском судопроизводстве: Дис... канд. юрид. наук. Саратов, 2000. // URL: <https://www.dissercat.com/content/problema-sudebnogo-kontrolya-v-grazhdanskom-sudoproizvodstve>
11. Красильников Б.В. Судебная ошибка по гражданскому делу как следствие несовершенства материального и процессуального законодательства: Дис... канд. юрид. наук. М., 2002. // URL: <https://www.dissercat.com/content/sudebnaya-oshibka-po-grazhdanskomu-delu-kak-sledstvie-nesovershenstva-materialnogo-i-protses>
12. Ефимова В.В. Контроль в арбитражном процессе как способ устранения судебных ошибок: автореф. дис.... канд. юрид. наук: 12.00.15 - гражданский процесс; арбитражный процесс. Саратов, 2004. - 32 с. // URL: <https://www.dissercat.com/content/kontrol-v-arbitrazhnom-protseste-kak-sposob-ustraneniya-sudebnykh-oshibok/read>
13. Mamasiddiqov M.M., Esanova Z.N., Xabibullayev D.Y. Fuqarolik protsessual huquqi. O'quv qo'llanma. - Toshkent. ILM ZIYO, 2012-yil, - 336 bet. // URL: [https://www.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/huquq/Fuqarolik%20protsessual%20huquqi%20\(M.Mamasiddiqov,%20Z.Esanova,%20D.Habibullayev\).pdf](https://www.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/huquq/Fuqarolik%20protsessual%20huquqi%20(M.Mamasiddiqov,%20Z.Esanova,%20D.Habibullayev).pdf)
14. Петрова И.А. *Пересмотр судебных актов по вновь открывшимся обстоятельствам в гражданском и арбитражном процессах (сравнительно-правовой аспект)*: автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата юридических наук. — Москва, 2010. — 33 с. // URL: <https://www.dissercat.com/content/peresmotr-sudebnykh-aktov-po-vnov-otkryvshimsya-obstoyatelstvam-v-grazhdanskom-i-arbitrazhno/read>
15. Морозова А.С. Пределы рассмотрения дела арбитражным апелляционным судом и его полномочия: дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.15 — гражданский процесс; арбитражный процесс. Саратов, 2015. 35 с. 19 с // URL: <https://www.dissercat.com/content/predely-rassmotreniya-dela-arbitrazhnym-apellyatsionnym-sudom-i-ego-polnomochiya/read>
16. Xusaynova R.A. Fuqarolik ishlarini apellyatsiya tartibida sudda ko'rib chiqish muammolari: yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2011. – 26 bet.

17. Борисова Е.А. Апелляция, кассация, надзор по гражданским делам : учеб. пособие — 2е изд., перераб. и доп. — М. : Норма : ИНФРАМ, 2016. — 352 с. URL: https://www.consultant.ru/edu/student/download_books/book/borisova_ea_apelljacija_kassacija_nadzor_po_grazhdanskim_delam

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni. 21.08.2025-yildagi PF-140-son // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7696567>

TOLLIBAYEVA Malika Ulmasjon qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
 “Davlat huquqiy fanlar” kafedrası o’qituvchisi, O’zbekiston Respublikasi
 Odil sudlov akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
 E-mail: malikatoliboyeva@gmail.com

IQTISODIY PROTSESSDA ADVOKAT VAKILLIGINI TASDIQLASHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): TOLLIBAYEVA M.U.
 Iqtisodiy protsessda advokat vakilligini tasdiqlashning normativ-huquqiy asoslari // Yurist
 axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 6 (2025) B. 95–102.



6 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada iqtisodiy protsessual qonunchilikda advokat vakilligini tasdiqlashga doir huquqiy mexanizmlar chuqur tahlil qilinib, xorijiy davlatlar tajribasi asosida mavjud muammolar ochib beriladi va tizimli takliflar ilgari suriladi. Iqtisodiy sudda advokatning vakil sifatida qatnashish huquqi, uning vakolatlari va ularni rasman tasdiqlash tartibi, normativ-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, fuqarolik va iqtisodiy protsessda vakillikning advokat tomonidan amalga oshirilishiga doir bir qator muammolar aniqlanib, ularni bartaraf qilish choralari ko’rib chiqildi. Ishda ishtirok etayotgan shaxsning huquqlarini mujassamlashtirgan holda ishonchnoma yoki (elektron) orderning huquqiy chegarasi bo’yicha shaxsiy nuqtai nazar bildirilib, sud amaliyoti materiallaridan misollar keltiriladi. International Bar Association (IBA) tomonidan advokat vakilligini tasdiqlash bo’yicha hamda Yevropa mamlakatlari, xususan Rossiya, Ukraina; Osiyo davlatlaridan Indoneziya va Eron kabi davlatlar olimlari tomonidan bildirilgan ba’zi fikrlarni tahlil qilish orqali elektron orderning afzalliklari muhokama qilinadi. Bundan tashqari, maqolada ishonch bildiruvchi va advokat o’rtasida tuziladigan yuridik xizmat ko’rsatish shartnomasining ahamiyati, undagi huquq va majburiyatlar yuzasidan nizo kelib chiqqan taqdirda hal qilish tartibi yuzasidan mulohazalar keltiriladi. Normativ-huquqiy, solishtirma hamda doktrinal tahlillar asosida tadqiqot olib borilib, iqtisodiy sudlarda advokatning vakilligini tasdiqlashga oid milliy va xalqaro qonunchilik o’rganildi. O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2010-yil 14-maydagi “Vakillikka doir fuqarolik protsessual qonunchiligi normalarining sudlar tomonidan qo’llanilishi to’g’risida”gi 5-sonli qarori va “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarining ijtimoiy himoyasi to’g’risida”gi Qonunning ayrim qonunchilikka zid holatlari aniqlanib, buni bartaraf qilish yuzasidan takliflar berildi.

Kalit so’zlar: advokat, order, ishonchnoma, shartnoma bo’yicha vakillik, elektron order, advokatlik guvohnomasi, “Yuridik yordam” axborot tizimi, yuridik xizmat ko’rsatish shartnomasi, Xalqaro advokatlar assotsiatsiyasi, konfidentsiallik prinsipi, vakolatnoma, advokatlik tuzilmasi.

ТОЛЛИБАЕВА Малика

Преподаватель кафедры «Государственно-правовых дисциплин»
 Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова,
 самостоятельный соискатель академии Правосудия Республики Узбекистан
 E-mail: malikatoliboyeva@gmail.com

НОРМАТИВНО-ПРАВОВАЯ ОСНОВА ПОДТВЕРЖДЕНИЯ АДВОКАТСКОГО ПРЕДСТАВИТЕЛЬСТВА В ЭКОНОМИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ

АННОТАЦИЯ

В настоящей статье анализируются правовые механизмы подтверждения адвокатского представительства в экономическом процессуальном законодательстве, раскрываются

существующие проблемы на основе опыта зарубежных стран, а также выдвигаются системные предложения. Анализируется право адвоката участвовать в качестве представителя в процессе экономических судов, его полномочия и порядок их официального утверждения, а также его нормативная правовая база. Также выявляется ряд проблем, связанных с осуществлением представительства адвокатом в гражданском и экономическом судопроизводстве, и рассматриваются меры по их устранению. Высказывается собственная точка зрения относительно правовых границ доверенности или (электронного) ордера, воплощающих права лица, участвующего в деле, и приводятся примеры из судебной практики. Преимущества электронного ордера обсуждаются путем анализа некоторых мнений, высказанных Международной ассоциацией юристов (IBA) по вопросу подтверждения представительства адвоката, а также учеными европейских стран, в частности России, Украины, и азиатских стран, таких как Индонезия и Иран. Кроме того, в статье рассматривается значение договора об оказании юридических услуг, заключаемого между доверителем и адвокатом, порядок разрешения споров, вытекающих из содержащихся в нем прав и обязанностей. Исследование проведено на основе нормативного, сравнительного и доктринального анализов и изучено национальное и международное законодательство по вопросам подтверждения представительства адвоката в экономических судах. Проанализированы Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 14 мая 2010 года № 05 «О применении судами норм гражданского процессуального права о представительстве» и Закон «О гарантиях адвокатской деятельности и социальной защите адвокатов», а также внесены предложения по их устранению.

Ключевые слова: адвокат, ордер, доверенность, договорное представительство, электронная доверенность, удостоверение адвоката, информационная система «Юридическая помощь», договор об оказании юридических услуг, Международная ассоциация юристов, принцип конфиденциальности, представительство, адвокатское формирование.

MALIKA Tollibaeva

Lecturer at the Department of State and Legal Sciences
at Samarkand State University named after Sharof Rashidov,
Independent researcher at the Academy of Justice
of the Republic of Uzbekistan
E-mail: malikatolliboyeva@gmail.com

LEGAL FRAMEWORK OF APPROVAL OF LAWYER REPRESENTATION IN THE ECONOMIC PROCESS

ANNOTATION

This article analyzes the legal mechanisms for confirming attorney representation in economic procedural law, highlights existing problems based on the experience of foreign countries, and puts forward systemic proposals. It examines an attorney's right to participate as a representative in economic court proceedings, their powers, and the procedure for their official approval, as well as the legal framework for such representation. It also identifies a number of issues related to attorney representation in civil and economic proceedings, and considers measures to address them. The article offers its own perspective on the legal boundaries of a power of attorney or (electronic) order embodying the rights of a party to the case, and provides examples from judicial practice. The advantages of electronic orders are discussed through an analysis of selected opinions expressed by the International Bar Association (IBA) on the issue of confirming attorney representation, as well as scholars from European countries, particularly Russia and Ukraine, and Asian countries such as Indonesia and Iran. In addition, the article discusses the importance of the legal services agreement concluded between the principal and the lawyer, the procedure for resolving disputes arising from the rights and obligations contained in it. Based on regulatory, comparative and doctrinal analyses, a study was conducted, and national and international legislation on the confirmation

of the lawyer's representation in economic courts was studied. The Resolution of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan No.5 dated May 14, 2010, "On the application by courts of the norms of civil procedural law on representation", and the Law "On guarantees of legal activity and social protection of lawyers" were identified, and proposals were made to eliminate them.

Keywords: lawyer, order, power of attorney, contractual representation, electronic power of attorney, lawyer's certificate, "Legal Aid" information system, agreement for the provision of legal services, International Bar Association, principle of confidentiality, power of attorney, legal structure.

Bugungi kunda sudda va boshqa davlat organlarida shaxsning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda unga vakillar tomonidan sifatli yuridik yordam ko'rsatilishi zamon talabiga aylanib ulgurdi. Ayniqsa, iqtisodiy protsessda tadbirkorlik subyektlari manfaatlarini himoya qilishda advokat vakilligining institutsional maqomi alohida ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy protsessda advokat vakilligini tasdiqlash muhim huquqiy jarayon hisoblanib, advokat vakilligini qonuniy asosda tasdiqlash orqali vakolatlar aniq belgilanadi. Bu esa sud ishlarining samarali va adolatli olib borilishini ta'minlaydi. Tahlil jarayonida xorijiy davlatlar qonunchiligi va tajribasi o'rganilgan bo'lib, milliy qonunchiligimizda advokat vakilligini tasdiqlashdagi yutuq va kamchiliklar aniqlangan. Maqolada keltirilgan shaxsiy nuqtai nazar asosida shakllantirilgan xulosalarda O'zbekistonda advokat mustaqilligini, uning vakolatlarining rasmiylashtirilishida qaysi jihatlarga urg'u berish kerakligi haqida takliflar ilgari surildi.

Rivojlangan davlatlar tajribasidan ko'rinadiki, Rossiya [1], Germaniya [2], Fransiya [3] va boshqa davlatlarda bosqichma-bosqich advokat orderining elektron tarzda rasmiylashtirilishining amaliyotga joriy qilinishi advokat uchun ham, sudlar uchun ham bir qancha qulayliklar yaratdi. Milliy qonunchiligimizga ham bu amaliyot joriy qilinib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi PQ-263-son qaroriga [4] asosan 2023-yil 1-fevraldan boshlab advokatlar tomonidan ishni olib borishda qog'oz shakldagi order maqomiga teng bo'lgan maxsus QR-kod qo'yilgan "Elektron advokatlik orderi"ni berish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bunda, advokat "Yuridik yordam" axborot tizimi orqali (e-advokat.uz) [5] o'zining shaxsiy kabinetiga kirib, elektron shakldagi orderni rasmiylashtirishi mumkin. Mazkur orderni rasmiylashtirish advokatning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi. Advokat ish faoliyati davomida har bir ish uchun order olishda qaysidir ma'noda advokatlik tuzilmasi rahbariga hisobdor bo'lishi va alohida murojaat qilish amaliyotiga chek qo'yildi. Va bu orqali advokatning mustaqilligini ta'minlovchi huquqiy asos yaratildi. Eng asosiysi, advokat orderni istalgan vaqtda elektron shaklda rasmiylashtirish, uni masofadan turib davlat organlariga, tashkilotlariga va sudlarga taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Xalqaro advokatlar assotsiatsiyasi (IBA - International Bar Association) [6] tomonidan ilgari surilgan advokatning vakolatini tasdiqlovchi va unga sudda qatnashish huquqini beruvchi hujjatlar tahlil qilinib, tegishli davlatlar tajribasi o'rganildi. Bundan tashqari, mazkur maqolaga ilmiy-amaliy tadqiqotlar quyidagi metodologik yondashuvlar asosida amalga oshirildi:

Normativ-huquqiy tahlil asosida tadqiqot O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi [7], [8], Iqtisodiy protsessual kodeksi [9] va boshqa sohaga oid me'yoriy hujjatlarga tayanib olib borildi. Solishtirma tahlil – advokat vakolatlarini rasmiylashtirishning iqtisodiy va fuqarolik sudlaridagi o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilindi. Doktrinal tahlil asosida huquqshunos olimlarning ishlari va O'zbekistondagi iqtisodiy sudlarda advokatning vakilligini tasdiqlovchi qaysi hujjatlar talab qilinishiga ahamiyat berildi.

Bundan tashqari, birinchi va yuqori instansiya sudlarida advokat vakilligining ba'zi jihatlari sud amaliyoti materiallari tahlili asosida o'rganildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasiga [7.1] muvofiq, har kimning malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Bu normaning mazmunidan kelib chiqib,

davlat malakali advokatlar orqali fuqarolarga huquqiy yordamni taqdim etishi shartligi yuzaga chiqadi. Konstitutsiyaning 55-moddasida [7.2] esa har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish imkoni beriladi. Bu himoya huquqi bevosita advokat orqali amalga oshirilishi mumkin. Umuman olganda, shaxsning advokat vakilligidan foydalanish huquqini konstitutsion huquqlar sifatida e'tirof etish joiz. Advokatlik faoliyatining tartibga solingan va huquqiy jihatdan kafolatlangan shaklda amalga oshirilishi fuqarolarning va tashkilotlarning sudda to'laqonli huquqiy himoyasini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu jarayonda **advokat orderi** muhim huquqiy hujjat sifatida alohida o'rin tutadi. U advokatning muayyan ishda ishtirok etishi va vakillik vakolatini amalga oshirishi uchun rasmiy va huquqiy asos hisoblanadi.

E.Egamberdiyev fikricha, shartnomaviy vakillik – fuqarolik-huquqiy shartnoma bo'lgan topshiriq shartnomasi asosida vujudga keladi. Ya'ni topshiriq shartnomasi bo'yicha bir taraf (vakil) ikkinchi taraf (topshiriq beruvchi)ning nomidan va uning hisobidan muayyan yuridik harakatlarni sodir etish majburiyatini oladi. Vakil tuzgan bitim bo'yicha huquq va majburiyatlar topshiriq beruvchida vujudga keladi. Shartnomaviy vakillik mehnat-huquqiy munosabatlarda bo'lishi mumkin [10. 87-b]. Olim fikricha, shartnomaviy vakillik va shartnoma bo'yicha vakillik bir ma'noni anglatadi, fikrimizcha, yuridik xizmat ko'rsatish shartnomasi va topshiriq shartnomasi o'rtasida tafovut mavjud. Sababi, ishonch bildiruvchi va advokat o'rtasidagi munosabatlar mehnat-huquqiy munosabatlar doirasida emas. Lekin yuridik xizmat ko'rsatish shartnomasi ham fuqarolik shartnomasining bir turidir.

O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabrda "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi 721-I-son Qonuni 4-moddasida [11] muayyan ishni olib borishga advokatning vakolatli ekanligi order bilan tasdiqlanishi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 61-moddasida [9.1] advokatlar shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillar sifatida iqtisodiy ishda ishtirok etishi haqida norma keltirilgan. Kodeksning 62-moddasida advokatning vakolatlari qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlanishi orqali boshqa qonunga havola qiladi. Ya'ni qonunchilikka kiritilgan muhim o'zgarishlardan advokat so'rovi yuborilgan davlat organi yoki tashkilot, tegishli ishni ko'rib chiqayotgan sud yoki huquqni muhofaza qiluvchi organ tomonidan advokatning muayyan ishga vakolatligini elektron orderdagi QR-kodni skanerlash orqali aniqlash imkoniyatini beradi. Biroq IPKning 62-moddasida vakilning sudda ish yuritishga doir vakolatlari qonunga muvofiq berilgan va rasmiylashtirilgan ishonchnomada ko'rsatilgan bo'lishi belgilangan. Qonunchilikda bunday normaning mavjudligi qaysidir jihatdan advokatning ham order, ham ishonchnoma asosida sudda vakillik qilishi shart ekanligini anglatadi. To'g'ri, iqtisodiy protsessda advokatlar ko'p holatda tadbirkorlik subyektlarining shartnoma bo'yicha vakili bo'lib, ulardan ishonchnoma olishi katta muammoni keltirib chiqarmasligi mumkindir. Ammo orderning o'zi uni vakillik qilishi uchun yetarli asos hisoblanadi. Vaholanki, "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonun 7-moddasiga [11.1] muvofiq, advokatlik faoliyatini amalga oshirishda biron-bir maxsus ruxsatnoma (order va advokat guvohnomasidan tashqari) talab qilish yoki boshqa to'siqlar vujudga keltirish man etiladi.

Order – advokatning belgilangan shaklda berilgan va ishonch bildiruvchining vakili sifatidagi vakolatlarini tasdiqlovchi rasmiy hujjatdir. Ishonchnoma esa vakillik berishning umumiy shakli bo'lib, advokatning ishtirokini qo'llab-quvvatlaydi. Amaliyotda advokatning ba'zi holatlarda ishonchnomasiz sudda faqat order bilan qatnashishi uning vakolatlarini to'liq amalga oshirishini cheklashi mumkin. E'tiborga molik yana bir jihat: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2010-yil 14-maydagi "Vakillikka doir fuqarolik protsessual qonunchiligi normalarining sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida" 5-sonli qarorida [12] advokat ishga kirishishi uchun advokatlik guvohnomasi va advokatlar tuzilmasi tomonidan berilgan order taqdim etilishi bilan kifoyalangan. U advokatga yuridik yordam so'rab murojaat etgan shaxs manfaatlarini sudda himoya qilish huquqini

berishi belgilangan. Bundan ko‘rinib turibdiki, fuqarolik va iqtisodiy protsessda vakillikning advokat tomonidan amalga oshirilishiga oid ziddiyat mavjud va bu bartaraf etilishi lozim. Ammo amaliyotda order va ishonchnoma shakllari bilan bog‘liq protsessual to‘siqlar, sud organlari tomonidan order rasmiylashtirilishidagi ba‘zi talablari natijasida advokat ishtirokining cheklanishi holatlari kuzatilmoqda. Bu esa Konstitutsiyada kafolatlangan sudda himoyalaniish va huquqiy yordamdan foydalanish huquqini cheklash holatini keltirib chiqaradi. Fikrimizcha, masalaning yana bir muhim tomoni sudlar tomonidan chiqarilayotgan ba‘zi qarorlarda advokat ishtirokini tasdiqlovchi order yoki ishonchnomaga oid talabning unifikatsiyalashmaganidir. Masalan, Navoiy viloyat sudining Iqtisodiy ishlar bo‘yicha sudlov hay‘ati tomonidan ko‘rib chiqilgan 4-2103-2201/576-sonli iqtisodiy ishda [13] javobgarining vakili faqat advokatlik orderiga asosan ishda qatnashgan bo‘lsa, Andijon viloyat sudi iqtisodiy ishlar bo‘yicha sudlov hay‘ati tomonidan ko‘rilgan 4-1706-2201-42-sonli ishda [14] advokat ham ishonchnoma, ham order asosida ishga kirishmoqda. Shuningdek, Tayloq tumanlararo iqtisodiy sudida 4-1407-2501/2025-sonli ish yuzasidan [14.1] sudya da‘vogar tuman hokimligining javobgar “Chortut” fermer xo‘jaligi bilan tuzilgan ijara shartnomasini bekor qilishni so‘rab murojaat qilgan ishida javobgar vakili advokat (06-sonli order asosida) ishda qatnashgan. Yana bir holat 2025-yil 16-iyul kuni Ishtixon tumanlararo iqtisodiy sudida da‘vogar “Ziyo Kapital Qurilish” MChJ, javobgar “Nev Tech Samarkand” MChJdan jami bo‘lib, 6.280.061.190,2 so‘m qarzdorlikni undirish to‘g‘risidagi da‘vo arizasi bo‘yicha ishni Ishtixon tumanlararo iqtisodiy sudi binosida, videokonferensaloqa rejimida, da‘vogar vakillari M.Yusupov (jamiyat rahbari) va F.Yuldoshev (advokat order asosida), javobgar vakili Q.Aminov (order asosida) ishtirokida iqtisodiy ish ko‘rib chiqilgan [14.2].

Demak, iqtisodiy sudlarda faoliyat yuritadigan sudyalarda advokat vakilligini tasdiqlovchi hujjatlarning ixtiyoriy taqdimiga asosan ish ko‘rishadi. Yoki advokatning ishonchnomasiz sudda qatnashishini vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlarning yetarli bo‘lmagani sababli uning ishtiroki cheklanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqoridagi Farmonida advokat tomonidan order muqobillik asosida qog‘oz shaklda ham rasmiylashtirilishi mumkinligi keltirilgan. Amaliyotda advokat o‘zi faoliyat ko‘rsatadigan advokatlik tuzilmasi rahbaridan har bir qog‘oz shaklidagi orderni rasmiylashtirish uchun “ruxsat so‘rash” taomiliga amal qiladi. Bu esa, advokatning mustaqilligini qisman bo‘lsa-da cheklaydi, bu holat uning konfidensiallik prinsipiga ham zid keladi. Ya‘ni orderda advokat qaysi ish bo‘yicha, kimning ishi bo‘yicha vakillikni amalga oshirishi ko‘rsatiladi. Mazkur holat uning ishonch bildiruvchi va advokat bilan tuzgan shartnomasida ko‘rsatilgan ish materiallari bo‘yicha sir saqlash prinsipiga amal qilmaganligini anglatadi. Shuningdek, qog‘oz shaklidagi orderni olish advokatlik tuzilmasiga rahbarlik qiluvchi advokatga order oladigan advokatning hisobdor ekanligini ham anglatadi nazarimizda. Masalaning yana bir jihati: Samarqand shahridagi “XXX” advokatlik firmasining advokati “XXX”ga ishni olib borishga beriladigan orderida order berishga asos deyilgan qismida shartnoma deb ko‘rsatilgan. Shartnoma bu mavhum tushuncha bo‘lib, ayni qaysi shartnoma ekanligiga advokat va ishonch bildiruvchi o‘rtasida tuzilgan yuridik xizmat ko‘rsatish shartnomasimi yoki yuridik shaxsning boshqa tashkilot bilan tuzgan shartnomasimi, shu jihatiga aniqlik kiritilmagan. Bundan tashqari, order berilgan sana aniq ko‘rsatilgan, ammo uning qachongacha amal qilishi va mazkur order asosida advokat qanday ishlarni amalga oshirishi ko‘rsatilmagan. Mantiqan o‘ylaganda, order muayyan yuridik xizmatni amalga oshirguncha amal qiladi. Ammo biron tashkilotdan tegishli ma‘lumotni olish, ekspertiza tayinlash, sud ishlarining aynan qaysi instansiyasida advokat ishtirok etishi, ya‘ni orderning harakatlanish chegarasi qanday belgilanadi? Agar yuridik xizmat ko‘rsatish shartnomasiga advokat tomonidan orderning amal qilish doirasi kiritilgan bo‘lsa va bu haqida ishonch bildiruvchiga ma‘lum qilib, taraflar xohish-irodasiga muvofiq ravishda shartnoma imzolangan bo‘lsa nizo kelib chiqmaydi.

Biroq amaliyotda har bir ko'rsatilgan yuridik xizmat uchun order olish bevosita advokatlik tuzilmasi hisob raqamiga ishonch bildiruvchi tomonidan to'lov qilingandan so'ng amalga oshiriladi. Bunda shartnoma shartlarida mazkur holat ko'rsatilmagan bo'lsa yoki ishonch bildiruvchiga ma'lum qilinmagan bo'lsa, advokat bilan ishonch bildiruvchi o'rtasida nizo kelib chiqishi mumkin.

Xorijiy davlatlarda advokatning vakilligining tasdiqlanishiga oid olimlar fikri va amaliyotni tahlil qilamiz. Xususan, ba'zi Yevropa huquqshunoslari orderni advokatlik tuzilmalari tomonidan beriluvchi hujjat, vakillik vakolatlarining aniqlanishida muhim element sifatida qarashadi. Bu fikrlar "representative authority" yoki "letter of authorization" tushunchalari bilan taqqoslanadi. Ukrain huquqshunosi L.Savanes [15] o'z ilmiy izlanishlarida order va yuridik yordam ko'rsatish shartnomasi o'rtasidagi huquqiy jihatlarini tahlil qilar ekan, raqamlashtirilgan orderlarni sud tizimlariga joriy etish orqali quyidagi fikrni ilgari suradi: "Sudga taqdim etiladigan elektron orderlar elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanishi va avtomatlashtirilgan platforma orqali sud tizimida ko'rilishi huquqiy aniqlik va tezkorlikni ta'minlaydi". Haqiqatan ham rivojlangan ba'zi davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holatda milliy qonunchiligimizda elektron orderni amaliyotga tatbiq etilishi raqamlashtirish jarayonini samarali faoliyatiga yordam berdi. QR-kodli advokatlik orderi avtomatik shakllantirilib, sud va boshqa organlar elektron sahifasida joylashtirish imkoniyati yaratildi.

Rossiyalik olimlar Xachirov va Alaverdyan [16] fikricha, arbitraj sudlarida advokat vakilligini baholashda shakliy talablar ustuvorlik kasb etmoqda. Ular sud amaliyotidagi formalizmni tanqid qilib, mazmun va maqsadga muvofiqlikni asosiy mezon sifatida belgilashni taklif etadilar. Fikrimizcha, advokatlik orderiga nisbatan yagona standartning joriy qilinishi formalizmnining bir ko'rinishi ekanligiga olimlar urg'u berishmoqda. Haqiqatan ham, advokatga qog'oz yoki elektron shakldagi orderni rasmiylashtirishning qaysi shakli ma'qul bo'lsa, shuni qo'llash tavsiya etiladi.

Osiyo davlatlari olimlari ham advokat vakolatlarini tasdiqlashda turli fikrlarni ilgari suradi. Indoneziyalik A.M.A.Raxmanning [17] tadqiqotlari orqali ma'lum bo'ladiki, ishonchnomalaridagi texnik kamchiliklar asosida advokat ishtirokini rad etish holati inson huquqlarini cheklaydi. Uning ta'kidlashicha, har qanday ortiqcha protsessual talab shaxsning malakali huquqiy yordam olish huquqiga zid keladi. Olim fikridan shuni anglash mumkinki, advokatning qog'oz shaklidagi orderini qabul qilmasdan, elektron order rasmiylashtirish talabining qat'iyligi advokat mustaqilligi prinsipini inkor etadi.

Eron huquqshunosi M.Bagheriy va [18] boshqalar ta'kidlashicha, vakillik huquqi nafaqat huquqiy hujjat, balki axloqiy ishonch asosiga tayanadigan munosabatdir. Bu nuqtai nazar Xalqaro advokatlar assotsiatsiyasi (IBA)ning [6.1] 2021-yilgi hisobotida ham o'z ifodasini topgan: "Orderdagi rasmiy kamchiliklar bilan advokat ishtirokini cheklash sud adolati tamoyillariga, xususan, inson huquqlariga zid keladi". Holbuki, advokat orderidagi ba'zi mayda texnik xatoliklar sabab sudda uning vakilligini cheklash nafaqat shartnoma bo'yicha vakil, balki ishonch bildiruvchi shaxsning ham manfaatlariga zid keladi.

O'zbek olimlaridan Q.Matkarimov fikricha, sudda ish yuritish uchun advokatning vakolati advokatlik tuzilmasi tomonidan beriladigan order bilan guvohlantiriladi. Biroq "guvohlantirish" so'zini faqat jinoyat sudlari bilan bog'liq ekanligi nuqtai nazaridan chetda bo'lish lozim [19. B-28]. Sababi, jinoyat, iqtisodiy, ma'muriy va fuqarolik sudlarida advokat vakolatlarini tasdiqlash ordening mavjudligi bilan izohlanadi. Ahamiyat beradigan bo'lsak, order advokatlik tuzilmasi tomonidan beriladi. Advokatlik tuzilmalari deganda advokatlik firmasi, advokatlik hay'ati, va advokatlik byurosi nazarda tutiladi. Bunda yuridik maslahatxonalar ham advokatlik tuzilmalari qatoriga kiradi. Demak, advokatning sudda vakillikni amalga oshirishi faqat advokatlik tuzilmalari tomonidan beriladigan order orqali hal etiladi.

Lekin milliy qonunchilikda advokat order bilan birgalikda ishonchnomani ham sudga taqdim etishi lozimligi belgilangan. Bu borada, M.Rustambayev va U.Tuxtasheva order advokatning umumiy

vakolatlarini tasdiqlashiga e'tibor qaratadilar. Umumiy vakolatlar bu ishonch bildiruvchi nomidan vakil amalga oshirishi mumkin bo'lgan, alohida ishonchnomada ko'rsatilishi talab qilinmaydigan, protsessual harakatlarni amalga oshirishni talab qilmaydigan vakolatdir [20. B-223]. Haqiqatan ham vakillikning umumiy qoidalaridan kelib chiqib, ishonchnomani qonuniy vakillarga ham, shartnoma bo'yicha vakillarga ham sudda va boshqa davlat organlarida vakillikni tasdiqlash uchun qo'yiladigan standart talab deya olamiz.

Xorijiy davlatlar, xususan Germaniya [2.1] va Italiyada [21] advokatning vakolatini tasdiqlash bo'yicha amaliyotni tahlil qilish jarayonida, uning vakolatini tasdiqlash huquqini tartibga solishda aniq huquqiy norma mavjudligi, vakolatnoma taqdim etilish shakli (yozma, elektron) va vakillik chegarasi, ya'ni order orqali advokat qanday vakolatlarga ega ekanligi qonunchilikda batafsil yoritilgan. Masalan, Germaniyaning Fuqarolik protsessual kodeksi [22] (Zivilprozessordnung, ZPO) bo'yicha sud ishlarida vakolatnomaning elektron shakli "Prozessvollmacht" talab qilinishi belgilangan.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, advokatning iqtisodiy sudlarda vakolati tasdiqlanishi bilan bog'liq jarayonlarning quyidagi jihatlari ahamiyat berish va mavjud qonunchilikni takomillashtirish lozim deb hisoblaymiz.

Birinchidan, advokat ishda ishtirok etayotgan shaxsning huquqlarini mujassamlashtirgan holda ishonchnoma yoki (elektron) orderning huquqiy chegarasini qonunchilikda aniqlab olish zarur. Yuqoridagi sud amaliyoti materiallaridan ko'rinib turibdiki, qaysidir ishda advokat order bilan birgalikda ishonchnoma bilan, yana qaysidir ishda faqat order bilan ishtirok etgan. Bu holat bevosita advokatning ishda qatnashishiga sudyaning subyektiv fikri bog'liqligini anglatadi. Sababi, sudya agar advokatdan ishonchnomani ham ish hujjatlariga qo'shib taqdim etishni talab qilsa, advokat bu talabni bajarishi qonunda ham ko'zda tutilgan. Ammo sudyaning advokat ishonchnomasi bor yoki yo'qligiga ahamiyat bermasligi qo'pol protsessual xatolik sifatida ham baholanmasligi mumkin.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2010-yil 14-maydagi "Vakillikka doir fuqarolik protsessual qonunchiligi normalarining sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida"gi 05-sonli qarori [12.1] va "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonun 7-moddasining [11.2] bir-biriga zid kelish holati ko'zga tashlanadi. Ya'ni advokatdan order va uning guvohnomasidan tashqari boshqa hujjatning talab qilinmasligi bilan bog'liq normaga qonun chiqaruvchi ahamiyat berishi lozim degan fikrdamiz. Oliy sud Plenumining mazkur qarori aynan fuqarolik protsessual qonunchiligini tartibga soladi. Ammo iqtisodiy protsessda ham advokat bir xil huquqiy maqomda, ya'ni shartnoma bo'yicha vakillikni amalga oshirishini e'tiborga olish joiz. Shuningdek, Iqtisodiy protsessual kodeksining 62-moddasiga [9.3] "elektron order" atamasini kiritish orqali advokatning shartnoma bo'yicha vakilligini tasdiqlashning yagona shakli sifatida qaralsa to'g'ri bo'ladi.

Uchinchidan, advokat tomonidan sudga taqdim etiladigan qog'oz shaklidagi orderga nisbatan elektron orderning afzalligini hisobga olgan holda, amaliyotga faqat elektron orderni joriy qilish ma'qulroq nazarimizda. Sababi, qog'oz shaklidagi order bevosita advokat faoliyat yuritadigan advokatlik tuzilmasidan, elektron order esa bevosita advokatning o'zi tomonidan "Yuridik yordam" axborot tizimi orqali boshqa shaxslarning aralashuviz olinadi.

To'rtinchidan, advokat orderida ishonch bildiruvchi bilan tuziladigan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq, aynan qaysi yuridik yordam turi va orderning amal qilish muddati ko'rsatilishi shartnoma taraflarining o'rtasida nizo kelib chiqishini oldini oladi. Vaholanki, bitta order orqali faqat birinchi instansiyada advokatlik yordami ko'rsatiladi, keyingi sud bosqichlarida esa qaytadan to'lov qilinib, order olish lozim bo'ladi. Aynan shartnomaga asosan orderda uning qaysi ishlar doirasida va qaysi muddatgacha amal qilinishini to'liq ko'rsatish nizo kelib chiqish ehtimolini pasaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan ilmiy tahlil va xorijiy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, advokat vakilligini tasdiqlash jarayonidagi mavjud shakllarning yagona bo'lishi advokatning iqtisodiy ishda muvaffaqiyatli qatnashishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, order va ishonchnomaga nisbatan yagona davlat standartini joriy etish zarur. Eng muhimi, iqtisodiy sudlarda advokat vakilligining huquqiy jihatdan to'g'ri va aniq tartibda rasmiylashtirilishi – sudlov jarayonining adolatli, shaffof va samarali o'tishida muhim omil hisoblanadi.

Iqtiboslar/Snoski/References:

1. Rossiya Federatsiyasi Advokatlar palatasi rasmiy sahifasi <https://fparf.ru/>
2. The German Federal Bar rasmiy sahifasi. <https://www.brak.de/english/>
3. The French Conseil national des barreaux <https://www.cnb.avocat.fr/en>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.05.2022 yildagi "Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-263-son qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.05.2022 y., 07/22/263/0456-son. <https://lex.uz/docs/-6039334>
5. "Yuridik yordam" axborot tizimi rasmiy sahifasi <http://e-advokat.uz>
6. IBA-International Bar Association rasmiy sahifasi. <https://www.ibanet.org/committee-content>
7. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son. <https://lex.uz/docs/-6449033>
8. O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 2-son, 48-modda; 2001 y., 1-2-son, 23-modda. <https://lex.uz/ru/docs/-6563061>
9. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy protsessual kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.01.2018 y. <https://lex.uz/uz/docs/-3523891>
10. Iqtisodiy protsessual huquq. Darslik. Mualliflar jamoasi // Mas'ul muharrir Z.N.Esanova. – T: TDYU nashriyoti, 2018. – 420-b.
11. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabrdagi "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 y., 1-son, 12-modda. <https://lex.uz/docs/-29626>
12. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2010-yil 14-maydagi "Vakillikka doir fuqarolik protsessual qonunchiligi normalarining sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida" 05-sonli qarori. <https://lex.uz/uz/docs/2414102>
13. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining elektron xizmatlar ko'rsatadigan rasmiy sahifasi. <https://my.sud.uz/>
14. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining mavhumlashtirilgan sud qarorlarini olish imkoniyatini beruvchi sayti <https://public.sud.uz/report#!/sign/view>
15. L.Savanets, (2021). *Power of Attorney and Contract of Agency: Comparative Legal Analysis*. WUNU Law Journal. <https://appj.wunu.edu.ua/index.php/apl/article/view/1087> <https://appj.wunu.edu.ua/index.php/apl/article/view/1087>
16. A.Khachirov, & E.G. Alaverdyan, (2021). Representation in Commercial Litigation. Eurasia Law Journal. <https://eurasialaw-journal.ru/topical-issues-of-representation-in-commercial-litigation.html>
17. A.M.A. Rahman, (2020). The Role and Formal Requirements of Powers of Attorney. Journal of Private Law, Indonesia. <https://journal.uui.ac.id/JPLR/article/view/14798/10298>
18. M.Bagheri,., Hedayat, H. et al. (2022). Nature of the Power of Attorney and Legal Representation. Scipedia <https://www.peoples-law.org/powers-attorney>
19. Q.Q.Matkarimov O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati. O'quv qo'llanma. – T: TDYI nashriyoti, 2011. – 369 b
20. O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati. Mualliflar jamoasi // Mas'ul muharrirlar M.X.Rustamboyev., B.Salomov. Darslik. II jild. – T: Konsauditinform nashriyoti, 2007. – 469 b.
21. Адвокатские услуги в Италии Юридическая контора Давиде Дордони. Источник: <https://avvocatomilano.pro>
22. Germaniya Fuqarolik protsessual kodeksi <https://pravo.hse.ru/data/2019/01/21/1147525474/%D0%93%D0%9F%D0%9A%20%D0%93%D0%B5%D1%80%D0%BC%D0%B0%D0%BD%D0%B8%D0%B8.pdf>

ABDUG'AFFOROV Jasur To'liqin o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish
instituti o'qituvchisi, Toshkent davlat yuridik
universiteti tayanch doktoranti
E-mail: abdugaffarovjasur078@gmail.com

JAMOA SHARTNOMASI – IJTIMOYIY SHERIKLIKNING ASOSIY HUJJATI SIFATIDA

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): ABDUG'AFFOROV J.T.
Jamoa shartnomasi – ijtimoiy sheriklikning asosiy hujjati sifatida // Yurist axborotnomasi
– Вестник юриста – Lawyer herald. № 6 (2025) B. 103–111.



6 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Maqolada mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklikning asosiy hujjati bo'lgan jamoa shartnomasining huquqiy mohiyati, vazifalari va amaliy ahamiyati chuqur yoritilgan. Unda jamoa shartnomasining lokal normativ manba sifatidagi o'rni, mehnat munosabatlarini shartnomaviy tartibga solishdagi imkoniyatlari, davlat organlari, kasaba uyushmalari va ish beruvchilar vakilligining o'zaro hamkorlik mexanizmlari tahlil qilingan. XMT hujjatlari, O'zbekiston Mehnat kodeksi va xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida jamoa shartnomalarining qo'llanish doirasi, mazmuni va ijtimoiy-iqtisodiy vazifalari baholangan. Muallif jamoa shartnomalarini takomillashtirish zaruriyatini asoslab, ularni mehnat munosabatlarida manfaatlar muvozanatini ta'minlovchi asosiy huquqiy vosita sifatida e'tirof etadi. Jamoa shartnomasi nafaqat huquqiy hujjat, balki tashkilot ichidagi muloqot va ishonch muhitini shakllantiruvchi haqiqiy boshqaruv vositasidir. U xodimlarning ehtiyoj va manfaatlarini bevosita aks ettiradi, ish beruvchini xodimlar manfaati yo'lida qarorlar qabul qilishga undaydi va kundalik mehnat jarayonida kelib chiqadigan kelishmovchiliklarni ochiq muzokaralar orqali hal etishga xizmat qiladi. Shuningdek, jamoa shartnomasi ijtimoiy sheriklik tamoyillarining amaliy ifodasi bo'lib, jamoaviy muzokaralar madaniyatini rivojlantiradi va nizolarni oldindan bartaraf etish imkonini yaratadi. Jamoa shartnomasining samaradorligi kasaba uyushmasi qo'mitasi faolligi, ish beruvchi mas'uliyati va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarning puxtaligiga bevosita bog'liq.

Kalit so'zlar: Jamoa shartnomasi, ijtimoiy sheriklik, ijtimoiy-mehnat munosabatlari, lokal normativ hujjatlar, kasaba uyushmasi qo'mitasi, jamoaviy muzokaralar, ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlar, jamoatchilik nazorati, lokal huquqiy tartibga solish.

АБДУГАФФАРОВ Жасур

Преподаватель института переподготовки и
повышения квалификации юридических кадров
при Министерстве юстиции Республики Узбекистан,
базовый докторант Ташкентского государственного
юридического университета
E-mail: abdugaffarovjasur078@gmail.com

КОЛЛЕКТИВНЫЙ ДОГОВОР – КАК ОСНОВНОЙ ДОКУМЕНТ СОЦИАЛЬНОГО ПАРТНЁРСТВА

АННОТАЦИЯ

В статье всесторонне раскрываются правовая природа, функции и практическое значение коллективного договора как основного документа социального партнерства в сфере труда.

Анализируется его роль в качестве локального нормативного источника, возможности договорного регулирования трудовых отношений, а также механизмы взаимодействия государственных органов, профсоюзов и представителей работодателей. На основе документов Международной организации труда, Трудового кодекса Республики Узбекистан и зарубежного опыта оцениваются сфера применения, содержание и социально-экономические функции коллективных договоров. Автор обосновывает необходимость совершенствования коллективных договоров, признавая их ключевым правовым инструментом обеспечения баланса интересов сторон трудовых отношений. Коллективный договор рассматривается не только как юридический акт, но и как эффективный управленческий механизм, формирующий атмосферу доверия и диалога внутри организации. Он непосредственно отражает потребности и интересы работников, побуждает работодателя принимать решения в интересах персонала и способствует разрешению повседневных трудовых разногласий путем открытых коллективных переговоров. Кроме того, коллективный договор является практическим воплощением принципов социального партнерства, способствует развитию культуры коллективных переговоров и предупреждению трудовых конфликтов. Его эффективность напрямую зависит от активности профсоюзного комитета, ответственности работодателя и надежности организационно-правовых механизмов.

Ключевые слова: Коллективный договор, социальное партнёрство, социально-трудовые отношения, локальные нормативные акты, профсоюзный комитет, коллективные переговоры, социально-экономические гарантии, общественный контроль, локальное правовое регулирование.

JASUR Abdugaffarov

Teacher at the Training institute for lawyers
under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan,
basic doctoral student of Tashkent State University
E-mail: abdugaffarovjasur078@gmail.com

THE COLLECTIVE AGREEMENT AS THE KEY DOCUMENT OF SOCIAL PARTNERSHIP

ANNOTATION

The article provides an in-depth analysis of the legal nature, functions, and practical significance of the collective agreement as the core document of social partnership in the field of labor. It examines the role of the collective agreement as a local normative source, its potential in contractual regulation of labor relations, and the mechanisms of interaction among state authorities, trade unions, and employers' representatives. Based on the documents of the International Labour Organization, the Labor Code of the Republic of Uzbekistan, and international experience, the scope of application, content, and socio-economic functions of collective agreements are assessed. The author substantiates the need to improve collective agreements, recognizing them as a key legal instrument for ensuring a balance of interests in labor relations. The collective agreement is viewed not only as a legal document but also as an effective management tool that fosters trust and constructive dialogue within an organization. It directly reflects the needs and interests of employees, encourages employers to make decisions in favor of workers, and facilitates the resolution of everyday labor disputes through open collective negotiations. Furthermore, the collective agreement represents a practical implementation of the principles of social partnership, promotes the development of a culture of collective bargaining, and helps prevent labor conflicts. Its effectiveness directly depends on the activity of trade union committees, the responsibility of employers, and the robustness of organizational and legal mechanisms.

Keywords: Collective agreement, social partnership, social and labor relations, local normative acts, trade union committee, collective bargaining, socio-economic guarantees, public control, local legal regulation.

Mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik munosabatlarini huquqiy tartibga solish o'z mohiyatiga ko'ra ikki usulda amalga oshiriladi. Mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklikni normativ-huquqiy tartibga solish (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi va mehnat qonunchiligiga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar) hamda lokal huquqiy tartibga solish (jamo'a kelishuvlari, jamoa shartnomasi va tashkilotning ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishuvga ko'ra qabul qilingan boshqa ichki hujjatlari). Xususan, ijtimoiy-mehnat munosabatlarini lokal huquqiy tartibga solish jarayonida ijtimoiy sheriklikning asosiy lokal normativ hujjati – bu boshlang'ich darajadagi tashkilotlarda tuziladigan jamoa shartnomasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 65-moddasi 1-qismiga muvofiq jamoa shartnomasi – bu tashkilotda yoki yakka tartibdagi tadbirkorda yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarni va ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi hamda xodimlar tomonidan o'z vakillari orqali va ish beruvchi tomonidan tuziladigan mehnat to'g'risidagi huquqiy hujjatdir [1].

Xalqaro Mehnat Tashkilotining 1951-yildagi 91-sonli tavsiyasiga ko'ra “jamo'a shartnomasi” deganda mehnat va bandlik shartlariga oid har qanday yozma kelishuv tushuniladi. Bunday kelishuvning o'ziga xos jihati uning taraflari doimo ish beruvchi (vakillar) yoki u vakolat bergan mansabdor shaxslar va xodimlar jamoasi yoki ularning saylangan vakillari hisoblanadi [2].

Shu o'rinda, Skandinaviya davlatlaridagi (Daniya, Shvetsiya, Norvegiya va Finlandiya) birlamchi kasaba uyushmalari faoliyatining asosiy tamoyili o'zini o'zi boshqaruvchi ijtimoiy sheriklikdir. Bu modelda mehnat sharoitlari va ish haqi miqdorini belgilashda qonun hujjatlaridan ko'ra jamoa shartnomalari hal qiluvchi rol o'ynaydi [3]. Bu tajribani O'zbekiston amaliyotiga joriy etish tashkilotlarda xodimlar va ish beruvchi o'rtasidagi ijtimoiy sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

Ko'pgina tadqiqotchilarning fikricha, jamoa shartnomasi mazmuni va mohiyatiga ko'ra xodimlarni ekspluatatsiya qilish emas, balki o'zaro ijtimoiy sheriklikni amalga oshirish sanaladi [4].

Shu jumladan, G.Sattorova “ijtimoiy sheriklik” va “jamo'a shartnomasi bilan tartibga solish” tushunchalari sinonim ekanligini e'tirof etadi. Bir qator nashrlarda ijtimoiy sheriklik davlat ijtimoiy siyosatining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida xodimlarni ijtimoiy himoya qilish nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Olim jamoaviy shartnoma orqali ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solishni ijtimoiy sheriklikning yetakchi, belgilovchi shakli sifatida tavsiflaydi [5].

Muallif ham ushbu fikrga qo'shilgan holda, jamoa shartnomasini mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklikning amaldagi yozma ko'rinishi sifatida e'tirof etishimiz mumkin.

Shuningdek, B.Yarashev fikricha, bugungi kunda korxonalarda qabul qilinayotgan hujjatlar ahamiyatining ortib borishi, ijtimoiy sheriklik munosabatlarining takomillashuvi samarasi sifatida mehnat munosabatlarini shartnomalar orqali tartibga solishning dolzarbligi oshib bormoqda [6].

Doktorant fikricha, shartnoma ikki tomon o'rtasidagi kelishuvga asoslanganligi uchun mehnat munosabatlarini ham o'zaro kelishuvlar vositasida tartibga solish taraflar uchun eng qulay usul hisoblanadi va ijtimoiy sheriklik taraflar zimmasiga ijtimoiy-iqtisodiy majburiyatlar yuklaydi.

Ushbu majburiyatni professor M.A.Usmanova quyidagicha tushuntiradi, “boshqa huquq sohalaridan farqli ravishda lokal me'yoriy hujjatlar – ish beruvchilar va xodimlar vakillik organlari tomonidan ishlab chiqilgan va bevosita korxona, muassasa, tashkilotlarda joriy qilingan turli normativ hujjatlar (jamo'a shartnoma va kelishuvlari, ichki mehnat tartibi qoidalari, turli-tuman nizom hamda ustavlar va boshqalar) ham mehnat huquqining manbalari qatoriga kiradi” [7].

Rossiyalik taniqli mehnat huquqi olimi A.M.Lushnikov mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik munosabatlari bo'yicha chuqur ilmiy izlanishlar olib borgan. Uning fikricha, ijtimoiy sheriklik bu mehnat munosabatlarini tartibga solishning shartnomaviy mexanizmi bo'lib, xodim va ish beruvchilar

o'rtasida manfaatlar muvozanatini ta'minlashga xizmat qiladi [8]. Ya'ni olim tushuntiradiki, mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik munosabatlarini tartibga solish taraflar o'rtasida ixtiyoriy ravishda tuziladigan shartnomalar (jamoa shartnomasi va kelishuvi)ga bog'liq bo'lib, bunday shartnomaviy tartibga solish mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklikning asosiy xususiyati hisoblanadi.

Jamoa shartnomasini tuzish uchun boshlang'ich darajadagi ijtimoiy sheriklik taraflaridan biri jamoa shartnomasini tuzish uchun jamoaviy muzokaralar o'tkazilishi kerakligi haqida boshqa tarafga taklif bilan chiqadi. Ushbu taklif sheriklik tarafi tomonidan qabul qilingan taqdirda tashkilotda ikki tomonlama muzokaralar subyektlarining teng miqdordagi vakillaridan shakllantiriladigan ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha komissiya tuziladi.

Ushbu komissiya tomonidan tayyorlangan jamoa shartnomasining loyihasi tashkilotning bo'linmalarida xodimlar tomonidan muhokama qilinishi lozim hamda kelib tushgan takliflar va mulohazalar hisobga olingan holda ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha komissiya tomonidan maromiga yetkaziladi. Ta'kidlash joizki, jamoa shartnomasi Mehnat kodeksiga ko'ra jamoaviy muzokaralar orqali ishlab chiqiladigan va tasdiqlanishi zarur bo'lgan lokal hujjatlardan biri hisoblanadi (MK 60-64-moddalar). Mehnat kodeksi 36-moddasiga ko'ra mehnat jamoasining umumiy yig'ilishi xodimlarning mehnat jamoasi manfaatlarini ifodalash vakolati berilgan vakillik organini belgilaydi. Ushbu vakillik organi kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bo'lishi mumkin. Kasaba uyushmasi qo'mitasi (boshqa vakillik organi) xodimlar nomidan ijtimoiy sheriklikni amalga oshirgan taqdirda boshlang'ich tashkilotdagi ijtimoiy sheriklik taraflari jamoaviy muzokaralar o'tkazadi. Mehnat jamoasi umumiy yig'ilishi esa jamoa shartnomasini ma'qullash yoki ma'qullamaslik to'g'risida qaror qabul qiladi [9].

Jamoa shartnomasi har qanday tashkilotda, uning alohida bo'linmalarida va YaTTlarda ham tuzilishi mumkin. Bu borada, M.A. Usmanova jamoa shartnomasi ijtimoiy sherikchilikka oid mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi normativ hujjat sifatida mulkchilik shakli, xo'jalik yuritish usuli, qaysi tarmoqqa mansubligidan qat'iy nazar, barcha tashkilotlarda tuzilishi mumkin ekanligini tasdiqlaydi [10].

Muallif fikricha, alohida bo'linmalarda jamoa shartnomasi tuzilganda ish beruvchi o'z vakilini tayinlashi maqsadga muvofiq va bu ijtimoiy sheriklik qoidalariga mos keladi.

O'zbekiston Respublikasi Kasaba uyushmalari Federatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra korxona va tashkilotlarda 118 mingdan ortiq shartnomalar tuzilgan bo'lib, jumladan, bitta Bosh kelishuv, 105 ta tarmoq va 14 ta hududiy kelishuvlar mavjud. Biroq davlat va xususiy sektor o'rtasida jamoa shartnomalarining tuzilishida jiddiy nomutanosiblik kuzatiladi: 2023 yilda davlat tashkilotlarida 25 111 ta, tijorat (xususiy) tashkilotlarda esa atigi 4 207 ta jamoa shartnomalari tuzilgan [11].

Fikrimizcha, jamoa shartnomalarining xususiy sektordagi ahamiyatini oshirish uchun bunday shartnomalarni tuzgan tijorat tashkilotlariga davlat tomonidan iqtisodiy qo'llab quvvatlash orqali ijobiy turtki berilishi maqsadga muvofiq.

Jamoa shartnomasining mazmuni va tuzilishini uning taraflari belgilaydi. Jamoa shartnomasiga ish beruvchining va xodimlarning Mehnat kodeksining 67-moddasi 2-qismida belgilangan masalalar bo'yicha o'zaro majburiyatlari kiritilishi ham mumkin. Bundan tashqari, tashkilotning iqtisodiy imkoniyatlari hisobga olingan holda, jamoa shartnomasida boshqa shartlar ham bo'lishi mumkin. Ushbu normani K. Abdurahmonov ham qo'llab quvvatlagan holda shunday deydi, "Korxonada ish beruvchi bilan xodimlar o'rtasidagi mehnat, ijtimoiy-iqtisodiy va kasbiy munosabatlar jamoa shartnomasi orqali tartibga solinadi [12]".

Jamoa shartnomasida xodimlarga qo'shimcha kafolatlar va huquqlar deyarli har doim nafaqat o'zaro muzokaralar natijalariga, ish beruvchi yoki xodimlar vakillarining faoliyatiga, balki korxona yoki muassasaning moliyaviy ahvoriga ham bog'liq.

Shuningdek, L.Yu.Bugrova, G.S.Goncharova, A.F.Nurtdinova fikricha, tashkilotda jamoa shartnomasining tuzilishiga "ijtimoiy va mehnat munosabatlarini tartibga solish usuli" sifatida yondashish lozim [13]. Xodimlar jamoasi aynan jamoa shartnomasi orqali tashkilotdagi ijtimoiy-mehnat munosabatlarini, shu bilan birga, tashkilotning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini nazorat qilish va tartibga solishda ishtirok etishi mumkin.

Taniqli rus olimi professor O.S.Ioffe jamoa shartnomasini mehnat huquqining markaziy elementi sifatida ko'rib, uning shaklini va mazmunini doimiy ravishda takomillashtirish zarurligini aytadi. U jamoa shartnomasining rivojlanishini yangi mehnat shartlari va iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish zarurligi haqida yozadi [14].

Muallif fikricha, ish beruvchilar o'z iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olmasdan shoshma-shosharlik bilan tuzgan jamoa shartnomalarining shartlari keyinchalik ularning javobgarligiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham iqtisodiy shartlarni belgilashda ish beruvchilar ehtiyotkor yondashishlari lozim.

Ayrim olimlar esa jamoa shartnomasini normativ kelishuvning bir shakli bo'lib, korxonaning ichki tartibini mustaqil ravishda yaratish usullaridan biri sifatida, qonundan tashqari qonun ijodkorligi shakllaridan biridir, u korxonaning xususiy huquqiy tartibi manbalaridan birini tashkil etadi" degan g'oyani ilgari surganlar [15]. Mehnat huquqining manbayi sifatida jamoa shartnomasining maqsadi nafaqat xodimga, balki ish beruvchiga ham foyda keltiradigan jamoaviy mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga solishga yordam berishdir. Shunday qilib, ijtimoiy muloqot manfaatlarni uyg'unlashtirish, ijtimoiy-mehnat muammolarini yengish va iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashishning samarali usuli hisoblanadi.

Shuningdek, jamoa shartnomasining maromiga yetkazilgan loyihasi mehnat jamoasining umumiy yig'ilishiga (konferensiyasiga) ko'rib chiqish uchun kiritiladi. Agar mehnat jamoasining umumiy yig'ilishida (konferensiyasida) hozir bo'lganlarning ellik foizidan ko'prog'i uni yoqlab ovoz bergan bo'lsa, ma'qullangan hisoblanadi. Shu o'rinda, G.Sattarovaning fikriga ko'ra keng ma'noda, jamoa shartnomalari xodimlarning vakillik organi bilan kelishilgan korxonaning lokal hujjatlarini ham qamrab oladi. Ushbu hujjatlarni faqat rahbar tomonidan, xodimlarning vakillik organi bilan kelishilmagan holda qabul qilish mumkin emas. Bunday kelishuv jarayonida xodimlarning ham, ish beruvchining ham manfaatlariga mos keladigan murosali yechimlar topiladi [16].

Taraflar jamoa shartnomasi loyihasini ko'rib chiqish chog'ida hal qila olmagan ixtiloflarni hal etish bo'yicha nizolar jamoaviy mehnat nizolarini hal etish (tartibga solish) uchun belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi. Jamoaviy mehnat nizolarini hal etish (tartibga solish) tartib-taomillari yarashtirish komissiyasi, mediator va arbitrajni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy sheriklik taraflari o'rtasida jamoa shartnomasini tuzish chog'ida kelib chiqqan jamoaviy mehnat nizolari ijtimoiy sheriklikning barcha darajalarida yuzaga kelishi mumkin va yarashtiruv tartib-taomillari nizoni hal etishda ish bermagan taqdirda sudga murojaat qilishlari mumkin [17].

Aynan qanday jamoaviy mehnat nizolari bevosita sudga ko'rib chiqilishi qonunchilikda belgilab qo'yilmagan. Shuning uchun taraflar nizolarni hal qilishning istalgan usulini mustaqil tanlaydilar. Biz taklif qilamizki, Mehnat kodeksida qanday ko'rinishdagi jamoaviy mehnat nizolari bo'yicha bevosita sudga murojaat qilish mumkin ekanligini aniq belgilab qo'yish lozim.

Jamoa shartnomasining bajarilishi ustidan nazorat shartnoma taraflarining vakillari, ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha komissiya, mehnat jamoasi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining tegishli organlari hamda boshqa vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi. Mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklikning istalgan tarafi jamoa shartnomasida belgilab qo'yilgan qoidalarni ijrosini ta'minlamagan taqdirda Davlat mehnat inspeksiyasining mehnat inspektorlari bunda aybdor bo'lgan mansabdor shaxslarni O'zbekiston

Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi Kodeksning 49-moddasiga muvofiq ma'muriy javobgarlikka tortish vakolatiga ega hisoblanadi [18].

Mehnat munosabatlarini tartibga solish maqsadida tuzilgan jamoa shartnomalari va jamoa kelishuvlariga eng avvalo tartibga solish vazifasi yuklatilgan, shuningdek bu vazifa ish beruvchi va xodimlar o'rtasida bevosita tuziladigan mehnat shartnomalariga yuklangan. Shuni e'tiborga olishimiz zarurki, jamoa shartnomalari va kelishuvlari "normativ shartnomalar" ham deb ataladi.

Jamoa shartnomasi, albatta, o'ziga xos normativ bitim bo'lib, u "umumiy majburiy qoidalar"ni o'z ichiga oladi, davlat tomonidan o'rnatilgan yoki tan olingan, davlat majburlash imkoniyati bilan ta'minlangan mehnat jamoasi munosabatlarini tartibga soladi [19]. Shunday qilib, davlat jamoa shartnomasining bir qator qoidalarini majburiy qilib, o'zining ijtimoiy sheriklikdagi tartibga solish funksiyasini amalga oshiradi, shu bilan shartnomaning me'yoriyligini mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, mehnat qonunchiligi sohasidagi mutaxassislarning qarashlari deyarli bir xil bo'lib, ular kasaba uyushmalarining jamoa shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlari, aslida, qonuniy emas, balki axloqiy degan fikrni ilgari surgan [20]. Sababi jamoa shartnomasi taraflarning qonunchilikda belgilanmagan manfaatlarini o'zida ifodalaydi hamda taraflar uchun ixtiyoriy qabul qilingan mas'uliyatni yuzaga keltiradi.

Xususan, XMTning 98-sonli Konvensiyasining 4-moddasiga muvofiq, ishtirokchi davlatlar "ish beruvchilar yoki ish beruvchilar tashkilotlari bilan xodimlar tashkilotlari o'rtasida mehnat sharoitlarini jamoa shartnomalari orqali tartibga solish maqsadida ixtiyoriy muzokaralar protseduralarini to'liq rivojlantirish va ularni qo'llashni rag'batlantirish hamda qo'llab-quvvatlash uchun, mamlakat sharoitiga mos choralarni ko'rish majburiyatini oladi" [21].

Shu bilan birga, A.F.Nurtdinova jamoa shartnomasi haqidagi ilmiy g'oyalarni umumlashtirib, "jamoa shartnomasi, shubhasiz, normativ xarakterga ega [22]. Bundan tashqari, lokal hujjatlar bevosita korxona, muassasa, tashkilotlarda belgilanadigan mehnat shart-sharoitlarini tartibga soladi. Ularga ish beruvchi, kasaba uyushmalari qo'mitasi yoki xodimlarning vakillik organi bilan birgalikda yoxud u bilan kelishib qabul qilingan normativ hujjatlar kiradi. Jamoa shartnomasi va kelishuvi bunga misol bo'la oladi [23].

Shunday qilib xulosa qilish mumkinki, jamoa shartnomasi ham normativ (tartibga soluvchi), ham axloqiy (mas'uliyat) xususiyatlarni o'zida jamlaydi.

Shuningdek, jamoa shartnomalari orqali mehnat munosabatlarini shartnomaviy tartibga solish ijtimoiy muloqot imkoniyatlaridan biridir. Jamoa shartnomasida (kollektiv bitimda) tomonlar qonunlar yoki boshqa normativ hujjatlar bilan tartibga solinmagan yoki ularga zid bo'lmagan va xodimlarning ahvolini yomonlashtirmaydigan shartlarni kelishib oladilar. Jamoa shartnomasida belgilangan majburiyatlar, qoidalar yoki shartlar xodimlarning ahvolini mehnat shartnomalari va qonunlarda nazarda tutilganiga nisbatan yomonlashtira olmaydi. Xodimning mavqeyini yomonlashtiradigan bunday shartlar haqiqiy emas.

Shu o'rinda rus olimi V.Gritsenko "Mehnat huquqi" asarida jamoa shartnomasining mehnat huquqidagi markaziy o'ringa ega ekanligini ta'kidlaydi. U jamoa shartnomasining asosiy vazifasi ish beruvchi va xodimlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solish ekanligini qayd etadi. Jamoa shartnomasi, uning fikriga ko'ra, ishchilarni mehnatni amalga oshirishda himoya qilish va xavfsizligini ta'minlash uchun muhim vosita hisoblanadi [24].

Shuningdek, amal qilish doirasiga ko'ra lokal hujjatlar umumiy va maxsus hujjatlarga bo'linadi va ularning aksariyati, masalan, jamoa shartnomasi, ichki mehnat tartibi qoidalari, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ko'rsatmalar, mehnatga haq to'lash qoidalari tashkilotning barcha xodimlariga tegishlidir. Qolganlari esa – ayrim toifa xodimlariga taalluqli yoki mehnatga oid huquqiy munosabatlarning qaysidir qismini tartibga soladi. Xodim kasaba uyushmasiga a'zo

bo'ladimi, yo'qmi buning ahamiyati yo'q. Jamoa shartnomasi ushbu tashkilotning butun mehnat jamoasiga birdek amal qiladi. Shuningdek, hozir ushbu shartnomani tuzgan va kelgusida tashkilotga ishga qabul qilinadigan xodimlar uchun shartnomaning amal qilish doirasi bir xil bo'lib, bunda ushbu shartnomani tuzishda ishtirok etganlik taraflarga biror-bir qo'shimcha imtiyozlarni nazarda tutmasligi kerak.

Jamoa shartnomasining aniq muddat davomida amal qilishi uning mazmunini doimiy ravishda takomillashtirib turish zaruriyati mavjud ekanligini anglatadi. Masalan, Singapurda o'tgan asr 80-yillarida kasaba uyushmalari jamoa shartnomalari orqali ish beruvchilarni ishchilarni o'qitishga sarmoya kiritishga undagan. Bu ijtimoiy sheriklikning har ikki tarafi uchun manfaatli bo'lib chiqdi hamda erishilgan natijalar ushbu amaliyotning mamlakat bo'ylab keng tarqalishiga olib keldi [25].

Jamoa shartnomasi boshqa lokal huquqiy hujjatlardan farqli o'laroq, quyidagi o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- birinchidan, taraflarning ijtimoiy sherikligini amalga oshirishning muhim shaklidir;
- ikkinchidan, normativ-huquqiy hujjatlarda qoldirilgan bo'shliqni to'ldiradi va ayni paytda mehnat huquqiga oid me'yoriy hujjatlarni aniqlashtiradi;
- uchinchidan, qonunlarda belgilangan normalarini o'zida qamrab oladi;
- to'rtinchidan, taraflarning huquqlari va manfaatlari moslashtiradi;
- beshinchidan, bordi-yu shartnomada ba'zi masalalar o'z aksini topmagan bo'lsa u bir tarafning ixtiyoriga asosan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas.

Jamoa shartnomasining boshqa lokal va ichki hujjatlardan asosiy farqi ish beruvchi jamoa shartnomasini tuzib, uni kasaba uyushmasi qo'mitasining o'zi bilan kelishgan holda qabul qilolmaydi. Mehnat kodeksining 69-modda 1-qismiga ko'ra jamoa shartnomasining loyihasi tashkilotning bo'linmalarida xodimlar (mehnat jamoasi) tomonidan muhokama qilinishi lozim, deya belgilab qo'yilgan [26].

Shuningdek, ushbu kodeks 6-7-bob qoidalari (6-bob. Mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik organlari; 7-bob. Jamoaviy muzokaralar) hamda 70-moddasiga muvofiq, jamoa shartnomasi mehnat jamoasining umumiy yig'ilishida (konferensiyasida) ma'qullanganidan keyin taraflarning vakillari (xodimlarning kasaba uyushmasi qo'mitasiga saylangan vakillari, agar kasaba uyushmasi qo'mitasi mavjud bo'lmasa mehnat jamoasi vakolat bergan boshqa (vaqtincha yoki doimiy) vakillik organi) uch kun ichida jamoa shartnomasini imzolaydi [27].

Jamoa shartnomasining kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishuvga ko'ra qabul qilib bo'lmaydigan boshqa huquqiy hujjat ekanligiga yana bir dalil – bu Kodeksdagi jamoa shartnomasiga bag'ishlangan 65-79-moddalarda biror marta “kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishuvga ko'ra” tushunchasi ishlatilmagan.

Yuqoridagi qoidalaridan ko'rinib turibdiki, jamoa shartnomasi tashkilotda faqat xodimlar bilan muhokama qilinadi, agar hammasi to'g'ri bo'lsa xodimlar vakillari tomonidan imzolanadi.

“Tashkilotda jamoa shartnomasi tuzilishi majburiymi?”, degan savol paydo bo'lishi mumkin.

Mehnat kodeksining 25-moddasiga ko'ra, ish beruvchi ushbu Kodeksda belgilangan tartibda jamoa muzokaralarini olib borishi, shuningdek jamoa shartnomasini tuzishi shart hisoblanadi. Bu ish beruvchining majburiyatlaridan biri sanaladi.

Ayrimlar mana shu moddani noto'g'ri talqin qilib, ish beruvchi jamoa shartnomasini tuzishi shart deb xato o'ylashadi. Aslida, e'tibor bersangiz ish beruvchi ushbu Kodeksda belgilangan tartibda jamoa muzokaralarini olib borishi, shuningdek, jamoa shartnomasini tuzishi shartligi ta'kidlanmoqda.

Ya'ni, Mehnat kodeksining 61-moddasiga muvofiq, jamoaviy muzokaralar boshlanishi to'g'risida bildirishnoma olgan ijtimoiy sheriklik tarafi 7 kunlik muddatda tashabbuskorga jamoaviy muzokaralar o'tkazilishi haqida javob yuborgan holda jamoaviy muzokaralarga kirishishi shart.

Kodeksning 66-moddasiga muvofiq, jamoa shartnomasini tuzish zarurligi to'g'risidagi qaror va uni tuzish masalasi bo'yicha jamoaviy muzokaralarni boshlash to'g'risidagi taklif istalgan tarafdin berilishi mumkin. Har qaysi taraf (xodimlar va ish beruvchi yoki ularning vakillari) jamoa shartnomasi yuzasidan muzokaralar olib borish tashabbusi bilan chiqishga haqli deyilmoqda.

Ya'ni, qachonki, mehnat sohasidagi boshlang'ich darajadagi ijtimoiy sheriklik taraflaridan biri jamoa shartnomasi tuzish tashabbusi bilan chiqsa, ana o'shandagina tegishli yozma xabar olgan taraf 7 kunlik muhlat ichida muzokaralarga kirishishi shart. Taraflardan hech biri tashabbus bilan chiqmasa, demak jamoa shartnomasi tuzish shart emas.

Jamoa shartnomasi tuzish majburiy emasligini quyidagi misol bilan isbotlaymiz. Mehnat kodeksining 188-moddasi 4-qismiga ko'ra mehnat sharoitlariga ko'ra zarur bo'lgan hollarda, shuningdek olti kunlik ish haftasidagi smenali ishlarda tungi vaqtdagi ishning davomiyligi kunduzgi vaqtdagi ishning davomiyligi bilan tenglashtiriladi. Mazkur ishlar ro'yxati jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishuvga ko'ra belgilanishi mumkin. Demak, bu misoldan ko'rinib turibdiki, tashkilotda jamoa shartnomasi tuzish shart emas. Agar tuzish shart bo'lganda edi, "agar u tuzilmagan bo'lsa" jumlasini ishlatilmas edi. Mehnat kodeksida 11 ta o'rinda bunday qoidalarga duch kelamiz (145, 188, 209, 323, 330, 353, 407, 481, 547 (3 ta o'rinda)-moddalar) [28].

Jamoa shartnomasini tuzish majburiy emas, qachonki taraflardan biri uni tuzish taklifi bilan chiqsa, ana o'shandagina Mehnat kodeksiga muvofiq jamoa shartnomalari tuziladi. Agar korxonada jamoa shartnomasi yo'q bo'lsa, tegishli nazorat qiluvchi organlar tomonidan tashkilotni jarimaga tortish mutlaqo g'ayriqonuniy hisoblanadi. Biroq, shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, jamoa shartnomasini tuzish ish beruvchi uchun ham, mehnat jamoasi uchun ham maqsadga muvofiq, chunki u qonunchilikda aks ettirilmagan bir qator muhim masalalarni ikki tomon uchun manfaatli tarzda tartibga solish imkonini beradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, Mehnat kodeksi 65-moddasiga 2-qismini quyidagi tahrirda o'zgartirish taklif etiladi:

"Jamoa shartnomasi umuman tashkilotda, uning alohida bo'linmalarida tuzilishi yoki umuman tuzilmasligi ham mumkin. Boshlang'ich darajadagi ijtimoiy sheriklik taraflaridan jamoa shartnomasini tuzish haqidagi taklif kelib tushmagan taqdirda, ish beruvchi tashkilotda jamoa shartnomasi mavjud emasligi uchun javobgar bo'lmaydi".

Iqtiboslar/Snoski/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. <https://lex.uz/uz/docs/-6257288#-6263024>
2. Xalqaro Mehnat Tashkilotining 1951-yildagi 91-sonli tavsiyasi. <https://www.ilo.org/>
3. Рзаева Гузалья Тургунбаевна. «Совершенствование деятельности первичных профессиональных союзов в организациях». Диссертация. Ташкент: – 2024 г. С-29;
4. B.Ch.Yarashev. Mehnat munosabatlarini lokal huquqiy tartibga solish: Dissertatsiya...y.f.f.d. – T. 2022. B–25.
5. Саттарова Г.Д. Социальное партнерство в форме коллективно-договорного регулирования трудовых отношений в Республики Узбекистан. Т., ТДЮИ. 2010. С-30.
6. B.Ch.Yarashev. Mehnat munosabatlarini lokal huquqiy tartibga solish: Avtoreferat...dis..yur.fan.bo'y.fal.dok. – T. 2022. B–12.
7. M.A.Usmanova. Mehnat huquqi. T., ЎзР.МГ.ХТИ. 2019. 11-6.
8. A.M.Lushnikov, M.V.Lushnikova. Mehnat huquqi kursi. 2 jild. Darslik. T.2. M.: "Statut" nashriyoti. - 2009 yil. 162-b.
9. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga ilmiy-amaliy sharh. 3 jildlik. 1-jild. (Mualliflar jamoasi). O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi. Toshkent, 2025 y. – 201 b.
10. Mualliflar jamoasi, .M.A.Usmanova y.f.d., prof. – I-V boblar. Mehnat huquqi. Darslik. -T.: TDYU nashriyoti, 2018. -76-bet.
11. <https://kasaba.uz/>.

12. Kalandar Abdurahmonov. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. Kalandar Abdurahmonov. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti davlat korxonasi, T.: 2019. 496-b.
13. A.F.Nurtdinova. "Some Aspects of Becoming a Social Partnership in Russia". P-37.
14. ŠARŪNĖ, P., DALIA, P., & GIEDRĖ, A. (2024). COLLECTIVE LABOUR AGREEMENT AS A RESULT OF SOCIAL DIALOGUE IN FAVOREM PRINCIPLE CONTEXT: CASE OF LITHUANIA. Humanities Studies, 20(98).
15. Иванова Н.А. Регулирование рынка труда в условиях социально-экономической нестабильности. Автореферат дисс.докт.экон.наук. – Саратов.: 2013 г. С-5.
16. Саттарова Г.Д. Социальное партнерство в форме коллективно-договорного регулирования трудовых отношений в Республики Узбекистан. Т., ТДЮИ. 2010. С-21.
17. Mualliflar jamoasi, .M.A.Usmanova y.f.d., prof. – I-V boblar. Mehnat huquqi. Darslik. -T.: TDYU nashriyoti, 2018. -76-bet.
18. O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi Kodeksiю
19. Венгеров А.Б. Теория государства и права: Учебник для юридических вузов. 3-е изд. - М.: «Юриспруденция», 2000. С-220.
20. B.Ch.Yarashev. Mehnat munosabatlarini lokal huquqiy tartibga solish: Dissertatsiya...y.f.f.d. – T. 2022. B–25.
21. Рзаева Гузалья Тургунбаевна. «Совершенствование деятельности первичных профессиональных союзов в организатсиях». Диссертация. Ташкент – 2024 г. С-46.
22. А.Ф.Нуртдинова. Коллективно-договорное регулирование трудовых отношений в современной России. -М.,1998. С-138.
23. B.Ch.Yarashev. Mehnat munosabatlarini lokal huquqiy tartibga solish: Dissertatsiya...y.f.f.d. – T. 2022. B–24.
24. Гриценко В.И. Трудовое право. — Москва: Юрайт, 2019. С-352.
25. Partnership of trade unions in national development programmes and in promotion of labour mobility in Singapore. Evelyn S. Wong. International Institute for Labour Studies Geneva. Singapore NTUC. 2000. P-9.
26. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 69-moddasi.
27. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga ilmiy-amaliy sharh. 3 jildlik. 1-jild. (Mualliflar jamoasi). O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi. Toshkent, 2025 y. – 203 b.
28. <https://lex.uz/ru/docs/-6257288#-6261646>.

NASULLAYEV Mubin Nutfullayevich

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish
instituti dotsenti, yuridik fanlar nomzodi, dotsent
E-mail: nasullaevmubin@gmail.com

SUDLAR FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH MASALALARI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): NASULLAYEV M.N.
Sudlar faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari // Yurist axborotnomasi –
Вестник юриста – Lawyer herald. № 6 (2025) B. 112–119.



6 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

O'zbekiston Respublikasida "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida sud-huquq tizimini modernizatsiya qilish, odil sudlovga erishish darajasini oshirish va sud faoliyatining shaffofligini ta'minlash asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri etib belgilangan. Sud tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish masalasi nafaqat texnik, balki huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon adolatli sudlovni ta'minlash, inson huquqlari kafolatlarini mustahkamlash hamda sud ish yurituvini shaffof va tezkor qilishning asosiy vositalari bo'lib hisoblanadi. Ushbu maqolada sudlar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni, shu jumladan, sun'iy intellekt (SI) vositalarini joriy etishning nazariy-huquqiy asoslari, amaliy holati, sudga elektron murojaat qilish, sud majlislarida masofadan turib ishtirok etish va sud hujjatlari loyihalarini avtomatik shakllantirish kabi innovatsion mexanizmlar va xorijiy tajribalar tahlil qilinadi. Shuningdek, bu yo'nalishda huquqshunos olimlarning fikr-mulohazalariga tahliliy yondashuv bilan munosabat bildiriladi. Nazariy qarashlar sud amaliyotidan keltirilgan misollar bilan boyitiladi. Maqolaning asosiy maqsadi – sud tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishning huquqiy asoslari, amaliyotdagi mavjud muammolar va ularning yechimlarini tahlil qilish, odil sudlov samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalarni shakllantirishdan iborat.

Mazkur maqola sud-huquq tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishning nazariy asoslari va amaliy ko'rinishlarini qamrab olgan bo'lib, O'zbekistonda odil sudlov sifatini oshirish, sud jarayonlarida shaffoflik va tezkorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarni taklif etadi. Natijada, raqamli transformatsiya jarayonining huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy jihatlari kompleks yondashuv asosida yoritilgan bo'lib, sudlar faoliyatining yanada samarali va ochiq bo'lishiga ilmiy hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalar, global raqamlashuv, raqamli sudlov, sun'iy intellekt, elektron odil sudlov, raqamli transformatsiya, E-Sud, axborot maxfiyligi, ochiqlik, shaffoflik, elektron ariza, elektron ma'lumot.

НАСУЛЛАЕВ Мубин Нутфуллаевич

Доцент Института переподготовки и повышения
квалификации юридических
кадров при Министерстве юстиции
Республики Узбекистан,
кандидат юридических наук, доцент
E-mail: nasullaevmubin@gmail.com

ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СУДОВ

АННОТАЦИЯ

В рамках Стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» в Республике Узбекистан одним из основных приоритетов определены модернизация судебно-правовой системы, повышение уровня доступа

к правосудию и обеспечение прозрачности судебной деятельности. Вопрос внедрения цифровых технологий в судебную систему имеет важное значение не только в техническом, но и в правовом, организационном и социальном аспектах. Этот процесс является ключевым инструментом обеспечения справедливого судопроизводства, укрепления гарантий прав человека и обеспечения прозрачности и оперативности судебного делопроизводства. В данной статье анализируются теоретико-правовые основы и практическое состояние внедрения цифровых технологий в деятельность судов, в том числе средств искусственного интеллекта (ИИ), инновационные механизмы и зарубежный опыт, такие как электронное обращение в суд, дистанционное участие в судебных заседаниях и автоматическое формирование проектов судебных документов. Также с аналитическим подходом рассматриваются мнения ученых-правоведов в этом направлении. Теоретические положения подкрепляются примерами из судебной практики. Основная цель статьи анализ правовых основ внедрения цифровых технологий в судебную систему, существующих проблем на практике и путей их решения, а также формирование научно обоснованных рекомендаций, направленных на повышение эффективности правосудия.

Данная статья охватывает теоретические основы и практические аспекты внедрения цифровых технологий в судебно-правовую систему и предлагает научно-практические рекомендации, способствующие повышению качества правосудия в Узбекистане, обеспечению прозрачности и оперативности судебных процессов. В результате правовые, организационные и социальные аспекты процесса цифровой трансформации освещены на основе комплексного подхода и вносят научный вклад в повышение эффективности и открытости деятельности судов.

Ключевые слова: информационные технологии, глобальная цифровизация, цифровое правосудие, искусственный интеллект, электронное правосудие, цифровая трансформация, электронный суд, конфиденциальность информации, открытость, прозрачность, электронное ходатайство, электронная информация.

MUBIN Nasullaev Nutfullaevich

Associate Professor at the Training Institute
for Lawyers, Candidate of Legal Sciences,
Associate professor

E-mail: nasullaevmubin@gmail.com

IMPLEMENTATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN COURT ACTIVITIES

ANNOTATION

In the Republic of Uzbekistan, modernizing the judicial and legal system, enhancing access to justice, and ensuring transparency in judicial activities have been designated as key priorities within the framework of the "Digital Uzbekistan – 2030" Strategy. The implementation of digital technologies in the judicial system is significant not only from a technical standpoint but also from legal, organizational, and social perspectives. This process serves as a fundamental means of ensuring fair trials, reinforcing human rights guarantees, and making judicial proceedings more transparent and efficient. This article analyzes the theoretical and legal foundations, practical status of implementing digital technologies in court activities, including artificial intelligence (AI) tools, innovative mechanisms, and international experiences such as electronic court applications, remote participation in court sessions, and automatic generation of draft court documents. Additionally, the opinions of legal scholars in this field are examined through an analytical approach. Theoretical views are supplemented with examples from judicial practice. The primary objective of the article is to analyze the legal basis for introducing digital technologies in the judicial system, existing practical challenges and their solutions, and to formulate evidence-based recommendations aimed at improving the effectiveness of justice.

This article encompasses the theoretical foundations and practical aspects of implementing digital technologies in the judicial system and offers scientific and practical recommendations that serve to

enhance the quality of justice in Uzbekistan and ensure transparency and efficiency in court proceedings. As a result, the legal, organizational, and social aspects of the digital transformation process are addressed through a comprehensive approach, contributing scientifically to making court activities more effective and transparent.

Keywords: information technology, global digitization, digital justice, artificial intelligence, electronic justice, digital transformation, E-Court, information privacy, openness, transparency, electronic petition, electronic information.

O'zbekiston Respublikasida sud-huquq sohasini raqamlashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. So'nggi yillarda Prezident farmon va qarorlari asosida sudlar faoliyatida elektron tizimlar keng joriy etildi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash tizimli yo'lga qo'yildi.

Insonning huquq va erkinliklari Asosiy Qonunimiz O'zbekiston Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan bo'lib, unda davlatning internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishi ko'rsatilgan [1].

Bugungi kunda davlat boshqaruvi tizimini raqamlashtirish dunyo miqyosidagi ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish nafaqat iqtisodiy yoki ma'muriy samaradorlikni oshirish, balki inson huquq va erkinliklarini ta'minlashning yangi sifat bosqichiga chiqishini ko'zlaydi.

Shu nuqtai nazardan, sud hokimiyati tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish mamlakatimizda odil sudlovni amalga oshirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonning maqsadi fuqarolar va tashkilotlarga, sud organlariga tezkor, qulay va shaffof tarzda murojaat qilish imkoniyatini yaratish, sud ishlarini ko'rib chiqishda inson omilini kamaytirish hamda sud qarorlari ijrosini samarali ta'minlashdan iboratdir.

Sud tizimini raqamlashtirish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-sentabrdagi PQ-4818-son "Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida o'zining huquqiy ifodasini topgan [2]. Ushbu qaror sudlar faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, elektron murojaatlar tizimini takomillashtirish, videokonferensaloqa vositalari orqali sud majlislarini o'tkazish hamda sud hujjatlarini raqamli arxivda saqlash kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

Bu jarayonda eng muhim qadamlardan biri elektron sudlov (e-sud) tizimini joriy etish bo'ldi. E-sud orqali fuqarolar va tashkilotlar sudga onlayn tarzda ariza yuborish, hujjatlarni elektron imzo bilan tasdiqlash hamda sud jarayonlarida masofadan ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu tizim sud ishlarini ko'rib chiqishda shaffoflikni ta'minlash, qog'ozbozlikni kamaytirish va vaqtni tejashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi "Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-140-son Farmoni qabul qilinishi sohani raqamlashtirishga bo'lgan davlat siyosatining qat'iy e'tiborini yana bir bor tasdiqladi [3]. Ushbu hujjatda "Raqamli sud" konsepsiyasining bosqichma-bosqich joriy etilishi, xususan, sudga elektron murojaat qilish, sud majlislarida masofadan turib ishtirok etish va sun'iy intellekt (SI) yordamida sud hujjatlari loyihalarini avtomatik shakllantirish kabi innovatsion mexanizmlar ko'zda tutilgan.

Hozirgi paytda sudlar faoliyatida "e-Sud", "E-Court", "Adolat" axborot tizimlari orqali ish yuritish yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular fuqarolarning huquqiy faolligini oshirish, murojaatlarni ko'rib chiqish tezligini ta'minlash va sudyalarning yuklamasini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

[4]. Shu bilan birga, bu tizimni joriy etishda bir qator huquqiy, tashkiliy va axborot xavfsizligiga oid muammolar ham mavjud.

Shunday ekan, ushbu ilmiy maqolada sudlar faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etishning mazmun-mohiyati, ahamiyati, amaliyotdagi natijalari va huquqshunos olimlarning ilmiy qarashlari tahlil etiladi, mavjud muammolarga nisbatan ilmiy asoslangan takliflar bayon etiladi.

Raqamli sud tizimi -bu sud faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovning samaradorligi, shaffofligi va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan tizimdir. Unga elektron murojaatlar, raqamli ish yuritish, videokonferensiya orqali sud majlislari, sud qarorlarini onlayn e'lon qilish kabi elementlar kiradi [5].

Huquqshunos olimlar ta'kidlaganidek, raqamli sud tizimi – bu “elektron hukumat” tizimining tarkibiy qismi bo'lib, davlat hokimiyatining mustaqil tarmog'i sifatida sudlarning faoliyatida ham zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishni nazarda tutadi [6]. Demak, raqamli sud tizimini huquqiy jihatdan ta'minlash, uning huquqiy asoslarini belgilash va joriy etish mexanizmlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to'g'risida”gi Qonuni [7] va “Elektron hukumat to'g'risida”gi Qonuni [8] raqamli texnologiyalarni sud tizimiga tatbiq etish uchun huquqiy zamin bo'lib xizmat qiladi.

Qayd etilganidek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yildagi PQ-4818-son qarori, 2025-yildagi PF-140-son farmoni sud faoliyatida raqamli platformalarni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati yo'nalishlarini belgilab berdi.

Sud ishlarini raqamli arxivlash tizimi ishga tushirilgan. Endilikda har bir sud ishi bo'yicha hujjatlar elektron shaklda saqlanadi va markazlashgan ma'lumotlar bazasi orqali nazorat qilinadi. Bu usul ma'lumotlarni yo'qotish, soxtalashtirish va takroriy yuborish holatlarining oldini oladi.

Sud qarorlarining onlayn e'lon qilinishi ham jamoatchilik nazoratini kuchaytirdi. Sud.uz veb-portali orqali sud qarorlari ochiq ma'lumot sifatida joylashtiriladi. Bu jarayon fuqarolarning huquqiy ongini oshirish, sudlar faoliyatida shaffoflikni ta'minlash va huquqiy davlat tamoyillarini amalga oshirishga xizmat qilmoqda.

Raqamli texnologiyalarni sud tizimida tatbiq etishda quyidagi tamoyillar asosiy hisoblanadi:

– *qonuniylik va huquqiy aniqlik* - sud jarayonlarida elektron hujjatlar aylanmasini faqat qonunchilik bilan belgilangan hollarda amalga oshirish;

– *ochiqlik va shaffoflik* – sud qarorlari, sud majlislari haqidagi ma'lumotlarni ochiq elektron platformalarda joylashtirish orqali jamoatchilik nazoratini ta'minlash;

– *tenglik va fuqarolarning huquqiy imkoniyatlari* - raqamli vositalardan foydalanish barcha tараflar uchun teng bo'lishi lozim;

– *ma'lumot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish* - sud jarayonlaridagi elektron ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash;

– *texnik muvofiqlik* - barcha sudlar va davlat idoralari axborot tizimlari o'zaro integratsiyalashgan holda ishlashi lozim.

Shu tamoyillarning har biri odil sudlov tizimining asosiy mazmun-mohiyatiga mos keladi.

Raqamli texnologiyalarning sud amaliyotidagi samaradorligi ko'plab tadqiqotlarda ilmiy asosda tahlil qilingan. Jumladan, yuqorida qayd etilgan tadqiqotchi N.S. Pulatova o'zining “E-justice in Uzbekistan” nomli tadqiqotida elektron sud tizimining adolatli sudlovni ta'minlashdagi roli haqida shunday yozadi: “Raqamli sud tizimi fuqarolarning sudga murojaat qilish imkoniyatini kengaytirdi, biroq uning samaradorligi axborot xavfsizligi bilan chambarchas bog'liqdir”. Muallif fikriga ko'ra, sud tizimida axborotni himoya qilish va shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish mexanizmlari yanada takomillashtirilishi lozim [5, B.28].

Shuningdek, D.P. Komolov ham o'zining "Digitalization of the Court System" yuqorida to'xtalib o'tilgan asarida sud faoliyatida raqamlashtirishni ikki bosqichli jarayon sifatida tavsiflaydi: birinchi bosqich - texnik joriy etish, ikkinchisi - huquqiy va axloqiy madaniyatni o'zgartirish. Muallif fikricha, raqamli sud tizimi faqatgina elektron dasturlar orqali emas, balki sudya va xodimlarning raqamli kompetensiyalarini oshirish orqali samarali ishlaydi [4, B.12-14].

Xalqaro miqyosda sudlar faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish tajribasi ancha ilgariilagan. Masalan: Estoniyada 2000-yillar boshidan "E-Justice Portal" tizimini joriy etgan bo'lib, barcha sud hujjatlari elektron shaklda yuritiladi. Singapurda esa, "Integrated Electronic Litigation System" orqali sud ishlarini elektron taqsimlash va arxivlash amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Buyuk Britaniyada 2018-yildan "Digital Courts Reform" dasturi doirasida barcha sud majlislarini onlayn shaklda ko'rish imkoniyati yaratilgan.

Bu tajribalardan kelib chiqib, O'zbekiston sud tizimini raqamlashtirishda xalqaro standartlar, jumladan Yevropa Ittifoqining "E-Justice Strategy 2020-2026" dasturidan foydalanish tavsiya etiladi [9].

Sud tizimini raqamlashtirishning huquqiy ahamiyati shundaki, sud faoliyatida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi huquqiy tizimda bir nechta muhim natijalarni ta'minlaydi. Shular jumlasiga sudlar faoliyatida shaffoflik va hisobdorlik kuchaytiriladi, inson omili kamaytiriladi, korrupsiya xavfini pasaytiriladi, sud jarayonlari tezlashtiriladi va resurs tejamkorligi ta'minlanadi, fuqarolarning sud himoyasiga bo'lgan ishonchi oshiriladi, elektron dalillar va raqamli hujjat aylanmasi orqali yangi huquqiy institutlar rivojiga turtki beriladi.

Shu jihatdan, raqamli texnologiyalar sud tizimini modernizatsiya qilishning asosiy vositasiga aylanmoqda.

Demak, raqamli texnologiyalarni sud tizimida joriy etish nafaqat texnik yoki tashkiliy choratadbir, balki huquqiy islohotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning huquqiy asoslari O'zbekiston qonunchiligida yetarlicha belgilangan bo'lib, amaliy tatbiq etish jarayonida xalqaro standartlar va milliy huquq tizimining xususiyatlarini muvofiqlashtirish zaruriyati vujudga keladi.

Sudlar faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari huquqshunos olimlar o'rtasida keng ilmiy muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Zamonaviy raqamlashtirish jarayoni nafaqat sud tizimining samaradorligini oshirish, balki adolat va shaffoflik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishdagi huquqshunos olimlarning asarlari tahlil qilingan holda ularning ilmiy xulosalariga munosabat bildirishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jumladan, J.Qo'chqorov fikricha, sud hujjatlarining elektron shaklda yuritilishi orqali ish yuritish muddatlarini qisqartirish va inson omilini kamaytirish zarurligini ta'kidlaydi [10]. Bu fikr to'g'ri, chunki sud tizimidagi paxtali byurokrtiyani qisqartirish uchun raqamli hujjat aylanishi muhim vositadir.

D.Jo'raev esa, elektron sudlov tizimining huquqiy asoslarini tahlil qilib, axborot xavfsizligi muammosiga alohida e'tibor qaratadi [11]. Bu masala dolzarb, chunki raqamli ma'lumotlarni himoya qilish sud adolatining kafolati hisoblanadi.

Mualliflardan A.Hojiyev videokonferensiya orqali sud majlislarini o'tkazishni sud faoliyatidagi demokratik yondashuv sifatida baholaydi [12]. Amalda bu tizim fuqarolarning sudga tez va oson murojaat qilish imkoniyatini oshirdi.

Huquqshunos olim Sh.Ruzmetov raqamlashtirish jarayonini huquqiy islohotlarning uzviy qismi sifatida ko'radi va uni huquqiy madaniyatning yangi bosqichi deb ta'riflaydi [13].

I.Xasanovning fikricha, sud qarorlarini ochiq platformalarda joylashtirish orqali jamoatchilik nazorati kuchayishini ta'kidlaydi [14]. Bu fikr qo'llab-quvvatlanadi, chunki bu sud adolatiga ishonchni oshiradi.

Raqamli sud tizimida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish yuzasidan A.Nazarov shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning xalqaro standartlariga mos qonunchilikni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi [15]. Bu fikr muhim, chunki axborot xavfsizligi inson huquqlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

Sun'iy intellektdan foydalanishda R.Abduraxmonov sun'iy intellekt yordamida ishlarni taqsimlash, qaror loyihalarini tahlil qilish imkoniyatlarini ilmiy asosda yoritadi [16]. Bu fikr ilmiy jihatdan istiqbolli bo'lib, lekin uni amalga joriy etishda huquqiy cheklovlar yetarli bo'lishi shart.

V.Petuxov esa, raqamlashtirishning amaliy natijalarini qiyosiy tahlil qiladi va O'zbekiston tajribasi ijobiy yo'nalishda ekanini qayd etadi [17].

Ye.Trofimovning fikricha, elektron adolat tizimida huquqiy kafolatlarni saqlash lozimligini ta'kidlaydi [18]. Bu nuqtai nazar O'zbekiston uchun ham dolzarb, chunki raqamlashtirishda inson huquqlariga ehtiyotkorlik zarur.

Raqamli sud tizimini huquqiy modernizatsiyaning eng muhim bosqichi deb baholaydi N.Gusev va sudlar faoliyatida avtomatlashtirish ish samaradorligini oshirishini isbotlaydi [19].

Yuqorida keltirilgan olimlar fikrlari tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni sud amaliyotiga joriy etish bugungi kunda nafaqat texnik, balki huquqiy, axloqiy va ijtimoiy masala hamdir. Har bir olimning qarashi raqamli adolatni shakllantirish yo'lida muhim ilmiy hissa bo'lib, ularning umumiy xulosasi — sud tizimida inson huquqlarini ta'minlash uchun raqamli vositalarni jadal rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Sud faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etishda sud amaliyotining ahamiyatiga to'xtalib o'tmoqchi bo'lsak, raqamli texnologiyalarni sud tizimiga joriy etish avval qonunchilik va dasturiy qarorlar bilan boshlanadi. Biroq ularning amaliy samaradorligi faqat sud amaliyotida sinovdan o'tadi. Sud amaliyoti raqamli islohotlarning ishlab ketishi yoki muammolarini aniqlovchi asosiy maydon hisoblanadi. Masalan, "E-SUD" elektron tizimidan foydalanish amaliyoti orqali sudlar elektron arizalarni qabul qilish tartibini takomillashtirdilar.

Sud amaliyoti raqamli vositalar bilan ishlashdagi huquqiy bo'shliqlarni aniqlaydi. Shu asosda qonunchilikka o'zgartirishlar kiritiladi. Masalan, elektron dalillarning yuridik kuchini aniqlash bo'yicha sud qarorlari keyinchalik Fuqarolik protsessual kodeksiga tegishli normalar kiritilishiga turtki bo'lgan.

Fuqarolar va advokatlar raqamli tizim orqali sudga murojaat qilganda, ularning ishonchini sud amaliyoti mustahkamlaydi. Ya'ni, sudlar raqamli jarayonlarda qonunga muvofiq, adolatli va kafolatli qaror qabul qilsa, raqamli tizimga ishonch ortgan holda fuqarolar faol foydalana boshlaydi.

Amaldagi qarorlar orqali sudyalari, advokatlar va fuqarolar raqamli jarayonlarda qanday huquqiy yondashuv ustuvor ekanini bilib oladilar. Bu esa raqamli adolat tizimining bir xil va barqaror qo'llanishini ta'minlaydi.

Qayd etilganlardan kelib chiqqan holda, sud amaliyotida raqamli texnologiyalardan foydalanishga oid amaliy misollar keltirib, ularni tahlil qilamiz.

Toshkent shahar ma'muriy sudining "E-SUD" tizimi orqali ish yuritishida sud fuqaroning pensiya masalasi bo'yicha arizasini elektron shaklda qabul qildi va javobni ham raqamli imzo bilan yubordi [20]. Bu holat sud ishini yuritishda vaqt va resurs tejallishini, fuqarolarning onlayn murojaat imkoniyatini ta'minladi.

Navoiy viloyati sudida videokonferensiya orqali jinoyat ishini ko'rilishida gumonlanuvchi boshqa hududda bo'lganligi sababli majlis videokonferensiya orqali o'tkazildi [21]. Bunda, sud jarayoni tezlashdi, transport va xavfsizlik xarajatlari qisqardi, inson huquqlari ta'minlandi.

Samarqand tumanlararo iqtisodiy sudining elektron dalillarni qabul qilish amaliyoti yuzasidan taraflardan biri kelishuvni elektron pochta orqali yuborilgan shartnoma bilan isbotladi [22]. Sud elektron dalilning aslligini "ERI" orqali tekshirib, uni qonuniy dalil sifatida qabul qildi.

Buxoro viloyati sudida sud qarorlarini “E-justice.uz” orqali ochiq e’lon qilish amaliyoti yo’lga qo’yilib, barcha qarorlar portal orqali jamoatchilikka oshkor qilinmoqda [23]. Bu ochiqlik va shaffoflikni ta’minladi, fuqarolar ishlarning natijasini mustaqil kuzatish imkoniga ega bo’ldi.

Qoraqalpog’iston Respublikasi sudida sudyalarning yuklamalarini avtomatik taqsimlash tizimi orqali sud ishlari avtomatik algoritm orqali sudyalarning o’rtasida taqsimlanmoqda [24]. Bu tizim inson omilini kamaytiradi, manfaatdorlik va adolatli taqsimotni ta’minlaydi.

Raqamli texnologiyalar sud amaliyotida samaradorlik, shaffoflik va tezkorlikni oshirayotganini ko’rsatmoqda. Keyingi bosqichlarda esa, elektron dalillar va sun’iy intellektning qonunchilik asosida mustahkamlash zarurligini taqozo etadi.

Shuningdek, tavsiya sifatida aytmoqchi bo’lsak, sud faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo’llashning huquqiy asoslarini mustaqil qonun yoki kodeks bo’limi sifatida belgilovchi “Raqamli sudlov to’g’risida”gi Qonun qabul qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Protsessual qonunchilikda elektron dalillar, elektron imzo va onlayn jarayonlarning huquqiy kuchini aniq belgilash lozim.

Sud qarorlarini elektron shaklda rasmiylashtirish va elektron arxivda saqlash tartibini normativ jihatdan mustahkamlash lozim.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalarning sud faoliyatida qo’llanilishi, ayniqsa, E-SUD, E-qaror, E-protokol, E-tahlil kabi axborot tizimlarining ishga tushirilishi natijasida, sud ishlari yuritishda qo’g’ozbozlik kamayadi, ishni ko’rish muddatlari qisqaradi va fuqarolar uchun elektron tarzda murojaat qilish imkoniyati yaratiladi. Bu esa sud faoliyatida inson omilining ta’sirini kamaytirib, qarorlar qabul qilishda shaffoflik va tezkorlikni ta’minlamoqda.

Sud tizimida raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish odil sudlovning shaffofligi, fuqarolar ishonchi va huquqiy davlat tamoyillarini mustahkamlashning asosiy omili sifatida baholanadi.

Iqtiboslar/Snoski/References:

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/docs/6445145>
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-sentabrdagi PQ–4818-son qarori “Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” <https://lex.uz/docs/4979896>
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi «Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida» <https://lex.uz/uz/docs/7696567>
4. Komolov D. P. Digitalization of the Court System of the Republic of Uzbekistan. Toshkent: TDYuU, 2024. B. 12–14
5. Pulatova N. S. Theoretical and legal analysis of e-justice in the Republic of Uzbekistan. Toshkent: TDYuU nashri, 2023.
6. Beknazarov F. B. Odil sudlovning raqamlashuvi: qonunchilik va amaliyot. — “Adolat” jurnali, № 3, 2021. B. 45.
7. O’zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to’g’risida”gi Qonuni <https://lex.uz/docs/83472>.
8. O’zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to’g’risida”gi Qonuni <https://lex.uz/docs/2833860>.
9. Abdullaev Q. R. E-justice tizimini joriy etishda xalqaro tajriba va O’zbekiston amaliyoti. — Journal of Comparative Law, № 2, 2024. — B. 33–34.
10. Qo’chqorov J. “Sud tizimida elektron hujjat aylanishini tashkil etish masalalari”. Toshkent: “Adolat”, 2019.
11. Jo’raev D. “Elektron sudlov tizimi: nazariy va amaliy masalalar”. Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2020.
12. Xojiev A. “Sudlarda videokonferensiya tizimini joriy etish samaradorligi”. Toshkent: NMIU, 2021.
13. Ro’zmetov Sh. “Sudlar faoliyatida raqamlashtirishning huquqiy asoslari”. Toshkent: “Yurist”, 2022.
14. Hasanov I. “Sud qarorlarining onlayn e’lon qilinishi: ochiqlik va mas’uliyat”. Samarqand: “Huquq va jamiyat”, 2020.
15. Nazarov A. “Raqamli sud tizimida shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish masalalari”. Toshkent: “Sud i pravo”, 2021
16. Abdurahmonov R. “Sud faoliyatida sun’iy intellektdan foydalanish istiqbollari”. Toshkent: “Yuridik fanlar axborotnomasi”, 2023.
17. Petuxov V. “Sifrovizatsiya sudebnykh protsedur: opyt SNG stran”. Moskva: Yurayt, 2020.

18. Trofimov Ye. "Elektron adolat: huquqiy muammolar va yechimlar". Sankt-Peterburg: Norma, 2018.
 19. Gusev N. "Sud tizimida raqamli inqilob: nazariy tahlil". Moskva: Statut, 2021.
 20. <https://sud.uz/regional-courts-info/administrative-courts-info/>
 21. Sudda ishlarni videokonferensaloqa tizimidan foydalangan holda o'tkazish tartibi //
 22. <https://navoiy.sud.uz/%D1%81%D1%83%D0%B4%D0%B4%D0%B0-%D0%B8%D1%88%D0%BB%D0%B0%D1%80%D0%BD%D0%B8-%D0%B2%D0%B8%D0%B4%D0%B5%D0%BE%D0%BA%D0%BE%D0%BD%D1%84%D0%B5%D1%80%D0%B5%D0%BD%D1%86%D0%B0%D0%BB%D0%BE%D2%9B%D0%B0-%D1%82/>.
 23. Sudlarga elektron murojaat qilish tartibi//
 24. <https://samarqand-mamuriy.sud.uz/archives/2652>.
 25. Plenum qarorlari // <https://buxoro.sud.uz/uz/hujjatlar/plenum-qarorlari/>.
 26. Sud tizimida joriy etilgan interaktiv xizmatlarning korruptsiya xavfini kamaytirishdagi o'rni va ahamiyati //
- <https://qaraqalpaqstan.sud.uz/uz/archives/9559>.

OTAJONOV Abrorjon Anvarovich

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi,
kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish
kafedrası mudiri, yuridik fanlar doktori, professor
E-mail: abror_otajonov@mail.ru

TILANCHILIKKA QARSHI KURASHISHDA JINOIY JAVOBGARLIKNI DEKRIMINALIZATSIYA QILISH VA TASHKIL QILISH UCHUN JAZO CHORALARINI KUCHAYTIRISH MUAMMOLARI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): OTAJONOV A.A. Tilanchilikka qarshi kurashishda jinoiy javobgarlikni dekriminalizatsiya qilish va tashkil qilish uchun jazo choralari kuchaytirish muammolari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 6 (2025) B. 120–127.



6 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Maqola tilanchilik fenomenining o'ziga xos jihatlarini va unga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy choralari takomillashtirish muammolarini tadqiq etishga bag'ishlangan. Ma'lum bo'ldiki, tilanchilik aksariyat davlatlarga xos tarixiy-ijtimoiy hodisa bo'lib, hozirgi sharoitda latentlik darajasi yuqoriligi va "kiber tilanchilik" kabi yangi ko'rinishlarning paydo bo'lishi bilan jamiyat uchun salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Aniqlanishicha, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 127¹-moddasi bu borada muhim qadam bo'lsa-da, statistik ma'lumotlar va amaliy kuzatuvlar bu qilmishning keng tarqalganligini ko'rsatadi. Qiyosiy-huquqiy tahlil Daniya, Germaniya, Italiya va BAA kabi xorijiy mamlakatlarning tilanchilikka qarshi kurash borasidagi tajribalarini o'rganishni nazarda tutdi. Natijada, faol tilanchilikni dekriminalizatsiya qilish va jinoiy javobgarlikni faqat tilanchilikni tashkil qilishga yo'naltirish, shuningdek, targ'ibot-tashviqot choralari kuchaytirish taklif qilindi. Taklif etilgan yangi tahrirdagi 127¹-modda jinoyiy-huquqiy ta'sir choralari faqat og'irlashgan holatlarda tilanchilikni tashkil etuvchilarga qo'llashni ko'zda tutadi.

Shuningdek, maqolada keltirilgan ilmiy-amaliy xulosalar tilanchilikning ijtimoiy ildizlarini aniqlash, unga qarshi kompleks yondashuvni shakllantirish, kiber makondagi noqonuniy xatti-harakatlarni erta aniqlash va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Muallif tomonidan ilgari surilgan takliflar O'zbekistonda tilanchilikka qarshi kurashishda jinoiy-huquqiy siyosatni qayta ko'rib chiqish, resurslarni samarali taqsimlash va profilaktik choralarning ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu ilmiy tadqiqot tilanchilikning ijtimoiy xavfini kamaytirish, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish hamda davlat-jam'iyat hamkorligini rivojlantirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: tilanchilik, tilanchilikni tashkil qilish, dekriminalizatsiya, jinoiy javobgarlik, Jinoyat kodeksi, latentlik, kiber tilanchilik, xorijiy tajriba, uyushgan jinoyatchilik, ijtimoiy xavf, profilaktika, targ'ibot-tashviqot, kiber jinoyatchilik, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati, jinoiy siyosat.

ОТАЖОНОВ Абдоржон Анварович,
Заведующий кафедрой Уголовного права,
криминологии и противодействия коррупции
Ташкентского государственного юридического
университета, доктор юридических наук, профессор
E-mail: abror_otajonov@mail.ru

ПРОБЛЕМЫ ДЕКРИМИНАЛИЗАЦИИ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПОПРОШАЙНИЧЕСТВО И УСИЛЕНИЯ НАКАЗАНИЯ ЗА ЕГО ОРГАНИЗАЦИЮ

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена исследованию особенностей феномена попрошайничества и проблем совершенствования уголовно-правовых мер противодействия ему. Выявлено, что попрошайничество является историко-социальным явлением, присущим большинству государств, и в современных условиях, с высокой степенью латентности и появлением новых форм, таких как «киберпопрошайничество», влечет негативные последствия для общества. Установлено, что хотя статья 127¹ Уголовного кодекса Республики Узбекистан является важным шагом, статистические данные и практические наблюдения указывают на широкое распространение этого деяния. Сравнительно-правовой анализ рассмотрел опыт зарубежных стран, таких как Дания, Германия, Италия и ОАЭ, в борьбе с попрошайничеством. В результате, предложено декриминализировать активное попрошайничество и сосредоточить уголовную ответственность только на организации попрошайничества, а также усилить меры пропаганды и агитации. Предлагаемая новая редакция статьи 127¹ УК предусматривает применение уголовно-правовых мер воздействия только к организаторам попрошайничества в особо отягчающих обстоятельствах.

Кроме того, научно-практические выводы, представленные в статье, указывают на необходимость выявления социальных корней попрошайничества, формирования комплексного подхода к борьбе с ним, раннего выявления незаконных действий в киберпространстве и усиления деятельности правоохранительных органов.

Предложения, выдвинутые автором, послужат пересмотру уголовно-правовой политики в борьбе с попрошайничеством в Узбекистане, эффективному распределению ресурсов и обеспечению приоритетности профилактических мер. Данное научное исследование направлено на снижение социальной опасности попрошайничества, повышение правосознания и правовой культуры населения, а также развитие государственно-общественного сотрудничества.

Ключевые слова: попрошайничество, организация попрошайничества, декриминализация, уголовная ответственность, Уголовный кодекс, латентность, киберпопрошайничество, зарубежный опыт, организованная преступность, общественная опасность, профилактика, пропаганда, киберпреступность, деятельность правоохранительных органов, уголовная политика.

ОТАЖОНОВ Abrorjon Anvarovich,
Head of the Department of Criminal Law,
Criminology and Anti-Corruption of
Tashkent State University of Law,
Doctor of Legal Sciences, Professor
E-mail: abror_otajonov@mail.ru

PROBLEMS OF DECRIMINALIZATION OF CRIMINAL LIABILITY FOR BEGGING AND STRENGTHENING PUNISHMENT FOR ITS ORGANIZATION

ANNOTATION

The article is devoted to the study of the peculiarities of the phenomenon of begging and the problems of improving criminal law measures to combat it. It was found that begging is a historical and

social phenomenon inherent in most states, and in modern conditions, with a high degree of latency and the emergence of new forms such as "cyber-begging", it entails negative consequences for society. It is established that although Article 127¹ of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan is an important step, statistical data and practical observations indicate the wide prevalence of this act. The comparative legal analysis considered the experience of foreign countries such as Denmark, Germany, Italy, and the UAE in combating begging. As a result, it is proposed to decriminalize active begging and focus criminal liability only on the organization of begging, as well as to strengthen propaganda and agitation measures. The proposed new version of Article 127¹ of the Criminal Code provides for the application of criminal law measures only to the organizers of begging in especially aggravating circumstances.

Also, the scientific and practical conclusions presented in the article show the need to identify the social roots of begging, form a comprehensive approach to combating it, early detection of illegal actions in cyberspace, and strengthening the activities of law enforcement agencies.

The proposals put forward by the author serve to review the criminal law policy in the fight against begging in Uzbekistan, ensure the effective distribution of resources and the priority of preventive measures. This scientific research is aimed at reducing the social danger of begging, increasing the legal awareness and legal culture of the population, and developing public-state cooperation.

Key words: begging, organization of begging, decriminalization, criminal liability, Criminal Code, latency, cyber-begging, foreign experience, organized crime, social danger, prevention, propaganda, cybercrime, law enforcement activities, criminal policy.

Ma'lumki, tilanchilik – aksariyat zamonaviy davlatlarga xos bo'lgan tarixan shakllangan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Tilanchilar mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat'i nazar, har qanday davrlarda mavjud bo'lgan [1]. Ko'pincha ko'chalarda noma'lum odamlar qandaydir xizmat ko'rsatishni, biror narsani sotib olishni yoki tekin shartlarda pul berishni juda qat'iy taklif qiladigan holatlarga duch kelinadi, bu odatda tilanchilik ekanligini anglash qiyin emas.

Ilmiy-huquqiy nuqtai nazardan tilanchilik – bu tirikchilik manbai bo'lmagan yoki uni yetarli emas deb hisoblaydigan shaxsning begonalardan moddiy yordam so'rashga qaratilgan tizimli harakati hisoblanadi. Zamonaviy kriminologiyada ushbu hodisaning uchta asosiy shakli farqlanadi: 1) *Faol tilanchilik* – fuqarolarga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish, yo'lini to'sib olish yoki boshqa faol harakatlilar bilan pul yoki boshqa moddiy qiymatga ega narsalarni yoki qiymati kam bo'lgan narsalarni qimmatroq narxlarida xarid qilishini so'rash; 2) *Passiv tilanchilik* – muayyan joylarida o'tirgan yoki turgan holda, faol harakatlarsiz, yozuvlar yoki idishlar yordamida xayriya kutish; 3) *Kiber tilanchilik* – axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, internet tarmoqlarida turli afsonalar yordamida moddiy mablag' yig'ish.

Odatda tilanchilik, hayot faoliyatining g'ayriixtiyoriy shakli sifatida, begonalardan pul yoki boshqa moddiy va muayyan qimmatlikka ega bo'lgan qimmatliklarni so'rashda namoyon bo'ladi. Tilanchilik jamiyat uchun hech qachon ijobiy natija keltirmaydi. U ijtimoiy muvozanatni, jamoat tartibini buzish yoki undan ham yomoni, boshqa fuqarolarning huquqlariga to'g'ridan-to'g'ri salbiy ta'sir qilishda o'zini namoyon etadi. Kundalik hayotda va olimlar orasida tilanchilik salbiy jihatdan qabul qilinadi va u fribgar obrazini ifodalaydi.

Aslida, hozirgi zamonaviy dunyoda tilanchilik ko'pincha odam savdosi va uyushgan jinoyatchilikning bir qismi sifatida qaralmoqda [2, B.144]. Tilanchilikni faqatgina ijtimoiy muammo sifatida emas, balki jinoiy biznes sifatida baholash tendensiyasi ortib bormoqda [3, B.262]. Bu nuqtai nazar O'zbekiston qonunchiligidagi tilanchilikni tashkil qilish uchun javobgarlikni joriy etishning asosi hisoblanadi. Shu jihatdan ham O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-yanvardagi O'RQ-514-son Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga tilanchilik qilish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi 127¹-modda kiritildi. Ushbu modda kiritilishi muhokamalar vaqtida ham jamoat tartibini ta'minlash va jamiyat imijini himoya qilish zaruriyati bilan asoslangan edi [4].

Mazkur modda uch qismdan iborat bo'lib, uning 1-qismiga muvofiq, Aeroportlarda, vokzallarda, xiyobonlarda, istirohat bog'larida, bozorlarda va savdo majmualari hududlarida, shuningdek

ularga tutash hududlarda, avtomototransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida, ko'chalarda, stadionlarda, bekatlarda, yo'llarning qatnov qismida, moddiy madaniy meros obyektlari joylashgan hududlarda, jamoat transportining barcha turlarida va boshqa jamoat joylarida pul, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa moddiy qimmatliklar berishni faol tarzda so'rab, tilanchilik bilan shug'ullanish, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, 240 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki 2 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud 1 yilgacha ozodlikni cheklash yoki 1 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Jinoyat kodeksining 127¹-moddasi ikkinchi qismida esa, voyaga yetmagan shaxslarni, keksa yoshdagi shaxslarni, ruhiy holati buzilgan, nogironligi bo'lgan shaxslarni va boshqa shaxslarni tilanchilik qilishga jalb etish, shuningdek shaxslarga alkogolli ichimliklarni yoxud giyohvandlik moddalari yoki psixotrop moddalar bo'lmagan, lekin shaxsning aql-idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi moddalarni majburan iste'mol qildirgan holda ularni tilanchilik qilishga jalb etish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravaridan 200 baravarigacha miqdorda jarima yoki 360 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud 2 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki 1 yildan 3 yilgacha ozodlikni cheklash yoki 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Jinoyat kodeksining 127¹-moddasi uchinchi qismida esa, ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar: a) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan; b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab; v) boshqa shaxsni giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga majburlagan holda sodir etilgan bo'lsa, 3 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilangan.

Ushbu maqolada tadqiqotning xolisligi va ishonchliligini ta'minlash maqsadida umumilmiy va xususiy huquqiy metodlardan foydalanildi. Xususan: *qiyosiy-huquqiy tahlil metodi* orqali Daniya, Germaniya, Italiya, BAA va MDH davlatlarining tilanchilikka qarshi kurashish tajribasi o'rganildi va milliy qonunchilik bilan qiyoslandi; *statistik tahlil metodi* yordamida O'zbekistonda 2019–2025-yillar oralig'idagi tilanchilik bilan bog'liq jinoyatlar dinamikasi va latentlik darajasi baholandi; *sotsiologik so'rov va empirik kuzatuv usullari* Toshkent va Samarqand shaharlarida o'tkazilgan monitoring jarayonida qo'llanilib, tilanchilikning real holati va jamiyatning unga bo'lgan munosabati aniqlandi; *mantiqiy-huquqiy metod* yordamida esa Jinoyat kodeksining 127¹-moddasi dispozitsiyasi tahlil qilinib, uni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Qayd etish kerakki, statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda tilanchilik jinoyati 2019-yilda 7 ta, 2020-yilda ro'yxatga olinmagan, 2021-yilda 1 ta, 2022-yilda 9 ta, 2023-yilda 15 ta, 2024-yilda 31 ta va 2025-yilning 10 oyida 72 ta ro'yxatga olingan [5]. Ammo olib borilgan tadqiqotlar natijalari mamlakatimizda ushbu hodisa amalda ko'proq sodir etilayotganligini ko'rsatdi. Jumladan, tadqiqot natijalariga ko'ra. "Siz tilanchilik bilan shug'ullanayotgan bolalarga duch kelganmisiz?", degan savol bilan o'tkazgan ijtimoiy so'rov natijalariga ko'ra, so'rovda ishtirok etgan respondentlarning 79 foizi "ha, ko'p ko'raman", 18 foizi "ko'rganman, lekin ko'p emas" deb, 3 foizi esa, "yo'q, umuman duch kelmaganman" degan javobni berganlar.

Bundan tashqari, 2025-yilning mart-may oyida eksperiment tariqasida Toshkent va Samarqand shaharlarida o'tkazilgan kuzatuvlar natijasida har bir shaharda kuniga 20 tadan 100 tagacha holatda yosh bolalar, katta yoshdagilar yosh bola va chaqaloqlar bilan hamda yakka holatda faol tilanchilik bilan shug'ullanish holatlari kuzatildi hamda bunda aynan shaxslarning bu kabi harakatlarning takrorlanishi qayd qilindi. Agarda bunday kuzatishlar butun mamlakat bo'ylab o'tkazilsa, bu raqamlar ancha yuqori bo'lishi mumkin.

Ana shu raqamlardan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda mazkur jinoyatning latentlik darajasi juda ham yuqori hisoblanadi. Bu holat, ayniqsa, kiber tilanchilikning rivojlanishi bilan yanada kuchaymoqda. Binobarin, hozirgi kunda mamlakatda tilanchilik qilishning kiber turi ham faol tarzda

rivojlanib, uning sodir etish ko'lamini kengaytib bormoqda [6, B.58]. Bunga virtual auditoriyaning keng qamrovligi, jamiyatda xayriya jamg'armalarining keng qo'llab-quvvatlanishi, insonlar tomonidan ko'proq pul o'tkazish imkoniyatining yuqoriligi, muayyan ehtiyojlar uchun mablag'larning tezda to'plash imkoniyati, tilanchilikning virtual tarzda amalga oshirilishi bois tilanchining qarindoshlari, yaqinlari oldidagi uyatning deyarli yo'qligi kabi omillar sabab bo'lmoqda.

Yuqorida ta'kidlanganlardan hamda tilanchilik borasidagi mavjud holatdan kelib chiqilsa, O'zbekistonda tilanchilik qilishga qarshi kurash uchun jinoiy javobgarlik darajasida choralarning belgilanishiga ehtiyoj mavjudmi, degan o'rinli savol tug'iladi. Xo'sh, bugungi zamonaviy sharoitlarda xorijiy davlatlarda tilanchilikka qarshi qanday kurash olib borilmoqda? Qiyosiy-huquqiy nuqtai nazardan baholash maqsadida ushbu masalani qisqacha tahlil qilamiz.

So'nggi yillarda xorijiy davlatlarda ham tilanchilikka qarshi kurash choralari kuchaytirilmoqda. Masalan, Germaniya ba'zi shaharlarining ma'lum bir joylarida tilanchilik qilish taqiqlanadi va uning uchun javobgarlik faol tarzda amalga oshirilgan taqdirda kelib chiqadi. Ammo, Germaniyada faol tilanchilikni tushunish hududlarda o'zaro farq qiladi. Masalan, Myunxenda yo'lovchilarga jismonan tegib yoki iltijo qilib, tilanchilik qilish, fuqarolarda rahm-shafqat uyg'otish uchun jarohatlangan qismlarini namoyish qilish kabilar faol tilanchilik sifatida baholanadi. Frankfurtida "insonlardan moddiy yoki nomoddiy qimmatliklarni qat'iy yoki surbetlik bilan so'rash" faol tilanchilik deb topiladi. Shtutgartda esa, bolalar yoki uy hayvonlaridan foydalanib tilanchilik qilish va hatto kamtarona pul so'rash ham faol tilanchilik sifatida baholanadi. Leyptsigda, agar rahm-shafqat tuyg'ularini uyg'otish uchun tilanchilik paytida bolalardan foydalanilsa, bunday holat faol tilanchilik sifatida javobgarlikni keltirib chiqaradi [7].

Fransiyada ham faol tarzda yoki turli hayvonlardan foydalangan holda qo'rqitib sodir etilgan tilanchilik taqiqlanadi. Bunday xatti-harakatlar, qayerda sodir etilishidan qat'i nazar, qoidabuzarlar 6 oygacha qamoq yoki 3750 yevrogacha jarima bilan jazolanadi. Shuningdek, Fransiyaning Transport kodeksiga muvofiq, vokzallar hududida yoki poyezdlarda har qanday shaklda tilanchilik qilish 135 yevro miqdoridagi jarima jazosi bilan jazolanishga olib keladi [8].

Bundan tashqari, so'nggi yillarda Italiyada ham tilanchilikka qarshi kurash choralari kuchaytirilmoqda. Bu ayni damda Italiyaga har yili minglab migrantlarning tashrif buyurishi bilan bog'liq hisoblanadi. Xususan, Venetsiya shahrining tarixiy markazi hududlarida tilanchilik qilish taqiqlangan va uning uchun 20 dan 500 yevrogacha miqdorda jarima jazosi belgilangan. Italiyaning Triyest shahrida ham tilanchilik qilish taqiqlangan bo'lib, u yerda nafaqat tilanchilarga 150 dan 900 yevrogacha miqdorda jarima jazosi tayinlanishi, balki ularga sadaqa berganlarga ham bu turdagi jazo chorasi qo'llanilishi mumkin. Bunday yondashuv, ya'ni sadaqa beruvchilarga ham jazo qo'llash, tilanchilikning "talab" tomonini yo'q qilishga qaratilgan radikal chora sifatida baholanadi [9]. Shu o'rinda alohida qayd etish joizki, Italiyada politsiyaga tilanchilik bilan shug'ullanish natijasida qo'lga kiritilgan daromadlarini musodara qilish huquqi berilgan. Mazkur chora ayni paytda, tilanchilarning jinoiy guruhlar tomonidan ekspluatatsiya qilishning oldini olishga qaratilgan.

Daniyada politsiya xodimlari tomonidan birinchi marta tilanchilik qilgan shaxslarga ogohlantirish berish tartibi belgilangan. Ogohlantirish olgan shaxs ushbu qilmishni takror ravishda sodir etsa, unga nisbatan jarima yoki 6 oygacha ma'muriy qamoq jazosi belgilanadi. Agar tilanchi xorijiy fuqaro bo'lsa, u mamlakatdan majburiy chiqarib yuboriladi. Daniyada ham 2019-yildan boshlab, tilanchilikka qarshi kurash choralari yanada kuchaytirilgan. Yangi tartibga ko'ra, endilikda Daniyada tilanchilik qilgan shaxslarga hech qanday ogohlantirishlarsiz to'g'ridan-to'g'ri 2 haftagacha bo'lgan muddatga ma'muriy qamoq jazosi tayinlanishi mumkin [10].

Shvetsiyada esa, mamlakatning bir nechta munitsipalitetlarida tilanchilik qilish cheklangan yoki taqiqlangan (Eskilstuna, Vellinge, Selvsborg, Katrineholm va Staffanstorpe). Masalan, Vellingening 5 ta munitsipal zonasida tilanchilikning barcha turlari, shu jumladan passiv tilanchilik uchun ham

taqiq o'rnatilgan. Ammo, Shvetsiyaning boshqa munitsipalitetlarida tilanchilik qilish uchun to'liq taqiq o'rnatilmagan, chunki bu mintaqaviy normativ-huquqiy hujjatlarga zid hisoblanadi. Shu yerda aytish muhimki, Shvetsiyaning Eskilstuna munitsipalitetida politsiya tomonidan tilanchilik qilish uchun ruxsat beruvchi maxsus litsenziya berish tartibi o'rnatilgan [11]. Litsenziya shaxsni tasdiqlovchi hujjat mavjudligi sharti bilan 3 oy muddatga beriladi va uni olish uchun 250 shved kronasi to'lanishi kerak. Litsenziyasiz tilanchilik qilingani uchun 4 ming shved kroni miqdorida jarima belgilanadi.

Litvada 2011-yil 23-noyabrdan boshlab, sadaqa so'rashni ham, sadaqa berishni ham taqiqlovchi qonun qabul qilingan. Bunga istisno tariqasida faqat ko'cha musiqachilari uchun ruxsat berilgan. Litvada tilanchilik yoki sadaqa berganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilanadi va bunday qilmishlar uchun ogohlantirish yoki 10 dan 2000 litagacha miqdorda jarima jazosi belgilanishi mumkin [7, C.68]. Shu bilan birga Litvada shahar hokimliklari tilanchilik qiladigan va sadaqa beradigan fuqarolarga muntazam ravishda bunday qilmishlar taqiqlanganligini targ'ib qiluvchi keng miqyosda o'tkaziladigan tashviqot usullari orqali ta'sir o'tkazishga harakat qiladi. Litvada tilanchilik qilish va sadaqa berish uchun bunday choralarning ko'rilishi tilanchilikning keskin kamayishiga olib kelgan.

Latviyada tilanchilikka ruxsat berilgan, ammo 2012-yil 3-iyuldan boshlab, muayyan hududlarda uni amalga oshirish cheklangan. Masalan, Riga shahrining markaziy hududlarida va yo'llarning o'tish qismlarida tilanchilik qilish taqiqlanadi. Tilanchilik uchun Latviyada ham ogohlantirish yoki 10 lat miqdorda jarima, voyaga yetmaganlar uchun esa tarbiyaviy xarakterdagi majburiy choralar qo'llaniladi [12].

Musulmon mamlakatlariga kelsak, shuni ta'kidlash kerakki, uzoq vaqt davomida islom fiqhi sohasida ushbu masala alohida normalar bilan tartibga solinmagan, chunki Islomda ham tilanchilik qoralanadi. Ba'zi hadislarida tilanchilik buzuvchi va gunohkor ishlarga tenglashtirilgan [13]. Qayd etish kerakki, Islomda, agar inson boshqa birovning mulkiga ehtiyoj sezmasa va unga muhtoj bo'lmasa, shuningdek yashash uchun yetarli bo'ladigan oziq-ovqat mahsulotlarini topish uchun sog'lom va imkoniyatlari mavjud bo'lsa, sadaqa so'rash va olish taqiqlanadi. Shuningdek, Islomda mehnatga layoqatli bo'lgan fuqarolarga sadaqa berish ham taqiqlanadi. Shu boisdan, bugungi kunda musulmon mamlakatlarida ham tilanchilik qilishga qarshi muayyan taqiqlar joriy qilingan. Masalan, Birlashgan Arab Amirliklarida tilanchilik uchun ma'muriy javobgarlik nazarda tutiladi. Xususan, Dubayda tilanchilik uchun 5 ming dirham (1,36 ming dollar) miqdordagi jarima va 3 oygacha muddatga qamoq jazosi belgilanishi mumkin. Tilanchilikni tashkil etishga qaratilgan harakatlar esa, kamida 100 ming dirham (27 ming dollar) miqdorida jarima yoki 6 oygacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Birlashgan Arab Amirliklarida, tilanchilik uchun xorijiy fuqarolarga nisbatan og'irroq jazo choralari belgilangan. Jumladan, tilanchilik qilgan yoki uni tashkillashtirgan chet ellik fuqarolar uchun 6 oygacha qamoq jazosi qo'llanilib, keyinchalik mamlakatdan chiqarib yuboriladi.

Shuningdek, tilanchilik uchun javobgarlik masalalari MDH mamlakatlari qonunchiligida ham nazarda tutilgan. Masalan, Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon, Armeniya, Turkmaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalarida tilanchilik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan bo'lib, bunday qilmish uchun jarima yoki ma'muriy hibsga olish jazosi nazarda tutilgan [14, B.94]. Moldova jinoyat qonunchiligida ham tilanchilikni tashkil qilish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Moldova Jinoyat kodeksining 302-moddasiga ko'ra, o'zi yoki boshqa shaxs uchun moddiy naf olish maqsadida tilanchilikni tashkil etish, agar ushbu qilmishda odam savdosi jinoyatining alomatlari bo'lmasa, 650 dan 1350 gacha shartli birlik miqdorida jarima yoki 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi, yuridik shaxslar uchun muayyan faoliyatni amalga oshirish huquqidan mahrum qilish yoki yuridik shaxsni tugatish bilan 2000 dan 3500 shartli birlikgacha miqdorda jarima jazosi tayinlanadi. Xuddi shu harakatlar: a) ikki yoki undan ortiq shaxslarga nisbatan yoki

b) ikki yoki undan ortiq shaxs tomonidan sodir etilishi qilmishni og'irlashtiruvchi holat sifatida belgilangan bo'lib, uning uchun 5 yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan [15].

Muxtasar aytganda, hozirgi vaqtda xorijiy davlatlarda tilanchilikka qarshi kurashishga qaratilgan huquqiy choralarning kuchaytirilishi kuzatilmoqda. Ko'pgina xorijiy davlatlar uchun tilanchilik bilan shug'ullanadigan shaxslarga qo'llaniladigan asosiy ta'sir chorasi jarima hamda ma'muriy hibsga olish jazosi qo'llaniladi. Xorijiy davlatlar tajribasi [16, B.76] mamlakatimizda tilanchilik uchun jinoiy javobgarlik o'rnatilishining asoslanganligini ko'rsatadi. Biroq, bizningcha yangi O'zbekiston sharoitida tilanchilik qilishga qarshi kurash choralari yanada takomillashtirilishi kerak deb hisoblaymiz. Chunki tilanchilik qilish:

birinchidan, jamoat axloqiga bevosita tajovuz qiladi, bu odat ba'zilar uchun saxiy odamlardan aldash yo'li bilan olinadigan daromadning asosiy manbaiga aylanadi;

ikkinchidan, agar ilgari tilanchilik qilish bilan faqat alohida toifadagi antiijtimoiy kontingentga xos bo'lgan shaxslar shug'ullanishgan bo'lsa, hozirgi kunda u ishlashni istamaydigan toifadagi shaxslar va aksariyat hollarda yoshlar tomonidan sodir etilib, ularni tilanchilik bilan shug'ullanishlariga undamoqda;

uchinchidan, bu holat turizmni rivojlantirish fonida mamlakat imijiga bevosita putur yetkazadi, vaholanki mamlakatimizda kam ta'minlangan va yordamga muhtoj bo'lganlarga manzilli yordam ko'rsatish maqsadida "Temir daftar", "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari" joriy etilgan bo'lib, davlatning ijtimoiy siyosatining bir qismiga aylangan [17, B.8].

Xulosa qilganda, tilanchilikka qarshi kurash choralari takomillashtirish maqsadida quyidagilar taklif qilinadi:

1. Jinoyat kodeksi 127¹-moddasida nazarda tutilgan muayyan joylarda pul, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa moddiy qimmatliklar berishni faol tarzda so'rab, tilanchilik bilan shug'ullanishni to'liq dekriminalizatsiya qilish va uning uchun faqat ma'muriy javobgarlik belgilash maqsadga muvofiq. Chunonchi, nazarimizda jinoyat qonunchiligidagi "ultima ratio" (so'nggi chora) tamoyiliga ko'ra, ijtimoiy xavfiligi yuqori bo'lmagan qilmishlar uchun ma'muriy ta'sir choralari yetarli hisoblanadi. Zero, jinoyatchilikni oldini olishda asosiy e'tibor jazolashga emas, balki ijtimoiy rehabilitatsiyaga qaratilishi lozim. Shu bilan birga, jinoyat qonunida tilanchilik uchun jinoiy javobgarlikning mavjudligi takroriy retsativ jinoyatchilikni sun'iy ravishda ko'payishiga olib keladi, vaholanki odatda tilanchilik qilayotgan shaxslar ko'pincha xavfli jinoyatchilar emas, balki ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam vakillaridir. Uchinchidan, ushbu taklif resurslarni mayda huquqbuzarlarga sarflash o'rniga, xavfliroq bo'lgan "tilanchilik biznesi" tashkilotchilariga qarshi kurashishga imkon beradi.

2. Jinoyat kodeksi 127¹-moddasini quyidagi tahrirda bayon qilish:

127¹-modda. Tilanchilikni tashkil qilish.

Moddiy yoki boshqacha mulkiy naf ko'rish maqsadida tilanchilikni tashkil etish, ushbu Kodeksning 135-moddasida nazarda tutilgan alomatlar bo'lmasa,

– bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Voyaga yetmagan shaxslarni, keksa yoshdagi shaxslarni, ruhiy holati buzilgan, nogironligi bo'lgan shaxslarni va boshqa shaxslarni, shu jumladan shaxslarga alkogolli ichimliklarni yoxud giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bo'lmagan, lekin shaxsning aql-idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi moddalarni majburan iste'mol qildirgan holda ularni tilanchilik qilishga jalb etish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa,

– bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

b) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan;

v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab;

g) boshqa shaxsni giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga majburlagan holda sodir etilgan bo'lsa,

bazaviy hisoblash miqdorining to'rt yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

3. Tilanchilikka qarshi kurashishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot choralari kuchaytirish [18, B.47], shuningdek ichki ishlar organlarining bu boradagi faoliyatini yanada takomillashtirish talab etiladi. Bu, ayniqsa, kiber tilanchilik va uning ijtimoiy xavfi haqida jamoatchilikni keng xabardor qilish bilan birga olib borilishi kerak.

Iqtiboslar/Snoski/References:

1. Salayev N.S. Tilanchilik uchun qanday jazo belgilangan? // URL: <https://yuz.uz/news/tilanchilik-uchun-qanday-jazo-belgilangan>
2. Kumysheva M.K., Shigalugova M.Kh. Criminal responsibility for the involvement of minors in the performance of anti-public action. Sociopolitical Sciences. 2020. Vol. X. No. 2. Pp. 143-146. (In Russ.) DOI: 10.33693/2223-00922020-10-2-143-146
3. Шайхрамова, Р. С. Краудфандинг как инновационная финансовая инфраструктура / Р. С. Шайхрамова, Э. В. Бусел // Экономическое развитие в XXI веке: тенденции, вызовы, перспективы: сборник научных трудов VII Международной научно-практической конференции студентов, аспирантов и молодых ученых / сост.: Е. В. Бурденко, О. В. Газизова, А. В. Кузнецов; Минобрнауки России, Казанский национальный исследовательский технологический университет. — Казанский нац. иссл. технолог. ун-т: Казань, 2019. — С. 260-262.
4. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jamoat tartibini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida Qonun. O'RQ-514-son, 09.01.2019-y. // URL: <https://lex.uz/docs/-4149417>
5. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huquqiy statistika va tezkor-hisob ma'lumotlar markazi ma'lumotlari.
6. Теохаров, А. К. Киберпопрошайничество // Виктимология. — 2020. — № 1 (23). — С. 58-65. // URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kiBERpoproshaynichestvo>
7. Теохаров А.К. Зарубежный опыт борьбы с попрошайничеством. Философия права. — 2020. — № 4 (95). — С. 65-71. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnyy-opyt-borby-s-poproshaynichestvom>
8. Подавшего милостыню француз оштрафовали. URL: <https://rg.ru/2019/11/24/vo-francii-oshtrafovali-podavshego-milostyniu-muzhchinu.html>
9. Итальянские города вступают в борьбу с попрошайками. URL: <https://newdaynews.ru/italy/560958.html>
10. Ulf Melgaard, Peter Vedel Kessing, A New Chapter in the Danish Criminal Code on International Crimes, *Journal of International Criminal Justice*, 2025; mqaf053. URL: <https://doi.org/10.1093/jicj/mqaf053>
11. В Швеции объявили войну попрошайкам на улицах. URL: <https://aftershock.news/?q=node/712437&full>
12. In Riga, less often fined for begging. URL: <https://rus.lsm.lv/statja/novosti/samoupravlenija/>
13. Islomda tilanchilik yo'q. *Islom.uz*. URL: <https://islom.uz/maqola/5261>
14. Кайжакпарова А.Б. К вопросу о повышении эффективности законодательства Республики Казахстан в области профилактики правонарушений. Вестник Института законодательства и правовой информации Республики Казахстан. — 2022. — № 1 (68). — С. 94-101. // URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-povyshenii-effektivnosti-zakonodatelstva-respubliki-kazahstan-v-oblasti-profilaktiki-pravonarusheniy/viewer>
15. Moldova Respublikasining 2002-yil 18 apreldagi Jinoyat kodeksi. № 985-XV (10.07.2025-yilgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalari bilan). URL: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30394923&pos=514;-30#pos=514;-30
16. Safarova D.B. Tilanchilik huquqbuzarligini oldini olish bo'yicha ayrim mulohazalar. *Academic research in modern science* 2, — № 20 (2023): —Б.75-78. URL: <https://doi.org/10.5281/zenodo.8254054>
17. Mahallabay ishlash tizimini yanada kuchaytirish yuzasidan o'quv-amaliy qo'llanma. Mualliflar jamoasi. — Toshkent. "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi, 2023-yil. — 384 b.
18. Tursunov A., Rasulev A. Huquqbuzarliklar profilaktikasi: islohot, natija va istiqbol // Huquq va burch. — 2020. — №8. —Б. 46-49.

SHAKUROV Rafik Ravilevich

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini

oshirish instituti dotsenti, yuridik fanlar nomzodi

E-mail: shakurov.rafik.67@mail.ru

NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTI RAHBARLARINING JINOIY VA MA'MURIY JAVOBGARLIGI MASALALARI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): SHAKUROV R.R. Nodavlat notijorat tashkiloti rahbarlarining jinoiy va ma'muriy javobgarligi masalalari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 6 (2025) B. 128–133.

 6 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada nodavlat notijorat tashkilotlarining tushunchasi ko'rib chiqilgan, ularning faoliyati mazmuni ochib berilgan, nodavlat tijorat tashkilotlaridan farqi ko'rsatilgan, jinoyatning maxsus subyekting belgilari, xususan, nodavlat notijorat tashkilotlarining mansabdor shaxslari o'rganilgan. Bundan tashqari, maqolada NNTda rahbarlik lavozimlarini egallagan shaxslarga yuklatilishi mumkin bo'lgan mansabdor vakolatlarini suiiste'mol qilish, pora olish, mansabdor soxtalashtirishlik bilan bog'liq jinoyat tarkiblari tahlil qilingan. Sodir etilgan ijtimoiy xavfli harakatlarning huquqiy baholash bo'yicha huquq qo'llash amaliyotining muammolari ko'rib chiqilgan, jumladan, NNT rahbarlarini davlat boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari javobgarligini nazarda tutuvchi moddalar bo'yicha javobgarlikka tortishning asossizligi haqida fikr bildirilgan, shuningdek, ushbu muammoni hal etish bo'yicha takliflar bayon etilgan.

Shu bilan birga, sodir etilgan ijtimoiy xavfli harakatlarga huquqiy baho berishda huquqni qo'llash amaliyotida uchrayotgan kamchiliklar va qarama-qarshi yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Xususan, nodavlat notijorat tashkilotlari rahbarlarini davlat boshqaruvi organlari mansabdor shaxslari uchun nazarda tutilgan javobgarlik normalari asosida javobgarlikka tortishning huquqiy asossizligi yuzasidan mualliflik pozitsiyasi bildirilgan va bu holat jinoyat huquqi tamoyillari nuqtayi nazaridan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: mansab soxtakorligi, mansabdor shaxs, vakolatlarini suiiste'mol qilish, nodavlat notijorat tashkilotlari, tashkilot, javobgarlik, pora olish, huquqbuzarlik, rahbarlar, xizmatchi, jinoiy javobgarlik.

ШАКУРОВ Рафик Равильевич

Доцент Института переподготовки и повышения

квалификации юридических кадров при Министерстве юстиции

Республики Узбекистан, кандидат юридических наук

E-mail: shakurov.rafik.67@mail.ru

ВОПРОСЫ УГОЛОВНОЙ И АДМИНИСТРАТИВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ РУКОВОДИТЕЛЕЙ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОМЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрено понятие негосударственных некоммерческих организаций, раскрыты содержание их деятельности, отличие от негосударственных коммерческих организаций, изучены признаки специального субъекта преступления, в частности, должностного лица

негосударственных некоммерческих организаций. Кроме того, в статье анализируются составы преступлений связанные с злоупотреблением должностными полномочиями, получением взятки, должностным подлогом, которые могут быть вменены лицам, занимающим руководящие должности в ННО. Рассмотрены проблемы правоприменительной практики по правовой оценке совершенных общественно опасных деяний, приведено мнение о необоснованности привлечения руководителей ННО по статьям, предусматривающим ответственность должностных лиц органов государственного управления, а также изложены предложения по разрешению данной проблемы.

Кроме того, рассмотрены недостатки и противоречивые подходы, встречающиеся в правоприменительной практике при юридической оценке совершенных общественно опасных деяний. В частности, выражена авторская позиция относительно правовой необоснованности привлечения к ответственности руководителей негосударственных некоммерческих организаций на основании норм ответственности, предусмотренных для должностных лиц органов государственного управления. Данная позиция обоснована с точки зрения принципов уголовного права.

Ключевые слова: должностное лицо, должностной подлог, злоупотребление полномочиями, негосударственные некоммерческие организации, организация, ответственность, получение взятки, правонарушение, руководители, служащий, уголовная ответственность.

SHAKUROV Rafik

Lecturer at the Training Institute for Lawyers
under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan
E-mail: shakurov.rafik.67@mail.ru

ISSUES OF CRIMINAL AND ADMINISTRATIVE LIABILITY OF NON-GOVERNMENTAL NON-PROFIT ORGANIZATION LEADERS

ANNOTATION

This article examines the concept of non-governmental non-commercial organizations, reveals the content of their activities, shows their differences from non-governmental commercial organizations, and examines the characteristics of a special subject of crime, particularly the officials of non-governmental non-commercial organizations. In addition, the article analyzes the elements of crimes related to abuse of office, bribery and official forgery, which can be assigned to persons holding leadership positions in NGOs. The issues in law enforcement practice regarding the legal assessment of committed socially dangerous acts have been examined, including the opinion expressed about the lack of grounds for holding NGO leaders accountable under articles that provide for the liability of officials in state administration bodies. Furthermore, proposals for resolving this problem have been presented.

At the same time, shortcomings and contradictory approaches encountered in law enforcement practice regarding the legal assessment of committed socially dangerous acts were examined. Specifically, the author's position is expressed on the legal groundlessness of holding leaders of non-governmental non-profit organizations accountable based on the liability standards intended for officials of state administrative bodies. This situation is substantiated from the perspective of criminal law principles.

Keywords: official forgery, official, abuse of power, non-governmental non-profit organizations, organization, liability, bribery, offense, managers, employee, criminal liability.

Fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan bir paytda, nodavlat notijorat tashkilotlari (keyingi o'rinlarda – NNT) jamiyat hayotida muhim rol o'ynab, ijtimoiy, madaniy, ekologik va boshqa sohalarda faoliyat yuritmoqda.

Biroq, kundan kunga NNT soni ko'payib borishi, ularning faoliyatini tartibga solish, nazoratini amalga oshirish, ularning rahbar va xodimlari tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklari uchun javobgarlik masalalarini to'g'ri hal qilish vazifasini belgilaydi.

Xususan, NNT rahbar va xodimlarining sodir etilgan jinoyati va ma'muriy huquqbuzarliklari uchun javobgarligi masalasining dolzarbligi, hanuzgacha bunday tashkilot rahbarlarining tegishli qonunchilikda javobgarlik asoslari aniq belgilanmaganligi hamda jinoyat qonunini qo'llash amaliyotida xatoliklarga duch kelishi bilan bog'liqdir.

Nodavlat tashkilotlari rahbarlari va xodimlarining jinoiy javobgarligi masalasini to'g'ri belgilash, milliy qonunchilikda keltirilgan "nodavlat notijorat tashkiloti" atamasining mazmun-mohiyatini tahlil qilishni ham taqozo etadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuniga asosan "Nodavlat notijorat tashkiloti – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foйда) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkiloti" deb, tushuncha keltirilgan. Demak, nodavlat notijorat tashkiloti daromad (foйда) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsad qilmaydi.

Ponomaryov O.A. tomonidan to'g'ri ta'kidlanganidek, notijorat tashkilotlar ijtimoiy, xayriya, madaniy, ta'lim, ilmiy va boshqaruv maqsadlariga erishish, fuqarolar sog'lig'ini muhofaza qilish, jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish, fuqarolarning ma'naviy va boshqa moddiy bo'lmagan ehtiyojlarini qondirish, fuqarolar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, nizolar va mojarolarni hal etish, yuridik yordam ko'rsatish, shuningdek, jamoat manfaatlariga erishishga qaratilgan boshqa maqsadlar uchun tashkil etilishi mumkin [1].

Mazkur tashkilotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining "Nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning bo'linmalari reyestri"da keltirilgan bo'lib, bugungi kunda ularning soni 11522tani tashkil etadi [2].

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (keyingi o'rinlarda – MJK) va Jinoyat kodeksining (keyingi o'rinlarda – JK) ayrim moddalarida "nodavlat tijorat tashkiloti" va "boshqa nodavlat tashkiloti" atamalarining qo'llanilganligini ko'rish mumkin. Ammo, to'g'ridan to'g'ri nodavlat notijorat tashkilotlar haqida so'z yuritilmagan. Masalan, MJK 61¹-modda va JK 192¹⁰-moddasida "Nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish" uchun javobgarlik belgilangan [3].

Bu o'z navbatida JK va MJK tegishli moddalarida keltirilgan "boshqa nodavlat tashkiloti" degan iboraning qo'llanilishi bo'yicha ikkilamchi fikrning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunida keltirilgan NNT tushunchasi va ushbu moddalar dispozitsiyasida keltirilgan iboralarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib "boshqa nodavlat tashkiloti" tushunchasi nodavlat notijorat tashkilotlarni ham qamrab olishini ta'kidlashga asos bo'ladi [4].

Shu bilan birga, huquqni qo'llash sud amaliyotida, NNT mansabdor shaxslarning jinoiy javobgarligi yuzasidan ayrim tushunmovchiliklar ko'zga tashlanmoqda.

Jumladan, ayrim NNT rahbarlarining maqomi bo'yicha ikkilamchi fikr-mulohazalar mavjudligi ularning, masalan, JK XV bobida keltirilgan "Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar" bo'yicha javobgarlikka tortishga sabab bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, quyidagilarni ta'kidlash zarur deb, hisoblaymiz.

Bunday xulosa O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunining 2-moddaning ikkinchi qismida keltirilgan qoidasi bilan ham tasdiqlanadi. Xususan, nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shahrlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun tashkil etilishi aytilgan.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bozor munosabatlari rivojlanishi munosabati bilan iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligining kafolatlanishi NNTlarga ham o'z faoliyatini moddiy ta'minlashga imkoniyatlar beradi.

Shu nuqtayi nazardan, A.Ahrorkulovning “Muassasalar faoliyatining asosiy maqsadi foyda olishga qaratilmasa-da, ular tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanishlari va shu orqali muayyan daromad ko’rishlari mumkin” degan fikriga qo’shilsa bo’ladi [6].

Mazkur masala yuzasidan xorijiy tajribaning o’rganishga oid ilmiy izlanishlarning tahlili, ayrim davlatlarda, masalan, AQSH va Rossiya Federatsiyalarida notijorat tashkilotlarning mablag’larini shakllashtirishda tashqaridan kelib tushgan xayriyalardan foydalanish mumkinligi haqida dalolat beradi [7].

Ma’lumki, O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo’lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo’ladi. Jinoyat tarkibining muhim alomatlaridan biri, bu uni sodir etgan subyekti hisoblanadi.

Shu bilan birga, javobgarlikka tortish uchun jinoyat subyekti ham tegishlicha belgilarga ega bo’lishi ta’kidlanadi. Ularga, jumladan, jismoniy shaxslarning jinoyat sodir etgunga qadar qonunda belgilangan yoshga to’lishi, aqli raso bo’lishi (JK 17-moddasi) hamda ayrim jinoyatlar uchun maxsus subyekt belgilariga ega bo’lishi kiradi. Shu o’rinda, maxsus subyekt belgilarini, masalan, shaxsning jinsi (JK 118, 120, 126-moddalar), qarindoshligi (JK 122, 122¹, 123-moddalar), fuqaroligi (JK 154¹, 157, 160, 225-moddalar), mansabdor shaxs (JK 192⁹, 192¹¹, 205-210, 241¹, 301, 302-moddalari) yoki xizmatchi (JK 192¹⁰, 214-modda) bo’lishi, faoliyati (JK 214¹-modda), maqomi (JK 220, 221, 222, 226, 240, 261¹, 266, 268-moddalar), lavozimi (JK 230, 231, 257, 262-moddalar), holati (JK 261¹-modda), harbiy xizmatchi (JK 287-295-moddalar) ekanligi tashkil etadi.

Xususan, D.Sattorov to’g’ri ta’kidlanganidek, “Jinoyatning mansabdorlik ko’rinishidagi maxsus subyekt belgisi jinoyat subyektining fakultativ belgisi bo’lib, bu belgilar Jinoyat kodeksi Maxsus qismining barcha moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun zarur bo’lmay, balki faqat mansabdorlik jinoyatlari uchungina zaruriy sanaladi” [8].

JK va MJKda mansabdor shaxsga – doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo’yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat’i nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, ma’muriy-xo’jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs, xuddi shuningdek xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma’muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs deb, tushuncha keltirilgan.

“Mulk shaklidan qat’i nazar” iborasi faoliyat yuritayotgan tashkilot sifatida nafaqat davlat tashkilotlari, balki “nodavlat notijorat tashkilotlari”ning rahbarlari ham mansabdor shaxs sifatida e’tirof etilayotganligidan dalolat beradi.

Biroq, NNT rahbarlari tomonidan o’z vakolatlarini suiiste’mol qilinishi, mansab soxtakorligi va pora olishi tegishincha O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 205, 209 va 210-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar alomatlari bo’lsa-da, ularni mazkur moddalar bilan jinoiy javobgarlikka tortish o’rinsizdir. Chunki, JK XV bobida keltirilgan “Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar”ning subyekti hokimiyat va davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan mansabdor shaxslar hisoblanadi.

Shu bois, NNT rahbarlar huquqbuzarliklari JK XIII¹ bobida nazarda tutilgan xo’jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qiladigan boshqa jinoyatlar sifatida kvalifikatsiya qilinishi to’g’ri bo’ladi.

Xususan, nodavlat notijorat tashkiloti mansabdor shaxslarning o’z vakolatlaridan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo’lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o’ziga og’dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko’zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo’lishi JK 192⁹-moddasining 2-qismi

(“Tijoratda pora evaziga og‘dirib olish”) bo‘yicha, NNT rahbarining o‘z mansab vakolatlaridan qasddan foydalanishi fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko‘p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishi JK 192¹¹-modda (“Nodavlat tijorat tashkilotida yoki boshqa nodavlat tashkilotida mansabdor shaxslar tomonidan o‘z vakolatlarini suiiste‘mol qilish”) bo‘yicha, mansab soxtakorligi esa, tegishlicha JK 228-modda (“Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish”) bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi va jinoiy javobgarlikka tortilishiga sabab bo‘ladi.

Shu bilan birga, “Tijoratda pora evaziga og‘dirib olish” uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi JK 192⁹-moddasining dispozitsiyalarida nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining mansabdor shaxsiga moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish (1-qism), shuningdek, ular tomonidan bunday moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo‘lishi (2-qism) uchun javobgarlikning belgilanishi, ushbu moddaning nomini o‘zgartirishni taqozo etadi. Fikrimizcha, JK 192⁹-moddasining nomida “Nodavlat tijorat yoki boshqa nodavlat tashkilotda pora evaziga og‘dirib olish” deb, o‘zgartirish kiritish maqsadga muvofiqdir.

Ta’kidlab o‘tilganlar bilan bir vaqtda, nodavlat notijorat tashkiloti xizmatchisining tushunchasi va uning javobgarlik masalasini ham o‘rganish o‘rinli deb, hisoblaymiz. Xususan, MJK 61¹-moddasining 3-qismida, nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisi deganda mehnat shartnomasi yoki fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi, mansabdor shaxs alomatlariga ega bo‘lmagan shaxs tushuniladi deb, tushuncha keltirilgan.

NNT xizmatchisining o‘z vakolatlaridan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o‘ziga og‘dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo‘lishi, NNT mansabdor shaxslarining bunday qilmish uchun javobgarligidan farqli ularoq, birinchi marta NNT xizmatchilarning MJK 61¹-moddasi (“Nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og‘dirib olish”) bo‘yicha ma’muriy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi. Ushbu qilmish uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida qayta sodir etilishi esa JK 192¹⁰-moddasi 2-qismi (“Nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og‘dirib olish”) bo‘yicha jinoiy javobgarlik uchun asos bo‘ladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari rahbarlarining boshqa jinoyat tarkiblariga ko‘ra javobgarligi, masalan, firibgarlik sodir etish (JK 168-modda), soliqlar yoki yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash (JK 184-modda) amaldagi jinoyat qonunchiligiga muvofiq umumiy tartibda yuzaga keladi. Xususan, NNT rahbarlari aldash yoki ishonchni suiiste‘mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulkini yoki o‘zganing mulkiga bo‘lgan huquqni qo‘lga kiritishi firibgarlik (JK 168-modda) uchun javobgarlikka tortilishi mumkin.

Firibgarlik, masalan grant, xayriya yoki faoliyatni moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag‘larni egallash uchun yolg‘on ma’lumotlarni taqdim etish, soxta loyihalar yaratishda namoyon bo‘lishi mumkin. NNT rahbari tomonidan soliq yoki boshqa to‘lovlarni to‘lovlardan bosh tortish (JK 184-modda), masalan, soliq deklaratsiyasini taqdim etmaslik, unga atayin yolg‘on ma’lumotlarni kiritish yoki boshqa usulda ifodalanishi mumkin.

Rivojlangan fuqarolik jamiyati bo‘lgan mamlakatlarning xorijiy tajribasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, urg‘u oldini olish choralariga, notijorat sektorning ochiqqligi va o‘zini-o‘zi tartibga solishini rag‘batlantirishga qaratilgan. Jinoiy ta’qib esa faqat ochiq-oydin suiiste‘molliklar va katta zarar yetkazish holatlarida qo‘llaniladi. Shu bilan birga, qator mamlakatlarda qonunchilik NNT

faoliyatidagi qoidabuzarliklar uchun qattiq javobgarlik choralari nazarda tutadi, bu esa xalqaro huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar tomonidan tanqidga uchraydi. NNT faoliyatining qonuniyligini nazorat qilish va uyushish erkinligini himoya qilish o'rtasidagi muvozanatni topish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Xulosa o'rnida, ta'kidlash joizki nodavlat notijorat tashkilotlari rahbarlarining jinoiy javobgarligi muvozanatli yondashuvni talab qiladigan murakkab huquqiy muammoni tashkil etadi. Bir tomondan, tashkilot faoliyati va mablag'laridan foydalanishning qonuniyligini ta'minlash zarur. Ikkinchi tomondan, fuqarolik jamiyatiga putur yetkazishi mumkin bo'lmaganda asossiz jinoiy ta'qibga yo'l qo'ymaslik muhimdir. Ushbu sohada qonunchilikni takomillashtirish jinoyat tarkiblarini aniqlashtirish, ta'riflardagi noaniqlikni bartaraf etish, NNT rahbarlari uchun huquqiy muhofaza kafolatlarni ta'minlash yo'li bilan amalga oshirilishi kerak. Bundan tashqari, amaliyotni rivojlantirish huquqni qo'llovchilarning malakasini oshirishni, NNT rahbarlarining harakatlarini baholashga oid bir xil yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, sud amaliyotida kelib chiqadigan xatoliklarni bartaraf etish maqsadida, nodavlat notijorat tashkilotlarining mansabdor shaxslari tomonidan sodir etilgan jinoyatlari uchun javobgarlik masalalariga oid rahbariy ko'rsatmalarni nazarda tutuvchi Oliy sud Plenumi qarorini ishlab chiqish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Пономарёв О.А. Правовое регулирование и порядок создание некоммерческих организаций//<https://cyberleninka.ru/article/n/pravovoe-regulirovanie-i-poryadok-sozdaniya-nekommercheskih-organizatsiy/viewer>
2. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining "Nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning bo'linmalari reyestri" / <https://e-ngo.uz/front/registry>
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi/ <https://lex.uz/docs/111453>; O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi /<https://lex.uz/docs/97664>
4. O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-aprel 763-I-son "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni (2025-yil 22-avgustdagi o'zgartish va qo'shimchalar bilan)/<https://lex.uz/docs/11360>
5. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-dekabrda 343-I-son "Notariat to'g'risida"gi Qonuni (2025-yil 20-oktabrdagi o'zgartish va qo'shimchalar bilan)/<https://lex.uz/docs/54458>
6. Ahrorqulov A. Notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish masalalari/<https://cyberleninka.ru/article/n/notizhorat-tashkilotlari-t-risidagi-onunchilikni-takomillashtirish-masalalari/viewer>
7. Gulyamov S., Ahrorqulov A. Notijorat tashkilotlar faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslari: milliy va xorijiy tajriba/ <https://cyberleninka.ru/article/n/notizhorat-tashkilotlar-faoliyatini-tartibga-solishning-u-u-iy-asoslari-milliy-va-horizhiy-tazhriba/viewer>
8. Sattorov D. Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish jinoyatining tushunchasi va uning o'ziga xos belgilari/ <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-prestupleniya-zloupotrebleniya-vlastyu-ili-sluzhebny-m-polozheniem-i-ego-osobennosti/viewer>
9. Ne'matov O.I. Nodavlat notijorat tashkilotlari mulkiy va moliyaviy holati auditorlik tahlilini takomillashtirish // <https://cyberleninka.ru/article/n/nodavlat-notizhorat-tashkilotlari-mulkiy-va-moliyaviy-olati-auditorlik-ta-lilini-takomillashtirish>
10. Ismoilov A.R. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tashkil etishda ijtimoiy hamkorlikning roli // <https://cyberleninka.ru/article/n/nodavlat-notizhorat-tashkilotlari-faoliyatini-tashkil-etishda-izhtimoiy-amkorlikning-rol>

BEKMURODOVA Umida Abdusamad qizi
Shayxontohur tumani Ichki ishlar organlari faoliyatini
muvofiqlashtirish boshqarmasi huzuridagi
Tergov bo'limi Tahlil va nazorat
bo'linmasi katta tergovchisi
E-mail: nadinkaz.uz@gmail.com

JINOYAT HUQUQIDA EKSTRADITSIYA INSTITUTI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): BEKMURODOVA U.A.
Jinoyat huquqida ekstraditsiya instituti // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста –
Lawyer herald. № 6 (2025) B. 134–141.



6 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Maqolada ekstraditsiya institutining murakkabligi va kompleks yuridik tabiati ko'rib chiqildi. Aniqlanadiki, yuridik ta'limotda ekstraditsiya tushunchasini ta'riflashda yagona yondashuv shakllanmagan, bu jinoyat qonunining makonda amal qilishi kabi hodisalarni turlicha baholashdan kelib chiqadi. Ko'pchilik nazariyotchilar "ekstraditsiya" va "topshirish" atamalarini bir xil ma'noda deb hisoblasalar-da, "jinoyatchini topshirish" iborasi aybsizlik prezumpsiyasiga zid keladi. Ekstraditsiya jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida davlatlarning xalqaro hamkorlik instituti bo'lib, u huquqiy munosabatlarning murakkab integratsiyalashgan majmuini tashkil etadi. Shaxsni topshirish instituti xalqaro shartnomalar hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan norma va tamoyillariga asoslangan huquqiy yordam akti hisoblanib, jinoyat sodir etgan shaxsni tergov qilish va unga nisbatan odil sudlovni amalga oshirishda ko'maklashadi. Ko'rib chiqilgan, ekstraditsiyaning huquqiy mohiyatini aniqlashda uning fanlararo xususiyatini inobatga olish maqsadga muvofiq. Qayd etildiki, ekstraditsiya davlatning huquqi bo'lib, faqat tegishli xalqaro shartnoma qabul qilingandan so'ng majburiy tusga kirishi haqidagi zamonaviy pozitsiya eng maqbuldir, ammo majburiyat mutlaq emas. Xulosa qilinadi, ekstraditsiya instituti jinoyat qonunining makonda amal qilishi to'g'risidagi ta'limotga asoslanadi va jinoiy yurisdiksiyani amalga oshirish vositalaridan biridir.

Kalit so'zlar: ekstraditsiya, topshirish, jinoyat huquqi, xalqaro hamkorlik, jinoiy yurisdiksiya, aybsizlik prezumpsiyasi, fuqarolik tamoyili, real tamoyil, universal tamoyil, huquqiy yordam, moddiy-huquqiy asoslar, ekstraditsiyaning yuridik tabiati, jinoiy ta'qib, javobgarlikning muqarrarliligi, umumiy va maxsus norma.

BEKMURODOVA Umida
Старший следователь, капитан, Отделение анализа и
контроля Следственного отдела при
Управление по координации деятельности
органов внутренних дел Шайхантахурского района
E-mail: nadinkaz.uz@gmail.com

ИНСТИТУТ ЭКСТРАДИЦИИ В УГОЛОВНОМ ПРАВЕ

АННОТАЦИЯ

Рассмотрена сложность и комплексная юридическая природа института экстрадиции. Установлено, что в правовой доктрине не сформировано единого подхода к определению понятия экстрадиции, что вызвано различной оценкой таких явлений как действие уголовного закона в пространстве. Выяснено, что хотя большинство теоретиков считают термины «экстрадиция» и «выдача» синонимами, выражение «выдача преступников» противоречит основополагающему

принципу презумпции невиновности. Экстрадиция является институтом межотраслевого международного сотрудничества государств в сфере борьбы с преступностью, который составляет сложный интегрированный комплекс правоотношений. Институт выдачи лица (экстрадиции) является актом правовой помощи, основанным на международных договорах, а также общепризнанных нормах и принципах международного права, и способствует расследованию совершённого преступления и осуществлению в отношении данного лица справедливого правосудия. Рассмотрено, что при определении правовой сущности экстрадиции целесообразно учитывать ее междисциплинарный характер. Отмечено, что современная позиция, согласно которой экстрадиция является правом государства и становится обязательной только после принятия соответствующего международного договора, является наиболее приемлемой, но обязательство не является абсолютным. Сделан вывод, институт экстрадиции основан на доктрине действия уголовного закона в пространстве и является одним из средств реализации уголовной юрисдикции.

Ключевые слова: выдача, международное сотрудничество, материально-правовые основы, неизбежность ответственности, общая и специальная норма, презумпция невиновности, принцип гражданства, правовая помощь, реальный принцип, уголовное право, уголовная юрисдикция, уголовное преследование, универсальный принцип, юридическая природа экстрадиции, экстрадиция.

UMIDA Bekturodova

Senior Investigator, Captain, Analysis and Control
Unit of the Investigation Department under the
Department for Coordinating the Activities
of Internal Affairs Bodies in Shaykhantakhur District
E-mail: nadinkaz.uz@gmail.com

THE INSTITUTION OF EXTRADITION IN CRIMINAL LAW

ANNOTATION

The complexity and complex legal nature of the institution of extradition have been considered. It is established that there is no unified approach in legal doctrine to defining the concept of extradition, which is caused by different assessments of phenomena such as the operation of criminal law in space. It is found that although most theorists consider the terms "extradition" and "surrender" to be synonymous, the phrase "extradition of criminals" contradicts the fundamental principle of the presumption of innocence. Extradition is an institution of intersectoral international cooperation of states in the field of combating crime, which constitutes a complex integrated set of legal relations. The institution of extradition is an act of legal assistance based on international treaties and the universally recognized norms and principles of international law, and it helps facilitate the investigation of a person who has committed a crime and the administration of fair justice in relation to that person. It is considered that when determining the legal essence of extradition, it is expedient to take into account its interdisciplinary nature. It is noted that the modern position, according to which extradition is the right of the state and becomes mandatory only after the adoption of the relevant international treaty, is the most acceptable, but the obligation is not absolute. It is concluded that the institution of extradition is based on the doctrine of the operation of criminal law in space and is one of the means of implementing criminal jurisdiction.

Key words: extradition, surrender, criminal law, international cooperation, criminal jurisdiction, presumption of innocence, citizenship principle, real principle, universal principle, legal assistance, substantive legal grounds, the legal nature of extradition, criminal prosecution, inevitability of responsibility, general and special rule.

Jinoyat huquqida ekstraditsiya instituti normativ ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan to'rt elementli tizimni tashkil etadi: 1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (23-modda), 2) xalqaro shartnomalar (ikki va ko'p tomonlama), O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (12-modda), 4) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (65-66 bob). Hozirda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi doirasida ekstraditsiya to'g'risidagi masalalarni huquqiy jihatdan tartibga solish zarurati paydo bo'lmoqda. Garchi, jinoyat sodir etgan shaxslarni ekstraditsiya qilish masalasini ilmiy-nazariy tahlil qilishda, avvalambor, "ekstraditsiya" tushunchasining umumiy tavsifi va yuridik mazmunini aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash joizki, mazkur institut uzoq tarixiy rivojlanish yo'lini bosib o'tganligi hamda xalqaro va milliy amaliyotda faol qo'llanilishi tufayli qonunchilikda hamda huquqiy amaliyotda turlicha nomlanishga sabab bo'lgan. Shu jihatdan ekstraditsiyaning yuridik mohiyatini chuqur anglash talab etiladi. Zero, mazkur institut jinoyat sodir etgan shaxsning yashirib yurgan davlatdan uni javobgarlikka tortish va jazolash huquqiga ega bo'lgan davlatga topshirishni anglatadi. Bu institut davlatlar o'rtasidagi suveren tenglik, o'zaro hurmat, inson huquqlarini ta'minlash va jazo muqarrarlari prinsiplariga asoslanadi [1, B. 254].

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, ekstraditsiya instituti o'zining huquqiy tabiatiga ko'ra, kompleks xususiyatga ega bo'lib, u bir vaqtning o'zida xalqaro ommaviy huquq, milliy jinoyat huquqi va jinoyat-protsessual huquqi normalari bilan tartibga solinadi. Xalqaro huquq davlatlarning hamkorlikdagi majburiyatlarini, protsessual qonunchilik esa shaxsni ushlash, qamoqda saqlash va topshirishning protsessual shaklini belgilab bersa-da, ushbu institutning moddiy-huquqiy asosi bevosita jinoyat huquqiga tayanadi. Biroq, yuridik adabiyotlarda va amaliyotda ekstraditsiyaga ko'pincha faqat protsessual harakat yoki davlatlararo diplomatik kelishuv sifatida qarash tendensiyasi mavjud. Bunday yondashuv masalaning tub mohiyati – qilmishning jinoiyligi, jazo tayinlash asoslari va jinoiy javobgarlikdan ozod qilish shartlari aynan moddiy jinoyat huquqi normalari bilan hal etilishini e'tibordan chetda qoldiradi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – ekstraditsiya institutini aynan jinoyat huquqi nazariyasi va qonunchiligi nuqtayi nazaridan tadqiq etishdir. Maqolada Jinoyat kodeksida ushbu institutni tartibga soluvchi normalarning bugungi kundagi holati, mavjud bo'shliqlar va ularni bartaraf etish yo'llari, shuningdek, ekstraditsiyaning jinoiy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Zero, protsessual shakl qanchalik mukammal bo'lmasin, uning moddiy asosi (jinoyat qonuni) mustahkam bo'lmas ekan, jazo muqarrarlari prinsipini to'liq ta'minlash imkonsizdir.

Yuridik adabiyotlarda ekstraditsiya tushunchasini ta'riflashda turli ilmiy yondashuvlar mavjudligi kuzatiladi. Ushbu yondashuvlardagi farqlar, asosan, jinoyat qonunining makonda amal qilishi kabi moddiy-huquqiy hodisalarni turlicha baholashdan, ekstraditsiyani jazo tayinlash jarayoni bilan bog'lashdan, shuningdek, xalqaro shartnomalar va milliy qonunchilikda uning ayrim jihatlarini turlicha talqin qilishdan kelib chiqadi. Garchi ekstraditsiya instituti ko'plab o'rganilgan bo'lsa-da, na ilm-fanda, na qonunchilikda va na huquqni qo'llash amaliyotida uning yagona universal tushunchasi shakllanmagan. Binobarin, ayrim olimlar "ekstraditsiya" va "topshirish" atamalarini sinonim deb hisoblaydilar [2, B. 72]. Yuridik lug'atda ekstraditsiya (ing., fr. extradition) – bir davlatdan boshqa bir (xorijiy) davlatga o'z fuqarosini (yoki xorijlik fuqaroni) berish tariqasida ifodalanadi [3, B. 547].

Shuni alohida qayd etish lozimki, zamonaviy konstitutsiyalar, qoida tariqasida, o'z fuqarosini xorijiy davlatlarga berishni qat'iy man etadi. Xorijiy fuqarolarni va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni berishga esa, tegishli davlatlarni bog'lovchi xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan hollardagina yo'l qo'yiladi. Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga asosan, fuqarolarga nisbatan o'lim jazosi yoki qiynoqqa solish xavfi bo'lgan davlatlarga ekstraditsiya qilish taqiqlanadi. O'zbekiston Respublikasida siyosiy qarashlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida jinoyat deb

tan olinmagan harakat yoki harakatsizlik uchun ta'qib qilinayotgan shaxslarni topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Garchand, ayrim manbalarda uchraydigan ekstraditsiyaning yuridik tabiatini ochib berishga oid ta'riflar mazmunan bir-biridan farq qiladi. Jumladan, A.N. Mironov ekstraditsiyani "jinoyat sodir etishda ayblanayotgan yoxud hukm qilingan shaxslarni so'ralayotgan suveren davlatdan so'rayotgan davlatga topshirish tartib-taomilidir" [4, B. 42], deb ta'riflaydi. S.A. Belyayevning fikricha esa, ekstraditsiya shunchaki shaxsni boshqa davlatga topshirishdan iborat emas, balki davlatning tegishli organlari tomonidan shaxsni boshqa davlat organlariga majburiy ravishda yetkazib berishni ta'minlashga qaratilgan harakatlar majmuidir [5, B. 3]. A.I. Djigir ekstraditsiyani "jinoyat sodir etgan shaxsni uning hududida bo'lgan davlat tomonidan, ushbu shaxsга nisbatan tergov va odil sudlovni amalga oshirish maqsadida, jinoyat sodir etilgan yoki fuqarosi bo'lgan davlatga qaytarish, shuningdek, ushbu ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchini topshirishdan oldin qidirish, ushlash va hibsga olish" [6, B. 59] deb tushunadi. V.M. Voljenkina esa uni "jinoyat yurisdiksiyasi ostida ta'qib qilinayotgan shaxsni, keyinchalik uni jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmning ijrosini ta'minlash maqsadida, u yashiringan mamlakatdan so'rab olib, qabul qilish tartib-taomili" [7, B. 8] deb ta'riflaydi. Shuningdek, O. Sulaymonov ekstraditsiya tushunchasini jinoyatchini jinoiy javobgarlikka tortish yoki qonuniy kuchga kirgan hukmni ijro etish uchun u turgan davlat tomonidan boshqa davlatning talabiga binoan topshirish sifatida izohlaydi [8, B. 7].

Bunday turli mazmunda ifodalangan ta'riflar ayni paytda ayrim ilmiy munozaralarga sabab bo'lishi tabiiy. Chunki ularning ayrimlarida jinoyatchini jinoiy javobgarlikka tortish bilan birga hukmni ijro etish uchun topshirish masalalari ham qamrab olingan bo'lsa, boshqasida faqat tergov va sud jarayoni uchun topshirish nazarda tutiladi. Shuningdek, ayrim tadqiqotchilar tomonidan qo'llaniladigan "jinoyatchini topshirish" iborasi ham bahsli hisoblanadi. Bu ibora aybsizlik prezumpsiyasining asosiy tamoyiliga shaklan zid hisoblanadi. Chunki ekstraditsiya subyekti nafaqat aybi sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlangan shaxs (mahkum), balki jinoyat sodir etishda shunchaki gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxs ham bo'lishi mumkin. Shu bois, bu o'rinda "jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarni topshirish" atamasini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Holbuki, ekstraditsiya institutining jinoiy-huquqiy tabiati shunda namoyon bo'ladiki, davlat o'zining jazolash huquqini faqat shaxs uning hokimiyati ostida bo'lgandagina amalga oshirishi mumkin. Shu sababli, ekstraditsiya jinoyatchilikka qarshi kurash hamda adolatni amalga oshirish sohasida davlatlarning muhim hamkorlik shakli hisoblanadi. Shuni ta'kidlash mumkinki, ekstraditsiya sohasidagi huquqiy munosabatlar integratsiyalashgan xususiyatga ega bo'lib, u bir vaqtning o'zida ham xalqaro huquq, ham jinoyat-protsessual huquq, ham moddiy jinoyat huquqi normalarini o'z ichiga oladi. Garchi ekstraditsiya jarayoni protsessual normalar bilan tartibga solinsa-da, uning huquqiy asosi va maqsadi jinoyat huquqiga borib taqaladi. Xususan, Rossiya va Ukraina kabi davlatlarning Jinoyat kodekslarida shaxsni topshirishning huquqiy asoslari bevosita nazarda tutilgan. Chunki topshirishdan oldingi holatlar va topshirilgan shaxsning jinoiy javobgarligi chegaralari (undan kelib chiqadigan oqibatlar) — bularning barchasi jinoyat huquqining predmeti hisoblanadi.

Jinoyatchilarni topshirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar tahlili ekstraditsiyaning jinoiy-huquqiy tabiatini turlicha talqin qiluvchi yondashuvlarni ko'rsatadi. Xususan, ayrim huquqshunoslar ekstraditsiyani jinoyat sodir etgan shaxsга nisbatan jazoning muqarrarligi jinoyat-huquqiy tamoyilini ta'minlashga ko'maklashuvchi institut deb hisoblaydilar [9, B. 543]. Bizning fikrimizcha, bu eng to'g'ri yondashuvdir. Ekstraditsiya va jazo aynan bir xil tushunchalar emas: jazo ijtimoiy adolatni tiklash va axloqan tuzatishni maqsad qilsa, ekstraditsiya ushbu maqsadlarga erishish uchun sharoit yaratib beruvchi vositadir.

Yuqorida ta’kidlanganidek, ekstraditsiya instituti jinoyat qonunining hudud va makonda amal qilishi tamoyillari bilan bevosita bog’liqdir. Chunonchi, jinoyat qonunini O’zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida qo’llashga imkon beruvchi yurisdiksiyaning fuqarolik, himoyalash va universal kabi tamoyillari farqlanadi. Bunda, fuqarolik tamoyili chet elda jinoyat sodir etgan o’z fuqarolariga nisbatan jinoyat qonunining amal qilish doirasini kengaytirish orqali uning qo’llanilishini ta’minlashdan iborat ekanligini anglatadi. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 12-moddasi 1-qismida shunday deyilgan: “O’zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, O’zbekistonda doimiy yashovchi fuqaroligi bo’lmagan shaxslar, basharti boshqa davlat hududida sodir etgan jinoyat uchun o’sha davlat sudining hukmi bilan jazolangan bo’lmalar, ushbu kodeks bo’yicha jinoiy javobgarlikka tortiladilar”. Bu tamoyilning ajratib ko’rsatilishiga asos qilib fuqaroning davlat bilan barqaror huquqiy aloqasi mavjudligi mezoni olingan. Bu aloqa shaxsning qayerda bo’lishi, qanday maqsadlar bilan va qancha muddat davomida harakat qilishidan qat’i nazar saqlanib qoladi. M.X. Rustambayev yozganidek, bunday aloqalarning butun majmuasi birligi “huquqiy makonni tashkil etadi” [10, B. 98] va bu makon mazkur toifadagi shaxslarga nisbatan milliy jinoyat huquqi normalarini qo’llash imkonini beradi.

Hududiy yurisdiksiyaning ikkinchi to’ldiruvchisi himoya tamoyili hisoblanadi. Bu tamoyil qonun chiqaruvchi tomonidan davlatning o’z manfaatlarini va fuqarolarining manfaatlarini O’zbekistondan tashqarida sodir etiladigan jinoyatlardan himoya qilishni ta’minlash maqsadida qabul qilingan. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 12-moddasining 3-qismida quyidagicha ifodalangan: “Chet el fuqarolari, shuningdek, O’zbekiston hududida doimiy yashamaydigan fuqaroligi bo’lmagan shaxslar O’zbekiston hududidan tashqarida sodir etgan jinoyatlari uchun faqat xalqaro shartnomalar yoki bitimlarda nazarda tutilgan hollardagina ushbu Kodeks bo’yicha javobgarlikka tortiladilar”. Ammo, mazkur nuqtai-nazardan professor B.Konyaxin shunday fikr bildirgan: “muayyan davlatning ichki qonunlariga ko’ra jinoyat sodir etishda ayblanayotgan fuqarosi boshqa davlat hududida bo’lgan hollarda, bunday shaxsga nisbatan milliy sud yurisdiksiyasini amalga oshirish faqat u topshirilganidan so’nggina mumkin bo’ladi” [11, B. 18].

Shu bilan birga, O.V. Voronin universal tamoyilni joriy etish zaruratini shunday izohlaydi: “Huquqiy tartib barcha davlatlarning umumiy asosidir... shuning uchun har bir davlatning vazifasi dunyoda iloji boricha mukammal huquqiy tartib o’rnatilishiga barcha kuch-g’ayrati bilan ko’maklashishdan iborat. Bu tamoyil, ilgari qayd etilganlarga nisbatan, eng keng qamrovli jinoyat qonunini qo’llash doirasini nazarda tutadi. U har qanday davlatga o’z hududidan tashqarida sodir etilgan va bevosita ushbu davlatga yoki uning fuqarolariga ta’sir qilmaydigan jinoiy harakatlar uchun shaxslarga nisbatan jinoyat qonunini qo’llash imkoniyatini beradi” [12, B. 38].

Ta’kidlash kerakki, chet elda jinoyat sodir etgan shaxslar ko’pincha o’z ixtiyori bilan o’z mamlakatlariga qaytmaydilar. Bu esa ularni jinoiy javobgarlikka tortish imkoniyatidan davlatni mahrum etadi. Aynan shu ma’noda ekstraditsiya jinoyat qonunini ro’yobga chiqarish mexanizmi sifatida namoyon bo’ladi. Jinoyat-huquqiy hamkorlikda shartnomalarning o’rni va ahamiyati beqiyosdir. Zero, bunday shartnomalarning mavjud emasligi jinoyatchini ushlab berish borasida choralar ko’rib bo’lmazligiga sabab bo’ladi hamda ijtimoiy adolatni tiklash, jinoyatchilikning oldini olish, jinoyat sodir etgan shaxsni axloqan tuzatish kabi maqsadlarga erishish yo’lida g’ov bo’ladi. Shu bois, R.A. Sayfulovning “Bir davlat hududida jinoyat sodir etib, boshqa mamlakat hududida yashiringan jinoyatchilarga qarshi jinoiy ta’qib samaradorligini amalga oshirishning asosiy jihati bu shunday shartnomalarni tuzish va ularning ijrosini ta’minlashdir” [13, B. 10], degan fikri asoslidir. Shuningdek, mamlakatimizda ekstraditsiya qilish bo’yicha alohida qonunchilik hujjatining mavjud emasligini inobatga oladigan bo’lsak, ushbu shartnomalar bunday munosabatlarni tartibga soluvchi hujjat sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. “O’zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari

to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, xalqaro shartnomalar shartnoma, kelishuv, konvensiya, protokol, memorandum, deklaratsiya va boshqa shakllarda tuzilishi mumkin.

Amaldagi O'zbekiston jinoyat qonunchiligida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 12-moddasi 3-qismida "...xalqaro shartnomalar yoki bitimlarda nazarda tutilgan hollarda..." so'zlari aks ettirilgan. Bu O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonuni uning xalqaro shartnomalar va bitimlarda nazarda tutilgan barcha jinoyatlarga, ular sodir etilgan joy, uni sodir etgan shaxsning fuqaroligi yoki tajovuz obyektidan qat'i nazar, tatbiq etilishini anglatadi. Ta'kidlash kerakki, shaxsni ushlab berish to'g'risidagi norma JK 12-moddasi 3-qismida ifodalangan umumiy normaga nisbatan maxsus hisoblanadi, chunki u mohiyatan jinoyat qonunining makonda amal qilishining universal va real tamoyillari haqidagi normadan istisno hisoblanadi. Bunday raqobat maxsus norma foydasiga hal qilinishi lozim.

Demak, yuqorida bayon etilganlar o'z majmuida jinoyat huquqi doirasida uzoq vaqt davomida shakllangan konsepsiyani ifodalaydi. Unga ko'ra, ekstraditsiya institutining asosini jinoyat qonunining makonda amal qilishi to'g'risidagi normalar tashkil etadi. Bunda jinoyat sodir etgan shaxslarni ushlab berish instituti uni amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan davlat tomonidan jinoiy yurisdiksiyani amalga oshirish vositalaridan biri hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, bir tomondan, u O'zbekiston Respublikasiga o'zining jinoyat qonunini qo'llash doirasidan chiqqan shaxslarni jinoiy ta'qib qilish imkonini beruvchi vositadir. Boshqa tomondan, ekstraditsiya xorijiy davlatga uning jinoyat qonunini buzgan shaxsni ta'qib qilishda ko'maklashish uchun mo'ljallangan. Faqat shu ikki tomonning birligida ekstraditsiya institutining jinoyat-huquqiy mohiyati va uni jinoyat huquqi maqsadlari uchun samarali amalga oshirish imkoniyati namoyon bo'ladi.

Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 12-moddasining amaldagi tahriri faqatgina O'zbekiston Respublikasidan tashqarida jinoyat sodir etgan va O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan chet el fuqarolari va doimiy yashamaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni topshirish imkoniyatini belgilaydi. Aslida, ekstraditsiya institutining qamrovi ancha kengdir. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 12-moddasi, fikrimizcha, ko'proq deklarativ xususiyatga ega, shu sababli uning amalda qo'llanilishi uchun qo'shimcha tartibga solish talab etiladi. Shundan kelib chiqib, hozirgi vaqtda ekstraditsiya institutini O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining "Ekstraditsiya" deb nomlangan Umumiy qismining alohida normalar ajratilishi lozim bo'lgan mustaqil umumiy institutga aylantirish uchun nazariy va amaliy shart-sharoitlar mavjud.

Shu o'rinda, ekstraditsiyaning huquqiy tartibga solinishida jinoyat huquqi va jinoyat protsessi o'rtasidagi chegaralarni aniq farqlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash joizki, amaldagi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 65 va 66-boblari ekstraditsiyaning protsessual tartibini, ya'ni uning "qanday" amalga oshirilishi mexanizmini belgilab beradi. Ushbu boblarda so'rov yuborish tartibi, ushlab berish to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish muddatlari, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash va shaxsni etap qilish kabi protsessual harakatlar tartibga solingan. Biroq, ushbu protsessual normalarning ishlashi uchun zarur bo'lgan moddiy-huquqiy poydevor – shaxsni topshirishning jinoiy-huquqiy asoslari va shartlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Biz taklif etayotgan Jinoyat kodeksidagi yangi normalar esa ekstraditsiyaning "nima uchun" va "qaysi asoslarga ko'ra" amalga oshirilishi yoki rad etilishi lozimligini belgilashi kerak. Xususan, qilmishning ikki tomonlama jinoyat deb tan olinishi, jinoiy javobgarlikka tortish muddatlarining o'tishi, amnistiya aktlarining tatbiq etilishi, shuningdek, shaxsning fuqarolik holatidan kelib chiqib topshirilmaslik huquqi kabi masalalar sof moddiy huquqiy xususiyatga ega. Hozirgi kunda ushbu moddiy asoslarning bir qismi JPKda (masalan, JPK 603-moddasida ushlab berishni rad etish asoslari

sifatida) aks etgan bo'lsa-da, bu doktrinal nuqtai nazardan bahslidir. Chunki javobgarlikning asosi va undan ozod qilish shartlari jinoyat protsessining emas, balki jinoyat huquqining predmeti hisoblanadi. Shu sababli, ekstraditsiyaning moddiy-huquqiy shartlarini JPKdan JKga o'tkazish va uni alohida institut sifatida mustahkamlash qonunchilikdagi mantiqiy izchillikni ta'minlaydi.

Garchand, tadqiqot davomida amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ekstraditsiya shunchaki texnik-protsessual harakat emas, balki chuqur moddiy-huquqiy zaminga ega bo'lgan murakkab institutdir. Uning huquqiy tabiati jinoyat qonunining makonda amal qilishi, jinoiy javobgarlikning muqarrarliligi va odillik tamoyillari bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, mazkur institutni faqat protsessual normalar doirasida cheklash uning mohiyatini to'liq ochib bermaydi.

Shu bilan birga mazkur o'rinda tabiiy savol tug'iladi: ekstraditsiya davlatning huquqimi yoki majburiyati? XIX asr olimlari buni majburiyat deb hisoblagan bo'lsa, keyinchalik bu davlatning suveren huquqi degan qarash ustunlik qildi. Zamonaviy yondashuvga ko'ra, milliy qonunchilik davlatga shaxsni topshirish huquqini beradi, xalqaro shartnomalar esa majburiyatni yuklaydi. A.I.Sashenko to'g'ri ta'kidlaganidek, so'ralayotgan davlatning majburiyati mutlaq hisoblanmaydi, u ma'lum shartlarga rioya qilingandagina kuchga kiradi [15, B. 91]. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 12-moddasi hozirgi tahrirda ekstraditsiya masalalarini to'liq qamrab ololmaydi. U asosan jinoyat qonunining makonda amal qilishini belgilaydi, xolos. Qolaversa, ekstraditsiya faqat protsessual harakat emas, u shaxsning jinoiy javobgarlik darajasi, jazo muddati va uni o'tash tartibiga ta'sir qiluvchi moddiy-huquqiy oqibatlarga ham egadir. Bugungi kunda O'zbekiston qonunchiligida ekstraditsiya masalalari asosan Jinoyat-protsessual kodeksi va xalqaro shartnomalar bilan tartibga solingan. Biroq, ushbu institutning jinoyat huquqi bilan bog'liq jihatlari Jinoyat kodeksida o'z aksini topishi zarur.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida, ekstraditsiyaning jinoyat-huquqiy tabiatini ifodalovchi quyidagi ta'rifni ilgari surish maqsadga muvofiq, ya'ni: "Ekstraditsiya – xalqaro shartnomalar va milliy qonunchilikka asoslangan huquqiy hamkorlik shakli bo'lib, jinoyat sodir etishda ayblanayotgan yoki sudlangan shaxsni jinoiy ta'qib qilish yoxud tayinlangan jazoni ijro etish uchun, u joylashgan (so'ralayotgan) davlat tomonidan jinoiy yurisdiksiyaga ega bo'lgan (so'rayotgan) davlatga topshirishdir." Ushbu ta'rif ekstraditsiyaning nafaqat "qanday", balki "nima uchun" va "qaysi asoslarga ko'ra" amalga oshirilishini o'zida jamlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining Umumiy qismiga ekstraditsiyaning jinoyat-huquqiy asoslarini belgilovchi mustaqil normalarni kiritish taklif etiladi. Unda ekstraditsiyaning jinoyat-huquqiy asoslari: Ekstraditsiyaning maqsadi, asoslari va shartlari, ushlab berish mumkin bo'lgan jinoyatlar toifasi, ushlab berilgan shaxsning jinoiy javobgarlik chegaralari, o'z fuqarolarini ushlab bermaslikning konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlari, siyosiy boshpana huquqi va xorijiy davlat sudining hukmini tan olish, turli davlatlarning ekstraditsiya masalalari bo'yicha jinoiy yurisdiksiyalar o'rtasidagi raqobat masalalari aniq belgilab berilishi lozim. Ekstraditsiya institutining jinoyat-huquqiy nuqtai nazardan hal qilinishi Jinoyat kodeksi va Jinoyat-protsessual kodeksi o'rtasidagi mantiqiy chegaralarni aniqlashga, ushbu institutni amalda to'g'ri qo'llashga hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro hamjamiyat oldidagi majburiyatlarini samarali bajarishga xizmat qiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Бойцов А.И. Выдача преступников. – СПб.: Издательство Р. Асланова «Юридический центр Пресс», 2004. – 795 с.
2. Алиева М.Н., Азимов Ф.М. Современные проблемы международно-правового регулирования института экстрадиции // Юридический вестник ДГУ. 2025. Т. 54, – № 2 (74). – С. 69-74. DOI: 10.21779/2224-0241 -2025-54-2-69-74.

3. Ўзбекистон юридик энциклопедияси / Нашр учун масъул Р.А.Мухитдинов ва бошқ.: масъул муҳаррир Н.Тойчиев. – Т.: Адолат, 2010. – 704 б.
4. Мионов А.Н. Понятие, признаки и правовая природа экстрадиции // Полицейская и следственная деятельность. – 2025. – № 4. – С. 37-51. DOI: 10.25136/2409-7810.2025.4.75535 EDN: KWUDUD URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=75535
5. Беляев С.А. Основания выдачи лиц, совершивших преступление// Уголовное право. – 2009. – № 2. – С. 2–10.
6. Джигирь А.И. Институт выдачи лиц, совершивших преступление: проблемы уголовно-правовой регламентации. Дисс. ... канд. юрид. наук. – М., 2008. – 189 с.
7. Волженкина В. К вопросу о разработке закона о выдаче (экстрадиции) // Уголовное право. 2002. – №1. – С. 6–9.
8. Sulaymonov O. Fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro huquqiy yordam ko'rsatishning huquqiy asoslari. O'quv-uslubiy qo'llanma. –Toshkent. YUMOM nashriyoti, 2017. – 132 b.
9. Гришин А. С. К вопросу о понятии выдачи лиц в целях осуществления уголовного преследования или исполнения приговора (экстрадиции) // Matters of Russian and International Law. 2014. – № 1-2. – С. 59-68. EDN: SECHPN.
10. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Umumiy qism. T. 1. – Toshkent: «Yuridik adabiyotlar publish», 2024. – 784 b.
11. Коняхин В. Институт экстрадиции: уголовно-правовая регламентация // Законность. – 2005. – № 1. – С. 17-19.
12. Воронин О. В. О понятии, содержании, типах, видах и сложившихся моделях экстрадиции // Уголовная юстиция. – 2018. – № 11. – С. 37-40. DOI: 10.17223/23088451/11/7. EDN: XSNBXN.
13. Сайфулов Р.А. Экстрадиция в уголовном процессе (по материалам МВД и Прокуратуры Республики Узбекистан). Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – Ташкент, 2001. – С. 10.
14. Sulaymonov O. Fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro huquqiy yordam ko'rsatishning huquqiy asoslari. O'quv-uslubiy qo'llanma. –Toshkent. YUMOM nashriyoti, 2017. – 153 b.
15. Сащенко А.И. Институт экстрадиции в уголовном праве // Юридический журнал. – 2009. – № 2. – С. 89-98.

XOLMIRZAYEVA Shoxista Arziqul qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti
E-mail: @xolmirzayeva shoxista.mail.ru

GLOBAL MIGRATSIYA XAVFSIZLIGI: NOQONUNIY MIGRATSIYAGA QARSHI DAVLATLAR HAMKORLIGINING HUQUQIY ASOSLARI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): XOLMIRZAYEVA SH.A.
Global migratsiya xavfsizligi: noqonuniy migratsiyaga qarshi davlatlar hamkorligining huquqiy asoslari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 6 (2025) B. 142–151.



6 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash bo'yicha davlatlararo hamkorlik masalasi zamonaviy global migratsiya jarayonlarining murakkablashuvi va transmilliy xarakter kasb etib borayotgan sharoitda juda ahamiyatlidir. Noqonuniy migratsiya nafaqat chegaraviy xavfsizlikka, balki iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy infratuzilma, demografik o'zgarishlar va inson huquqlari himoyasiga bevosita ta'sir ko'rsatishi bois, unga qarshi kurashda alohida davlatning mustaqil sa'y-harakatlari yetarli emasligi ilmiy jihatdan asoslanadi. Mazkur maqolada davlatlarning noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash sohasidagi hamkorligining xalqaro-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Xususan, BMT, Yevropa Ittifoqi, MDH, SHHT kabi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek ikki tomonlama kelishuvlar samaradorligi ilmiy asosda o'rganiladi. Maqolada global migratsiya jarayonlarining murakkablashuvi, transmilliy jinoyatchilikning kuchayishi va odam savdosi xavfining ortishi sharoitida davlatlar o'rtasidagi tizimli hamkorlik zarurligi tahlil etilgan. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash bo'yicha davlatlararo hamkorlikning nazariy asoslarini, amaliy mexanizmlarini va mintaqaviy tajribalarini tahlil qilishdan iboratdir. Mazkur maqsadni amalga oshirish jarayonida bir qator ilmiy vazifalar ko'zda tutilgan bo'lib, ular jumlasiga Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyalari hamda mintaqaviy kelishuvlarni tahlil qilish, davlatlarning xususan O'zbekiston Respublikasining bu boradagi xalqaro-huquqiy hamkorligi hamda ikki tomonlama shartnomalarini tahlil qilishni maqsad qilgan. Tadqiqotning obykti davlatlarning noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash bo'yicha xalqaro hamkorligining tahlilidan iborat bo'lsa, predmeti xalqaro huquqiy normalar, davlatlar o'rtasidagi kelishuvlardir. Tadqiqotning ilmiy yangiligi xalqaro huquqda mavjud normalar va milliy qonunchilik asosida noqonuniy migratsiya tushunchasiga mualliflik tarifi ishlab chiqilganligi hamda davlatlararo hamkorlikning huquqiy asoslarini takomillashtirishga oid takliflar ilgari surilganligi bilan izohlanadi. Mazkur tadqiqotda tahliliy va qiyosiy metodlardan, geosiyosiy yondashuvdan, barqaror rivojlanish nazariyasidan, xalqaro huquqiy tahlildan hamda empirik tajribaga asoslangan qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Kalit so'zlar: noqonuniy migratsiya, migrant, migratsiya xavfsizligi, transmilliy xavf, chegara xavfsizli, davlatlar hamkorligi, xalqaro-huquqiy mexanizmlar, xalqaro shartnomalar, ikki tomonlama shartnomalar, xalqaro tashkilot, transmilliy jinoyatchilik, odam savdosi, terrorizm, BMT, XMT, IOM, SHHT, mintaqaviy tashkilotlar, readmissiya, chegara boshqaruvi, ma'lumot almashinuvi, elektron nazorat.

ХОЛМИРЗАЕВА ШохистаДокторант Ташкентского государственного
юридического университета

E-mail: @xolmirzayeva shoxista.mail.ru

ГЛОБАЛЬНАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ МИГРАЦИИ: ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОТРУДНИЧЕСТВА ГОСУДАРСТВ В БОРЬБЕ С НЕЗАКОННОЙ МИГРАЦИЕЙ

АННОТАЦИЯ

Вопрос межгосударственного сотрудничества в области борьбы с незаконной миграцией является крайне важным в условиях усложнения современных глобальных миграционных процессов и их транснационального характера. Научно обосновано, что незаконная миграция оказывает прямое влияние не только на пограничную безопасность, но и на экономическую стабильность, социальную инфраструктуру, демографические изменения и защиту прав человека, поэтому автономные действия отдельного государства недостаточны для борьбы с ней. В данной статье анализируются международно-правовые основы сотрудничества государств в сфере борьбы с незаконной миграцией. В частности, научно исследуется эффективность нормативно-правовых актов, принятых международными и региональными организациями, такими как ООН, Европейский Союз, СНГ, ШОС, а также двусторонних соглашений. В статье проанализирована необходимость системного сотрудничества между государствами в условиях усложнения глобальных миграционных процессов, усиления транснациональной преступности и возрастания угрозы торговли людьми. Основная цель данного исследования заключается в анализе теоретических основ, практических механизмов и регионального опыта межгосударственного сотрудничества в борьбе с незаконной миграцией. В процессе реализации данной цели поставлен ряд научных задач, включая анализ Конвенций Организации Объединённых Наций и региональных соглашений, а также международно-правового сотрудничества отдельных государств, в частности Республики Узбекистан, и двусторонних соглашений в этой сфере. Объектом исследования является анализ международного сотрудничества государств в борьбе с незаконной миграцией, а предметом – международно-правовые нормы и соглашения между государствами. Научная новизна исследования объясняется тем, что на основе норм международного права и национального законодательства разработано авторское определение понятия незаконной миграции, а также выдвинуты предложения по совершенствованию правовых основ межгосударственного сотрудничества. В данном исследовании использовались аналитические и сравнительные методы, геополитический подход, теория устойчивого развития, анализ международного права, а также методы сравнительного анализа на основе эмпирического опыта.

Ключевые слова: незаконная миграция, мигрант, безопасность миграции, транснациональная угроза, безопасность границ, сотрудничество государств, международно-правовые механизмы, международные договоры, двусторонние договоры, международная организация, транснациональная преступность, торговля людьми, терроризм, ООН, ЕС, МОМ, ШОС, региональные организации, реадмиссия, управление границами, обмен информацией, электронный контроль.

SHOKHISTA Kholmirezayeva

Doctoral student of Tashkent State University of Law

E-mail: @xolmirzayeva shoxista.mail.ru

GLOBAL MIGRATION SECURITY: LEGAL FOUNDATIONS OF STATE COOPERATION AGAINST ILLEGAL MIGRATION

ANNOTATION

The issue of interstate cooperation in combating illegal migration is highly important in the context of the increasing complexity of contemporary global migration processes and their transnational nature. Illegal migration affects not only border security but also economic stability, social infrastructure, demographic changes, and the protection of human rights. Therefore, scientifically, the independent efforts of a single state are insufficient to combat it. This article analyzes the international legal foundations of state cooperation in the field of combating illegal migration. In particular, it examines the normative-legal documents adopted by international and regional organizations such as the UN, the European Union, the CIS, and the SCO, as well as the effectiveness of bilateral agreements, based on scientific research. The article analyzes the necessity of systematic cooperation between states in the context of the increasing complexity of global migration processes, the rise of transnational crime, and the growing risk of human trafficking. The main goal of this research is to analyze the theoretical foundations, practical mechanisms, and regional experiences of intergovernmental cooperation in combating illegal migration. In the process of achieving this goal, a number of scientific tasks have been set, including analyzing United Nations conventions and regional agreements, as well as examining the international legal cooperation of states, particularly the Republic of Uzbekistan, in this area and their bilateral agreements. While the object of the research is the analysis of international cooperation of states in combating illegal migration, its subject is international legal norms and agreements between states. The scientific novelty of the research is explained by the fact that an author's definition of the concept of illegal migration has been developed based on the existing norms in international law and national legislation, and proposals have been put forward to improve the legal foundations of interstate cooperation. This study used analytical and comparative methods, a geopolitical approach, sustainable development theory, international legal analysis, and comparative analytical methods based on empirical experience.

Keywords: illegal migration, migrant, migration security, transnational threat, border security, interstate cooperation, international legal mechanisms, international agreements, bilateral agreements, international organization, transnational crime, human trafficking, terrorism, UN, EU, IOM, SCO, regional organizations, readmission, border management, information exchange, electronic monitoring.

Zamonaviy xalqaro-huquqiy munosabatlarni tahlil qilish asnosida shuni aytish kerakki, migratsiya sohasida xususan noqonuniy migratsiyani tartibga solishda davlatlarning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, global miqyosda migratsion jarayonlarning keskin faollashuvi, xususan noqonuniy migratsiya oqimlarining ortishi, zamonaviy dunyo xavfsizligida yangi chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, noqonuniy migratsiya nafaqat demografik jarayonlarni izdan chiqaradi, balki mehnat bozori, iqtisodiyot, bandlik, shuningdek transmilliy jinoyatchilikning kuchayishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli davlatlarning ushbu tahdidga qarshi kurashish jarayonida xalqaro-huquqiy mexanizmlar asosidagi hamkorligi global migratsiya boshqaruvida hal qiluvchi omilga aylanmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha 280 milliondan ortiq xalqaro migrantlarning salmoqli qismi hujjatsiz yoki noqonuniy maqomda bo'lishi global xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik, inson huquqlari va davlat boshqaruvi uchun jiddiy xavf tug'dirmoqda [1]. Shu bois davlatlar o'rtasida tizimli hamkorlikni kuchaytirish xalqaro hamjamiyat oldidagi strategik vazifa sifatida qaralmoqda. Mazkur sharoitda noqonuniy

migratsiyaga qarshi kurash faqat alohida davlatlarning ichki choralarigina emas, balki davlatlararo hamkorlikning samarali huquqiy mexanizmlarini shakllantirishni taqozo etadi. Shu jihatdan mazkur tadqiqot mavzusi hozirgi xalqaro huquq rivojlanish bosqichida alohida dolzarblik kasb etadi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi global migratsiya xavfsizligini ta'minlashda noqonuniy migratsiyaga qarshi davlatlar hamkorligining xalqaro-huquqiy asoslarini tahlil qilish, amaldagi xalqaro shartnomalar va institutlar faoliyatini baholash hamda huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tahliliy, qiyosiy-huquqiy, tizimli yondashuv, normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish hamda ilmiy manbalarni umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Noqonuniy migratsiya tushunchasi ilmiy va maxsus adabiyotlarda turlicha ifodalangani bois hozirgacha uning yagona ta'rifi mavjud emas. Xususan, bir guruh olimlar tahlil qilinayotgan muammoni tushuntirishda "Qonunga xilof migratsiya" atamasini ishlatib, boshqalari "nolegal migratsiya" tushunchasidan foydalanishadi. Uchinchi guruh mualliflar esa "jinoiy migratsiya" atamasidan foydalanadi [1.2]. Bu masalada mualliflar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan atama bu qonunga xilof migratsiya tushunchasi bo'lib, ushbu masalani o'rgangan huquqshunos olim A.N.Shkilev qonunga xilof migratsiya tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi. "Qonunga xilof migratsiya deganda aholining jismoniy makonda ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy-siyosiy va milliy, demografik omillar ta'sirida xalqaro huquqning umumiy normalari va milliy qonunchilik talablarini buzgan holda hududiy ko'chishi tushuniladi" [2]. Shuningdek, mazkur masalada E.X. Kaxbulaeva "Qonunga xilof migratsiya – bu amaldagi xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalarini buzuvchi milliy xavfsizlik va butun xalqaro hamjamiyatga xavf soluvchi ijtimoiy xavfli jadal rivojlanayotgan jarayon sifatida tavsiflaydi" [3]. M.I.Barannikning fikricha, noqonuniy migratsiya – shaxsning o'zga mamlakatga borishi yoki yashash manzilini tark etishi, o'z hududidagi xorijiy fuqarolarni noqonuniy yo'l bilan kiritish, tranzit qilish va qonunga xilof ravishda boshqa mamlakatga chiqishi bilan bog'liq jarayon sifatida ta'riflaydi [4]. Professor V.N.Sumarakov esa, shaxsni chet elga chiqishi va ikkinchi mamlakat hududida bo'lishi qonuniy asoslarda vujudga kelsada biroq uning mamlakatga qonunga xilof ravishda kirishi ham noqonuniy migratsiya sifatida baholagan [5]. Olimlarning fikrlarini davom ettirgan holda G.Ye.Dudin va S.V.Kalininalar umumiy ma'noda qonunga xilof migratsiyani mamlakatga kirish va uning hududida bo'lish qoidalarini buzgan holda davlat hududidagi har qanday harakatlanish tarzida ifodalagan [6]. Yana bir olim A.Fedaroka "Qonunga xilof migratsiya" tushunchasini bu muayyan mamlakat hududida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning kirishi, tranzit o'tishi, bo'lishi va undan chiqishi bo'yicha o'rnatilgan tartibni buzgan holda harakatlanishini natijasida kelib chiqadigan migratsiya sifatida ta'riflagan [7]. Qo'shimcha qilib, ushbu muammoni o'rgangan A.V.Suxamikova shaxsni noqonuniy migrant deb hisoblash uchun 1) xorijiy davlat hududiga belgilangan chegara – nazorat o'tkazish punktlarini buzgan holda kirgan; 2) amaldagi immigratsiya qoidalarini buzgan holda mamlakat hududida yashagan; 3) noqonuniy yo'llar bilan mamlakat hududiga kirgan shaxslar doirasi tushunilishi bildirgan. Tadqiqotchi B.I.Egamberdiyevning fikriga ko'ra noqonuniy migratsiya O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan Respublika hududiga kirish, bo'lish va undan chiqish yoxud O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o'tish tartiblarini buzgan holda harakatlanishi sifatida ta'riflagan [8]. Yuqoridagi ta'riflarga qo'shilgan va ularni umumlashtirgan holda noqonuniy migratsiyaga – muayyan davlat hududiga belgilangan tartiblarga zid ravishda kirish, unda noqonuniy ravishda yashash yoki qonuniy talablarga muvofiq bo'lmagan holda mehnat faoliyatini amalga oshirish deya ta'rif berishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero, noqonuniy migratsiya tushunchasi o'zida noqonuniy kirish, noqonuniy mamlakat hududida bo'lish va noqonuniy faoliyatni amalga oshirish tushunchalarini birlashtiradi

hamda uning ijtimoiy xavfliligi davlatlarning milliy xavfsizligiga, iqtisodiy barqarorligiga, ijtimoiy tizimlariga va demografik holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi bilan izohlanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, noqonuniy migratsiya deganda, shaxslarning tegishli davlat qonunchiligini buzgan holda boshqa davlat hududiga kirishi, u yerda yashashi yoki mehnat faoliyatini amalga oshirishi tushuniladi.

Shu o'rinda endi noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash bo'yicha davlatlar hamkorligining xalqaro-huquqiy asoslari hamda institutsional asoslariga to'xtalsak. Aytish o'rinliki, xalqaro huquqda noqonuniy migratsiyani tartibga solishga qaratilgan yagona muvofiqlashtirilgan xalqaro tashkilot mavjud emas. Bu esa o'z navbatida mazkur sohada yagona muvofiqlashtirilgan xalqaro tashkilot tuzish zaruriyatini ko'rsatadi. Xususan, hozirgi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) xalqaro doirada ushbu jarayonni xalqaro miqyosda tartibga solish, noqonuniy migratsiya oqibatlarini kamaytirish va migrantlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha muhim tashabbuslarni ilgari surib kelmoqda.

BMT doirasida noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish inson huquqlarini himoya qilish, transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurash va barqaror rivojlanishni ta'minlash bilan chambarchas bog'langan. Tashkilotning asosiy huquqiy asoslari quyidagilardan iborat:

- Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi BMT konvensiyasi (Palermo konvensiyasi, 2000-yil);
- Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risidagi qo'shimcha protokol (2000-yil);
- Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasini

to'ldiruvchi migrantlarni quruqlik, dengiz va havo orqali noqonuniy olib kirishga qarshi Bayonnomasi (2000-yil 15-noyabr).

Xalqaro mehnat migratsiyasi to'g'risidagi 1990-yilgi "Barcha mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi konvensiya hisoblanadi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan agentliklari noqonuniy migratsiyaga qarshi ko'p tomonlama mexanizmlarni shakllantiruvchi asosiy institutlar qatoriga kiradi. BMTning Global Migratsiya Paktida "tartibli, xavfsiz va qonuniy migratsiyani ta'minlash" ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lib, bu hujjat global institutsional yondashuvning ustuvor tamoyillarini yoritadi. BMT narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) transmilliy jinoyatlar, jumladan odam savdosi va noqonuniy migrant tashuvchi guruhlariga qarshi kurashda markaziy institutlaridan biridir. Ushbu tashkilot davlatlar uchun qo'shma operatsiyalar, tergovlarni muvofiqlashtirish, o'quv dasturlari va monitoring mexanizmlarini taklif qiladi.

O'zbekiston Respublikasi noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishda xalqaro hamjamiyat bilan faol hamkorlik qilmoqda. Bu borada quyidagilarni alohida qayd etish mumkin: Xalqaro darajada noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishning bosh koordinatori sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) faoliyat yuritadi. BMTning 2000-yil 15-noyabrda qabul qilingan "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiyasi" va uning "Insonlarni, ayniqsa ayollar va bolalarni noqonuniy tarzda olib o'tishga qarshi qo'shimcha protokollari" bu borada asosiy xalqaro-huquqiy tayanch hisoblanadi. Noqonuniy migratsiya zamonaviy xalqaro munosabatlarda inson xavfsizligi, milliy suverenitet va ijtimoiy barqarorlikka tahdid soluvchi murakkab transmilliy hodisa sifatida e'tirof etiladi. Ushbu jarayonni boshqarish va unga qarshi kurashish borasida xalqaro hamkorlikning eng yirik maydoni — bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi ham ushbu tizim doirasida faol ishtirok etib, migratsiya siyosatini xalqaro huquqiy tamoyillar bilan uyg'unlashtirish yo'lida izchil siyosat yuritib kelmoqda.

O'zbekiston xalqaro migratsiya sohasida BMTning quyidagi institutlari va dasturlari bilan faol hamkorlik qiladi.

1. BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi (BMTQOKB) majburiy migratsiya sohasidagi markaziy tashkilot hisoblanadi. Mazkur tashkilotning vujudga kelish tarixiga to'xtalsak, dastlab 1947-yilda Qochoqlar ishlari bo'yicha Xalqaro tashkilot tashkil etilgan. 1949-yil dekabrda BMT nizomining 22-moddasiga asosan BMT Bosh Assambleyasining 1950-yil 14-dekabrda 319[IV]-rezolyutsiyasi bilan Bosh Assambleyaning yordamchi organi sifatida Qochoqlar ishlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi tashkil etildi BMTning Qochoqlar masalalari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi vazifasiga butun dunyoda qochqinlarni himoya qilish va ularning muammolarini hal etishni muvofiqlashtirish kiradi. Mazkur boshqarmaning vakolati qochoqlarni himoya qilish va ularni muvofiqlashtirish, o'z vataniga qaytarish va jamiyatga moslashtirish orqali uzoq muddatli yechimlarni izlashdan iborat. O'zbekiston mintaqada majburiy migratsiya oqimlarini monitoring qilish va muhojirlarni huquqiy himoya qilish bo'yicha qo'shma loyihalarda hamkorlikni amalga oshiradi [9];

Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (IOM) – 1951-yilda Yevropaga muhojirlarni ko'chirishga doir muvaqqat hukumatlararo tashkilot sifatida migratsiya sohasida insonparvar va tartibli migratsiyadan migrantlar ham jamiyat ham foyda ko'rish haqidagi asosiy qoidaga asoslanib ish ko'radi. Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMT) insonparvar va tartibli migratsiya migrantlarga ham, jamiyatga ham foyda keltiradi, degan prinsipga amal qiladi. XMT migratsiya bo'yicha yetakchi xalqaro tashkilot sifatida xalqaro hamjamiyatdagi barcha sheriklar bilan hamkorlik qiladi. Tashkilotning rasmiy sayti ma'lumotlariga ko'ra 2024-yil 13- dekabr xolatiga ko'ra 175 ta davlat, jumladan O'zbekiston ham tashkilot a'zosi hisoblanadi. Noqonuniy migratsiya, odam savdosi va xavfli migratsiya yo'nalishlariga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston bilan 2003-yildan buyon hamkorlik qiladi.

BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (inglizcha: United Nations Development Programme, qisqartmasi UNDP) bu BMTning kambag'allikni yo'qotish, barqaror iqtisodiy o'sish va insoniy taraqqiyotga erishishda mamlakatlarga yordam berishga mas'ul bo'lgan agentligi hisoblanadi. O'zbekiston hukumati bilan birgalikda "Migratsiya boshqaruvi va mehnat resurslari mobilizatsiyasi" dasturini amalga oshiradi.

BMTning Narkotiklar va jinoyatchilikka qarshi kurash boshqarmasi (UNODC) – narkotiklar va xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashda dunyodagi yetakchi tuzilma hisoblanadi. UNODC joylardagi bo'limlarining keng tarmog'i orqali dunyoning barcha mintaqalarida faoliyat ko'rsatmoqda. Transmilliy jinoyatchilik, noqonuniy migratsiya va odam savdosiga qarshi qo'shma treninglar, seminarlar va texnik yordam dasturlarini olib boradi. Xalqaro konvensiya va BMTning rezolyutsiyalariga binoan, BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkilotining asosiy maqsadlari bu – a'zo davlatlarda narkotik moddalarni nazorat qilish, transmilliy jinoyatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi konvensiyalarning bajarilishiga ko'maklashish, shuningdek jinoiy sud jarayonlarini isloh qilish, terrorizm va odam savdosi kabi illatlarni oldini olishdan iborat. BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkilotining mintaqaviy vakolatxonasi Markaziy Osiyo davlatlariga noqonuniy giyohvand moddalarining savdosi va iste'molini kamaytirish, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, shuningdek terrorizmga aloqador jinoyatlarga jazo berish va terrorizm haqida ogohlikka chaqirish sohasida ko'maklashib kelmoqda. Ushbu tashkilotning mintaqaviy vakolatxonasi Toshkent shahrida joylashgan bo'lib, uning mintaqaviy ofislari Bishkek (Qirg'iziston), Dushanbe (Tojikiston), Ashxobod (Turkmaniston), Ostona va Olma-Ota (Qozog'iston), shuningdek Boku (Ozarbayjon) shaharlarida ham mavjuddir. BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkilotining mintaqaviy vakolatxonasi noqonuniy giyohvand moddalar aylanishi, jinoyatchilik, giyohvand moddalar savdosi, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashga yo'naltirilgan loyihalarni amalga oshirish yo'li bilan aholi, ayniqsa yoshlar salomatligini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha masalalarni hal etishda O'zbekistonda 1993-yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda [10].

O'zbekiston BMT bilan hamkorlikda so'nggi yillarda quyidagi amaliy yutuqlarga erishdi:

1. 2018-yilda Global migratsiya paktini qo'llab-quvvatlash bayonotiga qo'shildi;
2. 2020–2024-yillar uchun IOM bilan hamkorlik dasturi doirasida “Xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiya” loyihasi amalga oshirildi;

3. Odam savdosiga qarshi kurashish milliy komissiyasi faoliyati BMTning xalqaro standartlariga moslashtirildi [11].

4. 2022-yilda Toshkentda BMT va IOMning Markaziy Osiyo migratsiya bo'yicha mintaqaviy forumi o'tkazilib, migratsiya xavfsizligi sohasida hamkorlikni chuqurlashtirishga xizmat qildi.

BMT doirasida hamkorlikning ijobiy natijalariga qaramay, ayrim muammolar saqlanib qolmoqda:

Birinchidan, migratsiya jarayonlari bo'yicha milliy statistik tizimlarning BMT standartlariga to'liq mos emasligi;

Ikkinchidan, noqonuniy migratsiya oqimlarini chegaralangan texnik imkoniyatlar sababli samarali nazorat qila olmaslik;

Uchinchidan, ayrim xalqaro majburiyatlarning milliy qonunchilikka to'liq integratsiya qilinmaganligidir. Xususan, kelgusida O'zbekiston quyidagi yo'nalishlarda hamkorlikni yanada kengaytirishni rejalashtirmoqda:

BMT doirasida mintaqaviy migratsiya monitoring markazini tashkil etish.

2018 yil 19-dekabrda BMT tomonidan qabul qilingan Xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiya to'g'risidagi shartnoma (Migratsiya to'g'risidagi Marokash shartnomasi deb ham ataladi) ga muvofiq kompleks yondashuvni ishlab chiqish zarur.

O'zbekistonning BMT bilan noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishdagi hamkorligi xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish va migratsiya jarayonlarini tartibga solishda muhim o'rin tutadi. Bu hamkorlik nafaqat milliy migratsiya siyosatini xalqaro standartlarga moslashtirish, balki Markaziy Osiyoda barqaror va xavfsiz migratsiya tizimini shakllantirish uchun ham mustahkam zamin yaratmoqda. Shuningdek, BMT tarkibidagi Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM) migratsiyani tartibga solish, noqonuniy migratsiyani kamaytirish, qayta integratsiya dasturlarini amalga oshirish bilan shug'ullanadi. 2016-yildan boshlab IOM BMT tizimining to'laqonli a'zosi sifatida migratsiya masalalarida institutsional muvofiqlashtiruvchi rolni bajaradi BMT doirasida O'zbekiston BMTning odam savdosi, migratsiya va inson huquqlari bo'yicha qator xalqaro konvensiyalariga qo'shilgan. Jumladan, 2003-yilda Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiya va uning Odam savdosiga qarshi qo'shimcha protokolini ratifikatsiya qilgan.

O'zbekiston XMTning asosiy konvensiyalarini ratifikatsiya qilgan, lekin hozircha Migrant ishchilar to'g'risidagi 143-sonli Konvensiyani ratifikatsiya qilmagan. Shu bilan birga, migrantlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy strategiyalar ishlab chiqmoqda. MDH doirasida O'zbekiston MDH davlatlari bilan noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish bo'yicha kelishuvlar asosida hamkorlik qiladi. Bu hamkorlik chegaralarni qo'riqlash, ma'lumot almashish va qo'shma operatsiyalar o'tkazishni nazarda tutadi.

Shu o'rinda endi biz O'zbekiston Respublikasining noqonuniy migratsiya sohasidagi qonunchiligi va xalqaro hamkorligi xususida to'xtalib o'tamiz. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng migratsiya jarayonlarini huquqiy tartibga solish hamda noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish masalasini davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgiladi. Qonunchilikda ushbu masalaga oid asosiy normalar quyidagilarda o'z aksini topgan:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – unda shaxsning erkin harakatlanish huquqi, shuningdek, mamlakat xavfsizligini ta'minlash doirasida cheklovlar qo'yish imkoniyati mustahkamlangan;

- “Aholini ro'yxatga olish to'g'risida”gi qonun (2020-yil) – migratsiya oqimlarini nazorat qilish va statistik ma'lumotlarni yig'ish imkonini beradi;

• “O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish va berish tizimini yaratish hamda O‘zbekiston Respublikasi biometrik pasport tizimini modernizatsiya qilishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4079-sonli Prezident Farmoni va unga doir Nizom – fuqarolarning tashqi migratsiyasi tartibini belgilaydi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi hamda Jinoyat kodeksi – noqonuniy migratsiya, noqonuniy chegaradan o‘tish, odam savdosi, hujjatlarni qalbakilashtirish kabi huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni nazarda tutadi. Yana qo‘shimcha qiladigan bo‘lsak, “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun (2008-yil, yangi tahriri 2020-yilda) – noqonuniy migratsiya bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi kurashishda muhim huquqiy asos hisoblanadi. So‘nggi yillarda hukumat noqonuniy migratsiyani kamaytirish, mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilish, shuningdek, fuqarolarning chet elda qonuniy ishlashi uchun sharoit yaratishga oid qaror va farmonlarni qabul qilmoqda. Masalan, “Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston fuqarolarini qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori ham bu boradagi muhim xalqaro hujjat hisoblanadi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishda ikki tomonlama shartnomalar muhim rol o‘ynaydi. Bunday shartnomalar ikki davlat o‘rtasidagi jarayonlarni batafsil tartibga soladi. Chunki, mazkur turdagi shartnomalar boshqa davlat fuqarolarining o‘zga mamlakatga kirish, unda bo‘lish va chiqish tartibini belgilaydi. Ya‘ni, mazkur jarayonning huquqiy asosi hisoblanadi. Xususan, O‘zbekistonning migratsiya sohasidagi ikki tomonlama shartnomalari xalqaro huquqning asosiy tamoyillari – davlat suvereniteti, inson huquqlarini hurmat qilish va o‘zaro manfaatdorlik prinsiplari asosida shakllangan. Bunday hujjatlar, asosan, quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- Fuqarolarning qonuniy migratsiyasini tartibga solish;
- Noqonuniy migratsiya va odam savdosiga qarshi kurashish;
- Deportatsiya va qaytarish (readmissiya) tartibini belgilash;
- Mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilish.

Axborot almashinuvi va qo‘shma nazorat tizimlarini yo‘lga qo‘yish. O‘zbekiston Rossiya, Qozog‘iston, Janubiy Koreya, BAA va boshqa davlatlar bilan mehnat migrantlarini qonuniylashtirish hamda noqonuniy migratsiyaning oldini olish bo‘yicha bitimlar tuzgan.

2007-yilda O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Rossiya Federatsiyasi hukumati o‘rtasida imzolangan 2008-yil 25-oktabrda kuchga kirgan Readmissiya to‘g‘risidagi (<http://lex.uz/docs/-1466223>) bitim ikkala davlat o‘rtasidagi totuvlik, hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish uchun, shuningdek turli xil sohalarda, jumladan noqonuniy migratsiya va transchegaraviy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida hamkorlikni rivojlantirish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi. Mazkur bitim bilan tomonlar o‘rtasida xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning kirib kelishi va istiqomat qilishi to‘g‘risidagi amaldagi qoidalarni buzgan holda ularning davlatlari hududida bo‘lgan shaxslarni qaytarish, qabul qilish va o‘tkazish tartiblarini belgilovchi kelishilgan prinsiplar va normalar, migratsiya jarayonlarini tartibga solishning muhim tarkibiy qismi, noqonuniy migratsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid masalalar huquqiy jihatdan tartibga solindi.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Qozog‘iston Respublikasi hukumati o‘rtasida noqonuniy migratsiya sohasida Noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishda hamkorlik to‘g‘risidagi bitim (<http://lex.uz/docs/-4803344>) 2020-yil 22-mayda kuchga kirgan bo‘lib, u Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart To‘qayevning 2019-yil 15-aprel kuni O‘zbekistonga davlat tashrifi doirasida imzolangan. Hujjat noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish, ikki davlatning hududida noqonuniy bo‘lib, turgan shaxslarni aniqlash va ro‘yxatga olish bo‘yicha hamkorlikni nazarda tutadi.

Qayd etilgan Bitim doirasidagi hamkorlik manfaatdor tomonning yordam ko'rsatish to'g'risidagi so'rovnomalari asosida amalga oshiriladi. Bitimda, shuningdek, noqonuniy migratsiyaga qarshi samarali kurashish maqsadida ma'lumot va tajriba almashish, tomonlar xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish hamda qo'shma tezkor profilaktik tadbirlarni tashkil etish ham nazarda tutilgan.

O'zbekiston va Ozarbayjon Respublikasi hukumatlari o'rtasida ikki tomonlama noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asosini yaratish maqsadida Noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishda hamkorlik to'g'risida (<http://lex.uz/docs/-6421982>) bitim imzolangan. Mazkur bitimga muvofiq tomonlar noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishda ikki tomonlama hamkorlikning huquqiy asosini yaratish, noqonuniy migratsiya va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etishda xalqaro hamkorlikning muhim o'rnini e'tirof etgan holda noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qo'shma choralarni amalga oshirishni kelishib olganlar.

O'zbekistonning migratsiya sohasida davlatlar bilan ikki tomonlama shartnomalarini ahamiyati xususida shuni aytish kerakki, O'zbekistonning noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ikki tomonlama shartnomalari mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, fuqarolarning huquqiy himoyasini ta'minlash va migratsiya jarayonlarini qonuniylashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hujjatlar O'zbekistonning xalqaro migratsiya siyosatini izchil, barqaror va xalqaro huquq tamoyillariga mos tarzda shakllantirishga xizmat qilmoqda. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev 18-noyabr kuni tashqi mehnat migratsiyasi tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan masalalarni ko'rib chiqdi. Ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda migratsiya tizimidagi islohotlar samara berib, garchi xorijda ishlayotgan fuqarolar soni kamaygan bo'lsa-da, ularning O'zbekistonga yuborgan pul o'tkazmalari 2016-yilga nisbatan qariyb 4 barobar oshib, 2025-yilning o'n oyi yakunida 15,8 milliard dollarga yetgan. Biroq, xorijiy mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan 140 mingdan ortiq bo'sh ish o'rinlariga munosib til va kasbiy malakaga ega mutaxassislarini tayyorlashda hali ishlar ko'pligi qayd etildi. Shuningdek, xizmatlarning tarqoqligi sababli fuqarolar ovoragarchilikka duch kelayotgani ta'kidlandi. Ushbu muammolarni hal etish maqsadida, barcha migratsiya xizmatlarini "yagona darcha" tamoyili asosida birlashtirish vazifasi qo'yildi. Amaliy qadam sifatida, Toshkentning Uchtepa tumanida "Xorijga ishga tayyorlash markazi", Termiz shahrida esa "Yagona migratsiya xizmatlari" Markazi tashkil etiladi. Yevropa mamlakatlariga migratsiya oqimi 4 barobar ko'payganini inobatga olib, Germaniya va Yaponiya kabi davlatlar bilan hamkorlikda til o'qitish maktablari ochish rejalashtirilmoqda. Shu bilan birga, fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirish uchun Yevropa davlatlari bilan hukumatlararo kelishuvlarni imzolashni jadallashtirish bo'yicha topshiriq berildi. Shuningdek, taqdimotda migratsiya xizmatlarini raqamlashtirishni chuqurlashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Hozirda "Xorijda ish" platformasi orqali 25 turdagi xizmatlar ko'rsatilib, 2025-yil boshidan 524 ming fuqaro onlayn xizmatlardan foydalangan. Prezident sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarini joriy etish, biometrik identifikatsiya, xorijdagi ish o'rinlarini real vaqt rejimida kuzatishni yo'lga qo'yish zarurligini ta'kidladi. Shuningdek, noqonuniy migratsiya va firibgarlik holatlariga qarshi kurashish maqsadida, litsenziyasiz konsalting tashkilotlari uchun jarimalarni oshirish va Jinoyat kodeksiga yangi javobgarlik kiritish masalasi o'rganilishi belgilandi [12]. Amalga oshirilishi belgilangan ushbu islohotlar o'z navbatida migratsiya jarayonlarini yanada qulay, xavfsiz va shaffof qilishni ta'minlashi, shubhasiz, albatta.

Global miqyosda migratsiya jarayonlarining jadallashuvi, ayniqsa noqonuniy migratsiya oqimlarining ortib borishi davlatlar oldiga yangi xavfsizlik, boshqaruv va inson huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq murakkab vazifalarni qo'yimoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda davlatlarning noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash bo'yicha hamkorligi mustahkam xalqaro-huquqiy asoslar bilan ta'minlangandagina samarali natija berishi mumkin.

BMT, Yevropa Ittifoqi, MDH, SHHT kabi mintaqaviy va global darajadagi tuzilmalar tomonidan qabul qilingan konvensiyalar, deklaratsiyalar va ko'p tomonlama kelishuvlar davlatlar o'rtasida axborot almashinuvi, birgalikda chegara nazorati, jinoyatchilikka qarshi kurash, inson savdosini oldini olish va migratsiya boshqaruvini takomillashtirish mexanizmlarini belgilab bermoqda.

Shu bilan birga, tadqiqot muammoli jihatlariga ham e'tibor qaratadi. Mavjud xalqaro normalarning ko'pligi va rang-barangligi ularni amaliyotga tatbiq etishda murakkabliklar tug'dirayotgani, ayrim mintaqalarda migratsiya bo'yicha bir xil yondashuvlarning yo'qligi, davlatlar manfaatlarining turlicha bo'lishi hamkorlik samaradorligiga to'sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va biometrik tizimlarning migratsiya boshqaruvida keng qo'llanilishi yangi huquqiy ehtiyojlar va mas'uliyatni yuzaga keltirmoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, global migratsiya xavfsizligini ta'minlash uchun davlatlar o'rtasida uyg'unlashtirilgan, majburiy kuchga ega bo'lgan va zamonaviy sharoitlarga moslashtirilgan xalqaro-huquqiy mexanizmlarni shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega. Noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashda hamkorlikni kuchaytirish faqat xavfsizlikni mustahkamlash bilangina cheklanmay, balki inson huquqlarini himoya qilish, barqaror rivojlanish va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli, global migratsiya xavfsizligi masalasida davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasida o'zaro ishonch, birgalikdagi majburiyat va integratsiyalashgan huquqiy yondashuvlar kelajakdagi muvaffaqiyat kaliti bo'lib qoladi.

Iqtiboslar/Snoski/References:

1. Qonunga xilof migratsiyaga qarshi kurashish: huquqiy tartibga solish va javobgarlik muammolari: Monografiya./ A.A.Otajanov. – T.: Impress media, -2025. 160-b.
2. Шкилев А.Н. Миграция уголовна – правовые и криминологические аспекты. Автореферат дисс.... канд. юрид. наук. – Нижний Новгород. 2006. – С12.
3. Кахбулаева Э. Х. Уголовна – правовые и криминологические аспекты организации незаконной миграции. Автореферат дисс.... канд. юрид. наук. – Ростов на Дону. 2011. – С 14.
4. Баранник М.И. Криминологические и правовые проблемы борьбы с незаконной миграцией. Владивостокский центр по изучению организованной преступности. – Владивосток, 2002. – С-3.
5. Сумароков В.Н. Нелегальная миграция как угроза национальной безопасности российской федерации: понятие, содержание, причины возникновения, направления противодействия // Transport Business in Russia., №1 2014. – С.-90.
6. Дудин Г.Э. Калилина С.В. Операция // «Нелегальный мигрант» // Миграционное право. -2013. № 2-С-24-29.
7. Федерико А. Миграция населения: понятие, причины, последствия. // Журнал международного права и международных отношений. -2012. №4. С.6.
8. Egamberdiyev B.I.: Ichki ishlar organlarining migratsiya jarayonlariga doir faoliyatini takomillashtirish. Avto. diss. ... yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy). Toshkent, 2021. Xalqaro migratsiya huquqi [Matn]: O'quv qo'llanma/Jurabek Rasulov.-T:TDYU nashriyoti, 2025. -53- bet.
9. O'zbekiston Respublikasining BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkiloti (UNODC) bilan o'zaro hamkorlik munosabatlari. <https://qalampir.uz/uz/news-34055>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2023 yildagi "Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat tamoyillarini keng joriy etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-210-son Farmoni.
11. Mehnat migratsiyasi sohasidagi vazifalar va rejalar taqdimot qilindi. 18.11.2025. // <https://president.uz/oz/lists/view/8687>.

ESHONQULOV Azimjon Azamatovich
O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti o'qituvchisi
E-mail: azimkhon.uz@gmail.com

AVTOTRANSPORT LOGISTIKA SOHASIDA MANFAATLAR TO'QNASHUVINI BOSHQARISH MASALALARI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): ESHONQULOV A.A.
Avtotransport logistika sohasida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish masalalari // Yurist
axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 6 (2025) B. 152–159.



6 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekistonning avtotransport-logistika sohasida manfaatlar to'qnashuvini boshqarishning huquqiy va institutsional jihatlarini tizimli ravishda tahlil qilinadi. Mavzu davlat boshqaruvi va avtotransport sohasida shaffoflik, halollik hamda korrupsiyaning oldini olish masalalari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ayniqsa litsenziyalash, ruxsatnoma berish va nazorat-inspeksiya faoliyatida yuzaga keladigan huquqiy xatarlarni ochib beradi. Ishning asosiy maqsadi – avtotransport logistika sohasida manfaatlar to'qnashuvi paydo bo'lishiga sabab bo'layotgan omillarni aniqlash, amaldagi qonunchilikni baholash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Maqolada 2024-yilda qabul qilingan "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun normalari avtotransport sohasi misolida tahlil qilinib, transport nazorati inspeksiyasi faoliyatidagi potensial manfaatdorlik holatlari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi, AQSH va Janubiy Koreya tajribasi asosida manfaatlar to'qnashuvini boshqarishning samarali mexanizmlari o'rganilgan. Tadqiqot natijasida litsenziyalash va nazorat jarayonlarini raqamlashtirish, manfaatdorlik deklaratsiyalarini joriy etish, mustaqil va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish avtotransport logistikasi sohasidagi manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan. Ishning ilmiy yangiligi shundaki, manfaatlar to'qnashuvi muammosi ilk bor O'zbekiston avtotransport logistika sohasi kontekstida kompleks huquqiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: manfaatlar to'qnashuvi, avtotransport logistika, transport nazorati, litsenziyalash, ruxsatnomalar, korrupsiyaning oldini olish, davlat xizmati, shaffoflik, raqamlashtirish, jamoatchilik nazorati.

ЭШОНКУЛОВ Азимжон Азаматович
Преподаватель Института переподготовки и
Повышения квалификации юридических
кадров при Министерстве юстиции
Республики Узбекистан
E-mail: azimkhon.uz@gmail.com

ВОПРОСЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНФЛИКТОМ ИНТЕРЕСОВ В СФЕРЕ АВТОТРАНСПОРТНОЙ ЛОГИСТИКИ

АННОТАЦИЯ

В статье проводится комплексный анализ правовых и институциональных аспектов управления конфликтом интересов в сфере автотранспортной логистики Республики Узбекистан. Рассматриваемая тема имеет особую актуальность в контексте повышения прозрачности государственного управления, обеспечения добросовестности должностных лиц и предупреждения коррупционных правонарушений в транспортной отрасли. Основная цель работы заключается в выявлении

факторов, способствующих возникновению конфликта интересов в сфере автотранспортной логистики, оценке действующего законодательства и разработке научно-практических предложений по их устранению. В статье анализируются положения Закона Республики Узбекистан «О конфликте интересов» 2024 года применительно к деятельности органов автотранспортного контроля. Особое внимание уделено функциям Транспортной инспекции и рискам совмещения регуляторных и контрольных полномочий. На основе сравнительного анализа опыта Европейского союза, США и Республики Корея обоснована необходимость институциональной независимости контрольных органов, внедрения обязательного декларирования интересов и цифровизации административных процедур. В результате исследования обосновано, что цифровизация процессов лицензирования и контроля, внедрение деклараций об интересах, усиление независимого и общественного контроля имеют важное значение в предотвращении правонарушений, связанных с конфликтом интересов в сфере автотранспортной логистики. Научная новизна работы заключается в том, что впервые проводится комплексный правовой анализ проблемы конфликта интересов в контексте автотранспортно-логистической отрасли Узбекистана.

Ключевые слова: конфликт интересов, автотранспортная логистика, транспортный контроль, лицензирование, разрешительная система, противодействие коррупции, государственная служба, прозрачность, цифровизация, общественный контроль.

AZIMJON Azamatovich Eshonkulov

Lecturer at Training Institute for Lawyers
under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan
E-mail: azimkhon.uz@gmail.com

ISSUES OF MANAGING CONFLICTS OF INTEREST IN THE AUTOMOTIVE LOGISTICS SECTOR

ANNOTATION

This article systematically analyzes the legal and institutional aspects of conflicts of interest management in the automotive logistics sector of Uzbekistan. The topic is directly related to issues of transparency, integrity, and corruption prevention in public administration and motor transport, particularly revealing legal risks arising in licensing, permit issuance, and control and inspection activities. The main objective of the work is to identify factors causing conflicts of interest in the automotive logistics field, assess current legislation, and develop scientific and practical proposals for their elimination. The article analyzes the provisions of the Law "On Conflict of Interest," adopted in 2024, using the motor transport sector as an example, and highlights instances of potential conflicts of interest in transport control inspection activities. Additionally, effective mechanisms for managing conflicts of interest were studied based on the experiences of the European Union, the USA, and South Korea. The research findings substantiate that digitalization of licensing and control processes, implementation of declarations of interest, and strengthening of independent and public oversight play a crucial role in preventing violations related to conflicts of interest in the field of automotive logistics. The scientific novelty of this work lies in the fact that, for the first time, the problem of conflict of interest is comprehensively analyzed in the context of Uzbekistan's automotive logistics industry.

Keywords: conflicts of interest, automotive logistics, transport regulation, licensing system, permits, anti-corruption measures, public service, transparency, digital governance, public oversight.

Avtotransport logistika sohasi iqtisodiyotning muhim tarmoqlari bo'lib, ushbu sohada davlat boshqaruvi va tartibga solish jarayonlarining shaffofligi alohida ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda manfaatlar to'qnashuviga oid masalalarga e'tibor yanada kuchaydi – xususan, davlat xizmatchilarining xizmat vakolatlarini shaxsiy yoki sheriklarning manfaatlari yo'lida suiiste'mol qilishi xavfini bartaraf etish dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda. 2024-yilda kuchga kirgan "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun aynan shu maqsadda qabul qilinib, davlat organlari

faoliyatida ochiqlik va halollikni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu qonunda manfaatlar to'qnashuvi atamasiga aniq ta'rif berilib, "shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat" sifatida tushuntiriladi [1]. Demak, mansabdor shaxs xizmat burchini halol va xolis bajarishi uchun uning shaxsiy manfaatlari bilan xizmat manfaatlari o'rtasida ana shunday to'qnashuvlar bo'lmasligi lozim.

Qonunda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun davlat xizmatchilariga qator cheklovlar belgilangan. Jumladan, mansabdor shaxsga o'z xizmat mavqeidan shaxsiy naf olishga intilish, manfaatlar to'qnashuvi haqida ma'lumotni yashirish, o'ziga bo'ysunuvchi yoki o'zi nazorat qiluvchi tashkilotlarda o'rindoshlik asosida ishlash taqiqlanadi. Shuningdek, davlat xizmatchisi o'zi ishlayotgan davlat organi nazoratidagi tijorat tashkilotining muassisi bo'lishi, bunday tashkilotlarda ulush yoki aksiyalarga ega bo'lishi ham qat'iyon man etiladi. Mazkur cheklovlar orqali qonun xodimning shaxsiy biznes manfaatlari davlat xizmati manfaatlari bilan aralashib ketmasligini kafolatlashga intiladi. Bu normalar ayniqsa avtotransport logistikasi kabi sohada ham muhimdir, chunki transport nazorati idoralarida ishlovchi mansabdor shaxslar ko'pincha xususiy tashuvchilar bilan bevosita ishlaydi yoki qarorlar qabul qiladi. Agar bunday xodimlar bevosita yoki bilvosita transport kompaniyalariga aloqador bo'lsa, qarorlar xolisligiga putur yetishi mumkin.

Transport nazorati organlari – bu transport sohasida belgilangan qoidalarga rioya qilinishini nazorat qiluvchi ijroiya organlaridir. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzurida 2023-yilda tashkil etilgan Transport nazorati inspeksiyasi ana shunday organdir [2]. Ushbu inspeksiya avtomobil, temiryo'l, havo va suv transporti hamda yo'l xo'jaligi sohalarida davlat nazorati funksiyalarini amalga oshiradi. Transport nazorati organlari litsenziya va ruxsatnomalar berilishidan tortib, joylarda avtotransport vositalarini tekshirishgacha bo'lgan keng vakolatlarga ega. Bu vakolatlar transport qatnovlarining muntazamligi, xavfsizligi va qonuniyligini ta'minlashga qaratilgan. Biroq aynan shu nazorat funksiyalarining o'zi manfaatlar to'qnashuvi xavfini keltirib chiqarishi mumkin. Chunki nazorat idorasi bir vaqtning o'zida ham tartibga soluvchi, ham tekshiruvchi organdir. Agar nazorat organi xodimlari yoki rahbariyati transport xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan yashirin manfaatdor aloqalarga ega bo'lsa, nazoratning samaradorligi pasayadi va xolislik tamoyili buziladi. Masalan, transport inspeksiyasi mansabdor shaxsining yaqin qarindoshi yirik yuk tashish kompaniyasida ishlasa yoki nazorat organi rahbari o'zi nazorat qiladigan bozorda shaxsiy ulushga ega bo'lsa – bu tipik manfaatlar to'qnashuvi holati bo'lib, qarorlar qabul qilishda neytrallikka putur yetadi.

Masalan, transport inspeksiyasi xodimi nazorat qiluvchi organ bo'lib turib, xususiy avtokorxonaga sherik bo'la olmaydi. Agar shunday holat vujudga kelsa, qonun bo'yicha u darhol bu haqida ma'lumot berib, manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish choralarini ko'rishi lozim. Bu talab Janubiy Koreya tajribasida ham ko'zda tutilgan – ularning 2022-yilda kuchga kirgan Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi Qonuniga ko'ra, mansabdor shaxs agar o'z qaroriga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan shaxsiy yoki oilaviy aloqador tomon borligini bilsa, 14 kun ichida bu haqida xabar berib, ishni o'z zimmasidan soqit qilishi shart [3].

Transport nazorati organlari vakolatlarining kengligi ulardan yuqori professional halollikni talab etadi. Yevropa Ittifoqi tajribasi shuni ko'rsatadiki, nazorat idoralarining mustaqilligi va xodimlarning manfaatdor aloqalardan xoli bo'lishi transport xavfsizligi va xizmat sifati uchun juda muhim. Masalan, Yevropa qonunchiligida yo'lovchi va yuk tashishdagi inspeksiya organlari xodimlariga nisbatan "tekshirish vaqtida transport vositasi egasiga nisbatan hech qanday manfaatli aloqasi bo'lmasligi, inspektorlar mutlaqo xolis bo'lishi, ularning maosh va rag'batlantirishi tekshiruv natijasiga bog'liq bo'lmasligi lozim" degan qat'iy talablar o'rnatilgan [4]. Bu davlat idorasining

sanoat bilan til biriktirmasligi uchun muhim kafolatdir. AQSHda esa hatto transport hodisalarini tekshiruvchi maxsus agentlik – Milliy transport xavfsizligi kengashi (The National Transportation Safety Board - keyingi o'rinlarda NTSB) – Transport vazirligidan butunlay mustaqil qilingani e'tiborga molikdir. NTSB dastlab AQSH Transport departamenti (Department of Transportation - DOT) tarkibida bo'lgan, ammo o'zining boshqaruvchisi bo'lgan sohani tekshirish jarayonida manfaatlar to'qnashuvi paydo bo'lishini oldini olish maqsadida 1974-yilgi qonun bilan Transport departamenti tarkibidan chiqarilib, alohida mustaqil agentlik sifatida qayta tashkil etilgan [5]. AQSH Kongressi bu borada tahlillar asosida hech bir federal idora o'z faoliyatini o'zi tekshirish vazifasini to'liq xolis bajara olmaydi, shu sababli tekshiruvchi organ mutlaqo alohida bo'lmog'i lozim, degan xulosaga kelgan. Bu yondashuv transport nazoratida mustaqillik tamoyilining ahamiyatini ko'rsatadi.

Manfaatlar to'qnashuvi muammosi zamonaviy huquqshunoslikda keng o'rganilgan. OECD tomonidan 2003-yilda nashr etilgan ko'rsatmada manfaatlar to'qnashuvi "davlat xizmatchisining shaxsiy manfaatlari uning rasmiy vazifalarini bajarishiga ta'sir ko'rsatishi yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holat" sifatida ta'riflanadi [6]. Ushbu ta'rif xalqaro standart sifatida e'tirof etilgan va ko'plab davlatlarda qonunchilik bazasi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

To'qnashuv so'zi lotincha "conflictus" so'zidan olingan bo'lib, qarama-qarshilik, qarama-qarshi tomonlar, qarama-qarshi fikr, kuch, kelishmovchilik va nizo, shuningdek qarama-qarshi kuch va fikrlarning to'qnashuvi ma'nolarini bildiradi. Manfaat so'zi esa arabcha – foyda, daromad, moddiy, ma'naviy va boshqa jihatdan ko'riladigan naf so'zlarining tavsifidir [7].

O'zbekiston Respublikasida manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi 2024-yil 5-iyunda qabul qilingan "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonunda (O'RQ-931) quyidagicha belgilangan: "Manfaatlar to'qnashuvi - davlat xizmatchilarining shaxsiy manfaatlari ularning xizmat vazifalarini bajarishiga ta'sir etishi yoki ta'sir etishi mumkin bo'lgan holat" [1]. Mazkur qonun 2024-yil 6-dekabrda kuchga kirdi va davlat xizmatchilarining manfaatlarini deklaratsiya qilish tartibini hamda ma'muriy javobgarlikni belgilaydi.

Xalqaro huquqshunoslar Mostafa Ranjbar Kabutarkhani tomonidan 2022-yilda Public Integrity jurnalida nashr etilgan tizimli tahlil maqolasi manfaatlar to'qnashuvi bilan kurashishning 21 ta samarali usulini aniqladi [8]. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, eng samarali usullar qatoriga deklaratsiya tizimlari, mustaqil nazorat organlari, etika kodekslari va shaffoflik mexanizmlari kiradi. O'zbekiston amaliyotida esa ushbu usullarning aksariyati to'liq joriy etilmagan yoki samarasiz ishlaydi.

Susan Rose-Ackerman va Bonnie J. Palifka o'zlarining "Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform" (2016) asarida ta'kidlaganlarki, manfaatlar to'qnashuvi nafaqat moliyaviy, balki nomaterial manfaatlarni ham qamrab olishi kerak - qarindoshchilik, do'stlik, siyosiy manfaatlar va boshqalar [9]. Bu yondashuv O'zbekiston qonunchiligida to'liq aks ettirilmagan, chunki asosiy e'tibor moliyaviy manfaatlarga qaratilgan.

Michael C. Jensen va William H. Meckling tomonidan 1976-yilda Journal of Financial Economics jurnalida nashr etilgan klassik maqola principal-agent nazariyasining asoslarini yaratdi [10]. Ushbu nazariyaga ko'ra, agent (nazorat organi xodimi) o'z manfaatlarini prinsipal (davlat, jamiyat) manfaatlariga ustun qo'yishi mumkin, bu esa nazorat xarajatlarini oshiradi va samaradorlikni pasaytiradi [10].

Transport nazoratida davlat (prinsipal) o'z vakolatlarini nazorat organlari (agentlar)ga topshiradi, biroq agentlarning shaxsiy manfaatlari prinsipalning maqsadlariga zid kelishi mumkin. Jensen va Meckling bu muammoni hal etish uchun monitoring (nazorat) va bonding (kafolat) mexanizmlarini taklif etdilar [10]. Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston sharoitida monitoring mexanizmlarini takomillashtirish va bonding tizimlarini to'liq joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Principal-agent muammosini hal etishning muhim jihati – agentlarning ish natijalarini baholash tizimini yaratish. AQSHda FMCSA CSA tizimi inspektorlarning faoliyatini ham baholaydi va subyektiv qarorlar qabul qilishni kamaytiradi. O'zbekistonda esa inspektorlarning ish sifatini

baholash tizimi yetarli darajada rivojlanmaganligini inobatga olib, bu borada ham tegishli chora-tadbirlar belgilash zarurati mavjud.

Avtotransport-logistika sohasida manfaatlar to'qnashuvi muammosi murakkab tizimli xarakterga ega. Tahlillar shuni ko'rsatadiki:

Birinchidan, nazorat funktsiyalarining konsentratsiyasi va ruxsat berish, nazorat qilish, jazolash vakolatlarining bir organda to'planishi Klitgaard formulasidagi monopoliya komponentini oshiradi va korrupsiya uchun qulay muhit yaratadi [11].

Ikkinchidan, litsenziyalash, ruxsatnomalar berish va inspeksiya jarayonlarida aniq standartlar va obyektiv mezonlarning etishmasligi diskresiya darajasini oshiradi. Djankov va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ko'proq ruxsat talab qiladigan mamlakatlarda korrupsiya darajasi yuqori [12]. Biz ham bu borada muallifning fikrlariga qo'shilamiz.

Uchinchidan, raqamlashtirish darajasining pastligi va "qog'ozli" jarayonlarning ustunligi korrupsion risklar darajasini oshiradi. Santiso tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalar korrupsiyani kamaytirish uchun eng samarali vositadir [13]. Ya'ni, "inson omilini" chetlash hamda byurokratiyaga chek qoyish albatta samarali chora-tadbir ekanligi shubhasizdir.

Shuningdek, huquqshunos olim F.B.Maxmudov o'z kasbiy faoliyatida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq xatti-harakatlarga yo'l qo'yan davlat xizmatchilari to'g'risidagi ma'lumotlarni nashr etish amaliyotini yo'lga qo'yish lozimligini hamda bu ruhiy to'siq bo'lib, davlat xizmatchisining kelajakdagi faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatishini va o'z-o'zidan korrupsion holatlarni oldini olishga xizmat qilishini ta'kidlaydi [14]. Biz ham bu borada muallifning fikrlariga qo'shilamiz.

Yuqoridagi misollardan kelib chiqib, O'zbekiston transport nazorati organlari faoliyatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun quyidagilar muhim:

- 1) xodimlarning xizmatdan tashqari manfaatdorlik faoliyatini cheklash va mol-mulkleri holati ustidan deklaratsiya joriy etish;
- 2) nazorat tadbirlarini raqamlashtirish va ochiq qilish (inson omili ta'sirini kamaytirish uchun);
- 3) jamoatchilik nazoratini kuchaytirish (masalan, Transport inspeksiyasi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyati orqali).

Bu kabi choralar manfaatdor aloqalarni imkon qadar chetlab o'tib, nazorat funksiyasining xolis bajarilishini ta'minlashga qaratilgandir.

Litsenziyalash transport xizmatlari bozoriga kirishning huquqiy kalitidir. O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq, avtomobil transportida yo'lovchi va yuk tashish faoliyati majburiy litsenziya talabetiladigan faoliyat turlarigakiradi. 2021-yilda qabul qilingan "Transport to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasida "Transport sohasidagi litsenziyalash va ruxsat etish tartib-taomillari transport xizmatlari iste'molchilarining manfaatlarini himoya qilish, transportda xavfsizlikni ta'minlash, ekologik, sanitariya-epidemiologik va boshqa talablarga rioya etish maqsadida amalga oshiriladi" deb belgilangan [15]. Ya'ni, litsenziyalashning bosh maqsadi – bozordagi xizmat ko'rsatuvchilarning malaka va imkoniyatlari Qonun talablariga mos bo'lishini ta'minlashdir. Amaldagi tartibga ko'ra, avtotransportda tashish faoliyati bilan shug'ullanish uchun tadbirkorlar Transport vazirligidan (yoki uning hududiy bo'linmalaridan) litsenziya olishi zarur bo'ladi. Litsenziya beruvchi organ – bu holatda Transport vazirligi va uning huzuridagi tegishli inspeksiya – ariza beruvchining belgilangan litsenziya talablariga javob berishini tekshiradi (masalan, avtotransport vositalarining texnik holati, haydovchilarning malakasi, xavfsizlik standartlariga rioya qilish kabilar). Jarayonning adolatli va shaffof o'tishi muhim, chunki har bir tadbirkor litsenziya olishda teng huquq va imkoniyatga ega bo'lishi kerak.

Biroq amaliyotda litsenziya berish jarayonida ham manfaatlar to'qnashuvi xavfi mavjud. Agar litsenziya beruvchi mansabdor shaxs ariza beruvchilar orasida "tanlab" munosabatda bo'lsa, tanish-bilishga yoki shaxsiy manfaatga ko'ra imtiyoz bersa, qonun buziladi va sog'lom raqobatga putur yetadi. Xususan, Yevropa qonunchiligida manfaatlar to'qnashuvining bir ko'rinishi sifatida

“mansabdorning o‘ziga yoki boshqalarga asossiz ravishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita afzallik (imtiyoz) berishi” keltiriladi [16]. Demak, agar litsenziya beruvchi shaxs subyektiv sabablarga ko‘ra bir kompaniyaga boshqasiga nisbatan ustunlik yaratib bersa, masalan, qo‘shimcha talab qilinmagan hujjatlarni so‘ramasdan tezlashtirib berish, raqibiga esa turli bahonalar bilan kechiktirish kabi, bu xatti-harakatlar manfaatlar to‘qnashuvi va hatto korrupsiya sifatida baholanadi. Shunga o‘xshash holatlarda, eng yomoni, halol bo‘lmagan litsenziat bozorda paydo bo‘lib, transport xavfsizligi yoki sifati yomonlashishi mumkin, halol tashuvchilar esa nohaq cheklovlarga uchrashi ehtimoli bor. Ruxsatnomalar masalasida ham shunday fikrdamiz. Xalqaro yuk va yo‘lovchi tashuvlari uchun kvotalar va ruxsat blankalari cheklangan bo‘lib, ularni taqsimlashdagi adolatsizlik katta manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiya xatarini tug‘diradi. Masalan, cheklangan sonli xalqaro tashuv ruxsatnomalarini transport idorasi mansabdorlari o‘zlariga yaqin firmalarga ko‘proq ajratib, boshqalarga yetarlicha bermaslik holatlari bo‘lishi mumkin – bu holatda mansabdor o‘z xizmat vakolatini shaxsiy manfaatdor tomon foydasiga suiiste‘mol qilgan bo‘ladi. Bunday vaziyat Yevropa Ittifoqida huquqbuzarlik sifatida qaraladi: Yevropa Ittifoqi adliya sudi qarorlarida manfaatlar to‘qnashuvi sharoitida qabul qilingan qarorlar tenglik va shaffoflik prinsipi buzilgan deb topiladi hamda bekor qilinishi lozimligi ta’kidlangan [16]. Shuning uchun ruxsatnomalarni ajratishda qat’iy ochiq mezonlar va elektron taqsimot kabi usullarni qo‘llash tavsiya etiladi.

O‘zbekistonda so‘nggi vaqtlarda litsenziyalash jarayonini elektronlashtirish bo‘yicha qadamlar qo‘yildi: masalan, tadbirkorlar Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali onlayn ariza topshirib, litsenziya olish tartibi yo‘lga qo‘yildi [17]. Bu inson omilini qisqartirish va ortiqcha byurokratik to‘siqlarni kamaytirish orqali manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishga xizmat qiladi. Zero, axborot texnologiyalari orqali arizalarni ko‘rib chiqish tizimi mansabdor shaxsning subyektiv aralashuvini cheklaydi, barcha talabgorlar uchun teng sharoit yaratadi. Shu bilan birga, litsenziya berish haqidagi qarorlar va rad etish sabablari oshkora bo‘lishi ham jamoatchilik nazorati imkonini oshiradi. Xususan, 2019-yilda Vazirlar Mahkamasining 636-son qarori bilan tasdiqlangan davlat xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha ma’muriy reglamentda litsenziya olish uchun arizadan tortib, natija berishgacha bo‘lgan muddatlar va tartib aniq reglamentlangan bo‘lib, ortiqcha hujjatlar talab qilish man etiladi [18]. Bunday normalarning joriy etilishi amaliyotda ijobiy samara berib, suiiste‘mollik ehtimolini kamaytiradi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, avtotransport logistikasi sohasida litsenziyalash va ruxsatnoma berish jarayonlarida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish uchun quyidagi chora-tadbirlar zarur deb hisoblaymiz:

- 1) Ariza ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish mexanizmlarining maksimal darajada elektron va ochiq bo‘lishi;
- 2) Qaror qabul qiluvchi shaxslarning har qanday manfaatdorligini (qarindoshlik, sheriklik va h.k.) deklaratsiya qilish majburiyatini amalda tatbiq etish;
- 3) Litsenziya va ruxsatnoma berish komissiyalari tarkibiga mustaqil ekspertlar va jamoatchilik vakillarini kiritish (qarorlar kollektiv va xolis qabul qilinishi uchun);
- 4) Berilgan litsenziyalar ustidan doimiy monitoring o‘tkazib, ularning belgilangan standart va shartlariga rioya qilinishini tekshirish (shaffoflikni ta’minlash va nohaq berilgan litsenziyalarni bekor qilish uchun).

Ushbu chora-tadbirlar sohada manfaatlar to‘qnashuvi sabab paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklarning oldini olib, tizimga nisbatan ishonchni oshiradi.

Tahlillarga ko‘ra, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning sezilarli qismi aynan yo‘l harakati xavfsizligi va transport nazorati sohasida qayd etiladi. Bu esa bu sohadagi inspektorlar odil va halol bo‘lishining naqadar muhimligini ko‘rsatadi. Yevropa Ittifoqi 2014-yilda qabul qilgan texnik ko‘rik va yo‘l chetida inspeksiya bo‘yicha direktivada aniq normani kiritgan, ya’ni inspektorlar tekshiruv paytida har qanday manfaatlar to‘qnashuvidan xoli bo‘lishi lozim, xususan tekshirilayotgan transport vositasi egasi bilan bog‘liq manfaatdorligi bo‘lmasligi kerak [4]. Bunda nafaqat korrupsiya,

balki masalan, texnik ko'rikdan o'tkazuvchi tashkilotlar mustaqilligi ham nazarda tutiladi – ya'ni, tekshiruvchi muassasa ta'mirlash xizmatini ham ko'rsatmasligi, aks holda o'zi kamchilik topib, o'zi tuzatib foyda ko'radi, ya'ni manfaatlar to'qnashuvi paydo bo'ladi.

AQSH amaliyotida yo'l-patrul xizmati va transport inspektorlarining faoliyati ustidan ichki xavfsizlik bo'limlari nazorat o'rnatgan. Masalan, har qanday inspektor qonunbuzarlik sodir etsa yoki o'z vakolatini suiste'mol qilsa, qat'iy jazolar qo'llanadi hamda shikoyatlarni qabul qilish tizimi yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari, AQSH Milliy transport xavfsizligi kengashi (NTSB) mustaqil organ sifatida yirik halokat va avariya holatlarini tekshirib, buning natijasida aniqlangan kamchiliklar bo'yicha Transport departamentiga tavsiyalar beradi. NTSBning mustaqilligi tufayli tekshiruvlar xolis o'tadi va hatto Transport departamentining o'zi xato qilgan bo'lsa ham, hisobotlarda bu ochiq yoziladi – chunki NTSB hech kimdan "qorqmaydi" va manfaatdor ham emas. Shu sababli NTSB hisobotlari juda yuqori obro'ga ega va aksar tavsiyalari bajariladi [19]. Bu model, ya'ni mustaqil tekshiruv organiga ega bo'lish, ko'plab davlatlar tomonidan o'rganilib, transport hodisalarini xolis tekshirish tizimi sifatida qabul qilinmoqda.

Janubiy Koreyada transport inspeksiya tizimi bilan bir qatorda, korrupsiyani oldini olish maqsadida barcha darajadagi mansabdorlar uchun qattiq qoidalarga amal qilinadi. 2021-yilda qabul qilingan "Davlat xizmatchilarining manfaatlar to'qnashuvining oldini olish to'g'risida"gi qonunga binoan, davlat organi xodimi o'z xizmat vazifalarini bajarishda hech qanday shaxsiy manfaatni ko'zlamasligi shart hamda xizmat davomida olingan maxfiy ma'lumotlarni shaxsiy boylik orttirish uchun ishlatishi qat'iyan man etiladi [20]. Shu jumladan, transport sohasidagi mansabdorlar ham davlat xizmatchilari bo'lgani uchun bu qonun doirasiga kiradi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalarni avtotransport logistika sohasida manfaatlar to'qnashuviga qarshi kompleks chora-tadbirlar qatorida taklif etamiz:

1. Avtotransport logistika sohasida manfaatlar to'qnashuviga qarshi huquqiy baza yaratilgan, lekin uni implementatsiya qilish yanada kuchaytirilishi lozim. Xususan, 2024-yilda qabul qilingan "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun tamal toshini qo'ydi. Endi Transport vazirligi va boshqa tegishli organlar ushbu qonun talablarini o'z sohalarida to'liq joriy etishi zarur. Masalan, Transport inspeksiyasida xodimlarning manfaatdorlik deklaratsiyalarini qabul qilish, manfaatlar to'qnashuvi aniqlansa, ularni zudlik bilan bartaraf etish tartibi ishlab chiqilishi lozim. Idora ichki me'yoriy hujjatlarida manfaatlar to'qnashuvi holatlari haqida xabar berish jarayoni soddalashtirilgan va himoyalangan bo'lishi kerak.

2. Litsenziyalash va ruxsat berish jarayonlarida shaffoflikni oshirish: Hozirda mavjud elektron tizimlar imkoniyatini kengaytirish lozim. Litsenziya berishda ball tizimi yoki ochiq reyting joriy etib, har bir ariza belgilangan mezon asosida baholanishi maqsadga muvofiq. Natijalar internetda e'lon qilinib, nima sababdan qaysidir kompaniya litsenziya olgani yoki olmay qolgani ko'rsatilsa, manfaatlar to'qnashuvi gumonlari yo'qoladi. Xalqaro yuk tashish uchun ruxsatnomalarni taqsimlashda elektron ballik tizim (masalan, halol ishlaydigan kompaniyalarga ko'proq ball berish) joriy etilsa, "qo'lda taqsimlash"dan keladigan xatarlar barham topadi.

3. Tekshiruv jarayonlarini raqamlashtirish: Yo'l patrul xizmati va transport inspeksiyalari faoliyatida planshetlar, onlayn bazalar va videofiksatsiya vositalaridan foydalanishni kengaytirish lozim. Bu inspektorning qarorini avtomatlashtirilgan tizim orqali kuzatish va nazorat qilishga imkon beradi, subyektiv qarorlar kamayadi. Masalan, qonun buzilganini dalillovchi videoyozuv bo'lsa, inspektor uni yashira olmaydi yoki jarimalar pos-terminal orqali undirilib, to'g'ridan-to'g'ri byudjetga tushsa, korrupsiyani oldini oladi.

4. Xalqaro tajribani o'rganish va integratsiya qilish: Yevropa mamlakatlari, AQSH va Janubiy Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish borasida doimiy takomillashtirish va yangi instrumentlar joriy etib borish lozim. Masalan, Janubiy Koreya tajribasidagi kabi, davlat korxonalarida ham manfaatlar to'qnashuvi qoidalarini tatbiq qilish, yirik loyihalar

bo'yicha qarorlar qabul qilinishidan oldin ishtirokchilardan manfaatdorlikka oid deklaratsiya talab qilish kabi yangiliklarni joriy etish mumkin.

5. Transport nazorati inspeksiyasi va avtotransport logistika kompaniyalari mas'ul xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish va boshqa masalalar yuzasidan huquqiy savodxonligini doimiy oshirib borish yuzasidan seminar-trening va o'quv mashg'ulotlarini muntazam tashkil etish va o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, O'zbekistonning transport logistika tizimida manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq huquqiy xatarlarga qarshi kurash kompleks yondashuvni talab qiladi. Qonunchilik bazasi yaratilgan bo'lsa-da, uni avtotransport logistika sohasiga izchil tatbiq etish va idoraviy madaniyatni shakllantirish jarayoni izchil davom ettirilishi lozim. Jumladan, litsenziyalash, ruxsatnomalar va inspeksiya kabi sohalarda shaffoflik, hisobdorlik va halollik prinsiplari ustuvor bo'lishi kerak. Bu nafaqat korrupsiya va suiiste'mollarni bartaraf etadi, balki oxir-oqibat avtotransport logistika xizmatlari sifatining oshishi, halol raqobat muhitining yaratilishi va fuqarolarning davlat idoralariga ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni: "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun, 2024-yil 5-iyun, O'RQ-931-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi. (2024, 14-iyun). Transport nazorati inspeksiyasi tashkil etilganiga bir yil to'ldi. Mintrans.uz.
3. Kim & Chang. (2021, May 6). National Assembly passes Conflict of Interest Act. Kim & Chang Newsletter. <https://www.kimchang.com>.
4. European Union. (2014). Directive 2014/47/EU of the European Parliament and of the Council of 3 April 2014 on the roadside inspection of the roadworthiness of commercial vehicles and their trailers (Article 8). EUR-Lex. <https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/2014/47/oj/eng>.
5. Lochbaum, D. (2017). Planes, trains & automobiles: Lessons from the NTSB. Union of Concerned Scientists. <https://www.ucsusa.org>.
6. OECD (2003). Managing Conflict of Interest in the Public Service: OECD Guidelines and Country Experiences. OECD Publishing, Paris.
7. A.F.Nozdachev. Konflikt interesov, proisxozhdeniye i opredeleniye ponyatiya. – M.,2016. – S. 31-56.
8. Ranjbar Kabutarkhani, M. (2022). Systematic Review of Conflict of Interest Studies in Public Administration. Public Integrity, 25(5). DOI: 10.1080/10999922.2022.2068901.
9. Rose-Ackerman, S. & Palifka, B.J. (2016). Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform (2nd ed.). Cambridge University Press. ISBN: 978-1107441095.
10. Jensen, M.C. & Meckling, W.H. (1976). Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure. Journal of Financial Economics, 3(4), 305-360. DOI: 10.1016/0304-405X(76)90026-X
11. Klitgaard (1988). Controlling Corruption.
12. Djankov et al. (2002). The Regulation of Entry.
13. Santiso (2022). Govtech Against Corruption.
14. Maxmudov, F. B. (2021). Davlat fuqarolik xizmatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari (yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi). Toshkent davlat yuridik universiteti, Toshkent, O'zbekiston.
15. O'zbekiston Respublikasi Qonuni: "Transport to'g'risida"gi Qonun, 2021-yil 9-avgust, O'RQ-706-son;
16. European Commission. (2020). Financial regulation guidance: Guidelines on preventing conflicts of interest. <https://ec.europa.eu>.
17. My.gov.uz. (2022). Avtomobil transportida yo'lovchi va yuk tashishga litsenziya olish tartibi. <https://my.gov.uz>.
18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori: "Avtomobil transportida yo'lovchilarni shaharda, shahar atrofiga, shaharlararo, xalqaro, shuningdek yuklarni xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish faoliyatini litsenziyalash yuzasidan davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi VMQ-qarori, 2019-yil 30-iyul, VMQ-636-son;
19. National Transportation Safety Board. (n.d.). About NTSB. <https://www.nts.gov/about/Pages/default.aspx>;
20. Republic of Korea. (2021). Act on the Prevention of Conflict of Interest Related to Duties of Public Servants (Act No.18191).; https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=57427&lang=ENG.

YURIST AXBOROTNOMASI

6-SON, 8-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 6, ВЫПУСК 8

LAWYER HERALD

VOLUME 8, ISSUE 6

ISSN 2181-9416

DOI JURNAL: 10.26739/2181-9416